**O’QUV METODIK MATERIAL**

**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**
**NAMANGAN MUHANDISLIK PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**“IJTIMOIY FANLAR” KAFEDRASI**

**MILLIY G’OYA: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR**
**fani bo’yicha**

# MA’RUZALAR MATNI

**NAMANGAN - 2017**

# KIRISH

XX asrning oxiri XXI asrning boshlariga kelib jaxondagi barcha xalqlarning hayotida katta, ya'ni yirik imperiyalarning parchalanib ketishi, milliy mustaqil davlatlarning tarix sahnasiga kelishi, jamiyatni avtokratik boshqarishdan demokratik boshqaruvga o'tishi, inson xuquq va manfaatlarini himoya qilishning kuchayishi, odamlar ongida demokratik tafakkurning tez shakllanib borishi, globallashuv jarayonlarining shiddatli kechishi, nanotexnologiyalarning jadal sur'atlar bilan ishlab chiqarish jarayoniga joriy etilishi, ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tobora xalqchil tus olishi kabi misli ko'rilmagan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jamiyatda sodir bo'layotgan bunday o'zgarishlar moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish jarayoni ddalektikasini chuqur o'rganish masalasini kun tartibiga qo'ydi. Bu masalaning echimini topish esa jaxonda yuz berayotgan g'oyaviy va mafkuraviy jarayonlarning tarixiy ildizi, falsafiy asoslariga nazar tashlab, ularning asl maqsad-muddaolarini bilib olish, shunga muvofiq tarzda mamlakatimizda g'oyaviy va mafkuraviy ishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Bu esa o'z navbatida "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" fanini nazariy jihatdan boyitish, amaliy jihatdan esa tezkor harakat qilish ishlarini yo'lga ko'yishni talab qilmoqda.

## 1 – MAVZU: MILLIY G'OYA FANINING PREDMETI, **MAQSADI VA VAZIFALARI**

### REJA

1. Milliy g'oya fanining paydo bo'lish sabablari, uning obekti va predmeti
2. Milliy g'oya fanining qonun va kategoriyalari
3. Milliy g'oya fanining maqsadi, vazifa va funksiyalari
4. Milliy g'oya fanining gumanitar fanlar tizimida tutgan o'rni
5. Milliy g'oya fanining o'ziga xos xususiyatlari va ahamiyati

### 1. Milliy g'oya fanining paydo bo'lish sabablari, uning ob'ekti va predmeti

**Milliy g'oya fanining paydo bo'lish sabablari.** Fan nima? Fan - tabiat, jamiyat va inson tafakkuri to'g'risidagi tushunchalarda, kategoriyalarda, qonunlarda aks ettirilgan, haqqoniyligi amaliyotda tasdiqlangan bilimlar tizimidir. Har bir fanning vujudga kelish, shakllanish va rivojlanish sabablari mavjuddir. Ularni ob'ektiv va sub'ektiv, ichki va tashqi sabablarga ajratish mumkin.

Milliy g'oya fanining vujudga kelishidagi ob'ektiv sabablar:

− etmish yildan ortiqroq tarixiy davr mobaynida xukmronlik kilgan SSSR davlatining unda yashayotgan elat, millat va xalklarning ehtiyoj va manfaatlariga javob berolmasdan inqirozga uchrashi oqibatida parchalanib ketishi;

− parchalangan qizil imperiya o'rnida o'n beshta mustaqil davlatning paydo bo'lishi va ularning o'ziga xos taraqqiyot yulini tanlashlari;

− mustaqil O'zbekistan davlatining paydo bo'lishi va uning Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va unga a'zo bo'lgan davlatlar tomonidan xalqaro hamjamiyatning mustaqil sub'ekti sifatida tan olinishi;

− sobiq SSSRdan qolgan yakka mulk xukmronligiga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar o'rniga, teng xuquqli xilma - xil mulkchilikka asoslangan bozor iqtisodiyoti munosabatlarining o'rnatilishi va boshqalar.

Milliy g'oya fanining vujudga kelishidagi sub'ektiv sabablar:

− sobiq SSSR davrida yakka xukmron bo'lgan kommunistik mafkuraning barcha xalqlarning hayotiga zo'rlab singdirilganligi tufayli tezliqda inqirozga uchrashi jarayonining keskinlashuvi;

− azaldan o'zbek xalqining turmush va tafakkur tarziga etti yot bo'lgan kommunistik mafkuraning mavjud hayot sinovlariga bardosh berolmasdan tanazzulga yuz tutishi, shu tariqa uning yakka xukmronlik mavqeidan chetlatilib xalqimiz hayotidan surib chiqarilishi;

− jamiyatni boshqarishda rahnomalikni ko'lga olib o'zining diktaturasini o'rnatgan kommunistik partiya faoliyatining to'xtatilishi va tarqatib yuborilishi;

− kommunistik partiyaga xizmat qiluvchi barcha tashkilot va muassassalar (oktyabryat, pioner,

komsomol va boshqalar) faoliyatining to‘xtatilishi va tugatilishi;

– kommunistik mafkurani keng xalq ommasiga targ‘ibot va tashviqot kiluvchi ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga chek ko‘yilishi va boshqalar.

Milliy g‘oya fanining vujudga kelishidagi ichki sabablar:

– yakka xukmron bo‘lgan kommunistik mafkuraning inqirozga uchrashi tufayli o‘zbek xalqining ma’naviy xayotida g‘oyaviy bo‘shliq paydo bo‘la boshlashi;

– vujudga kelayotgan g‘oyaviy bo‘shliqni yangi milliy g‘oya va mafkura bilan to‘lgizmasa, uning o‘rnini boshqa har hil yomon maqsadlarni ko‘zlagan g‘oya va mafkuralar egallashi, buning natijasida xalqimizning hayotiga ma’naviy taxoid solish xavfi kuchayishining oldini olish;

– mustakil O‘zbekistonni o‘zining vatani deb bilgan barcha elat, millat, xalq vakillarini har xil mafkuraviy buzg‘unchiliklardan asrab, ularnining tinch-totuv yashashlarini kafolatlaydigan jamiyatni barpo etishga xizmat qiluvchi bunyodkor g‘oya va mafkuralar bayrog‘i ostida birlashtirish ishlarini amalga oshirish;

– O‘zbekiston xalqining ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqqan xolda, ularning erkin va farovon hayot kechirishini ta’minlaydigan jamiyatni barpo etish sari boshlab boruvchi yangi milliy g‘oya va mafkuralar tizimini yaratish;

– yaratiladigan milliy g‘oya va mafkuralarning milliy xususiyatlarini umuminsoniy qadriyatlar bilan uygunlashtirgan xolda olib borish ishlarini tashkillashtirishning metodologik asoslarini ishlab chiqish;

– milliy g‘oyaga xalqni ishontirish va uni amalga oshirishning taktik va strategik yunalishlarini belgilab olish zaruratining paydo bo‘lganligini va boshqalar.

Milliy g‘oya fanining vujudga kelishidagi tashqi sabablar:

– tashqi tomondagi har xil vayronkor g‘oya va mafkuralarning asl maqsadlarini bilish va ularning xurujiga qarshi tura oluvchi o‘zbekona milliy g‘oya va| mafkuraning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish;

– dunyo xalklariga O‘zbekiston xalqi milliy mafkurasining bunyodkor g‘oyalardan iborat ekanligini ilmiy va amaliy jihatdan namoyish etish ishlarini amalga oshirish;

– xorijiy davlatlarda o‘zlarining xizmat burchini bajarish uchun yashayotgan, tijorat ishlari uchun xorij safarlariga yul olayotgan yoki shunchaki sayohat uchun borayotgan fuqarolarimizning o‘sha joylarda milliy mafkuramiz , asosiy g‘oyalarini targ‘ib va tashviq kilish, uning bunyodkorlik mohiyatini chet ellarda namoyish kilishning eng maqbul yullarini ishlab chiqish;

– globallashuv sharoitida avj olayotgan “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta’sirlariga berilmaslikning yangicha ma’naviy va moddiy vosita, usullarini yaratish va boshqalar.

YUqorida keltirilgan barcha sabablarni umumlashtirgan xolda shunday xulosaga kelish mumkin, ya’ni Milliy g‘oya fanining vujudga kelishidagi asosiy sabab O‘zbekiston xalqining bozor iqtisodiyotiga asoslangan xuquqiy demokratik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish asosida munosib hayot kechirishini ta’minlash sari boshlab boradigan milliy mafkuramizning bosh g‘oyasi - ozod va obod Vatanda, erkin va farovon hayot kechirish hamda asosiy g‘oyalari - vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik asosida birlashtirishning nazariy - metodologik asoslarini va uni amalga oshirishning amaliy usul va vositalarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish xamda rivojlantirishdan iboratdir.

SHuning uchun ham milliy g‘oya va mafkura O‘zbekiston Respublikasining Prezidenta I.A. Karimovning 2001 yil 18 yanvardagi "Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar"fani buyicha ta’lim dasturlarini yaratish va respublika ta’lim tizimiga joriy etish to‘g‘risida” nomi farmoyishiga muvofiq ilm-fan soxasi maqomini olib, barcha ta’lim muassasalarida o‘quv fani sifatida o‘qitila boshlandi.

Milliy g‘oya fanining ob’ekti. Har bir fanning o‘ziga xos ob’ekti va unga mos keluvchi predmeti mavjuddir.

Fanning ob’ekti - kishilarning maqsadi, faoliyati, dikqat-e’tibori qaratilgan ob’ektiv borliq, moddiy va ruhiy dunyo, voqelik, mavjudot, voqea, xodisa, jarayon, shaxs, narsa, buyum va xakazolardir.

Fanning predmetini ana shu ob’ektlar va ularni aks ettirishdan hosil bo‘lgan bilimlarning majmui va o‘rganiladigan masalalar tashkil kiladi.

Har bir fanni o‘fganish, eng avvalo, uning ob’ektini va predmetini aniklab olishdan boshlanadi. Bu esa o‘rganilayotgan fanning boshqa fanlardan farqini ko‘rsatadi.

Barcha fanlarni ob'ekti va predmetiga ko'ra ikkita katta guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruxga tabiat qonuniyatlarini o'rganuvchi matematika, fizika, ximiya, biologiya kabi tabiiy fanlar, ikkinchi guruxga esa kishilik jamiyatining rivojlanish qonuniyatlarini o'rganuvchi falsafa, tarih iqtisodiyot, siyosatshunoslik, adabiyot, xukuqshunoslik, milliy g'oya va mafkura kabi ijtimoiy fanlar kiradi.

Milliy g'oya fani - eng muhim ijtimoiy fanlardan biri sanaladi. CHunki u kishilik jamiyatiga xos bo'lgan g'oya va mafkuralarni yaxlit ijtimoiy xodisa va voqelik sifatida o'rganadi.

Demak, mavjud voqeliqda yuz berayotgan, g'oya va mafkuralarga tegishli narsa, xodisa xamda jarayonlar milliy g'oya fanining ob'ektini tashkil etadi.

Milliy g'oya fanining predmeti. G'oya va mafkuralarga tegishli narsa, xodisa va jarayonlar turlicha bo'lib, ular bir tomondan: g'oya va mafkuralarning kelib chiqish va rivojlanish konuniyatlari; bir g'oya va mafkuraning o'rniga boshqa bir g'oya va mafkuraning vujudga kelishi; g'oya va mafkura tamoyillarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish; ma'naviy - mafkuraviy munosabatlarni o'rnatish ishlarini tashkil etish; davlatning ichki va tashqi siyosati; jamoat tashkilotlari, ijtimoiy guruxlar, siyosiy partiyalar bilan munosabatlari; xalqlar o'rtasida bo'ladigan o'zaro munosabatlar; ikkinchi tomondan: mafkuralarning paydo bo'lishi va rivojlanishi; davlat, shaxs, jamoalar o'rtasida bo'ladigan mafkuraviy munosabatlar; qonunchilik, xukuq-tartibot; mafkurali shaxs, mafkurasiz shaxs; g'oya va mafkuraga zid xatti^xorakatlar; g'oyaviy mas'uliyat, g'oyaviy madaniyat, g'oyaviy tarbiya; mafkuraviy ong, mafkuraviy tafakkur, mafkuraviy munosabat, mafkuraviy faoliyat va hk.ni qamrab oladi.

G'oya va mafkuralarga oid xodisalar, jarayonlar xilma-xil va ko'p qirralidir. SHu sababli, g'oya va mafkuralar tabiiy, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlarning turli sohalarida o'rganiladi.

Milliy: g'oya fani g'oya va mafkuralarning nazariy muammolarini o'rganadi. SHu o'rinda "nazariya" so'zining ma'nosi nima, degan tabiiy savol tug'iladi. Nazariya jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini mujassamlashtirgan amaliyotning mantiqan ilmiy umumlashtirilishidir.

Nazariya va amaliyot - o'zaro chambarchas bog'liq xodisalar. Nazariya bamisoli amaliyotning yulini yoritib turuvchi kuchli mayoq bo'lib, amaliyot bilan uzviy bog'langan, amaliyotga xizmat qiladi hamda amaliyotdan kelib chiqadi. Amaliyotsiz nazariya - "cho'loq", nazariyasiz amaliyot "ko'r"dir.

Ijtimoiy fanlarning muhim tarkibiy qismi bo'lgan, milliy g'oya fani xam amaliyot bilan chambarchas bog'liq bo'lib, g'oyaviy-mafkuraviy amaliyot taraqqiyotining yunalishlarini belgilab beradi. U g'oyaviy-mafkuraviy amaliyot xulosalari va tajribalarining mantiqan umumlashmasi, sintezidir.

Milliy g'oya fani hayot tarixiy taraqqiyot jarayonida ilgari surgan vazifalar negizida o'z xulosa va takliflariga aniqliklar kiritadi, ularni boyitadi va rivojlantiradi. G'oya va mafkura xar bir jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining muhim ko'rsatkichidir.

Milliy g'oya fani - g'oya va mafkuralar rivojining umumiy qonunlari haqidagi fan bo'lib, uning predmetini g'oya va mafkuralarning mohiyati, kelib chiqishi, rivojlanish prinsiplari va qonuniyatlari haqidagi bilimlar tashkil etadi.

Har bir jamiyatdagi demokratik o'zgarishlar va isloxotlar muxim ijtimoiy axamiyatga ega. Bu jarayonlarga jahon, davlat va jamiyat taraqqiyoti talablari, andazalari va tamoyillari nuqtai nazaridan qarash zarur. Bu bir tomondan, O'zbekistondagi isloxotlarning yunalishlari va mezonlari, qadriyatlari va maqsadlarini aniq belgilashga yordam bersa, ikkinchi tomondan, mamlakatimizda g'oya va mafkuralar qachon paydo bo'lgan, qanday rivojlangan, qayoqqa qarab ketayapti, uning o'ziga xos jixatlari, rivojlanishining shakl va ko'rinishlari qanday, mezonlari bormi yoki dunyodagi mavjud milliy va umuminsoniy mazmundagi g'oyaviy taraqqiyot o'zanidan ketayaptimi, degan savollarga javob topish imkonini beradi. Ana shu muammolar milliy g'oya fanining asosiy masalalarini tashkil etadi.

Milliy g'oya fani g'oya va mafkuralarga tegishli xodisa va jarayonlarining muhim, zaruriy, umumiy tomonlarini o'rgangan holda jamiyat taraqqiyotining ob'ektiv konuniyatlarini tushuntirib berish, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-xuquqiy, ma'naviy-madaniy maqsadlarini belgilash va mavjud ijtimoiy munosabatlarni bunyodkor g'oya va mafkuralarni kishilar ongi va qalbiga singdirish yuli bilan boshqarish mexanizmlarini ochish, ularning rivojlanish istiqbollarini ko'rsatib berish bilan shug'ullanadi. SHunday kilib, Milliy g'oya faniga kuyidagicha ta'rif berish mumkin:

Milliy g'oya fani - ijtimoiy hodisa bo'lmish g'oya va mafkuralarning kelib chiqishi, shakllanищі, rivojlanishi, faoliyat ko'rsatishining umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi nazariy va amaliy axamiyatga molik bo'lgan fandir.

## 2. Milliy g‘oya fanining qonun va kategoriyalari

Milliy g‘oya fanining qonunlari. Har bir fanning o‘z konunlari va kategoriyalari bor. Milliy g‘oya fanining xam g‘oya va mafkuralarga oid xodisa, voqea, jarayonlarni o‘zida aks etiruvchi ularning tub mohiyatini va ahamiyatini ochib beruvchi qonunlari, kategoriyalari mavjud.

Milliy g‘oya fanining qonunlari deb, jamiyat hayotida mavjud bo‘lgan g‘oyaviy va mafkuraviy hodisalar, jarayonlarining muhim, zaruriy, umumiy, nisbatan barqaror bo‘lgan, rivojlanish xususiyati va yunalishlarini belgilaydigan, aniq bir natijalarni keltirib chiqarishga moyillik tug‘diradigan munosabatlar majmuiga aytiladi.

Milliy g‘oya fanining qonunlari g‘oya va mafkuralarga tegishli xodisa va jarayonlarning barchasini emas, balki ularning o‘ziga xos tomonlarini aks ettiradi. Bularga kuyidagilar: kishilar ongi va irodasiga bog‘liq bo‘lmagan ob’ektiv, muhim, barqaror bog‘lanishlar; sabab oqibat bog‘lanishlaridan kelib chikuvchi, bir birini taqozo etuvchi, o‘zaro ta’sir qiluvchi sababiy, zaruriy aloqadorliklar; ichki imkoniyatdan, mohiyatdan kelib chiqqan holda, g‘oya va mafkuralarning rivojlanish xususiyati va yunalishlarini belgilab beruvchi tomonlar; muayyan shart-sharoitlar mavjud bo‘lganda ma’lum bir natijalarni keltirib chiqaruvchi munosabatlarni ochib beruvchi xususiyatlar kiradi..

Milliy g‘oya fanining qonunlarini kuyidagilar tashkil etadi:

Birinchisi - g‘oya va mafkuralarning inson va jamiyat bilan uzviy aloqadorligi, inson va jamiyatning g‘oya va mafkuralarning moddiy, g‘oya va mafkuralarning esa inson va jamiyatning ma’naviy asosini tashkil etishi va ularni uygunlashtirishi qonuni.

Ikkinchisi - g‘oya va mafkuralarning bir-birini taqozo etishi, mafkuralarning g‘oyalarni amalga oshirishi qonuni.

Uchinchisi - g‘oya va mafkuralarning jamiyat ijtimoiy taraqqiyotiga bog‘liqligi, g‘oya va mafkuralarning inson va jamiyatni muayyan maqsad sari etaklashi qonuni.

To‘rtinchisi - bunyodkor g‘oya va mafkuralar bilan vayronkor g‘oya va mafkuralar o‘rtasida o‘zaro ko‘rashi, bunyodkor g‘oyalarning jamiyatda tinchlik va barqarorlikni saqlash, vayronkor g‘oyalarning esa jamiyatda turli xil ziddiyatlarni keltirib chiqarishi qonuni.

Beshinchisi - milliy hamda umuminsoniy g‘oya va mafkuralarning o‘zaro mutanosibligi, milliy g‘oya va mafkuralarning mazmunan boyib borishi, turli xalqlarning umumiy manfaatlariga javob berishi qonuni.

Milliy g‘oya fanining kategoriyalari. Milliy g‘oya fanining kategoriyalari[1] deb g‘oya va mafkuralarga oid ob’ektiv mavjud bo‘lgan xodisa, voqea, jarayonlarning asosiy xususiyatlarini va konuniyatlarini aks ettiradigan va muayyan davrning g‘oya va mafkuralar to‘g‘risidagi ilmiy-nazariy tafakkuri xususiyatini belgilab beradiganumumiy tushunchalarga aytiladi.

Milliy g‘oya fanining kategoriyalarini umumiy, substansional va funksional kategoriyalarga ajratish mumkin.

Bunda:

1) umumiy kategoriyalarga - g‘oya, mafkura, bunyodkor g‘oyalar, vayronkor g‘oyalar, milliy g‘oyalar, umuminsoniy g‘oyalar, dunyoviy g‘oyalar, diniy g‘oyalar, falsafiy g‘oyalar, ijtimoiy- siyosiy g‘oyalar;

2) substansional kategoriyalarga - milliy istiqlol mafkurasi, mafkura evolyusiyasi, mafkura yakkaxokimligi, mafkuraviy vaziyat, mafkuraviy poligon, mafkuraviy maqsad, mafkuraviy siyosat, mafkuraviy xavfsizlik, mafkuraviy immunitet, mafkuraviy profilaktika, mafkuraviy tarbiya, g‘oyaviy mustaqillik, g‘oyaviy ziddiyat, g‘oyaviy bo‘shliq, g‘oyaviy zaiflik, g‘oyaviy savodsizlik, g‘oyaviy qaramlik, g‘oyaviy mutaassiblik, g‘oyaviy parokandalik;

3) funksional kategoriyalarga - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish, Vatan ravnaqi, YUrt tinchligi, Xalq farovonligi, Komil inson, Ijtimoiy hamkorlik, Millatlararo totuvlik, Dinlararo bag‘rikenglik kabi tushunchalarni kiritish mumkin.

Umuman olganda, Milliy g‘oya fanining kategoriyalari: “a) shu sohadagi munosabat, boglanishlarni ifodalovchi umumiy mazmun va xususiyatga ega bo‘lgan tushunchalar; b) bu sohani keng va atroflicha tavsiflagani xolda, bir-birini taqozo etadi, bir butunliqda, o‘zaro aloqadorliqda namoyon bo‘ladi; v) ob’ektiv mazmunga ega, ularning har biri ijtimoiy voqeliqda ruyobga chiqadi, namoyon bo‘ladi, ushbu voqelikning o‘ziga xos xususiyatlari, tomonlari, belgilarini ifodalovchi tushunchalar sifatida inson tafakkurida aks etadi; g) umumiy tushunchalar sifatida insonning shu sohadagi xodisalar mohiyatini bilishga qaratilgan bilish

[1] “Категория" грекча суз бўлиб, "гувох," "таърифˮ", "ифодаловчи" деган маънони билдиради.

jarayonining natijalari va ijtimoiy jarayonlarni yanada chuqurroq o‘rganishning ilmiy vositasidir; d) nafaqat nazariya va ilmiy bilish jarayonidagina emas, balki amaliyotda ham o‘ziga xos rol o‘ynaydi va ahamiyatini saklab qoladi".

Xullas, bu boradagi ddalektika shundaki, Milliy g‘oya fanining g‘oya va mafkuraviy narsa, xodisa, voqea va jarayonlarni o‘zida aks ettiruvchi kategoriyalari har qanday sharoitda ham biri ikkinchisini taqozo qiladi, uyg‘unliqda va ichki aloqadorliqdagina mavjud bo‘ladi. Demak, ular mantiqan o‘zaro uzviy bog‘liq mazmunan bir-birini to‘ldiradi.

Milliy g‘oya fanining kategoriyalari o‘z manbai, tabdati jixatidan - ontologik, bilish shakliga ko‘ra gnoseologik oddiy xususiyati bo‘yicha - metodologik mazmunga ega. Bu kategoriyalar g‘oya va mafkuralarga tegishli xodisa, voqea, jarayonlarning mohiyatini ochib berishga xamda milliy g‘oya fanini boshqa ijtimoiy fanlardan farklashga xizmat qiladi.

Milliy g‘oya fanining metodlari. Har qanday ukuv fani muayyan metodlarga, usullarga, ya’ni Zfganilayotgan hodisalarni anglash vositalariga ega. Bunday metodlar ikki guruhga bo‘linadi: birinchisi, barcha o‘quv fanlariga xos bo‘lgan umumiy metodlar bo‘lib, ular tabdat, jamiyat va tafakkurning eng umumiy qonuniyatlarini bilish va ulardan foydalanishga asoslanadi; ikkinchisi, maxsus metodlar bo‘lib, ularga sistemali yondashuv, tarixiy, qiyosiy, sotsiologik va boshqa metodlar kiradi.

Milliy g‘oya fanining metodlari g‘oya va mafkuralar rivojining konuniyatlari, xozirgi ahvoli va moxiyati xaqida bilim olishga yordam beruvchi usul va vositalar birligidan iborat.

Jaxonda ro‘y berayotgan barcha jarayonlar "inson mezoni" orqali baxolanadi. Milliy g‘oya fanining metodologik asoslarini, birinchidan, g‘oya va mafkuralar masalasiga, insoniylik nuqtai nazaridan yondashish, insonga barcha narsalarning ulchovi sifatida qarash; ikkinchidan, shaxsga davlat mashinasining bir murvati sifatida qarashga asoslangan mustabid tushunchadan voz kechib, shaxsni faol ijtimoiy sub’ekt sifatida qabo‘l kilish tashkil etadi.

Milliy g‘oya fanining metodlarn g‘oya va mafkuralarni o‘rganish usullaridir. Har qanday fandagi kabi, Milliy g‘oya fanida ham turli yondashuvlar, har xil qarashlar mavjud. Milliy g‘oya fanining metodlari g‘oya va mafkuralarning mohiyati, turli jihatlari va xususiyatlarini, rivojlanish qonuniyatlari va prynqiplarini o‘rganishga imkon beradi.

Milliy g‘oya fanining metodlari g‘oya va mafkuralarning turli sohalari va jixatlarini ochib berishga yordam beradi. Ular g‘oya va mafkuralar to‘g‘risidagi bilimlarni o‘rganish, tuplash va umumlashtirish kalitidir.

Milliy g‘oya fanining metodlari g‘oya va mafkuralarni boshqa ijtimoiy xodisalar bilan uzviy aloqadorliqda, harakatda, mivdoriy va sifat uzgarishida o‘rganishni taqozo etadi.

G‘oya va mafkuralar mavxum emas, balki real xodisalardir. SHu bois ular muayyan vaziyat, muayyan vaqt, muayyan jamiyat bilan aloqadorliqda o‘rganilishi lozim. Binobarin, g‘oya va mafkuralarni tushunish uchun ular shakllangan sharoitlarni, mavjud bo‘lgan tarixiy davrning xususiyatlarini bilish va e’tiborga olish kerak.

Milliy g‘oya fanining metodlari g‘oya va mafkuralarning shakllanish va rivojlanish qinuniyatlarini bilishga kumaklashadi, g‘oya va mafkuralarning mohiyati va vazifalariga, funksiyalari va taraqqiyot tamoyillariga ilmiy yondashish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

G‘oya va mavko‘raga oid xodisalar, voqealar, jarayonlar to‘g‘risidagi bilimlarni egallashda ko‘llaniladigan nazariy tadqiqotlar va amaliy harakat qilish usullari va yullarining yigindisiga Milliy g‘oya fanining ilmiy o‘rganish metodlari deyiladi.

Milliy g‘oya fanining metodlari xilma-xil bo‘lib, ularni kuyidagi uch asosiy guruhga bo‘lish mumkin.

1. Eng umumiy metodlar - xar tomonlama fikr yuritishning asosiy qonun-qoidalarini o‘zida ifodalaydigan dunyoqarash shaklidagi usullardir. Ularga metafizika va ddalektik metodlar kiradi.

Metafizika metodi bilan ish kuruvchilar g‘oya va mafkuralar ilgaridan mavjud bo‘lgan, bundan keyin xam bo‘ladi, u abadiy va o‘zgarmasdir, hech qanday boshqa ijtimoiy xodisalar bilan ichki bog‘lanishda emas, rivojlanishda emas, qanday bo‘lsa shundayligicha saqlanib qoladi deb fikr yuritadilar.

Dialektika metodi bilan ish ko‘ruvchilarning birlari - g‘oya va mafkuralar parvardigori olam - Allohning ilohiy kuchi ila paydo bo‘lgan va shu asosda rivojlanadi (ob’ektiv idealizm); ikkinchilari - g‘oya va mafkuralar insonlar ongining, ya’ni ularning ruhiyati, his-tuygulari, sezgilarining mahsuli (sub’ektiv idealizm); uchinchilari - g‘oya va mafkuralar muayyan sabablarga ko‘ra vujudga kelgan va shu asosda rivojlanadi (ob’ektiv materdalizm); to‘rtinchilari - g‘oya va mafkuralar jo‘g‘rofiy muhitning, etnik va milliy xususiyatlarning

mahsuli (jo‘g‘rofiy determinizm) deb fikr yuritadilar.

Metafizika, idealistik va materdalistik ddalektika metodlari g‘oya va mafkuralarga oid narsa, voqea, xodisa, jarayonlarning tub mohiyatini ochib berolmaydigan tadqiqot usulidir. CHunki g‘oya va mafkuralar sohasida yuz berayotgan voqea-hodisalarni qotib qolgan, bir-biridan ajralgan o‘zaro, bog‘lanmagan holda ko‘rish yoki faqat Tangri-taolo irodasiga bog‘lab qo‘yish, uni o‘rganmasdan, o‘zgartirmasdan, qo‘l qovushtirib o‘girish yoki hammasi faqat moddiy asoslarning mahsuli deb, ma’naviyat omillarini nazardan qochirish bizning bilish usullarimizga, metodologiyamizga mos kelmaydi.

Milliy g‘oya fanining eng umumiy metodini - ilmiy ddalektika tashkil qiladi. Bu metod kuyidagilarni taqozo etadi:

birinchidan, g‘oya va mafkuralar sohasidagi xar bir jarayonda moddiy va ma’naviy asoslarning borligini, inson tafakkuri ularni har tomonlama to‘liq qamrab olishini e’tirof etish;

ikkinchidan, hech bir g‘oya va mafkuraning, ularda yuz berayotgan voqea, xodisa va jarayonlarning sababsiz sodir bo‘lmasligini, ular o‘zaro aloqadorliqda va rivojlanishda ekanligini, eskilari yuqolib, ularning urniga yangilari kelishini tan olgan holda ularni hamma vaqt rivojlanishda va harakatda olib qarash;

uchinchidan, har qanday g‘oya va mafkuralarda yuz berayotgan voqea, hodisa, jarayonlarni bilishga butun xalq amaliy faoliyatini jalb kilish;

to‘rtinchidan, g‘oya va mafkuralarga oid voqea-hodisalarni bilish jarayonida egallanadigan, haqiqatlar ob’ektiv, bir vaqtning o‘zida nisbiy va mutlaq xususiyatga ega bo‘lib, mavxum emas, balki aniq shaklda mavjud bo‘lishini tan olishi va shu asosda ish yuritish.

SHuning uchun ham ushbu metod milliy g‘oya fanining eng umumiy metodinigina emas, balki metodologik asoslaridan birini ham tashkil qiladi.

2. Umumiy ilmiy metodlar. Ular eng umumiy metodlardan farqli ravishda, g‘oya va mafkuralar sohasida yuz berayotgan voqea- xodisalar va jarayonlarni bilishning ma’lum bosqichlarida qo‘llaniladigan usullardir. Ularga analiz va sintez, sistemali va funksional yondashuv kabi metodlar kiradi.

Analiz metodi - g‘oya va mafkura sohalarida yuz bergan voqea, xodisa, jarayonlarni tarkibiy qismlarga, tomonlarga fikran ajratish, bu tarkibiy qismlarning mazkur xodisadagi, voqeadagi, jarayondagi o‘rnini belgilash, umumiylarini xususiylaridan, zaruriylarini tasodifiylaridan, muhim, asosiy, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lganlarini muhim bo‘lmagan, ikkinchi darajalilaridan ajratish, shu orqali ularning mohiyatini muhim ob’ektiv bog‘lanishlarini ochishga asoslangan tadqiqot usulidir.

Sintez metodi - g‘oya va mafkura sohasida yuz berayotgan voqea-hodisalar va jarayonlarning qismlarini, tomonlarini fikran birlashtirish asosida yangi bilimlarga, ya’ni yangilikka ega bo‘lishdir. Analiz va sintez uzviy birlikda bo‘lib, umum ilmiy bilishdagi analitik-sintetik usulning o‘zaro ta’sir qiluvchi jihatlaridir.

Sistemali metod - g‘oya va mafkura sohasida yuz berayotgan voqea-xodisalar va jarayonlarning "gorizontal” va "vertikal” yunalishlari yaxlitligini, ya’ni ularning o‘zaro bog‘langan va yaxlitlikni tashkil etuvchi barcha unsurlarini birgalikda o‘rganishdir. Masalan, O‘zbekiston xalqining milliy g‘oyasi xodisalariga sistemali yondashadigan bo‘lsak, uning vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy xomkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bagrikenglik kabi g‘oyalardan tashkil topganligini, ayni vaqtda ularning xar biri boshqa shaxslar, ijtimoiy guruhlar, partiyalar, millatlar bilan turlicha aloqada ekanligini, ular o‘rtasida bir qadar yaxlitlik borligini ko‘ramiz. Aniqlangan mazkur yaxlitlik, shubhasiz, sistemali yondashuvning mahsulidir.

Sistemali metod g‘oya va mafkuralarni har tomonlama o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Bu metod, g‘oya va mafkuralarni turli ijtimoiy xodisalar tizimida o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganish uchun imkoniyat yaratadi. Milliy g‘oya fani g‘oya va mafkuralar masalasiga sistemali yondashishni hisobga olgan holda ilmiy xolislik - ob’ektivlik, tarixiylik prinsiplari asosiga kuriladi.

Funksional metod - g‘oya va mafkuralarga oid voqea- xodisalar va jarayonlarning vazifalarini aniqlash orqali ular o‘rtasidagi munosabatlarni tushuntirishdir. Masalan, biz milliy g‘oyani bir necha turlarga ajratar ekanmiz, eng avvalo, ularning har birining funksiyalarini aniqlab olamiz, shundan keyin ular o‘rtasidagi munosabatlarni tushunib olishga o‘tamiz. Bunday usul - funksional yondashuv hisoblanadi.

3. Xususiy ilmiy metodlar. Tabiiy, ijtimoiy, texnikaviy fanlarning taraqqiyoti natijasida kelib chiqayotgan yangi ilmiy metodlarni g‘oya va mafkuralarga tegishli voqea- xodisalar va jarayonlarni o‘rganishda qo‘llash katta foyda beradi. Bu guruhga sotsiologik, statistik, kibernetik, qiyosiy va boshqa metodlar kiradi.

Sotsiologik metod - so‘rov, anketalashtirish, kuzatuvlar olib borish, jamoatchilik fikrini o‘rganish, kerakli xujjatlarni tahlil qilish asosida g‘oya va mafkuralarga oid voqea-hodisalar va jarayonlarni o‘rganishning ilmiy usullaridan biri hisoblanadi. Ana shu usullarni qo‘llash natijasida g‘oya va mafkuralar to‘g‘risida aniq ma’lumotlar olinadi. Olingan ma’lumotlar mafkuraviy jarayonlarni boshqarish, isloxotlarni amalga oshirish, yangi ishlarni rejalashtirish, ularning rivojlanish yunalishlarini belgilash uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu usul demokratik xuquqiy davlatni qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan barcha isloxotlar va amaliy tadbirlarning samaradorligini aniqlashda yordam beradi.

Statistik metod - g‘oya va mafkuralar institutlari to‘g‘risidagi matematik hisob-kitoblar yordamida miqdoriy ma’lumotlarni olishga qaratilgan ilmiy usullardan biridir. Bu usul, olingan miqdoriy ma’lumotlarni umumlashtirish asosida g‘oya va mafkuralarni rivojlantirishning miqdoriy yunalishlarini belgilab olishga xizmat qiladi.

Kibernetik metod - xozirgi zamon axborot texnika vositalarining tushunchalari, qonunlarining tizimi yordamida g‘oya va mafkura sohasidagi hodisalarini o‘rganish usuli hisoblanadi. Masalan, EXQ (elektron hisoblash kurilmalari) yordamida g‘oya va mafkuralar funksiyalaridan birontasining modeli tuzib chiqiladi va ana shu model asosida uning bundan 10-20 yil keyingi holati qanday bo‘lishi o‘rganiladi.

Kibernetik metod, matematika va statistika metodlarini qo‘llagan holda mafkura sohasiga oid statistika va axborotni kompyuterlar yordamida qayta ishlashga, turli xil texnika vositalaridan foydalanishga g‘oya va mafkuralar sohasidagi axborot-qidiruv tizimini yaratishga yordam beradi.

Kiyoslash metodi - muayyan g‘oya va mafkuralarni boshqa joydagi, boshqa shakldagi g‘oya va mafkuralar bilan fikran taqqoslash asosida ma’lumotlar olish, ulardan ilmiy xulosalar chiqarish, yangi bilim hosil qilish usuli xisoblanadi.

Ushbu metod turli g‘oya va mafkuralarga asoslangan tizimlarning umumiy va o‘ziga xos tomonlarini bilish hamda ana shu asosda g‘oya va mafkuralar taraqkiyotining qonuniyatlarini ochishga, g‘oya va mafkura sohasidagi hodisalar va jarayonlarni o‘zaro solishtirish asosida ular o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlashga imkon beradi.

G‘oya va mafkuralarni o‘rganishda yana tarixiylik, mantiqiylik va boshqa metodlardan ham foydalaniladi.

SHunday qilib, milliy g‘oya fanining metodlari g‘oya va mafkuralarga tegishli voqea-xodisalar va jarayonlarni bilishga, ularning qonuniyatlarini ochishga qaratilgan umumfalsafiy, umummilliy, xususiy-ilmiy usullar, yullar, qoidalar va vositalar tizimidir. Ulardan amalda foydalanish olib borilayotgan tadqiqotning predmet va vazifalariga bog‘liqdir.

Milliy g‘oya fanining prinsiplari. Milliy g‘oya fani o‘zining prinsiplariga, ya’ni g‘oya va mafkuralarga oid vokea-xodisalar va jarayonlarni o‘rganishda rioya qiladigan asosiy qonun-qoidalariga ega.

Bu asosiy qonun-qoidalarga ob’ektivlik, tarixiylik, mantiqiylik, ijtimoiy yondashuv, milliy va mahalliy xususiyatlarni hisobga olish kiradi.

Ob’ektivlik prinsipi g‘oya va mafkuralarga tegishli voqea-xodisa va jarayonlarning vujudga kelishi va rivojlanishini (hech bir shaxs yoki individning xohish-irodasiga bog‘liq emasligini ta’kidlab) xolisona, hech qanday o‘zgartirishlarsiz, aniq xujjatlar, ishonchli dalillar asosida barcha qirralarini, qarama-qarshi, salbiy va ijobiy tomonlarini hisobga olgan holda yaxlit xodisa sifatida o‘rganishni taqozo etadi.

Tarixiylik prinsipi - muayyan, g‘oya va mafkuralar bilan ularning tafakkurdagi in’ikosi o‘rtasidagi nisbatni ifodalaydigan qoidalardir. Bunda tarixiylik - g‘oya va mafkuralarning shakllanish va rivojlanish jarayoni, ya’ni voqeliqda ro‘y bergan real tarixdir.

Mantiqiylik prinsipi - rivojlangan va rivojlanayotgan g‘oya va mafkuralarning barcha muhim qonuniy aloqa va munosabatlarini nazariy jihatdan aks ettirishdir. Ushbu prinsip g‘oya va mafkuralarning o‘zaro ta’sirini taxlil qilish orqali tarixiylikni fikran qayta hosil kilishni anglatadi. Mantiqiylik tarixiylikni tushunish kalitidir.

Tarixiylik va mantiqiylik uzviy birliqda bo‘lgan tushunchalar bo‘lib, bir-birini to‘ldirib turadi. Tarixiylik na mantyqiylikni alohida-alohida olib qaraydigan bo‘lsak, ular bilishning asosiy metodlaridan ekanligiga amin bo‘lamiz. Bunda mantiqiy metod - g‘oya va mafkuralar ob’ektining mohiyatini, asosiy mazmunini nazariy shaklda, abstraksiyalar, mantiq qonuniyatlari asosida o‘rganadi. U oqilona va izchil xulosa chiqarishni nazarda tugadi. Tarixiy metod - g‘oya va mafkuralarning tarixiy rivojlanishdagi turli bosqichlarini xronologik izchilliqda o‘rganishni taqozo qiladi.

Ijtimoiy yondashuv prinsipi - g‘oya va mafkuralarga tegishli voqea-hodisalar va jarayonlarni o‘rganishga moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish jarayonida jamiyatda vujudga kelgan barcha guruxlar, partiyalar, ijtimoiy

qatlamlarning manfaatlarini ifodalovchi milliy mafkura talablariga mos ravishda yondashish qoidasidir.

Milliy va maxalliy xususiyatlarni xisobga olish prinsipi - har bir millat teng xuquqli bo‘lib, o‘z taqdirini o‘zi belgilash xuquqiga ega, degan koidaga asoslangan. U g‘oya va mafkuralarning institutlarini o‘rganishda, ularni boshqarishda har bir millat va elatning dini, tili, ruhiyati, urf-odati, rasm-rusumlari, marosimlarini to‘lig‘icha hisobga olishni va shu asosda ish yuritishni nazarda tutadi.

Milliy g‘oya fanining prinsiplarini uning metodlariga qarama-qarshi qo‘yish, ulardan ajratish mumkin emas. Ular bir-birlarini to‘ldiradi, bir joyda metod shaklida, ikkinchi joyda prinsip tarzida amal qiladi.

3. Milliy g‘oya fanining maqsadi, vazifa va funksiyalari

Milliy g‘oya fanining maqsadi. Mazkur fanning asosiy maqsadi - bu O‘zbekistonning bosh strategik maqsadi bo‘lmish ijtimoiy yunaltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyatni barpo etish uchun milliy istiqlol mafkurasining bosh va asosiy g‘oyalarini xalqning qalbi va ongiga singdirishdan iboratdir.

Milliy g‘oya fanining funksiyalari. Milliy g‘oya fani o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini ado etish uchun kuyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi.

Birinchisi - milliy g‘oya fanining evristik funksiyasi. Milliy g‘oya fani ob’ektiv voqelik g‘oya va mafkuralarni har tomonlama bilib olishning mantiqiy usullari va metodik qoidalari tizimiga ega. Bu funksiya g‘oya va mafkuralarni izoxlash, tushuntirish, g‘oya va mafkuralarga oid xodisalarini sharxlash bilangina emas, balki bu xodisalarning mohiyatini ochish orqali yangi-yangi qonuniyatlarini topish bilan ham shug‘ullanadi. Mana shu evristika funksiyasidir. Evristika - haqiqatni topish san’ati hisoblanadi. SHunga ko‘ra, milliy g‘oya fani real voqelik - o‘zbek xalqi milliy mafkurasining yangi-yangi qirralarini topish san’ati vazifasini bajaradi.

Ikkinchisi- milliy g‘oya fanining metodologii funksiyasi. G‘oya va mafkuralar g‘oya va mafkura jarayonlarini o‘rganish vositalari bo‘lgan qonunlar, kategoriyalar va tushunchalarni ilmiy jihatdan ishlab chiqadi. Ishlab chiqilgan bu ilmiy tushunchalar, ta’riflar, qoidalar, prinsiplar boshqa maxsus va amaliy gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar uchun yuriqnoma vazifasini o‘taydi. SHunga ko‘ra, milliy g‘oya fani boshqa fanlar uchun metodologik funksiyani bajaradi.

Uchinchisi - Milliy g‘oya fanining siyosiy funksiyasi. G‘oya va mafkuralar doimo siyosatning ob’ekti bo‘lib kelgan. Siyosatning asosiy maqsadi esa hamisha davlat xokimiyatini egallash, shu orqali jamiyatni boshqarishni tashkil etishdan iborat bo‘lgan. SHuning uchun ham siyosatni - davlatni boshqarish san’ati deb ham atashadi. SHu ma’noda milliy g‘oya fani O‘zbekistondagi davlat hokimiyati va boshqa siyosiy tashkilotlarni o‘z ichiga oluvchi siyosiy xokimiyatni amalga oshirishni tashkil etishga ko‘maklashadi. Bu milliy g‘oya fanining siyosiy funksiyasidir.

To‘rtinchisi - milliy g‘oya fanining amaliy funksiyasi. Milliy g‘oya fani g‘oya va mafkura xodisalari, institutlari to‘g‘risidagi bilimlarni amalda qo‘llash vazifasini ham bajaradi. U O‘zbekistonda jamiyat, davlat faoliyatini takomillaigtiriш, fuqarolarning xukuq va erkinliklarini, tinch-totuv yashashlarini ta’minlash, davlatning ichki va tashqi siyosatini barqarorlashtirish buyicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqadi.

Beshinchisi - milliy g‘oya fanining ilmiy bashorat qilish funksiyasi. Ilmiy bashorat - mavjud voqelikning ob’ektiv qonunlarini bilish asosida, kelajaqda yuz beradigan yoki yuz berishi mumkin bo‘lgan vodea, jarayon va xodisalarni oldindan ko‘ra bilish, aytib berishdir. Milliy g‘oya fani g‘oya va mafkuralar rivojlanishining ob’ektiv konuniyatlarini o‘rganish asosida ularning kelajaqdagi. taqdiri to‘g‘risida ilmiy bashorat qilish funksiyasini xam bajaradi.

Oltinchisi - milliy g‘oya fanining dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi. Milliy g‘oya fani g‘oya va mafkuralarga oid har bir xodisa, voqea, jarayonlarning yuzaga kelish va rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganib, odamlarning aql-zakovatini o‘stirish asosida g‘oya va mafkuralar rivoji to‘g‘risidagi qarashlarning yaxlit ilmiy manzarasini yaratadi. Bu ushbu fanning dunyoqarashni shakllantirish funksiyasidir.

Ettinchisi - milliy g‘oya va mafkura fanining g‘oyaviy - tarbiyaviy funksiyasi. Milliy g‘oya fani millatimizning.istiklol tufayli o‘sib borayotgan o‘zini o‘zi anglash, bilish extiyojlarini qondirishga, davlatimizni jaxon davlatlari bilan qiyoslab o‘rganish asosida milliy ongimizni o‘stirishga, yangicha milliy g‘urur va tuyg‘uni, shakllantirishga xizmat qiladi. Bu uning g‘oyaviy-tarbiyaviy funksiyasidir. Ushbu funksiya, shuningdek, milliy mafkuramizning xukuqiy asosi bo‘lgan – Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini, qonun oldida barcha fuqarolarning tengligi qoidalariga og‘ishmay amal kilishni, millatimizni umuminsoniy qadriyatlarning eng yaxshi an’analariga sodiq holda tarbiyalashni xam o‘z ichiga oladi.

Milliy g‘oya faninig asosiy vazifalari. Ilm soxasi bo‘lgan milliy g‘oya - o‘kuv fani sifatida kuyidagi

asosiy vazifalarni: 1) yosh avlodni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi olijanob g‘oyalar ruxida tarbiyalash; 2.) milliy istiqlol g‘oyasining O‘zbekiston taraqqiyoti va mustaqilligini mustaxkamlashning mafkuraviy tamoyillari to‘g‘risidagi yaxlit nazariya ekanini tushuntirish; 3) yuksak fazilatlarga ega, ezgu g‘oyalar bilan kurollangan komil insonlarni voyaga etkazish; 4) o‘sib-unib kelayotgan yosh avlod qalbi, va onida mavkuraviy immunitet asoslarini;. shakllantirish; 5) yoshlarni ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik g‘oyalari ruhida • kamol toptirish; 6) yoshlarni jamiyatimizga yot va begona, buzg‘unchi va zararli g‘oyalarga qarshi kurashishga o‘rgatish, ularda ogoxlik va xushyorlik ko‘nikmalarish hosil qilish ishlarini bajaradi.

4. Milliy g‘oya fanining gumanitar va ijtimoiy-iktisodiy fanlar tizimida tutgan o‘rni

G‘oya va mafkura masalalari turli ijtimoiy fanlar tomonidan o‘rganiladi. Har bir ijtimoiy fan g‘oya va mafkuraning u yoki bu jixatlarini o‘z predmeti nuqtai nazaridan talqin etadi.

Milliy g‘oya fani turli gumanitar va ijtimoiy - iktisodiy fanlar bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu aloqadorlik mazkur fanlar o‘rganadigan ob’ektning umumiyligidan kelib chiqadi. Ular o‘z predmeti doirasida g‘oya va mafkuralarni ijtimoiy xodisa sifatida o‘rganadilar. SHu bilan birga, bu fanlarning xar biri muayyan xususiyatga, o‘zi o‘rganadigan fan soxasiga ega.

Milliy g‘oya fani ijtimoiy fanlar bo‘lmish falsafa, iqtisodiyot nazariyasi, sotsiologiya, siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik, ma’naviyat asoslari, dinshunoslik, tarix kabi fanlar bilan xam bog‘liqdir. Ayni paytda milliy g‘oya fani bu fanlardan farq qiladi.

Milliy g‘oya va falsafa. Falsafa tabiat va jamiyat, inson tafakkuri rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi. SHu bois, u g‘oya va mafkura masalalarini umumiy tarzda, ijtimoiy xodisa sifatida ko‘rib chiqadi.

Milliy g‘oya fani falsafaning xulosalariga tayangan xolda, g‘oya va mafkura muammolarini aniqlashtiradi xamda bir qator maxsus nazariy masalalarni o‘rganadi. Bunda falsafa bilan milliy g‘oya fani bir-birini takrorlamaydi, balki to‘ldiradi.

Falsafa borliqning ongga, insonning uni o‘rab turgan atrof-muhitga munosabatining umumiy prinsiplari haqidagi bilimlar tizimidir. Falsafa g‘oya va mafkuralarning mohiyati, tabiati, uning ijtimoiy xodisalar tizimidagi o‘rnini aniqlaydi va faqat shuning o‘zi bilan cheklanadi. Milliy g‘oya fani esa g‘oya va mafkuralarni barcha ko‘rinishlari va belgilari bilan bir butun xolda batafsil o‘rganadi. Agar falsafa g‘oya va mafkuralarning mohiyatini aniqlash kalitini bersa, milliy g‘oya fani falsafani ijtimoiy taraqqiyot, g‘oya va mafkuralarning umumiy tamoyillarini ifodalash bilan qurollantiradi.

Falsafaning umumiy qonun va kategoriyalaridan g‘oya va mafkuralarga tegishli voqea-hodisalar va jarayonlarni o‘rganishda amaliy foydalanish, bir tomondan, g‘oya va mafkuralar haqida tuplangan barcha bilimlarni ilmiy jihatdan umumlashtirib, bu bilimlarni milliy g‘oya fanining kategoriyasi sifatida bayon kilish imkoniyatini beradi; ikkinchi tomondan, milliy g‘oya fanining ilmiy tadqiqotlari natijasida olingan hamda amaliyotda tasdiqdangan bilimlar, ma’lumotlar falsafaning ob’ektiv qonunlarni ochishi va umumiy kategoriyalarni ishlab chiqishi uchun empirik ma’lumotlar bo‘la oladi.

SHunday qilib, falsafa fani milliy g‘oya fani uchun tayanch nuqtalaridan biri bo‘lib, metodologiya vazifasini bajaradi, milliy g‘oya fani esa falsafa uchun empirik ma’lumot manbai vazifasini o‘taydi.

Milliy g‘oya va siyosatshunoslik. Siyosatshunoslik fani siyosat, uning shakllari, siyosiy jarayonlar va siyosiy birlashmalar, jumladan, partiyalar, siyosiy xokimiyatga va davlat xokimiyatiga erishish vositalari, fuqarolik jamiyati, davlat va shaxsning o‘zaro munosabati kabi xodisalarni o‘rganadi. Siyosatshunoslik inson siyosiy madaniyatini ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tizimi orqali, ya’ni fuqarolarning xukuq va erkinliklarini amalga oshirish orqali o‘rganadi.

Milliy g‘oya fanining siyosatshunoslik fani bilan bog‘liqligi har ikkala fanning ham bir ob’ektni, ya’ni jamiyat siyosiy tizimining muxim elementi bo‘lmish g‘oya va mafkuralarni ilmiy jihatdan tadqiq etishida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bunda milliy g‘oya fani g‘oya va mafkuralarning vujudga kelishi, rivojlanishi, amaliy faoliyatining umumiy qonuniyatlarini o‘rgansa, siyosatshunoslik fani davlatning mafkuraviy siyosatini, aniqrog‘i, jamiyatda yuz berayotgan siyosiy xodisalar va jarayonlarni, ya’ni siyosat nazariyasi va amaliyotini o‘rganadi. Ularning har ikkalasi bir predmet davlatning mafkuraviy siyosatini, uning davlat ichki va tapщi siyosatini turli tomon-lardan o‘rganadi, ilmiy tadqiqotlar natijasida olingan bilimlar bilan bir- birlarini tuldiradi.

Oqibatda, milliy g‘oya fani o‘zining keng qamrovligiga ko‘ra, siyosatshunoslik fani uchun metodologik asoslardan biri vazifasini bajaradi.

Milliy g‘oya va iqtisodiyot nazariyasi. Iqtisodiy fanlar ishlab chiqarish munosabatlari tizimi, xo‘jalik hayotini tashkil etish, xo‘jalik sohalari, mexnat, moliya, kredit kabi masalalarni o‘rganadi. Milliy g‘oya o‘quv fani sifatida g‘oya va mafkuralarni o‘zining asosiy predmeti deb hisoblaydi. Iqtisodiy fanlar hamda milliy g‘oya fanining o‘zaro ta’siri, ularning bir-biri bilan o‘zaro aloqasi, g‘oya va mafkuralarning iqtisodiyotga qanchalik bog‘liq ekanligini aniqlashga imkon beradi.

Milliy g‘oya va sotsiologiya. Milliy g‘oya fani sotsiologiya fani bilan ham o‘zaro aloqada. CHunki sotsilogiya fani xam jamiyatni yaxlit, uyushgan tizim sifatida tadqiq etib, jamiyat a’zolarining, xususan, turli xil jamoalarning, axoli turli qatlamlarining g‘oyaga, mafkuraga qanday munosabatda bo‘lishini, ularning g‘oya va mafkuralar to‘g‘risidagi fikr - muloxozalarni “inson mezoni” bo‘lmish amaliy ko‘rsatkichlar, aniq matematik hisob-kitoblar asosida o‘rganadi. SHunga ko‘ra, sotsiologiya fani milliy g‘oya fani uchun dastlabki empirik ma’lumotlarni to‘plab berish vazifasini bajaradi, milliy g‘oya fani esa, o‘z navbatida, sotsiologiya fani bergan ma’lumotlarni umumlashtirib, ulardan nazariy xulosalar chiqaradi.

Sotsiologiya yaxlit tizim bo‘lmish jamiyat, hamda u bilan aloqadorliqda o‘rganiladigan alohida ijtimoiy guruxlar, sotsial jarayonlar haqidagi fandir. Sotsiologiya o‘zining xulosalarida empirik ma’lumotlarga, ijtimoiy tajribalarga asoslanadi. Barcha ijtimoiy xodisalar, jumladan, g‘oya va mafkuralar ham sotsiologik tadqiqotlarning ob’ektiga aylanadi. Sotsiologiya ham, falsafa singari, g‘oya va mafkuralarni bilishning umumiy vositasi hisoblanadi. U g‘oya va mafkuralarni o‘rganish asosida o‘zining predmetini chukurlashtiradi va oydinlashtirib oladi.

SHunday qilib, milliy g‘oya fani gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar tizimida quyidagicha o‘rin tutadi.

Birinchidan, milliy g‘oya fani gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar jumlasiga kiruvchi falsafiy fanlarining tarkibiy qismidir. U falsafaga nisbatan xususiylik, boshqa gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlarga nisbatan esa, alohidalik kasb etadi.

Ikkinchidan, milliy g‘oya fani boshqa gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar singari jamiyat ijtimoiy ehtiyojlarining mahsuli sifatida paydo bo‘lgan. U boshqa gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bilan birgaliqda g‘oya va mafkuralarga tegishli voqea-hodisalar va jarayonlarni har tomonlama o‘rganadi, boshqa fanlarning metodlaridan metodologik asos sifatida foydalanadi. Ayni vaqtda, milliy g‘oya fani gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni g‘oya va mafkuraga oid aniq ma’lumotlar bilan ta’minlab, nazariy va amaliy jihatdan kurollantiradi.

Uchinchidan, milliy g‘oya fani falsafa fani orqali g‘oya va mafkuralar bilan qiziqayotgan har qanday gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fan soxasining ilmiy tadqiqot mavzuidan o‘rin egallashi mumkin.

To‘rtinchidan, xozirgi kunda suveren O‘zbekiston davlati o‘zbek xalqining mushtarak maqsadlariga muvofiq tarzda va mustaqil ravishda mafkuraviy siyosat olib bormoqda. Bu esa O‘zbekiston davlatining mafkuraviy siyosatini bir necha gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlarning tadqiqot ob’ektiga aylantirmoqda.

Masalan, O‘zbekiston davlatining mafkuraviy siyosati jamiyatni boshqarish faoliyatida - boshqaruv, ma’muriy fanlarning; iqtisodiy-xujalik yuritish faoliyatida iqtisodiyot fanlarining; siyosiy faoliyatida siyosatshunoslik fanlarining; jamiyatni yaxlit tizim sifatida o‘rganish faoliyatida esa sotsiologiya fanining ilmiy tadqiqot ob’ektiga aylangan. Hosil bo‘lgan bilimlar esa ushbu fanlar predmetlarining tarkibiy qismlarini tashkil qiladi. Bu g‘oya va mafkuralarning kupgina gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar ob’ektiga aylanib borayotganligidan darak beradi. Bu milliy g‘oya fanining tobora gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar tizimida tutgan o‘rni yanada mustahkamlanib borayotganligini ko‘rsatadi.

Milliy g‘oya fanining barcha gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bilan aloqasi xam ikki tomonlamadir. Milliy g‘oya fani gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlarning xulosalariga asoslangan xolda xilma-xil falsafiy, tarixiy materiallarni umumlashtirib, g‘oya va mafkuralarning vujudga kelishi sabablarini, taraqqiyot bosqichlarini, g‘oya na mafkuralarning mohiyatini. mazmuni va shakllarini ochib beradi. SHu ma’noda milliy g‘oya fani boshqa gumanitar na ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni takrorlamaydi, balki to‘ldiradi. Bu xol esa milliy g‘oya fani o‘zining predmetiga va xususiyatlariga ega ekanligini yana bir bor tasdiqdaydi.

## 5. Milliy g‘oya fanining o‘ziga xos xususiyatlari va ahamiyati

Milliy g‘oya fani boshqa fanlardan kuyidagi asosiy xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Birinchidan, milliy g‘oya fani - ijtimoiy fan, chunki uning o‘rganadigan sohasi muhim ijtimoiy xodisalar

bo‘lmish g‘oya va mafkuralardir. Bundan tashqari, milliy g‘oya fani boshqa ijtimoiy fanlardan farqli ravishda, bevosita g‘oya va mafkuralarga, milliy mafkura va milliy g‘oya, milliy mentalitetga oid masalalarni yaxlit tizim sifatida o‘rganadi.

Ikkinchidan, milliy g‘oya fani - nazariy fan, zero u g‘oya va mafkuralar rivojining umumiy qinuniyatlarini ochib beradi. Binobarin, u g‘oya va mafkuralarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi qinuniyatlarini nazariy jihatdan umumlashtiradi, g‘oyalar falsafasi fanining asosiy tushunchalari va qoidalarini, ya’ni kategoriyalari va prinsiplarini ishlab chiqadi.

Uchinchidan, milliy g‘oya fani falsafiy xususiyatga ega bo‘lgan fan, chunki u g‘oya va mafkuralarning qonuniyatlarini yoritish bilan birga, falsafaning shaxs va jamiyat, moddiy va ma’naviy-mafkuraviy munosabatlar xaqidagi umumiy qonunlarini ham ochib beradi.

To‘rtinchidan, milliy g‘oya fani - metodologik fan. U gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlarning barcha sohalarini umumiy g‘oyaviy-mafkuraviy metodologiya bilan qurollantiradi. Milliy g‘oya fani ishlab chiqqan ilmiy xulosa va amaliy takliflar barcha gumanitar sohalarini o‘rganishda metodologik ahamiyatga ega.

Beshinchidan, milliy g‘oya fani - amaliyotga yunaltirilgan fan, chunki u demokratik xukuqiy isloxotlarni amalga oshirishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi, demokratik xukuqiy davlatni, milliy istiqlol mafkurasi tizimni shakllantirishda amaliy ahamiyatga ega. G‘oya va mafkuralar nazariyasini shunchaki bilish bilan cheklanmasdan, balki uni amaliyotga tatbiq etish ham zarur. Nazariy g‘oyaviy-mafkuraviy qoidalar va ularni amalda to‘g‘ri qo‘llash demokratik davlat qurishning muxim shartidir.

Oltinchidan, milliy g‘oya fani o‘quv-tarbiyaviy ahamiyatga molik fan, chunki u kishilarning g‘oya va mafkuralar to‘g‘risidagi tasavvurlarini, bilimlarini kengaytiradi, ularda mafkuraviy tafakkurni, g‘oyaviy dunyoqarashni tarkib toptirishga, g‘oya va mafkuralarning mohiyati, rivojlanishi va istiqbollarini tushunib olishga yordam beradi.

O‘z oldiga mustaqil mamlakatimiz uchun xizmat kilishni maqsad qilib kuygan har bir shaxs O‘zbekiston xalqi milliy mafkurasining bosh va asosiy g‘oyalarining mohiyati - mazmunini, milliy va umuminsoniy tamoyillarini yaxshi uzlashtirib olishi shart.Mamlakatimizning ta’lim muassasalarida ta’lim- tarbiya olayotgan ilmu-toliblar, ularni tamomlagan mutaxassislar uchun milliy g‘oya va mafkura ilmini o‘rganishning kuyidagi ahamiyatlari mavjud.

Birinchidan, milliy g‘oya va mafkura ilmini o‘rganish bo‘lajak xalqimiz fidoyilari uchun g‘oya va mafkuralarning vujudga kelishi va rivojlanishi qonuniyatlarini tushunib olish imkonini beradi. Bo‘lajak barkamol avlod va yosh mutaxassislar shu ilmni o‘rganishlari tufayli O‘zbekiston demokratik davlatining kishilik jamiyati siyosiy va xukuqiy tizimida, dunyo davlatlari o‘rtasida tutgan o‘rnini bilib oladilar, mustaqillikning millatimiz uchun naqadar buyuk ne’mat ekanligini anglab etadilar. Bu bilan milliy g‘oya va mafkura ilmi yosh mutaxassislarning qalbida o‘zbek xalqiga, o‘zbek davlatiga nisbatan chukur ehtirom, ishonch urug‘larini ekadi. Natijada, davlatga, xalqqa uning kuch-kudratiga ishonch xar bir yosh mutaxassisning ichki ma’naviy e’tiqodiga aylanadi. Bu ma’naviy-ruhiy e’tiqod yosh mutaxassislarning davlatga, xalqda chin dildan, vijdonan, halol, sadoqat bilan xizmat kilishlarini ta’minlaydigan ma’naviy omil hisoblanadi.

Ikkinchidan, milliy g‘oya va mafkura ilmi O‘zbekistonda demokratik xukuqiy davlat qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ta’lim-tarbiya muassasalari xodimlarining vazifalarini to‘g‘ri belgilab olishlariga ko‘maklashadi. CHunki milliy g‘oya va mafkura ilmi O‘zbekiston xalqining turmush tarzini, uning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy ishlab chiqarish sohasida ta’lim-tarbiya muassasalari xodimlarining tutgan o‘rnini va bajarishi lozim bo‘lgan vazifalarini ham ko‘rsatib beradi.

Uchinchidan, milliy g‘oya va mafkura ilmi ta’lim-tarbiya muassasalarida ilm cho‘qqilarini zabt etayotgan toliblar va boshqa xodimlar uchun jahonda va mamlakatimizda g‘oya va mafkuralar soxasida bo‘layotgan voqealarning mohiyatini tezda ilg‘ab olishga imkon beruvchi ma’naviy-ma’rifiy ko‘rsatkich vazifasini o‘taydi. Bu esa davlat va nodavlat muassasalari xodimlarining kundalik amaliy faoliyatidagi har bir voqeani g‘oyaviy-mafkuraviy jihatdan to‘g‘ri baxolay olishlariga, milliy g‘oya va mafkura talablariga mos ravishda harakat qilishlariga yordam beradi.

To‘rtinchidan, milliy g‘oya va mafkura ilmining koidalarini, xulosalarini o‘rganish bo‘lg‘usi kasb-xunar ustalarining boshqa maxsus va amaliy fanlarni puxta o‘zlashtirib olishlariga zamin hozirlaydi. Bu bilan, milliy g‘oya va mafkura ilmi bir tomondan, ta’lim-tarbiya muassasalari va yosh mutaxassislar o‘rtasida mafkuraviy tadbirlarni qo‘llash, g‘oyaviy tarbiya, g‘oyaviy targ‘ibot ishlarining ma’naviy-mafkuraviy jihatlarini metodologiya shaklida belgilab bersa; ikkinchi tomondan mutaxassislarning g‘oyaviy-mafkuraviy bilimlarni

omma orasida targ‘ib kilishlari orqali o‘zbek xalqining g‘oyaviy-mafkuraviy faolligini oshirish vositalaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. “Fanning vazifasi kelajagimizning shakli-shamoyilini yaratib berish, ertangi kunimizning yunalishlarini, tabiiy qonuniyatlarini, uning qanday bo‘lishini ko‘rsatib berishdan iboratdir".

## 2-MAVZU. MILLIY G‘OYA FANINING TARIXIY ILDIZLARI, SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

REJA

1. Milliy g‘oya fanining tarixiy ildizlari
2. Milliy g‘oya fanining falsafiy asoslari
3. Milliy g‘oya fanining diniy negizlari
4. Milliy g‘oya fanining dunyoviy asoslari

### 1.Milliy g‘oya fanining tarixiy ildizlari

Milliy g‘oya fani g‘oya va mafkura timsolida o‘zining genezisiga va evolyusiyasiga egadir. Tarixiylik va mantiqiylik nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, g‘oya va mafkuralarning dastlabki kurtaklari insoniyat rivoji tarixining "mehnat taqsimoti" davrida paydo bo‘lganligini ko‘ramiz. Bu esa xar bir narsaning o‘z tarixi, ya’ni tarixiy ildizlari borligidan darak beradi. Falsafiy jixatdan qaraganda "tarixiy ildiz" tushunchasini tor va keng ma’noda talqin qilish mumkin. "Tarixiy ildiz" tushunchasi keng ma’noda bugungi kunda mavjud bo‘lgan barcha narsa va xodisalarning tarixiy makon va zamonda joy olgan barcha tomonlari, tor ma’noda esa muayyan sub’ektlar tomonidan bilish va rivojlantirishga qaratilgan narsa va xodisalarning tarixiy makon va zamonda egallagan o‘rnini anglatadi. Masalan, milliy g‘oya fanining tarixiy ildizlarini keng ma’noda tushunish deganda, O‘zbekiston xududida eng qadimgi odamlarning paydo bo‘lishi, urug‘ va qabilalarining kelib chiqishi, davlatchiligining shakllanishi, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishi, ilmiy va diniy bilimlardan foydalanish, falsafa, axloq, xuquq va boshqa shu kabi narsa va xodisalarning bir butun tizim sifatida tarixiy makon va zamonda egallagan o‘rni, tor ma’noda esa muayyan olim yoki ilmiy jamoatchilik tomonidan o‘rganilayotgan g‘oya va mafkuraning tarixiy makon va zamonda egallagan tomoni tushuniladi.

Milliy g‘oya fanining tarixiy ildizlari deb, kishining o‘zligini anglashga, ozod va obod Vatani ravnaqi yo‘lida tinmay samarali erkin mehnat qilishga, olam sirlarini kashf etib, uni insoniyat taraqqiyotiga xizmat qilishga, insoniylikni ulug‘ fazilat deb bilishga, komil fanzandlarni voyaga etkazishga, uning butun jismoniy va ma’naviy vujudini ma’naviy jasorat ko‘rsatishga chorlaydigan asrlar mobaynida turli sinovlarga bardosh berib, tarixiy makon va zamondan abadiy joy olib ota-bobolarimizdan o‘tib kelayotgan moddiy va ma’naviy ashyolar tizimiga aytiladi.

O‘zbek xalqining tarixiy ildizi haqida I.A. Karimov: "Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o‘z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o‘zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu - tabiiy hol. Odamzot borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o‘zi tug‘ilib voyaga etgan qishloq, shaxar, xullaski, Vatanining tarixini bilishni istaydi.

Xozir O‘zbekiston deb ataluvchi xudud, ya’ni bizning Vatanimiz nafaqat SHarq, balki umumjatson sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini butun jaxon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar etishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha ko‘rku fayzini, maxobatini yukotmagan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dexqonchilik, xunarmandchilik madaniyati, me’morchilik va shaxarsozlik san’ati yuksak bo‘lganidan dalolat beradi", - degan edi.

Milliy g‘oya fanining tarixiy ildizlariga kuyidagilar kiradi:

1. **Eng qadimgi odamlarning paydo bo‘lganligi va yashaganligi.** O‘zbekiston xududida, aniqrog‘i Farg‘ona vodiysining So‘x tumanidagi Selung‘ur g‘oridan bundan 1,5 million yil oldin yashagan odamzot ajdodlarining| suyak qoldiqlari topilgan. Unga olimlar "Farg‘ona odami" "Fengantrop" deb nom berishgan. Bu tarixiy ashyo O‘zbeklarning juda ham qadimiy xalq ekanligini isbotlaydi.
2. Madaniyat va ma’naviyat ildizining qadimiyligi.

O‘zbekiston xududidan milloddan avvalgi 100-40 mingyilliklarda yasalgan mehnat kurollari, Surxondaryo viloyatidagi Zarautsoy qoyatoshlariga chizilgan rasmlarning topilganligi O‘zbeklarning kadimiy

madaniyatga ega bo‘lganligidan darak beradi. SHuning uchun ham bu xususda **I.A.Karimov;** "Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma’naviyati orqali bilamiz, tarixning tag-tomirigacha nazar tashlaymiz", - degan edi.

**3. Milliy davlatchilik an’analari.** Mamlakatimiz xududida miloddan avvalgi VII—VI asrlarda ilk davlatlar tashkil topadi. Demak, O‘zbeklar bundan 2700-3000 yil oldin ilk davlat qurgan xalqlardan biri sanaladi. YUrtboshimiz **I.A.Karimov** ta’kidlaganidek "...bino qanchalar baland bo‘lsa, uning poydevori ham shu qadar chuqur bo‘ladi. Biz buyuk davlat qurishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, buning uchun zamonaviy siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ma’naviy imkonlarimiz bilan bir qatorda tarixiy asosimiz xam bor. 2700 yillik buyuk davlatchilik o‘tmishimiz bor".

**4. Haqqoniy yozilgan tarix.** Tarix haqqoniy yozilmasa, **u** xalqni ma’naviy jihatdan qashshoq qilib, oxir-oqibatda o‘zligidan ayiradi. O‘zligidan ayrilgan xalq esa mankurtga aylanadi. SHu sababli **I.A.Karimov;** "Biz yurtimizni yangi bosqichga, yangi yuksak marraga olib chiqmoqchi ekanmiz, bunda bizga yorug‘ g‘oya kerak. Bu g‘oyaning zamirida xalqimizning o‘zligini anglashi yotadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o‘zlikni anglash mumkin emas", - degan edi.

**5. Xalqning tarixiy xotirasi.** Har bir xalq o‘zining tarixiy makon va zamonda egallagan o‘rnini unutmasdan, tarix saboqlaridan xulosa chiqarib, o‘tgan kunlarini xotirlab yashasa, u albatta, o‘zining tanlagan yulidan ko‘zlangan ezgu maqsadlari sari adashmay, dadil qadamlar tashlab boraveradi. Bunday vazifaning uddasidan chiqish uchun esa tarixni unutmasligi zarur. Bu xususda: "Ma’naviyatini tiklashi, tug‘ilib o‘sgan yurtida o‘zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko‘tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak. Har qaysi inson men shu millat farzandi ekanman, mening ajdodlarim kimlar bo‘lgan, millatimning ibtidosi qayda, uning oyoqqa turishi, tiklanish, shakllanish jarayoni qanday kechgan, degan savollarni o‘ziga berishi tabiiy. Tarixiy ildizini izlagan odam, albatta, bir kun mana shunday savollarga duch keladi va aminmanki, to‘g‘ri xulosalar chiqaradi. Tarixiy xotirasi bor inson - irodali inson. Takror aytaman, irodali insondir.

Kim bo‘lishidan qat’iy nazar, jamiyatning har bir a’zosi o‘z o‘tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yuldan urish, xar xil aqidalar ta’siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni xushyorlikka o‘rgatadi, irodasini mustaxkamlaydi", - degan edi I.A. Karimov. O‘zbek xalqi - tarixiy xotirasi bor xalq, tarix saboqlarini unutmaydigan xalq, o‘z erki uchun kurashib kelgan xalq.

**6. YOzma manbalar.** O‘zbekiston xududida yozuv miloddan avvalgi V-IV asrlarda paydo bo‘lgan. YOzma manbalarning o‘rni haqida I.A.Karimov; “Beshafqat davr sinovlaridan omon kolgan, eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortik, qo‘lyozma, ularda mujassamlashgan tarih adabiyot, san’at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me’morchilik, dexqonchilikka oid o‘n minglab asarlar bizning beqiyos ma’naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo‘lgan xalk, dunyoda kam topiladi. SHuning uchun ham bu borada jaxonning sanoqli mamlakatlarigina biz bilan bellasha olishi mumkin, deb dadil ayta olaman", - degan edi. SHunday yozma manbalardan biri “Avesto”dir. Uning yaratilganligiga 3000 yil bo‘lgan. Bu kitob o‘lkamizda juda qadim zamonlarda buyuk davlat, ma’naviyat, madaniyat bo‘lganligidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjat hisoblanadi.

**7. Xalq og‘zaki ijodi.** Xalq og‘zaki ijodi deb afsonaviy qahramonlar timsolida xalqning ezgulikka intiluvchi qaxramonona kurash g‘oyalarini o‘zida mujassamlashtirgan xolda tarannum etuvchi og‘zaki tarzda asrlar osha tildan- tilga, dildan-dilga o‘tib, xalq tomonidan kuylanib kelayotgan ko‘shiq, doston va eposlar turkumiga aytiladi. Xalq og‘zaki ijodiyotining milliy g‘oya va mafkurani shakllantirish va rivojlantirishdagi tarixiy o‘rni haqida I.A.Karimov: "Ma’lumki, bu dunyoda har qaysi millatning o‘z afsonaviy qaxramonlari, o‘zi sevib ardoqlaydigan paxlavonlari bo‘ladi. Xalqimiz azaldan o‘z vujudi, o‘z tomirida mavjud ilohiy qudratga munosib bo‘lmoqqa intilib, o‘z o‘g‘lonlarini mardlik va halolliq jasurlik ruhida, el-yurt uchun jonini ham ayamaydigan asl paxlavonlar etib tarbiyalab kelgan.

SHu ma’noda, xalq og‘zaki ijodining noyob durdonasi bo‘lmish "Alpomish” dostoni millatimizning o‘zligini namoyon etadigan, avlodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan qaxramonlik qo‘shig‘idir. Agarki xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tuganmas bir doston bo‘lsa, |'Alpomish" ana shu dostonning shox bayti, desaq to‘g‘ri bo‘ladi. Bu mumtoz (acapda tarix to‘fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o‘zligini doimo saqlagan el-yurtimizning bag‘rikengliq matonat, olijanobliq vafo va sadoqat kabi fazilatlari o‘z ifodasini topgan. SHu bois “Alpomish” dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo‘y

bo‘lishga, o‘z YUrtimizni oilamiz qo‘rg‘onini qo‘riqlashga, do‘stu yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan ximoya qilishga o‘rgatadi”, - degan edi. Bunday xalq og‘zaki ijodiyotiga "Kuntug‘mish", Go‘ro‘g‘li” "Farxod va SHirin” kabi o‘nlab eposlarni kiritish mumkin.

**8. Buyuk mutafakkirlarning merosi.** Bunga o‘zbek xalqining buyuk allomalari tomonidan dunyo ilm-faniga qo‘shgan bebaxo hissalarini kiritish mumkin. Masalan, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy - birinchilar qatorida o‘nlik pozitsion hisoblash tizimini yaratib algebra faniga, Axmad Farg‘oniy esa asosiy astronomik asbob - usturlob nazariyasini ishlab chiqdi xamda fazoviy trigonometriya faniga asos soldi. SHuningdeq Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Maxmud Zamaxshariy, Mirzo Ulug‘beq Alisher Navoiy, Toshmuhammad Sarimsaqov, Habib Abdullaev, Obid Sodiqov, Sa’di Sirojiddinov kabi yuzlab olimlar tomonidan kashf qilingan - algebra, algoritm, yulduzlar jadvali, geodeziya, ehtimollar nazariyasi va boshqalar buning isboti hisoblanadi.

**9. San’at va adabiyot durdonalari.** O‘zbek xalqining san’at va adabiyoti shunchalik kadimiyki, shunchalik boyki, unga uncha-muncha xalq san’ati va adabiyoti tenglasholmaydi. Insonning ruxiy kamoloti tarixida musiqa san’atining o‘rni haqida I.A.Karimov: "...bu maqsadga musiqa san’atisiz erishib bo‘lmaydi. Xalqimiz hayotida musiqa azaldan beqiyos o‘rin tutib keladi. Samarkand yaqinidagi Mo‘minobod qishlog‘idan 3 ming 300 yil muqaddam suyakdan yasalgan nay cholg‘usi topilgani ham shundan dalolat beradi. Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi”, - degan edi. Bunga Alisher Navoiyning "Xamsa" she’riy asari, Abdulla Kodiriyning “O‘tgan kunlar" romani, milliy merosimizning “SHashmaqom” kabi musiqa to‘plami kabi minglab san’at asarlari va adabiyot durdonalarini kiritish mumkin.

**10. Milliy qaxramonlar hayoti, faoliyati va merosi**. O‘zbek xalqining milliy qaxramonlari juda ko‘p. Masalan, ularga To‘maris, SHiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Temur Maliq Amir Temur, Etimxon, Darveshxon, Dukchi Eshon, Madaminbeq Ibrohimbek kabi xalq ozodligi uchun kurashgan qaxramonlarni kiritish mumkin. Bular hakida ran ketganda Amir Temur xakida alohida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofikdir. Amir Temurning xalkimiz tarixidagi o‘rni haqida I.A.Karimov: "CHunki tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo‘lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o‘zidan ham amaliy, ham nazariy meros koldirdi, ilmu fan, madaniyat, bunyodkorliq din va ma’naviyat rivojiga keng yul ochdi.

SHaxsan men "Temur tuzuklari"ni har gal o‘qir ekanman, xuddiki o‘zimga qandaydir ruxiy kuch-kuvvat topgandek bo‘laman. O‘z ish faoliyatimda bu kitobga takror-takror murojaat qilib, undagi hech qachon eskirmaydigan, inson ma’naviyati uchun bugun ham oziq bo‘ladigan hikmatli fikrlarning qanchalik hayotiy ekaniga ko‘p bor ishonch xosil qilganman. Masalan, "Tajribamda ko‘rilgankim, azmi kat’iy, tadbirkor, xushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir", degan so‘zlar bugungi kunda xam ma’naviy jihatdan naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekani barchamizga ayon. Amir Temur bobomizning bunday chukur ma’noli xikmatlari xalqimizda qadimdan mavjud bo‘lgan "Bilagi zo‘r birni, bilimi zo‘r mingni yiqar” degan maqolga g‘oyat xamoxang bo‘lib, insonni doimo akl-idroq adolat va yuksak ma’naviyat asosida yashashga da’vat etishi bilan e’tiborlidir”, - degan edi.

## 2. Milliy g‘oya fanining falsafiy asoslari

Har qanday g‘oya va mafkura asos vazifasini utovchi biron bir falsafiy, dunyoviy, diniy va boshqa turli ta’limotlar asosida yaratiladi. Ayni vaqtda ularning ijodkorlari esa ilm-fan yutukdaridan nazariy asos sifatida unumli foydalanishga harakat kdladilar. Bu esa odamlarning muayyan ijtimoiy-siyosiy kuchlar g‘oya va mafkurasiga bo‘lgan ishonchini yanada kuchaytiradi va uning xalqchil bo‘lishini ta’minlashga xizmat kiladi.

Milliy g‘oya fanining falsafiy asoslari deb har qanday g‘oya va mafkuraning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishi uchun ma’naviy asos bo‘lib, nazariy-metodologik vazifani o‘taydigan ilmiy falsafiy ta’limotlarga aytiladi.

Bularga kiradi: kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyot yulini o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘ygan faylasuf mutafakkirlar tomonidan yaratilgan falsafiy ta’limotlar; olimlar tomonidan koinot, tabiat, jamiyat rivoji sir-asrorlarini bilish uchun amalga oshirilgan dunyoviy kashfiyotlar xar bir millatni - millat kilishga bel bog‘lagan milliy maktablar zaminida vujudga kelgan falsafiy ta’limotlar; mustakillik falsafasi va uning milliy va umuminsoniy tamoyillari va boshqalar.

"Avesto" Milliy g‘oya fanining falsafiy asosi sifatida. Avesto - "Hayot yo‘riqnomasi" deb atalgan

kitoblar to‘plami bo‘lib xalkimizning miloddan oldingi davrdagi xayoti, dunyoqarashi, olam va odam tuo‘g‘isidagi tasavvur, urf-odat va ma’naviy kadriyatlari, g‘oyalari, diniy qarashlari haqida ma’lumot beruvchi asosiy yozma tarixiy manba hisoblanadi. 30 asr muqaddam yaratilgan va tarixiy voqealarni o‘zida aks ettirgan Avesto milliy g‘oyalarni asrab-avaylash, xalqni jipslashtirish, uni ma’naviy yuksaklikka da’vat etish, odamlar o‘rtasida mehr-oqibat tuyg‘ularini mustaxkamlash va xalq an’analarini saqlab qolishda muhim axamiyat kasb etgan.

O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov "Avesto" kitobining 2700 yilligiga bag‘ishlangan "Ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amalni ulug‘lagan kitob" nomli ma’ruzasida ta’kidlagani kabi "Ushbu nodir kitob ayni zamonda bu qadim o‘lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda buyuk davlat, buyuk madaniyat, buyuk ma’naviyat bo‘lganidan guvohlik beruvchi bebaxo tarixiy xujjat bo‘lib, ming yillar, asrlar davomida avlod-ajdodlarimiz uchun ma’naviy-rux.iy tayanch, cheksiz kuch-kuvvat manbai bo‘lib kelgan".

"Avesto" kitobida: "Ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amalni olqiillayman. Fikr, so‘z va amal olamidan ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amalni tanlayman. Men barcha yomon fikr, yomon so‘z va yomon amaldan yuz buraman” - *degan fikr asosiy g‘oya hisoblanadi. SHu g‘oya asosida unda bir qator falsafiy me’yorlar* ham *o‘z ifodasini topgan.* Undagi falsafiy ta’limotga binoan, olam nur va zulmat, hayot va o‘lim, tana va jon, yaxshilik va yomonlik erkinlik va tobelik singari xodisalarning azaliy va abadiy kurashidan iborat. SHunga ko‘ra, hayotning kechishi tabiatda (nur va zulmat), borliqda (hayot va o‘lim), ijtimoiy hayotda (yaxshilik va yomonlik), nafosat olamida (go‘zallik va xunuklik), dinda (Axura Mazda bilan Axrimanning azaliy va abadiy kelishmasligi) turli xil kuchlar o‘rtasidagi kurash shakllari sifatida namoyon bo‘ladi.

Bu xususda I.A.Karimov: "Avesto"ning tub ma’no-moxiyatini belgilab beradigan "Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal" degan tamoyilni oladigan bo‘lsak unda xozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo‘lgan saboqlar borligini ko‘rish mumkin. Ana shunday fikrlar, ya’ni, ezgu niyat, so‘z va ish birligini jamiyat hayotining ustuvor g‘oyasi sifatida talqin etish bizning bugungi ma’naviy ideallarimiz bilan bog‘liq, nechog‘lik mustahkam hayotiy asosga ega ekani, ayniqsa, e’tiborlidir”, - degan edi.

Mazkur kitobda sog‘lom avlod g‘oyasini amalga oshirish borasida ham bir qator falsafiy fikrlar ilgari surilgan. Masalan, birinchi navbatda, oila kuradigan yigit va qizchalarning har jihatdan benuqson, sog‘lom bo‘lishi, ikkinchidan, homilador ayol iztirob chekmasligi, asabiylashmasligi, ko‘proqmeva, go‘sht iste’mol qilishi, faqat halol mehnat evaziga topilgan rizqni eyishi, uchinchidan, bolani tarbiyalashda uzviylikka amal kilish, ya’ni chaqaloq ikki yoshga qadar ona suti bilan to‘la ta’minlanishi, uchinchi yoshga o‘tgandagina mol suti va sutdan tayyorlangan ovqatlar bilan parvarish etish lozimligi uqtirilgan. Ona sutidan ajralgan go‘dak albatta, 5 yoshgacha sigir sutini iste’mol kilishni kanda kilmaslikka rioya kilishlik maxsus ta’kidlangan.

Zardushtiylikda ko‘p xotinlik qat’iy man etilgan. Ayni paytda hayotni buydoq o‘tkazish ham qoralangan. Balog‘atga etgan qiz bola ota-ona, jamoaning ra’yini pisand kilmay, o‘zidan zurriyot qildirishni istamay, qasddan turmushga chiqmay umrgo‘zaronlik kilib yursa, u qopga solinib 25 darra kaltaklanish bilan jazolangan; yigit zurriyot qoldirish qobiliyati bo‘la turib, ataylab uylanmay yursa, u badnom qilish maqsadida har doim temir kamar bog‘lab yurishga majbur etilgan.

"Avesto"da nikohni bekor kilish va taloq masalasida ham diqqatga sazavor fikrlar bildirilgan bo‘lib, unda eru xotinning teng xuquqligiga aloxida e’tibor berilgan va nikoh bekor qilinishining kuyidagi holatlari sanab o‘tilgan.

1. Nikoxdan so‘ng tomonlarning birida asabiy noqis telbalik alomati zohir bo‘lsa, solim tomon bu nikoxdan voz kechish xukukiga ega.

2. Er erkaklik qobiliyatiga ega bo‘lmagan taqdirda ayol taloq qilish imkoniyatidan foydalana oladi.

3. Uch yil davomida ham er oilaning moddiy jihatini ta’minlay olmay kelsa, hatto ayolini boqa olmasa xotin bunday erni tashlab keta oladi, ya’ni taloq kiladi.

4. Agar tomonlar bir-birlarining boshqa er va xotin bilan zino kilganliklarini sezsa, bunday nikoh "harom" bo‘ladi xamda solim tomon nopok tomonni gunoxkor sifatida taloq qiladi.

5. Agar xotinning hayoti er zulmidan xavf ostida qolsa, u o‘z juftini taloq qilish xuquqidan foydalanadi.

6. Xotin o‘z eridan qoniqmay nojuya, g‘ayrishar’iy xatti-harakatlar qilsa, erkak bunday ayoldan voz kecha oladi. Erkak . kishi uylanish paytida oldingi xotinini bekitsayu tuydan keyin bu sir fosh bo‘lsa ham bunday nikoh botil xisoblanadi.

7. Erkak yoki xotin Zardushtiy dinidan yuz o‘girsa, ya’ni boshqa dinni kabul etsa, taloq vojibdir. Zardushtiylikda oila muqaddas sanalgani uchun boshqa sabablarga ko‘ra, jumladan, davo, tuhmat er-xotinning o‘zaro kelishmovchiligiga, ota-ona bilan chiqisha olmaslik bahonasi bilan nikohni bekor qilishga yul qo‘yilmagan. Xotin qizlar orasida uchrab turadigan buhton, chaqimchiliq xusumat gunohi azim sifatida qattiq qoralangan. Gap tashuvchi ig‘vogarlar darra urish bilan jazolangan.

Kuyidagi fikr ayol zotining jamiyatda, oilada, insoniyat tarixida tutgan o‘rniga berilgan eng adolatli baxoday tuyuladi: "Dastlabki kundayoq Axuramazda ayollarga buyurdi: Ey ayol! Seni e’tiqodli va paxlavon erkaklarni vujudga keltirib mexr to‘la og‘ushingda parvarish et, deb yaratdim. Toki ular nodurustlik va nopoklik ildizini er yuzidan yuqotsinlar”.

Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shaxri" kitobi Milliy g‘oya fanining falsafiy manbai. O‘rta asr SHarq Uyg‘onish davrining buyuk allomalaridan biri Abu Nasr Forobiy o‘zining semahsul ijodi, ilm-fandagi ko‘p qirrali faoliyati, kamtarona turmush kechirganligi, doimo kamolot sari intilib yashaganligi bilan xalqning qalbidan joy olgan kamtarin inson bo‘lgan.

Forobiy asarlari ichida “Fozil odamlar shaxri" nomli kitob o‘zining sermazmunligi bilan ajralib turadi. Bu asarning milliy g‘oya fani uchun falsafiy asoslari quyidagilar bilan belgilanadi.

Olamning real mavjudligi va uning ijodkori borligi haqidagi ta’limoti. Forobiyning fikricha olamdagi hamma narsaning ijodkori "Birinchi mavjud’’dir, uning sherigi na ziddi yuqdir. Bunda "Birinchi mavjud boshqa barcha mavjudot borligining birinchi sababidir. U barcha kamchiliklardan xolidir. Uning bir o‘zi bu borlikda yakkayu yagonadir. Uning ziddi yukdir, u olim, hakim, haq va barxayotdir”. Bu YAratganni tan olish, ya’ni olamning yaratilishi haqidagi odamlarning diniy his-tuyg‘ulariga nisbatan shakkok qilmasdan, dinning jamiyat xayotida o‘z o‘rni borligini anglash orqali, unga chuqur xurmat bajo keltirish demakdir.

Insonning mukkamal zot ekanligi, unda aklning paydo bo‘lishi va uning qudratli kuch ekanligi to‘g‘risidagi g‘oyalari. Bu xususda Forobiy: "Til va tushuncha sohibi bo‘lgan tirik zot (inson - M.N.)dan ortikroq mukammal bo‘lgan biror zot yo‘qdir. Insonning borliqqa kelishi bilan oldin g‘izolantiruvchi (boqadigan), keyin tuyg‘u (ta’m, hid, ovoz kabi seziladigan va rang, ziyo kabi kuriladigan), so‘ngra amir, xayol surish, notiqa va nihoyat aql kuvvati maydonga chiqadi. Aql quvvati tufayli inson go‘zal bilan xunukni bir-biridan ayira oladi, san’at bilan bilimni yaratadi", - deb yozadi. Demak u insonning aqlini rivojlantirish orqali, uni mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalash masalasi yangi jamiyat quriщning muhim shartlaridan biri sifatida qaragan.

Insonlarning baxt-saodatga erishuvlari to‘g‘risidagi qarashlarida ilgari surilgan:

−har kim ilm-hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, sog‘lom, yaxshi axloq va odobli, so‘zining uddasidan-chiqadigan, xiyonat, makr va hiyladan uzoq, bilimdon va notiq, ilmli va dono kishilarni hurmat qiladigan, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamaydigan, barcha real, moddiy narsalar to‘g‘risidagi bilimlarni egallaydigan;

−aklli, fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo‘r iste’dodga ega bo‘lib, yomon ishlardan o‘zini chetga olib yuradigan, degan fikrlari falsafiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

SHu bilan bir katorda Forobiy tomonidan ishlab chiqilgan odamning "o‘n ikki tug‘ma xislat"larga asoslangan quyidagi axloqiy qoidalari: "1) odamdagi barcha a’zolarning mukammal rivoj topishi; 2)muxokama mulohazani tez va to‘g‘ri tushuna olishi; 3) kuchli xotira sohibi bo‘lishi; 4) zehni o‘tkir bo‘lishi; 5) so‘zlarni aniq gapirishi, fikrini ravon va ravshan ifoda etishi; 6) bilish va o‘qishdan charchamasligi; 7) ovqatlanishda ochko‘z bo‘lmasligi, qimor uyinlaridan jirkanishi; 8) haqiqat va haqiqat tarafdorlarini sevishi, yolgon va yolgonchilarga nafrat bilan qarashi; 9) ruhiy quvvati kuchli, insoniylik g‘ururi baland bo‘lishi; 10) dirxam, dinor va shu kabi turmush buyumlaridan jirkanishi; 11) har qanday adolatsizlikka, jabr-zulm o‘tkazuvchilarga nafrat bilan qarashi; 12) adolat oldida qaysarlik qilmasligi, pastkashlik oldida lafzli bo‘lishi, qat’iyatli, jasur, qo‘rqish va ojizlikni bilmasligi", - haqidagi axlokiy-falsafiy ta’limoti xozirgi kunda ham o‘zining

ahamiyatini yuqotmasdan milliy g‘oya va mafkuramizning falsafiy, axloqiy-ma’naviy asoslarini tashkil etib kelayotganligi biz uchun quvonchlidir. SHuning uchun ham Prezidentimiz I.A. Karimov: "Forobiyning "Fozil odamlar shahri” asari bundan ming yilcha muqaddam yaratilganligiga qaramasdan, bugungi o‘quvchi ham bu asrdan hozirgi hayotning murakkab muammolarini hal qilishda asqotadigan muhim fikr va yul-yuriqlarni topa oladi”, - degan edi.

Alisher Navoiy ma’naviy merosining milliy g‘oya fanining falsafiy manbai sifatida tutgan o‘rni va roli. Buyuk mutafakkir va ulug‘ shoir Alisher Navoiyning hayot yuli va u qoldirgan ma’naviy merosning milliy g‘oya fanining shakllanishi va rivojlanishidagi o‘rnini ta’rif va tavsif qilish oson ish emas, albatta. SHunday bo‘lsada, bu ulug‘ inson qoldirgan ma’naviy merosning mingdan bir qismi milliy g‘oya fani uchun falsafiy asos bo‘lib xizmat qilayotganligini ko‘rsatib berishni lozim topdik.

Adolatli podshoh g‘oyasi. Alisher Navoiyning fikricha: "Adolatli podshoh Xaq-taoloning xaloyiqqa ko‘rsatgan marhamatidir; bunday shoh mamlakat uchun tinchlik va farovonlik sababchisidir...

Odil shoh kuyosh bilan bahor yomg‘iridan qora tuproqdan gullar ochadi va mamlakat xalqi boshiga oltin bilan durlar sochadi. Kambag‘al va bechora odamlar uning yaxshi, muloyim muomalasidan rohatda; zolim amaldor va mirshablar uning siyosati tig‘idan qo‘rquvda. Adolatli shoh shunday qo‘riqchiki, uning soyayi davlatida qo‘y-qo‘zilar bo‘ri xavfidan omon; yomonlarga shafqatsizligidan yuldagi musofirlar yo‘l to‘sarlar vahimasidan eson. Marhamatidan maktablarda bolalar shovqin-suroni... Haybatidan yo‘llarda qaroqchilar yuq va xalq qo‘li o‘z moli bilan to‘liq. Zabtidan amaldorlar qalami siniq va zolimlar bayrog‘i yiqiq. G‘amxo‘rligi va faoliyatidan masjidlar jamoat bilan to‘la va madrasalar ilm ustida bahslashuvchilar bilan gala-gula. Qasoskor tig‘idan o‘g‘ri qo‘li el moliga etmaydi va o‘ch olish xavfidan yulto‘sarlarning qadami yuqliq biyobonidan nariga o‘tmaydi. Savdo qilish uchun tun bo‘yi do‘konlarda sham o‘chmaydi, oldi-sotdi qiluvchilar kuchalarda bezorilar daydishidan qo‘rqmaydi. SHomdan to saxargacha masjid xonakolarining eshigi ochiq; xilvat-xonalar ibodat nuridan yorug‘. SHaxarda ko‘chalar posboni u, dalada qo‘ylar cho‘poni u. Axolining xovli-bog‘i uning sharofatidan obod; sipoxlar orzu-umidlariga etib shodon. Odil shoh sharofatidan kechalari turk ayollarining allalari tinmaydi; bolalar esa, bemalol oshig‘ini o‘ynaydi... Adolatparvar shoh xalqi rozi qilsa, Xaq-taolo shoxdan rozi bo‘ladi, kishilarning arzu dodini tinglaganda, bu ish yuzasidan xalq oldida so‘roq berishni o‘ylab, iztirob chekadi’’. Demak adolatli, xaqgo‘y davlat boshlig‘i mamlakatdagi tinchlik va xalq faravonligining kafolatidir.

Diyonatli va diyonatsiz beklar, vazirlar va boshqa mansabdorlar to‘g‘risidagi fikrlari. Ulug‘ shayx Alisher Navoiyning fikricha: "Bek (Xokim - N.M.) kambag‘al bechoralarning panohi va podshox davlatining – xayrixoxi. Bek shoxga bu dunyo xaqida chin so‘z deguvchi va oxirat g‘amin eguvchi, undan yomonlarning ko‘ngli vayron, yaxshilarning mushkuli oson. Uning ko‘nglida xalq moliga tama yo‘q: dunyo yig‘ishning xayoli yuq. Murodi - axolining tinch-omonligi; maqsadi - jamiyatning ravnaqi... U musulmonlarni rozi qiluvchi kishi, musulmonlar esa uni duo qiladi.

SHoh eshigi bunday beklardan xoli bo‘lmasin, davlat osmonida bundaylarning umri quyoshi zavol ko‘rmasin.

Vazir so‘zi - "vizr" (gunoh so‘zidan kelib chiqqandir. Bu hol uning tabiatiga juda mos va loyiqdir. Vazirlikni g‘oyatda o‘rniga qo‘yib bajargan Sulaymon payg‘ambarning vaziri Osaf bo‘lib, u o‘z o‘zugiga: "Insofli odamni Xudo rahmat qilsin!" deb yozib kuygan ekan. Usha Osaf dunyodan ketar chogida insofni x^am o‘zi bilan birga olib ketdi va insof gavxdrini noinsoflar orasida qoldirmadi. Kishi o‘zini har qayonga eldek urgani bilan, Osafni bu dunyoda qaydan topadi?! Agar, dunyo axlidan biror zotni Osaf sifat deyiladigan bo‘lsa, ishonmangkim, Sulaymon taxti allaqachon barbod bo‘lib, Osaf ham allaqachon o‘lib ketgan.

Bu zolimlar (insofsiz vazirlar - N.M) mamlakatni barbod qiluvchi, xalqning yig‘gan-terganini yo‘qotguvchilardir. Eng yaxshisi, biror kimsa bular haqida qalam tebratmagay va bu qalamdek yuzi qoralar nomini qalam tiliga keltirmagay. Dori o‘rniga zahar berib, bemorlarni o‘ldiruvchi tabiblar bularga juda o‘xshash va yaqindir. Bu ikki toifadan har biri ilondir, shoh bundaylarni er bilan yakson qilishi zarur.

Bularning hammasi chayon; xaloyiqqa etkazadi ko‘p ziyon. Ular qalamining uchi - chayon nayzasi; aholi joniga u nayzadan o‘lim dahshati. Bu nayza mazlumlarga qanchayin sanchilsa, u

zolim vazirlarning boshi ham ajal toshi bilan shuncha yanchiladi, deb umid qilamiz.

Vijdonsiz, harom-harishdan tortinmovchi, bediyonat sadrlar (mansabdorlar] - hech zarurati bo‘lmagan bid’atdek narsadir. Agar bu nokas ilmsiz bo‘lsa, butun qilmishi - bo‘zukliq fisku fujurdir. Uning bazmidagi soz va kuy ohanglari ilm va takvoga to‘tilgan azaning motam faryodidir. Aslida, sadr (mansabdor) - olimlarga dastyor, shayxlarga xizmatkor, sayyidlarga kumakchi va fuqaro xizmatiga hamisha tayyor bo‘lmogi kerak. Ular zulm rishtasini o‘zguvchi, vaqf erlarning buzilganini tuzuvchi va ziroat-dehqonchilikni avj oldirishga sa’y-harakat ko‘rgizuvchi bo‘lmog‘i kerak".

Tabiblar to‘g‘risidagi g‘oyalari. Alisher Navoiy shifokorlik kasbi bilan shug‘ullanuvchilar haqida: "Tabib o‘z fanining mohir bilimdoni bo‘lishi; bemorlarga rahm-shafqat bilan muomala qilishi; asli tib ilmiga tabiati kelishmog‘i, donishmandlar so‘ziga rioya qilib, ularga ergashmog‘i; muloyim so‘z va bemor ko‘nglini ko‘taruvchi, andishali, xushfe’l bo‘lmog‘i kerak. O‘tkir va shafqatli tabib Isoga o‘xshaydi. Isoning ishi chiqqan jonni duo bilan tanga kiritish bo‘lsa, buning ishi esa tandan chiqmoqchi bo‘lgan jonni davo bilan chiqarmaslikdir. Bunday tabibning yuzi xastalar kunglida sevimlidir; so‘zi esa, bemorlar joniga yoqimlidir. Uning har bir nafasi bemorlarga davo; har qadami esa, xastalarga shifodir. Uning yuzi najot keltiruvchi Xizrni, beradigan sharbati esa tiriklik suvini eslatadi.

Tabib agar, o‘z kasbida mohir bo‘lsayu, ammo o‘zi badfe’l, beparvo va qo‘pol so‘z bo‘lsa, bemorni har qancha muolaja qilganda ham, baribir uning mizojida o‘zgarish paydo qila olmaydi. Tabobat fanidan savodsiz tabib xuddi jallodning shogirdi kabidir.

Hazrat mir Alisher Navoiyning jahon va turkiy xalklar ma’naviyati xazinasiga qo‘shgan ulkan hissasi to‘g‘risida I.A. Karimov: "O‘zbek xalqi ma’naviy dunyosining shakllanishiga g‘oyat kuchli va samarali ta’sir ko‘rsatgan ulug‘ zotlardan yana biri - bu Alisher Navoiy bobomizdir.... Agar bu ulug‘ zotni avliyo desaq u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desaq mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desaq shoirlarning sultonidir.

...Ona tiligа muhabbat, uning betsiyos boyligi va buyukligini anglash tuygusi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebatso merosdan xalqimizni, aynщsa, yoshlarimizni sanchalik ko‘p baxramand etsaq milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik sudratli ma’rifiy kurolga ega bo‘lamiz", - degan edi.

O‘zbek xalqining o‘zoq moziyga borib taqaluvchi tarixidan bunday dalillarni falsafiy asos sifatida ko‘plab keltirish mumkin.

**11. Buyuk mutafakkirlarning merosi.** Bunga o‘zbek xalqining buyuk allomalari tomonidan dunyo ilm-faniga qo‘shgan bebaxo hissalarini kiritish mumkin. Masalan, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy - birinchilar qatorida o‘nlik pozitsion hisoblash tizimini yaratib algebra faniga, Axmad Farg‘oniy esa asosiy astronomik asbob - usturlob nazariyasini ishlab chiqdi xamda fazoviy trigonometriya faniga asos soldi. SHuningdeq Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Maxmud Zamaxshariy, Mirzo Ulug‘beq Alisher Navoiy, Toshmuhammad Sarimsaqov, Habib Abdullaev, Obid Sodiqov, Sa’di Sirojiddinov kabi yuzlab olimlar tomonidan kashf qilingan - algebra, algoritm, yulduzlar jadvali, geodeziya, ehtimollar nazariyasi va boshqalar buning isboti hisoblanadi.

**12. San’at va adabiyot durdonalari.** O‘zbek xalqining san’at va adabiyoti shunchalik kadimiyki, shunchalik boyki, unga uncha-muncha xalq san’ati va adabiyoti tenglasholmaydi. Insonning ruxiy kamoloti tarixida musiqa san’atining o‘rni haqida I.AKarimov: "...bu maqsadga musiqa san’atisiz erishib bo‘lmaydi. Xalqimiz hayotida musiqa azaldan beqiyos o‘rin tutib keladi. Samarkand yaqinidagi Mo‘minobod qishlog‘idan 3 ming 300 yil muqaddam suyakdan yasalgan nay cholg‘usi topilgani ham shundan dalolat beradi. Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi”, - degan edi. Bunga Alisher Navoiyning "Xamsa" she’riy asari, Abdulla Kodiriyning “O‘tgan kunlar" romani, milliy merosimizning “SHashmaqom” kabi musiqa to‘plami kabi minglab san’at asarlari va adabiyot durdonalarini kiritish mumkin.

**13. Milliy qaxramonlar hayoti, faoliyati va merosi**. O‘zbek xalqining milliy qaxramonlari juda ko‘p. Masalan, ularga To‘maris, SHiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Temur Maliq Amir Temur, Etimxon, Darveshxon, Dukchi Eshon, Madaminbeq Ibrohimbek kabi xalq ozodligi uchun kurashgan qaxramonlarni kiritish mumkin. Bular hakida ran ketganda Amir Temur xakida alohida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofikdir.

Amir Temurning xalkimiz tarixidagi o‘rni haqida I.A.Karimov: "CHunki tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo‘lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o‘zidan ham amaliy, ham nazariy meros koldirdi, ilmu fan, madaniyat, bunyodkorliq din va ma’naviyat rivojiga keng yul ochdi.

SHaxsan men "Temur tuzuklari"ni har gal o‘qir ekanman, xuddiki o‘zimga qandaydir ruxiy kuch-kuvvat topgandek bo‘laman. O‘z ish faoliyatimda bu kitobga takror-takror murojaat qilib, undagi hech qachon eskirmaydigan, inson ma’naviyati uchun bugun ham oziq bo‘ladigan hikmatli fikrlarning qanchalik hayotiy ekaniga ko‘p bor ishonch xosil qilganman. Masalan, "Tajribamda ko‘rilgankim, azmi kat’iy, tadbirkor, xushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir", degan so‘zlar bugungi kunda xam ma’naviy jihatdan naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekani barchamizga ayon. Amir Temur bobomizning bunday chukur ma’noli xikmatlari xalqimizda qadimdan mavjud bo‘lgan "Bilagi zo‘r birni, bilimi zo‘r mingni yiqar” degan maqolga g‘oyat xamoxang bo‘lib, insonni doimo akl-idroq adolat va yuksak ma’naviyat asosida yashashga da’vat etishi bilan e’tiborlidir”[2], - degan edi.

## 2. Milliy g‘oya fanining falsafiy asoslari

Har qanday g‘oya va mafkura asos vazifasini utovchi biron bir falsafiy, dunyoviy, diniy va boshqa turli ta’limotlar asosida yaratiladi. Ayni vaqtda ularning ijodkorlari esa ilm-fan yutukdaridan nazariy asos sifatida unumli foydalanishga harakat kdladilar. Bu esa odamlarning muayyan ijtimoiy-siyosiy kuchlar g‘oya va mafkurasiga bo‘lgan ishonchini yanada kuchaytiradi va uning xalqchil bo‘lishini ta’minlashga xizmat kiladi.

Milliy g‘oya fanining falsafiy asoslari deb har qanday g‘oya va mafkuraning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishi uchun ma’naviy asos bo‘lib, nazariy-metodologik vazifani o‘taydigan ilmiy falsafiy ta’limotlarga aytiladi.

Bularga kiradi: kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyot yulini o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘ygan faylasuf mutafakkirlar tomonidan yaratilgan falsafiy ta’limotlar; olimlar tomonidan koinot, tabiat, jamiyat rivoji sir-asrorlarini bilish uchun amalga oshirilgan dunyoviy kashfiyotlar xar bir millatni - millat kilishga bel bog‘lagan milliy maktablar zaminida vujudga kelgan falsafiy ta’limotlar; mustakillik falsafasi va uning milliy va umuminsoniy tamoyillari va boshqalar.

"Avesto" Milliy g‘oya fanining falsafiy asosi sifatida. Avesto - "Hayot yo‘riqnomasi" deb atalgan kitoblar to‘plami bo‘lib xalkimizning miloddan oldingi davrdagi xayoti, dunyoqarashi, olam va odam tuo‘g‘isidagi tasavvur, urf-odat va ma’naviy kadriyatlari, g‘oyalari, diniy qarashlari haqida ma’lumot beruvchi asosiy yozma tarixiy manba hisoblanadi. 30 asr muqaddam yaratilgan va tarixiy voqealarni o‘zida aks ettirgan Avesto milliy g‘oyalarni asrab-avaylash, xalqni jipslashtirish, uni ma’naviy yuksaklikka da’vat etish, odamlar o‘rtasida mehr-oqibat tuyg‘ularini mustaxkamlash va xalq an’analarini saqlab qolishda muhim axamiyat kasb etgan.

O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov "Avesto" kitobining 2700 yilligiga bag‘ishlangan "Ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amalni ulug‘lagan kitob" nomli ma’ruzasida ta’kidlagani kabi "Ushbu nodir kitob ayni zamonda bu qadim o‘lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda buyuk davlat, buyuk madaniyat, buyuk ma’naviyat bo‘lganidan guvohlik beruvchi bebaxo tarixiy xujjat bo‘lib, ming yillar, asrlar davomida avlod-ajdodlarimiz uchun ma’naviy-rux.iy tayanch, cheksiz kuch-kuvvat manbai bo‘lib kelgan".

"Avesto" kitobida: "Ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amalni olqiillayman. Fikr, so‘z va amal olamidan ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amalni tanlayman. Men barcha yomon fikr, yomon so‘z va yomon amaldan yuz buraman” - *degan fikr asosiy g‘oya hisoblanadi. SHu g‘oya asosida unda bir qator falsafiy me’yorlar* ham *o‘z ifodasini topgan.* Undagi falsafiy ta’limotga binoan, olam nur va zulmat, hayot va o‘lim, tana va jon, yaxshilik va yomonlik erkinlik va tobelik singari xodisalarning azaliy va abadiy kurashidan iborat. SHunga ko‘ra, hayotning kechishi tabiatda (nur va zulmat), borliqda (hayot va o‘lim), ijtimoiy hayotda (yaxshilik va yomonlik), nafosat olamida (go‘zallik va xunuklik), dinda (Axura Mazda bilan Axrimanning azaliy va abadiy kelishmasligi) turli xil kuchlar o‘rtasidagi kurash shakllari sifatida namoyon bo‘ladi.

Bu xususda I.A.Karimov: "Avesto"ning tub ma’no-moxiyatini belgilab beradigan "Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal" degan tamoyilni oladigan bo‘lsak unda xozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo‘lgan saboqlar borligini ko‘rish mumkin. Ana shunday fikrlar, ya’ni, ezgu niyat, so‘z va ish birligini jamiyat hayotining ustuvor g‘oyasi sifatida talqin etish bizning bugungi ma’naviy

[2] Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008. -Б.44-45.

ideallarimiz bilan bog‘liq, nechog‘lik mustahkam hayotiy asosga ega ekani, ayniqsa, e’tiborlidir”[3], - degan edi.

Mazkur kitobda sog‘lom avlod g‘oyasini amalga oshirish borasida ham bir qator falsafiy fikrlar ilgari surilgan. Masalan, birinchi navbatda, oila kuradigan yigit va qizchalarning har jihatdan benuqson, sog‘lom bo‘lishi, ikkinchidan, homilador ayol iztirob chekmasligi, asabiylashmasligi, ko‘proqmeva, go‘sht iste’mol qilishi, faqat halol mehnat evaziga topilgan rizqni eyishi, uchinchidan, bolani tarbiyalashda uzviylikka amal kilish, ya’ni chaqaloq ikki yoshga qadar ona suti bilan to‘la ta’minlanishi, uchinchi yoshga o‘tgandagina mol suti va sutdan tayyorlangan ovqatlar bilan parvarish etish lozimligi uqtirilgan. Ona sutidan ajralgan go‘dak albatta, 5 yoshgacha sigir sutini iste’mol kilishni kanda kilmaslikka rioya kilishlik maxsus ta’kidlangan.

Zardushtiylikda ko‘p xotinlik qat’iy man etilgan. Ayni paytda hayotni buydoq o‘tkazish ham qoralangan. Balog‘atga etgan qiz bola ota-ona, jamoaning ra’yini pisand kilmay, o‘zidan zurriyot qildirishni istamay, qasddan turmushga chiqmay umrgo‘zaronlik kilib yursa, u qopga solinib 25 darra kaltaklanish bilan jazolangan; yigit zurriyot qoldirish qobiliyati bo‘la turib, ataylab uylanmay yursa, u badnom qilish maqsadida har doim temir kamar bog‘lab yurishga majbur etilgan.

"Avesto"da nikohni bekor kilish va taloq masalasida ham diqqatga sazavor fikrlar bildirilgan bo‘lib, unda eru xotinning teng xuquqligiga aloxida e’tibor berilgan va nikoh bekor qilinishining kuyidagi holatlari sanab o‘tilgan.

1. Nikoxdan so‘ng tomonlarning birida asabiy noqis telbalik alomati zohir bo‘lsa, solim tomon bu nikoxdan voz kechish xukukiga ega.

2. Er erkaklik qobiliyatiga ega bo‘lmagan taqdirda ayol taloq qilish imkoniyatidan foydalana oladi.

3. Uch yil davomida ham er oilaning moddiy jihatini ta’minlay olmay kelsa, hatto ayolini boqa olmasa xotin bunday erni tashlab keta oladi, ya’ni taloq kiladi.

4. Agar tomonlar bir-birlarining boshqa er va xotin bilan zino kilganliklarini sezsa, bunday nikoh "harom" bo‘ladi xamda solim tomon nopok tomonni gunoxkor sifatida taloq qiladi.

5. Agar xotinning hayoti er zulmidan xavf ostida qolsa, u o‘z juftini taloq qilish xuquqidan foydalanadi.

6. Xotin o‘z eridan qoniqmay nojuya, g‘ayrishar’iy xatti-harakatlar qilsa, erkak bunday ayoldan voz kecha oladi.

7. Erkak . kishi uylanish paytida oldingi xotinini bekitsayu tuydan keyin bu sir fosh bo‘lsa ham bunday nikoh botil xisoblanadi.

8. Erkak yoki xotin Zardushtiy dinidan yuz o‘girsa, ya’ni boshqa dinni kabul etsa, taloq vojibdir.

9. Zardushtiylikda oila muqaddas sanalgani uchun boshqa sabablarga ko‘ra, jumladan, davo, tuhmat er-xotinning o‘zaro kelishmovchiligiga, ota-ona bilan chiqisha olmaslik bahonasi bilan nikohni bekor qilishga yul qo‘yilmagan.

10. Xotin qizlar orasida uchrab turadigan buhton, chaqimchiliq xusumat gunohi azim sifatida qattiq qoralangan. Gap tashuvchi ig‘vogarlar darra urish bilan jazolangan.

Kuyidagi fikr ayol zotining jamiyatda, oilada, insoniyat tarixida tutgan o‘rniga berilgan eng adolatli baxoday tuyuladi: "Dastlabki kundayoq Axuramazda ayollarga buyurdi: Ey ayol! Seni e’tiqodli va paxlavon erkaklarni vujudga keltirib mexr to‘la og‘ushingda parvarish et, deb yaratdim. Toki ular nodurustlik va nopoklik ildizini er yuzidan yuqotsinlar”.

Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shaxri" kitobi Milliy g‘oya fanining falsafiy manbai. O‘rta asr SHarq Uyg‘onish davrining buyuk allomalaridan biri Abu Nasr Forobiy o‘zining semahsul ijodi, ilm-fandagi ko‘p qirrali faoliyati, kamtarona turmush kechirganligi, doimo kamolot sari intilib yashaganligi bilan xalqning qalbidan joy olgan kamtarin inson bo‘lgan.

Forobiy asarlari ichida “Fozil odamlar shaxri" nomli kitob o‘zining sermazmunligi bilan ajralib turadi. Bu asarning milliy g‘oya fani uchun falsafiy asoslari quyidagilar bilan belgilanadi.

Olamning real mavjudligi va uning ijodkori borligi haqidagi ta’limoti. Forobiyning fikricha olamdagi hamma narsaning ijodkori "Birinchi mavjud’’dir, uning sherigi na ziddi yuqdir. Bunda "Birinchi

---

[3] КаримовИ.А. Юксак маънавият - енгилмас куч.-Т:Маънавият, 2008. -Б.32.

mavjud boshqa barcha mavjudot borligining birinchi sababidir. U barcha kamchiliklardan xolidir. Uning bir o‘zi bu borlikda yakkayu yagonadir. Uning ziddi yukdir, u olim, hakim, haq va barxayotdir”. Bu YAratganni tan olish, ya’ni olamning yaratilishi haqidagi odamlarning diniy his-tuyg‘ulariga nisbatan shakkok qilmasdan, dinning jamiyat xayotida o‘z o‘rni borligini anglash orqali, unga chuqur xurmat bajo keltirish demakdir.

Insonning mukkamal zot ekanligi, unda aklning paydo bo‘lishi va uning qudratli kuch ekanligi to‘g‘risidagi g‘oyalari. Bu xususda Forobiy: "Til va tushuncha sohibi bo‘lgan tirik zot (inson - M.N.)dan ortikroq mukammal bo‘lgan biror zot yo‘qdir. Insonning borliqqa kelishi bilan oldin g‘izolantiruvchi (boqadigan), keyin tuyg‘u (ta’m, hid, ovoz kabi seziladigan va rang, ziyo kabi kuriladigan), so‘ngra amir, xayol surish, notiqa va nihoyat aql kuvvati maydonga chiqadi. Aql quvvati tufayli inson go‘zal bilan xunukni bir-biridan ayira oladi, san’at bilan bilimni yaratadi", - deb yozadi. Demak u insonning aqlini rivojlantirish orqali, uni mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalash masalasi yangi jamiyat quriщning muhim shartlaridan biri sifatida qaragan.

Insonlarning baxt-saodatga erishuvlari to‘g‘risidagi qarashlarida ilgari surilgan:

−har kim ilm-hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, sog‘lom, yaxshi axloq va odobli, so‘zining uddasidan-chiqadigan, xiyonat, makr va hiyladan uzoq, bilimdon va notiq, ilmli va dono kishilarni hurmat qiladigan, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamaydigan, barcha real, moddiy narsalar to‘g‘risidagi bilimlarni egallaydigan;

−aklli, fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo‘r iste’dodga ega bo‘lib, yomon ishlardan o‘zini chetga olib yuradigan, degan fikrlari falsafiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

SHu bilan bir katorda Forobiy tomonidan ishlab chiqilgan odamning "o‘n ikki tug‘ma xislat"larga asoslangan quyidagi axloqiy qoidalari: "1) odamdagi barcha a’zolarning mukammal rivoj topishi; 2)muxokama mulohazani tez va to‘g‘ri tushuna olishi; 3) kuchli xotira sohibi bo‘lishi; 4) zehni o‘tkir bo‘lishi; 5) so‘zlarni aniq gapirishi, fikrini ravon va ravshan ifoda etishi; 6) bilish va o‘qishdan charchamasligi; 7) ovqatlanishda ochko‘z bo‘lmasligi, qimor uyinlaridan jirkanishi; 8) haqiqat va haqiqat tarafdorlarini sevishi, yolgon va yolgonchilarga nafrat bilan qarashi; 9) ruhiy quvvati kuchli, insoniylik g‘ururi baland bo‘lishi; 10) dirxam, dinor va shu kabi turmush buyumlaridan jirkanishi; 11) har qanday adolatsizlikka, jabr-zulm o‘tkazuvchilarga nafrat bilan qarashi; 12) adolat oldida qaysarlik qilmasligi, pastkashlik oldida lafzli bo‘lishi, qat’iyatli, jasur, qo‘rqish va ojizlikni bilmasligi", - haqidagi axlokiy-falsafiy ta’limoti xozirgi kunda ham o‘zining ahamiyatini yuqotmasdan milliy g‘oya va mafkuramizning falsafiy, axloqiy-ma’naviy asoslarini tashkil etib kelayotganligi biz uchun quvonchlidir. SHuning uchun ham Prezidentimiz I.A. Karimov: "Forobiyning "Fozil odamlar shahri” asari bundan ming yilcha muqaddam yaratilganligiga qaramasdan, bugungi o‘quvchi ham bu asrdan hozirgi hayotning murakkab muammolarini hal qilishda asqotadigan muhim fikr va yul-yuriqlarni topa oladi”, - degan edi.

Alisher Navoiy ma’naviy merosining milliy g‘oya fanining falsafiy manbai sifatida tutgan o‘rni va roli. Buyuk mutafakkir va ulug‘ shoir Alisher Navoiyning hayot yuli va u qoldirgan ma’naviy merosning milliy g‘oya fanining shakllanishi va rivojlanishidagi o‘rnini ta’rif va tavsif qilish oson ish emas, albatta. SHunday bo‘lsada, bu ulug‘ inson qoldirgan ma’naviy merosning mingdan bir qismi milliy g‘oya fani uchun falsafiy asos bo‘lib xizmat qilayotganligini ko‘rsatib berishni lozim topdik.

Adolatli podshoh g‘oyasi. Alisher Navoiyning fikricha: "Adolatli podshoh Xaq-taoloning xaloyiqqa ko‘rsatgan marhamatidir; bunday shoh mamlakat uchun tinchlik va farovonlik sababchisidir...

Odil shoh kuyosh bilan bahor yomg‘iridan qora tuproqdan gullar ochadi va mamlakat xalqi boshiga oltin bilan durlar sochadi. Kambag‘al va bechora odamlar uning yaxshi, muloyim muomalasidan rohatda; zolim amaldor va mirshablar uning siyosati tig‘idan qo‘rquvda. Adolatli shoh shunday qo‘riqchiki, uning soyayi davlatida qo‘y-qo‘zilar bo‘ri xavfidan omon; yomonlarga shafqatsizligidan yuldagi musofirlar yo‘l to‘sarlar vahimasidan eson. Marhamatidan maktablarda bolalar shovqin-suroni... Haybatidan yo‘llarda qaroqchilar yuq va xalq qo‘li o‘z moli bilan to‘liq. Zabtidan amaldorlar qalami siniq va zolimlar bayrog‘i yiqiq. G‘amxo‘rligi va faoliyatidan masjidlar jamoat bilan to‘la va madrasalar ilm ustida bahslashuvchilar bilan gala-gula. Qasoskor tig‘idan

o‘g‘ri qo‘li el moliga etmaydi va o‘ch olish xavfidan yulto‘sarlarning qadami yuqliq biyobonidan nariga o‘tmaydi. Savdo qilish uchun tun bo‘yi do‘konlarda sham o‘chmaydi, oldi-sotdi qiluvchilar kuchalarda bezorilar daydishidan qo‘rqmaydi. SHomdan to saxargacha masjid xonakolarining eshigi ochiq; xilvat-xonalar ibodat nuridan yorug‘. SHaxarda ko‘chalar posboni u, dalada qo‘ylar cho‘poni u. Axolining xovli-bog‘i uning sharofatidan obod; sipoxlar orzu-umidlariga etib shodon. Odil shoh sharofatidan kechalari turk ayollarining allalari tinmaydi; bolalar esa, bemalol oshig‘ini o‘ynaydi... Adolatparvar shoh xalqi rozi qilsa, Xaq-taolo shoxdan rozi bo‘ladi, kishilarning arzu dodini tinglaganda, bu ish yuzasidan xalq oldida so‘roq berishni o‘ylab, iztirob chekadi’’. Demak adolatli, xaqgo‘y davlat boshlig‘i mamlakatdagi tinchlik va xalq faravonligining kafolatidir.

Diyonatli va diyonatsiz beklar, vazirlar va boshqa mansabdorlar to‘g‘risidagi fikrlari. Ulug‘ shayx Alisher Navoiyning fikricha: "Bek (Xokim - N.M.) kambag‘al bechoralarning panohi va podshox davlatining – xayrixoxi. Bek shoxga bu dunyo xaqida chin so‘z deguvchi va oxirat g‘amin eguvchi, undan yomonlarning ko‘ngli vayron, yaxshilarning mushkuli oson. Uning ko‘nglida xalq moliga tama yo‘q: dunyo yig‘ishning xayoli yuq. Murodi - axolining tinch-omonligi; maqsadi - jamiyatning ravnaqi... U musulmonlarni rozi qiluvchi kishi, musulmonlar esa uni duo qiladi.

SHoh eshigi bunday beklardan xoli bo‘lmasin, davlat osmonida bundaylarning umri quyoshi zavol ko‘rmasin.

Vazir so‘zi - "vizr" (gunoh so‘zidan kelib chiqqandir. Bu hol uning tabiatiga juda mos va loyiqdir. Vazirlikni g‘oyatda o‘rniga qo‘yib bajargan Sulaymon payg‘ambarning vaziri Osaf bo‘lib, u o‘z o‘zugiga: "Insofli odamni Xudo rahmat qilsin!" deb yozib kuygan ekan. Usha Osaf dunyodan ketar chogida insofni x^am o‘zi bilan birga olib ketdi va insof gavxdrini noinsoflar orasida qoldirmadi. Kishi o‘zini har qayonga eldek urgani bilan, Osafni bu dunyoda qaydan topadi?! Agar, dunyo axlidan biror zotni Osaf sifat deyiladigan bo‘lsa, ishonmangkim, Sulaymon taxti allaqachon barbod bo‘lib, Osaf ham allaqachon o‘lib ketgan.

Bu zolimlar (insofsiz vazirlar - N.M) mamlakatni barbod qiluvchi, xalqning yig‘gan-terganini yo‘qotguvchilardir. Eng yaxshisi, biror kimsa bular haqida qalam tebratmagay va bu qalamdek yuzi qoralar nomini qalam tiliga keltirmagay. Dori o‘rniga zahar berib, bemorlarni o‘ldiruvchi tabiblar bularga juda o‘xshash va yaqindir. Bu ikki toifadan har biri ilondir, shoh bundaylarni er bilan yakson qilishi zarur.

Bularning hammasi chayon; xaloyiqqa etkazadi ko‘p ziyon. Ular qalamining uchi - chayon nayzasi; aholi joniga u nayzadan o‘lim dahshati. Bu nayza mazlumlarga qanchayin sanchilsa, u zolim vazirlarning boshi ham ajal toshi bilan shuncha yanchiladi, deb umid qilamiz.

Vijdonsiz, harom-harishdan tortinmovchi, bediyonat sadrlar (mansabdorlar] - hech zarurati bo‘lmagan bid’atdek narsadir. Agar bu nokas ilmsiz bo‘lsa, butun qilmishi - bo‘zukliq fisku fujurdir. Uning bazmidagi soz va kuy ohanglari ilm va takvoga to‘tilgan azaning motam faryodidir. Aslida, sadr (mansabdor) - olimlarga dastyor, shayxlarga xizmatkor, sayyidlarga kumakchi va fuqaro xizmatiga hamisha tayyor bo‘lmogi kerak. Ular zulm rishtasini o‘zguvchi, vaqf erlarning buzilganini tuzuvchi va ziroat-dehqonchilikni avj oldirishga sa’y-harakat ko‘rgizuvchi bo‘lmog‘i kerak".

Tabiblar to‘g‘risidagi g‘oyalari. Alisher Navoiy shifokorlik kasbi bilan shug‘ullanuvchilar haqida: "Tabib o‘z fanining mohir bilimdoni bo‘lishi; bemorlarga rahm-shafqat bilan muomala qilishi; asli tib ilmiga tabiati kelishmog‘i, donishmandlar so‘ziga rioya qilib, ularga ergashmog‘i; muloyim so‘z va bemor ko‘nglini ko‘taruvchi, andishali, xushfe’l bo‘lmog‘i kerak. O‘tkir va shafqatli tabib Isoga o‘xshaydi. Isoning ishi chiqqan jonni duo bilan tanga kiritish bo‘lsa, buning ishi esa tandan chiqmoqchi bo‘lgan jonni davo bilan chiqarmaslikdir. Bunday tabibning yuzi xastalar kunglida sevimlidir; so‘zi esa, bemorlar joniga yoqimlidir. Uning har bir nafasi bemorlarga davo; har qadami esa, xastalarga shifodir. Uning yuzi najot keltiruvchi Xizrni, beradigan sharbati esa tiriklik suvini eslatadi.

Tabib agar, o‘z kasbida mohir bo‘lsayu, ammo o‘zi badfe’l, beparvo va qo‘pol so‘z bo‘lsa, bemorni har qancha muolaja qilganda ham, baribir uning mizojida o‘zgarish paydo qila olmaydi. Tabobat fanidan savodsiz tabib xuddi jallodning shogirdi kabidir.

Hazrat mir Alisher Navoiyning jahon va turkiy xalklar ma’naviyati xazinasiga qo‘shgan ulkan hissasi

to‘g‘risida I.A. Karimov: "O‘zbek xalqi ma’naviy dunyosining shakllanishiga g‘oyat kuchli va samarali ta’sir ko‘rsatgan ulug‘ zotlardan yana biri - bu Alisher Navoiy bobomizdir.... Agar bu ulug‘ zotni avliyo desaq u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desaq mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desaq shoirlarning sultonidir.

...Ona tiliga muhabbat, uning betsiyos boyligi va buyukligini anglash tuygusi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebatso merosdan xalqimizni, аупщsa, yoshlarimizni sanchalik ko‘p baxramand etsaq milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik sudratli ma’rifiy kurolga ega bo‘lamiz", - degan edi.

O‘zbek xalqining o‘zoq moziyga borib taqaluvchi tarixidan bunday dalillarni falsafiy asos sifatida ko‘plab keltirish mumkin.

## 3. Milliy g‘oya fanining diniy negizlari

**Milliy g‘oya fanining** diniy negizlari deb shaxs va jamiyat mafkurasining vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishi uchun zamin vazifasini o‘taydigan Xudoga etiqod qilishga asoslangan insoniyatni ezgulik sari etaklaydigan diniy dunyoqarash, tasavvur, urf-odat va marosimlar majmuiga aytiladi.

Buni kuyidagilarda: 1) isoniyatning tinch-totuv yashashi kabi eng yaxshi orzu-umidlarini ifodalovchi g‘oyalardan tashqil topgan mafkuralarning "Zabur" "Tavrot" "Injil", "Kur’oni karim" kabi ilohiy kitoblarda o‘z ifodasini topganligida; 2) diniy ta’limotlarga asoslangan mafkuralarning ba’zi bir xalqlarning taraqqiyot yulini asoslab berganligida; 3) diniy va dunyoviy mafkuralar bir-birini boyitish orqili ijtimoiy tarakdiyotning yuksak bosqichga krtarilishini ta’minlashi mumkinligida; 4) xrzirgi kunda amaliyot falsafasi deb tan olinayotgan pragmatizm va ekzistensializm (xdyot falsafasi) ning ham dunyoviy va diniy g‘oyalardan oziklanayotganligida ko‘rish mumkin. Milliy g‘oya fanining diniy ildizlari baqkuvvatdir. CHunki u ota-bobolarimiz dini bo‘lgan - islomning insoniyatni hidoyat sari boshlovchi durdonalaridan oziklanadi, baxra oladi. "Islom dini, - deb yozgan edi I.A. Karimov, - bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma’rifat ekanligini unutmaylik. U quruq aqidalar yig‘indisi emas. Ana shu ma’rifatni kishilarimiz jon-jon deb qabul qiladilar va yaxshi o‘gitlarga amal qiladilar. Mexr-oqibatli, nomusli, oriyatli bo‘lishga, izzat-extirom tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar".

Milliy g‘oya fanining diniy negizlarini tashkil etuvchi islom dinining g‘oyalariga quyidagilarni kiritish mumkin.

— Islom dinining muqaddas kitobi "Kur’oni Karim"da bayon etilgan mangulikka daxldor fikrlar. Kur’on (arab. o‘qimoq qiroat qilmoq) - islom dinining muqaddas kitobi. U YAratgan tomonidan Muxammad alayhissalomga 23 yil, ya’ni 13 yil mobaynida Makkada va 10 yil davomida Madinada nozil qilingan. Mazkur muqaddas kitob 114 sura va 6274 oyatdan iborat bo‘lib, har bir suraning o‘z nomi bor. Suralarning eng kattasi 286 oyatli "Baqara", ("Sigir") surasi bo‘lib, eng kichigi esa 3 oyatli “al-Kavsar" ("Jannat bulog‘i") surasidir. Har bir suraning avvaliga "Bismillaxir roxmanir rohim" - "Rahmli va mexribon Alloh nomi bilan" kalimasi bitilgan. Faqat 9-suraning, ya’ni “Tavba" surasining oldiga bu so‘zlar bitilmagan.

Kur’on oyatlarida bayon etilgan ko‘pgina xulosalar bugun xam muhim ahamiyatga ega. Ular insonlarni o‘zaro tinchlik-hamjihatlikda yashashga, adolatparvar, haqiqatgo‘y bo‘lishga chaqiradi. Barcha odamlar millati, irqi va nasabidan qat’i nazar Alloh oldida teng ekanliklarini ta’kidlab, bir-birlarini kamsitish, bir-birlariga zulm qilishdan qaytaradi.

Islom dinining diniy ta’limot va amaliyot darajasiga ko‘tarilishiga bebaho hissa qo‘shgan buyuk allomalar Xoja Ahmad YAssaviy, Xoja Bahovuddin Naqshband, Imom Buxoriy, Abu Iso Muxammad ibn Iso Termiziy, Imom Moturidiy, Burxoniddin Marg‘inoniy kabi yuzlab allomalarimiz tomonidan yozilgan asarlar va ularda ilgari surilgan g‘oyaviy ta’limotlarni kiritish mumkin.

Masalan, Muxammad ibn Ali Hakim at-Termiziy o‘z hikmatlarida shunday deganlar:

- "Hech bir yo‘qotishdan qayg‘urish kerak emas, faqat niyatni yo‘qotishdan qayg‘urish kerak. CHunki biror xayrli ish niyatsiz durust bo‘lmaydi".
- "SHaytonning bir soat ichida salok qilganini yuzta och arslon bir suruv ichida qila olmas. Nafsning bir soat ichida odamga qiladigan vayronlik ishini esa yuzta shayton qila olmas".
- "Bolalarning tuzaluvi, tarbiyasi - maktablarda; qaroqchilarning tuzaluvi, tarbiyasi - qamoqxonalarda;

ayollarniki - uylarda; yoshlarniki ilmda; keksalarniki esa masjidlardadir'.

Burhoniddin Marg‘inoniy "Al-Hidoya" "To‘g‘ri yuldan olib borish” asariga nazar tashlaydigan bo‘lsak unda vaqf, savdo-sotiq, savdoda ixtiyoriy qilish sharti, molni ko‘rish ixtiyori, moldagi aybni ko‘rganda beriladigan ixtiyor, buzilgan savdo, bo‘lib o‘tgan savdoni bo‘zish (iqola), pishmagan (salam) savdo, vasiyat, qasam, kafforat (gunohidan utish], jinoyat va jazo dadida islomiy xukutsiy ta’limotga asos solinganligini kuramiz.

Bu ulug‘ zotning islom dunyosidagi tarixiy o‘rni haqida *I.A.Karimov: "O‘zining beqiyos salohiyati bilan buyuk ilmiy maktab yaratib, go‘zal Fargona diyorini jaxrnga tarannum etgan islom xukuqshunosligining yana bir ulkan namoyandasi Burxoniddin Marg‘inoniyning tabarruk nomini butun musulmon dunyosi yuz yillar davomida e’zozlab keladi. Bu mu’tabar allomaning SHarq olamida "Burxon iddin va milla", ya’ni "Din va millatning xujjati” degan yuksak unvonga sazovor bo‘lgani ham buni yaqqol isbotlaydi.*

Marginoniyningulmas merosi, xususan, elliketti kitobdan iborat "hidoya" - "To‘g‘ri yul" deb atalgan asari, mana, sakkiz asrdirki, musulmon mamlakatlarida eng nufo‘zli va mukammal xukutsiy manba sifatida e’tirof etib kelinayotgani albatta bejiz emas”, - degan edi.

Abu Abdulloh Muxammad ibn Ismoil al-Buxoriyning eng ishonchli xdsislar tuplami - "Al-jome’ as-sahih" (Ishonarli tuplam) bo‘lib, unda buyuk alloma tomonidan jami tuplangan 600 ming xadisdan, faqat 7275 ta eng "sahih" xadislar bayon etilgan. Undan ba’zi bir namunalar keltiramiz:

• Hayo iymondandir”

• "Uchta xislatni o‘zida mujassam qilgan kishining imoni mukammal bo‘lgaydir: insofli va adolatli bo‘lmoq; barchaga salom bermoq; kambag‘allarga ham sadaqa berib turmoq”

• "Munofiqning uchta alomati bor: so‘zlasa, yolg‘on so‘zlar; va’da qilsa, bajarmas; omonatga xiyonat qilur; urishib qolsa, kek saqlagaydir va nohaklik qilgaydir”

• "Kuyidagilar qiyomat alomatlaridir: ilmning susaymog‘i; jaxolatning kuchaymog‘i; zinoning avj olmog‘i; xotinlarning ko‘paymog‘i; erkaklarning ozaymog‘i, nodonlik arakrsurlik”.

• "Ilmning ofati unutishdir. Uni noahil kishiga gapirish esa uni zoe qilishdir”

• "Ey odam bolasi, tong otib ko‘z ocharkansan taning sihat, oilang tinch, bir kunlik taoming bo‘lsa bor, ortiqcha boylik istashni qo‘y!”

• "Hech qachon xech kimni so‘kma!”

• “YUzga ehtiyot bo‘linglar, yuzga urmanglar!”

• "YAxshi kurgan kishingni urtacharoq yaxshi ko‘r, balkim bir kun kelib u yomon ko‘rganing bo‘lib qolar. YOmon ko‘rgan kishingni xam urtacharoq yomon ko‘rki, bir kun kelib yaxshi kurganing bo‘lib qolishi mumkin".

• "Agar bir yomonlik qilsang, orqasidan uni uchiradigan bir yaxshilik qil"

• "Ilmu xunarni Hitoydan bo‘lsa ham borib o‘rganinglar".

• "Nonni xurmatlanglar!"

• "Erkak kishining jamoli tilidir".

• "Jannat onalarning oyoqlapi ostidadir".

• "Ayollarni faqat ulug‘ odamlar xurmat qiladi, ularni faqat pastkash odam xo‘rlaydi".

• "Pora bergan ham, pora olgan ham do‘zaxga tushadi"

• "Otaga itoat qilish - Alloxga itoat qilishdir. Otaga osiy bo‘lish -Alloxga osiy bo‘lishdir".

“Ilm egallang! Ilm - saxroda do‘st, hayot yo‘llarida - tayanch, yolgizlik damlarida - yo‘ldosh, baxtiyor daqiqalarda raxbar, qayg‘uli onlarda - madadkor, odamlar orasida - zebu ziynat, dushmanlarga qarilik kurashda - quroldir”.

• "Al-jome’ as-sahih" kitobi islom dinida Kur’oni Karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba bo‘lib, axli islom e’tiqodiga ko‘ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug‘i hisoblanadi. Mana, o‘n ikki asrdirki, bu kitob millionlab insonlar qalbini iymon nuri bilan munavvar etib, Haq va diyonat yuliga chorlab kelmoqda”. Buyuk allomalarimizning yukrrida keltirilgan fikrlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, ularda diniy akddaparastliq terrorizm kabi vayronkor g‘oyalardan asar ham yukdir, faqat insonlarni yaxshi amallar qilishga, ezgulik sari intilishga, ozod va obod Vatanda erkin va farovon yashashga, tinchlik va salomatlik uchun shukronalik qilishga, bir-birlariga hasad bilan emas, balki xdvas bilan qarab, kuvonib, zavkdanib yashashga chorlashgina mavjuddir, shu tufayli ularning xalkdmiz qalbidan mangu joy olib, eng buyuk e’tiuşga aylanganligini kuramiz, uni dildan his etib yashaymiz.

### 4. Milliy g‘oya fanining dunyoviy asoslari

Milliy g‘oya fanining dunyoviy ildizlari deb, real ma’rifiy dunyoda shaxs va jamiyatning g‘oyaviy-mafkuraviy tafakkurini yuksak darajada rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-xuquqiy, ma’naviy-madaniy munosabatlarning yaxlit tizimiga aytiladi. Insoniyat asrlar mobaynida bosqichma bosqich dunyoviylik sari intilib keldi. Milliy g‘oyaning dunyoviy ildizlari deganda kuyidagi uch jixdtning o‘zaro birligini tushunmoq kerak bo‘ladi.

Birinchidan, tabiat xdsisalarini urganish borasida kullanilayotgan usul va vositalar natijasida olingan hakdqatligi amaliyotda tasdiqlangan ilmiy nazariy g‘oyalar va amaliy ishlanmalar. Masalan, insonning qon aylanish tizimi to‘g‘risidagi zamonaviy tibbiyot nazariyalari, uning ish faoliyatini yaxshilashga qaratilgan amaliy ishlanmalar. SHuningdeq kosmonavtika, kibernetika, klonlashtirish, genmuhandisligi kabi buyuk kashfiyotlar xdm odamlarning g‘oyaviy-mafkuraviy dunyoqarashining keskin o‘zgarishiga sabab bo‘lmokda. Ulardan oqilona foydalanish masalasi esa, jamiyat uchun sog‘lom g‘oya, sog‘lom mafkura zarurligi masalasini ham keltirib chiqarmokda.

Ikkinchidan, jamiyat hayotidagi o‘zgarishlarni urganish asosida xreil qilingan nazariy-amaliy bilim va ishlanmalar. Masalan, xozirgi kunda umume’tirof etilgan tamoyillar: qonun ustuvorligi, siyosiy plyuralizm, millatlararo totuvliq dinlararo bagrikenglik kabi xususiyatlar dunyoviy jamiyatning asosini tashqil etishi.

Uchinchidan, inson haq-xukuqlarining qonun yuli bilan himoya qilinishi. Masalan, xozirgi kunda jaxondagi aksariyat mamlakatlarda insonning xaq-xuquqlari va erkinliklari, jumladan, vijdon erkinligi ham qonun yo‘li bilan kafolatlangan. Ana shunday jihatlarning o‘zaro birligi jamiyat mafkurasini “Dunyoviylik - dahriylik emas" degan tamoyil asosida rivojlantiradi. Bu esa, aslo dinning jamiyat hayotida tutgan o‘rni va ahamiyatini inkor etmaydi. Mustaqil O‘zbekiston har bir fuqaroning tabiiy yashash xuquqi, vijdon va diniy erkinligini ta’minlaydigan dunyoviy suveren demokratik davlatdir. Bu xususda I.A.Karimov; "Dunyoviylik ayrim aqidaparast kimsalarning da’volaridan farkli o‘laroq, aslo daxriylik emas. Biz bunday noto‘g‘ri va g‘arazli talqinlarga mutlaqo qarshimiz”, - dedi.

## MAVZU: MILLIY G‘OYA, IJTIMOIY TARAQQIYOT VA MAFKURAVIY JARAYONLARNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

### REJA

1. G‘oya tushunchasi, uning turlari va ijtimoiy harakteri
2. Mafkura tushunchasi va uning shakllari
3. Milliy istiqlol mafkurasi tushunchasi va uning mohiyati
4. Milliy istiqlol mafkurasining milliy xususiyatlari va umumbashariy tamoyillari

### 1. G‘oya tushunchasi, uning turlari va ijtimoiy xarakteri

"G‘oya” aslida arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida - maqsad, intilish, niyat, qasd degan ma’nolarni anglatsada, kishilarning kundalik ilmiy va amaliy faoliyatida esa birinchidan, ob’ektiv borliqni, voqelikni kishi ongida aks ettiruvchi, ayni zamonda kishining ob’ektiv borliqda, voqelikka munosabatini ifodalovchi, kishilarning dunyoqarashlari asosini tashkil etuvchi, odamlarni maqsad sari etaklovchi fikr, tushuncha, tasavvur; ikkinchidan, badiiy, siyosiy yoki ilmiy asarning mazmuni, tub mohiyatini belgilovchi asosiy fikr; uchinchidan, biror ish-xarakat qilish haqidagi fikr, o‘y, niyat, maqsad degan ma’nolarni anglatish uchun ishlatiladi. Biroq g‘oyani bunday kundalik sodda, oddiy tarzda tushunish uning tub mohiyatini ochib berolmaydi. SHuning uchun ham g‘oya nima, u qanday paydo bo‘ladi, shakllanadi va rivojlanadi, degan savollarga javob topish masalasi azaldan barcha akli raso odamlarni qiziqtirib kelgan va u bugungi kunda ham shunday bo‘lib qolmokda.

G‘oya, birinchi navbatda, kishilik jamiyati tarixiy rivojlanishining mahsulidir. Kishilik jamiyatidan tashqarida g‘oya mavjud emas. G‘oya moddiy va ma’naviy borliqning kishilar ongidagi in’ikosi sifatida vujudga keladi, shakllanadi va rivojlanadi. SHu nuqtai nazardan qaraganda har bir g‘oyaning tabiatiga ob’ektivlik va sub’ektivlik xosdir.

Bunda g‘oyaning ob’ektivlik xususiyati birinchidan, uning vujudga kelishiga, shakllanishiga, rivojlanishiga turtki beradigan ob’ektiv reallikning, ya’ni tashqi olam, tabiat, jamiyatning, ularga tegishli bo‘lgan narsa, xodisa, voqea, jarayonlarning mavjudligi; ikkinchidan, bir g‘oya va mafkuralar tizimining ikkinchi bir g‘oya va mafkuralar tizimiga bog‘liq bo‘lmagan xolda faoliyat olib borishi; uchinchidan, g‘oyaning biron bir shaxs tomonidan o‘zicha xayolan o‘ylab topilmaganligi; to‘rtinchidan, uning real tarixiy shaxs faoliyati bilan bog‘liqligida ko‘rinadi. Bu hayotda amal qilayotgan g‘oyalarning tashqi olam, tabiat va jamiyatda sodir bo‘lgan jarayonlar asosida shakllangan ijtimoiy xodisa, ya’ni ontologik tabiatga ega bo‘lgan voqelik ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa o‘z navbatida g‘oyani ontologik jihatdan tushunish imkonini beradi. Demak g‘oya ontologik jihatdan mavjud ijtimoiy borliqni o‘zida aks ettiruvchi ob’ektiv mazmunga ega bo‘lgan ma’naviy hayot shakllaridan biridir.

G‘oya deb inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan, ruxiyatga kuchli ta’sir o‘tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari etaklaydigan kuchli, teran fikrga aytiladi.

Har qanday g‘oya dunyoni bilishning muayyan bosqichi va o‘ziga xos shakli sifatida bir qator xususiyatlarga egadir. Bunda, g‘oyaning namoyon bo‘lish xususiyalari deb uning o‘ziga xos, boshsalardan ajralib turadigan tomoni, o‘ziga xos belgilariga aytiladi. Ularga kuyidagilar kiradi:

1. G‘oya eng avvalo, muayyan maqsadni ifodalaydi, odamlarni ana shu maqsadga erishish uchun chorlaydi, safarbar etadi.
2. G‘oya hayotiy va ilmiy dalillarga asoslangan holda ish ko‘radi, faoliyat olib boradi.
3. G‘oya biron bir ijtimoiy voqelikning in’ikosi bo‘lib ob’ekt va sub’ektning o‘zaro dialektik birligiga asoslanadi.
4. G‘oya muayyan mafkura uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.
5. G‘oya nazariy va amaliy bilimlar birligiga tayanadi.
6. G‘oya biron bir farazni ifodalaydi.

G‘oyalarning ijtimoiy xarakteri deb tarixiy makon va zamonda yashagan tarixiy shaxslar tomonidan o‘rtaga tashlanib, muayyan ijtimoiy guruxlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanib elat, millat va xalqlarning ruhiyatga kuchli ta’sir o‘tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlagan, maqsad-muddao sari etaklagan kuchli, teran fikrlarning paydo bo‘lish, shakllanish va rivojlanib borish jarayonlariga aytiladi.

SHuni unutmaslik kerakki, har qanday g‘oyaning asosida bilim yotadi. Bilimlarning g‘oyaga aylanishi uchun birinchidan, o‘rganilayotgan xodisa yoki voqea haqidagi bilimlarning aniq bo‘lishi, bilimlar xodisada, voqeada, jarayonda bo‘layotgan o‘zgarishlarni aniq va to‘la aks ettirgan bo‘lishi, ikkinchidan, to‘plangan bilimlarni amaliyotga qo‘llash uchun ehtiyoj, ya’ni zaruriyatning ortib borishi, uchinchidan, bilimlarni ishlab chiqargan kishilarni (olimlar, shoirlar, yozuvchilarni) jamiyatda sodir bo‘layotgan voqealar yoki tabiiy muhitda vujudga kelgan muammolarni tezroq bartaraf etish uchun o‘z oldilariga qo‘ygan maqsad-vazifalari aniq rejalari puxta ishlab chiqilgan bo‘lishi lozim. YAngi ishlab chiqilgan g‘oyalar faqat moddiy vositalar yordamida emas, balki insonning ruhiy, ma’naviy energiyasi yordamida ham amalga oshishi mumkin.

G‘oyalarning turlari va ularning tasnifi, ta’rifi va tavsifi. G‘oyalarni tasniflash deb ularning ontologik gnoseologik va metodologik tabiatidan kelib chiqqan xolda o‘zligini namoyon qilish xususiyatlariga qarab bir nechta turlarga ajratishga aytiladi. Inson tabiat va jamiyat qo‘ynida yashar ekan, u albatta, bu erda bo‘layotgan jarayonlarning bevosita yoki bilvosita ishtirokchisiga, qolaversa, xarakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Insonning tabiat va jamiyat hodisalariga bo‘lgan ta’siri yoki ularning aks ta’siri natijasida uning ongida turli xil fikrlar paydo bo‘ladi. SHular ichida ayrimlari amaliy tajribadan kelib chiqqanligi sababli etakchilik qiladi. Ana shu etakchi fikr asosida g‘oyalar paydo bo‘ladi. Bu g‘oyalar tabiatda sodir bo‘layotgan turli tuman xodisalarning sir-asrorlarini, jamiyatda yuz berayotgan har xil voqealarning tub moxiyatini bilish va uni o‘z ehtiyoj va manfaatlariga moslab o‘zgartirishga qaratilganligi sababli turli xil shakllarda ifodalanadi.

Umuman olganda g‘oyalarni namoyon bo‘lish xususiyatlariga qarab kuyidagi turlarga: bunyodkor va vayronkor; ilmiy va xayoliy; falsafiy; dunyoviy va diniy; badiiy; ijtimoiy-siyosiy; milliy va umuminsoniy; ma’naviy va ma’rifiy; axloqiy va estetik tarbiyaviy g‘oyalar va hokazolarga ajratamiz.

Bunyodkor g‘oyalar. Bunyodkor g‘oyalar deb, jamiyat va odamlarni, turli guruh va qatlamlar, millat va davlatlarni

taraqqiyot sari etaklovchi, xalqni ezgu maqsad yo‘lida birgalikda xarakat qilishga undovchi g‘oyalar majmuiga aytiladi. Bunyodkor g‘oyalarni xayotdagi amal qilish o‘rniga qarab bunyodkor ilmiy dunyoviy g‘oyalar yoki bunyodkor diniy g‘oyalarga ajratish mumkin.

Bunyodkor ilmiy dunyoviy g‘oyalar deb, makon va zamonda mavjud bo‘lgan reallik - tabiat va jamiyatning qonunlarini bilish zaminida shakllanib, uning tinch, barqaror rivojlaniishiga qaratilgan amaliy-ilmiy g‘oyalarning muayyan tizimiga aytiladi. Buni o‘z ichida yana ikkiga: birinchisi, tabiiy fanlarning rivojlantirishni, ikkinchisi, ijtimoiy fanlarni yuksak darajaga ko‘tarishni ko‘zda tutadigan g‘oyalarga ajratish mumkin.

Bunyodkor diniy g‘oyalar deb, muqqaddas diniy kitoblarning insonparvarlik mohiyatidan kelib chiqqan xolda odamlar o‘rtasida tenglik tinchlik va o‘zaro hamkrorlikni ta’minlashga qaratilgan g‘oyalar majmuiga aytiladi. Bunga islom dinining "Xadis" kitoblarida bayon qilingan fikrlar yaqqol misol bo‘ladi.

Vayronkor g‘oyalar. Vayronkor g‘oyalar deb, inson va jamiyatni tubanlikka boshlaydigan, odamlarni g‘arazli niyat va qabix maqsadlarga undaydigan, xalqlar va davlatlarni tanazzul va halokatga mahkum etadigan yovuzlik va jaxolatga xizmat qiladigan g‘oyalar majmuiga aytiladi. Bularga mustabidlik, bosqinchilik terorchilik, aqidaparastlik, jaxolatparastlik, irqchilik, millatchilik, mahalliychilik yovuzlik g‘oyalari kiradi.

Dunyoviy g‘oyalar. Dunyoviy g‘oyalar deb, har bir elat, millat, xalq, davlat va jamiyat extiyoj va manfaatlaridan kelib chiqqan xolda inson huquqi va erkinliklarini, demokratik qadriyatlarning ustuvorligini ta’minlash asosida ularni ezgu maqsadlar sari etaklaydigan sog‘lom fikrlar majmuiga aytiladi. U bugungi kunda demokratik taraqqiyot, xayotni erkinlashtirish, vijdon erkinligi, inson manfaatlarini ta’minlash, fikrlar rang-barangligi, mulkiy plyuralizm, ijtimoiy hamkorlik va bag‘rikenglik tamoyillariga tayanadi.

Dunyoviy g‘oyalar adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik ruhiy, taraqqiyot yo‘lidagi olijanob maqsad-muddaolarni o‘zida ifoda etib, Vatan ravnaki, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun xizmat qiladi. Ular xurfikrli, mutelik va jur’atsizlikdan xoli bo‘lgan, bilimi va kuchiga ishonib yashaydigan, o‘zining mustaqil qarashlariga ega bo‘lgan kishilar jamiyatining g‘oyalaridir.

SHuning uchun xozirda demokratik umuminsoniy mazmundagi g‘oyalar, irqi, millati va jinsidan qat’i nazar, insonlar, ko‘p sonli mamlakatlar hayotiga chuqur kirib borib, ularning asosiy g‘oyalariga aylanib bormoqda.

Demokratiya asosida shakllantirilgan ijtimoiy bag‘rikenglik va adolat ham uning tarkibiy qismlaridan xisoblanadi. Bu g‘oyalar dunyoviy davlatdagi turli millat va din vakillarining erkin faoliyati, hamjihatligi va haq-xuquqlarini kafolatlaydi.

Xozirgi kunda dunyoviy g‘oyalar ezgulik yo‘lida butun jamiyat a’zolarining xamkorligini nazarda tutadi, tinchlik va barqarorlikni ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Demak dunyoviy g‘oyalar birinchidan, muayyan g‘oyalarni ifodalash uchun qo‘llaniladigan tushuncha bo‘lsa, ikkinchidan, jamiyat va insonni ezgu maqsadlar sari etaklaydigan sog‘lom fikrlar majmui hisoblanadi. Bu g‘oyalarni, o‘z navbatida mazmun-mohiyatiga ko‘ra, umuminsoniy, ilmiy, falsafiy kabi bir necha turlarga bo‘lish mumkin.

Diniy g‘oyalar. Diniy g‘oyalar deb, har bir diniy ta’limot va oqimning asosini, diniy imon-e’tiqodning negizini tashqil etuvchi da’vatlar, aqidalar, qadriyat va maqsadlar ifodalangan qarashlar majmuiga aytiladi. Ular muayyan dinning mavjudligini ta’minlab beruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ilmiy g‘oyalar. Ilmiy g‘oyalar deb, tabiiy va ijtimoiy fanlarning tabiat,, jamiyat, inson tafakkurida yuz berayotgan narsa, xodisa, jarayonlarning sir asrorlari qonuniyatlarini bilish orqali qilingan ilmiy kashfiyotlarning natijasi sifatida paydo bo‘ladigan, turli fan soxalarining asosiy tamoyillari (prinsiplari), ustuvor qoidalarini tashkil qiladigan ilmiy fikrlar majmuiga aytiladi.

Falsafiy g‘oyalar. Falsafiy g‘oyalar deb tabait, jamiyat, inson tafakkuri xaqidagi ta’limotlarning asosini tashkil etadigan, olam va odam to‘g‘risidagi eng umumiy tushuncha va qarashlardan iborat bo‘lgan, metodologik axamiyat kasb etadigan fikrlar majmuiga aytiladi. Ular dunyoni bilish jarayonida, kishilik jamiyatining tarakdiyoti mobaynida tuplangan falsafiy bilimlarni umumlashtirish, inson xayotining ma’no-mazmuni, uning baxt-saodati kabi masalalar ustida mulodaza yuritish asosida shakllanadi.

1. Monizm (yun. monos - bir, yagona) - olamning ibtidosi bittaligini, butun mavjudotning yagona moqiyatga egaligini e’tirof etuvchi falsafiy g‘oya, yondashuv. Dunyoning vujudga kelishi, mavjudligi va o‘zgarishi negizida qanday mohiyat, qanday asos borligini falsafiy talqin etishda monizm dualizm va plyuralizmdan farq qiladi. Monizmning tarixiy shakllari sifatida materializm va idealizm aloxida uringa ega.

Dunyoning ibtidosi yagona, deb tan olish bilan bir vaqtda, uning moxiyatini turli oqimlar xar xil tushuntiradilar.

2. Materializm yunalishida butun mavjudot asosida deb materiya tan olinadi. Materializm tarixida moddiy asos sanalmish materiyani sodda tushunishdan chukur murakkab anglashgacha tusavvurlar bo‘lgan. Dastlab moddiy elementlar (tuproq, suv, havo, olov) sifatida tasavvur etilgan materiyani, eng kichik moddiy zarra ‘‘atom" haqidagi qarashlar, so‘ng massa, xajm, energiya kabi xususiyatlarga ega moddalar bilan boglab tushuntirishlar yuzaga kelgan. Olamning rang-barang hodisa va kdnuniyatlarini biz idrok etadigan xossalar orqaligina tushuntirish cheklanganligi sababli, keyinroq materiyani mavxum va umumiy falsafiy talqin etish zaruriyati kelib chikdi. SHu tarzda materiya ob’ektiv vokelik sifatida talqin etila boshladi. Olam mohiyatan moddiy bo‘lib, hech kimning ongi va irodasiga boglanib qolmaydi. Barcha xrdisalar materiyaning turli kurinishlari, harakati shakllari, deb uqtiriladi.

3. Idealizm esa, barcha xodisalarning yagona ibtidosi ruh, g‘oya, ong yoki tafakkur deb hisoblaydi. Barcha hodisalarning kelib chiqish sababi ham, mavjudligi ham ma’naviy-g‘oyaviy asosga ega deb tushuntiradi. Olam va odamning yaratilishi va rivojlanishida materializm moddiylikni mutlaqlashtirsa, idealizm ruhiylik va ilohiylikni mutlaqlashtiradi. Bunday mutlaklashtirish bu ikki yo‘nalish orasidagi bahsga, raqobat va ziddiyatga olib boradi. Materializmda xam, idealizmda xam olamni bilish va o‘zlashtirish uchun qimmatli bo‘lgan ratsional mazmun mavjud ekanidan kelib chiqilsa, falsafiy mushoxadada ularning ikkalasidan ham o‘z o‘rnida samarali foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Monizm xodisa va jarayonlarni bir nuqtai-nazardan, yagona yondoshuv asosida o‘rganish va talqin etish xisobiga yaxlit konsepsiya yaratish imkoniyatini berishi bilan jozibadordir. Unga muqobil bo‘lgan dualizm va plyuralizm esa, xar tomonlama yondashuvlarni inkor etmagan holda, bir vatstda turli nuqtai-nazarlarni murosaga keltira oluvchi, birlashtiruvchi, kelishtiruvchi konsepsiya yaratish imkonini yaratadi.

4. Dualizm (lot. dualis - ikki yoqlama) - olamning vujudga kelishi, mavjudlik qonuniyatlari ham ruxiy-iloxiy, ham moddiy asosga egaligini e’tirof etuvchi falsafiy g‘oyaga asoslangan ta’limot. Markaziy Osiyo panteizmi olamning yaratuvchisi Allox lekin tabiat rivoji o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladi, degan g‘oyani qayd qiladi. SHuning uchun ham, Markaziy Osiyo Uyg‘onish davrining mutafakkirlari tabiiy bilimlarni ham, islomiy bilimlarni ham chuqur o‘rganishga harakat qilganlar.

YAngi zamon falsafasida R. Dekart olamning asosini ham moddiy, xam ruxiy substansiya tashkil qiladi, deb talqin qilgan. U borliqda fikrlovchi substansiya rux va materiyaga bo‘lgan. SHundan kelib chiqqan holda, Dekart bu ikki substansiyaning inson uchun ahamiyati masalasini hal qiladi. Bunga ko‘ra, psixologik va fiziologik xodisalar bir-biriga bog‘liq emas. Bu davrda ontologik dualizm bilan bir qatorda bilish sub’ektini bilish ob’ektiga qarama-qarshi qo‘yuvchi gnoseologik dualizm rivoj topganini ham ta’kidlash zarur. Dualizm terminini nemis faylasufi X.Volf (1679-1754) kiritgan.

5. Plyuralizm (lot. pluralis - ko‘plik) - bir-biridan mustaqil bo‘lgan va qandaydir yagonalikka keltirilmaydigan borliq turlari, manfaatlar, g‘oyalar, qarashlar va sotsial institutlar ko‘pligini bildiruvchi falsafiy g‘oyaga asoslangan dunyoqarash, ta’limot. Falsafiy nuqtai-nazardan plyuralistik qarash turli-tuman fikrlar kurashini emas, balki ularning jamiyat ijtimoiy tashkillanishining namoyon bo‘lishi, deb qaraladi. Plyuralizm ijtimoiy hayotning turli-tumanligi va ana shunday turli-tumanlik orasidagi ziddiyat, raqobat, muxolifatning ijtimoiy taraqqiyot manbai ekanini bildiradi. Bunday xrdisalarning demokratik tarzda, krnunlar doirasida hal qilinishi ko‘zda to‘tiladi. Plyuralizm atamasi birinchi marta 1712 yilda X.Volf tomonidan kiritilgan edi. Falsafada plyuralizmga qarama-qarshi ma’noda monizm atamasi ishlatilib, u butun borliqning yagona asosi mavjud, deb o‘rgatadi. XIX va XX asrlarda monistik qarash asosan hukmron edi. Plyuralizmning keyingi davrlarda keng tarqalishi sababi jamiyat taraqqiyotining demokratiyalashuvi bilan bog‘liq deyish mumkin

Idealizm (yun. idea - g‘oya, tasavvur, tushuncha) - olam va odamning yaralishi, tabiat va jamiyatning moqiyati va rivojida ruhiy, moddiy bo‘lmagan omillarniustuvor deb biluvchi falsafiy g‘oyaga asoslangan yunalish. Materializm (lot. matcrlalls - moddiy) - borliq, olam, tabiat, jamiyat va odamning mavjudligi, yashash va rivojlanish xususiyatlarini talqin qilishda modda (materiya) va uning xossalarini ustuvor deb bilishga asoslangan falsafiy yunalish. Antik davrda kishilarning tashqi olamni ob’ektiv mavjudligiga stixiyali ishonishi tarzida paydo bo‘lgan materializm, keyinchalik ilmiy-falsafiy taraqqiyot davomida, muayyan dunyoqarash sifatida shakllandi.

6. Ateizm (yun. a - inkor, theos - xudo; xudoni, dinni inkor etish) - falsafiy-materialistik ta’limot. Ateizm dinlar vokrlikni noto‘g‘ri aks ettiradi, deb e’tirof etadi. Ateizm har qanday din, g‘ayritabiiy kuch, xudolar, ruxlar mavjudligini, ruxning abadiyligi va bir mavjudotdan boshqasiga o‘tishi, dunyo va undagi barcha narsalarni yukdan bor bo‘lishini inkor etadi. Ateizm moddiy dunyoning abadiyligi va yaratilmaganligi, tabiat va jamiyatlarning o‘z konunlariga ko‘ra rivojlanishini, xayotning faqat bu dunyoda mavjudligini ta’kidlaydi. Ateizm ateistik fikr tarixini, materialistik dunyoqarashning shakllanish usul va vositalarini urganadi.

Xozirgi davrda ateizm "xudo" so‘zini anglatuvchi narsaning mavjudligini mutlaqo inkor etish shaklida (radikal ateizm.) yoki agar Xudo mavjud bo‘lsa, uning insonlar tomonidan bilish mumkinligini rad etish shaklida (agnostitsizmga asoslangan ateizm) namoyon bo‘ladi. Diniy ta’limotlar turli-tuman bo‘lganligi (butparastliq ko‘pxudoliq xristianliq islom, yaxudiylik va h.k.) sababli ularning inkor etilishi ham turli shakllarda ifodalanadi. Masalan, Evropa madaniyatida ateizm deganda, odatda, shaxsiy xudoni, ya’ni aql va irodaga ega hamda g‘oyibona ravishda barcha moddiy va ma’naviy jarayonlarga ta’sir etuvchi gayritabiiy mavjudotni, boshqacha qilib aytganda, teizmni inkor etish tushuniladi.

Ko‘pgina xalqaro xujjatlarda, xususan, Inson xukuklari deklaratsiyasida: "Har bir inson fikr, vijdon, din va e’tiqod erkinligi xukuqiga egadir”, deb yozilgan. Zamonaviy demokratik jamiyatlarda, shu jumladan, O‘zbekistonda fuqarolar uchun xuqiqiy vijdon erkinligi xukuqi, ya’ni har qanday dinni erkin tanlab olish yoki hech qanday dinga e’tiqod qilmaslik Konstitutsiya bilan kafolatlangan. Bizda bu borada "Dunyoviylik - dahriylik emas", degan tamoyilga amal qilinmokda.

7. Teizm (yun. theos - xudo) - olamni Xudo tomonidan yaratilganini tan olgan diniy-falsafiy ta’limot. Xudo olamdan taшқarida turadi, olamni o‘z irodasi bilan yaratgan va unda mavjud bo‘lgan mutlaq shaxs deb tushunadi. Narigi dunyodagi xudoni tan olish teizmni panteizmdan, xudoning doimiy faolligini tan olish esa deizmdan farkdantirib turadi. Teizm kelib chikdshi jihatidan o‘zaro yakdn bo‘lgan iudaizm, xristianlik va islom dinlari uchun xosdir. "Teizm" atamasini dastlab ingliz faylasufi R.Kedvort (1617-1688) kullagan. Teizm masalasi bilan teosofiya shugullanadi.

8. Teosofiya (yun. theos-Xudo va sopia - donishmandlik bilish) falsafiy ta’limot. Teosifiya ta’limotiga ko‘ra, barcha tirik mavjudotlar hayotining tanasini boshqarib turuvchi iloxiy jon, ruhning faoliyati bilan bog‘liq. Inson o‘zining yuksak zakovati yordamida aslida o‘zining iloxiy jon ekanini, shu jon bilan tabiati bir bo‘lgan Xudoning tabiatini anglab etish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Xudo - o‘zining kuvvati bilan butun borliqda mavjud bo‘lgan eng kichik tirik zarraning xam, eng katta tirik mavjudotning xam ichida aloxida mavjud bo‘la oladigan, ayni paytda butun borliqni nazorat qilib boshqarib turadigan, cheksiz kudratga ega bo‘lgan Oliy Ruxdir. Jon esa Xudo quvvatining ajralmas bo‘lagi xisoblangan ruxdir. Aloxida ruxning mavjud emasligiga qarab, borliq tirik yoki o‘lik jonli yoki jonsiz mavjudotlarga bo‘linadi. Teosofiya ilmiga asosan, Xudo - yagona mutlaq manba, uning tabiati uch turli kurinishda namoyon bo‘ladi: butun borliq Xudoning ichki va tashki kuvvatidan tarkib topgan; Butun olamni ana shu ikki kuvvatdan tarkib topgan ikki olamga bo‘lish mumkin: ruxiy va moddiy olam. Insoniyat tarixida faqat insonlar jamiyatidagina mavjud bo‘lgan *turli* diniy- falsafiy ta’limotlar zamon, makon va sharoitga mos ravishda asosan ana shu yagona ta’limot, ruh va tananing bir-biridan farq qilishini o‘rganadi.

9. Badiiy g‘oyalar. Badiiy g‘oyalar deb so‘z san’atining matssuli sifatida yaratilgan adabiyot va san’at asarlarining asosiy ma’no-mazmunini tashqil etadigan, undan ko‘zlangan matssadga xizmat qiladigan etakchi fikrlar majmuiga aytiladi. Buni ona haqida, ona-Vatan haqida bitilgan kuy va qo‘shiqlar, roman va xikoyalar misolida ko‘rishimiz mumkin.

10. Ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar. Ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar deb har bir elat, millat va xalqlarning ozodlik mustaqillik obodlik adolat va haqiqat kabi orzu-umidlarini, maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, erkin va farovon xayot tarzini tarannum etadigan fikrlar majmuiga aytiladi. Bularga ozodlik, mustaqillik, adolat va haqiqat, tinchliksevarlik va insonparvarlik kabi g‘oyalar kiradi.

11. Sinfiy g‘oyalar. Sinfiy g‘oyalar deb biron bir sinfning jamiyat hayotida tutgan o‘rnini, uning maqsad-muddaolarini ifodalaydigan fikrlar majmuiga aytiladi. Sinfiy g‘oyalarning maqsadi, mazmuni, shakli va uni amalga oshirish yullari asosan muayyan sinfning etakchi tashqiloti bo‘lmish siyosiy partiyalarning nizomlarida belgilab qo‘yilgan bo‘ladi. Sinfiy g‘oyalar muayyan bir xalq ommasini ma’lum tarixiy sharoitda harakatga undayotgan bir sharoitda umuminsoniy bo‘lishi ham yoki tor manfaatlarni ko‘zlaydigan g‘oya sifatida jamiyat va inson manfaatlariga zid bo‘lishi xam mumkin.

12. Milliy g‘oyalar. Prezident I. Karimov aytganidek: "Milliy g‘oya deganda, ajdodlardan avlodlarga o‘tib, asrlar

davomida e’zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chukur ildiz otib, uning ma’naviy extiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta’bir joiz bo‘lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umid-maqsadlarini o‘zimizga tasavvur qiladigan bo‘lsak uylaymanki, bunday keng ma’noli tushunchaning mazmun-mohiyatini ifoda qilgan bo‘lamiz"[4]. Umuman olganda milliy g‘oya bu millatning utmishi, buguni va istiqbolini o‘zida mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g‘oya shakli xdsoblanadi.

U yoki bu g‘oyaning milliy g‘oya sifatida maydonga chiqishi millatningutmishi, mavjud holati bilan bevosita boglikdir. Zero, ana shu ikki negizga tayangan xdldaginau millatning qisqa yoki o‘zoq vaqtda erishishi lozim bo‘lgan matssad-muddaolari va muljallarini to‘g‘ri ifodalay olishi mumkin.

Tom ma’nodagi milliy g‘oya, oxir-oqibatda, ozmi-ko‘pmi insoniyat takdiriga ta’sir qiladi. SHu ma’noda, har qanday milliy g‘oyada umuminsoniy mohiyat mavjud bo‘ladi. Ammo,aniq bir millat yoki umuman insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan g‘oyalar dam bor. Aytayliq "Milliy yarash" g‘oyasi fuqarolar urushi ketayotgan davlat uchun hayotiy mazmunga ega bo‘lsa, "Manfaatli hamkorlik” g‘oyasi dunyoning barcha mamlakatlari uchun birdek ahamiyatlidir. Har bir xalq o‘z tarixining burilish nuqtalarida, avvalo mafkura masalasini, uning o‘zagini tashqil etadigan, o‘ziga xos uq birlashtiruvchi yadro vazifasini utaydigan ijtimoiy g‘oyani shakllantirish muammosini xdl qiladi.

13. Umumxalq g‘oyalari. Umumxalq g‘oyalari deb шҳr bir xalqning ozod va obod, erkin va farovon шyot kechirishlari, tinch-osuda yashashlari, o‘zgalar bilan teppa-teng munosabatda bo‘lishlarini o‘zida mujassamlashtirgan fikrlar majmuiga aytiladi. Bo‘larga o‘zaro tengliq ijtimoiy hamkorliq totuvliq bag‘rikengliq o‘zaro xurmat kabi g‘oyalarni kiritish mumkin.

14. Umuminsoniy g‘oyalar. Umuminsoniy g‘oyalar deb hazrati insonni buyuk mavjudot deb biladigan, uning erkin va farovon yaixashi uchun shart-sharoitlar yaratib berishga, o‘zaro munosabatlaridagi шs-xukutsparini himoya etishga, naslini davom ettirishga saratilgan eng olijanob orzu-umidlarini, matssad-muddaolarini ifodalaydigan fikrlar majmuiga aytiladi. Bo‘larga insonparvarliq qonuniyliqjamoatchiliq mexrobonliq saxovatpeshaliq o‘zaro yordam, yaxshi kushnichilik va boshqalar kiradi.

15. Umumbashariy g‘oyalar. Umumbashariy g‘oyalar deb insoniyatni har xil ofat va kulfatlardan satspab solishga saratilgan fikrlar majmuiga aytiladi. Bunga tinchliksevarliq o‘zaro damkorliq birodarliq bag‘rikengliq optimizm va boshqalar kiradi.

Bu bilan g‘oyalarni tasniflash **tugamaydi, xayot o‘zgarishi bilan yangi g‘oyalar paydo** bo‘ladi, shakllanadi, rivojlanadi vaqti kelib esa boshqa g‘oyalarga o‘zining urnini bushatib beradi. Faqatgina, umuminsoniy va umumbashariy g‘oyalar darajasiga kutarilganlarigina umrboqiy bo‘lib qoladi. Bizning milliy g‘oyamiz ana shunday umuminsoniy va umumbashariy g‘oyalar jumlasiga kiradi.

## 2. Mafkura tushunchasi, uning shakllari, maqsad va vazifalari

**Mafkuraning ta’rifi.** Ma’lumki, xar qanday g‘oya u amalga oshirish usul va vositalari tizimiga ega bo‘lmasa, shunchaki aytilgan fikr tarzida qolib ketishi mumkin. Demak har qanday g‘oya o‘zining amalga oshirish usul va vositalariga ega bo‘lgandagina u ijtimoiy xdyotning barcha jabhalariga kirib boradi va o‘zligini namoyon etadi. Bu vazifani mafkura bajaradi.

"**Mafkura**" arabchadan o‘zbek tiliga kirib kelgan so‘z bo‘lib "fikr yuritish” "tafakkur", "e’tiqod va maslaklar tizimi" degan ma’nolarni anglatgan xolda insonlarning kundalik xayotida jamiyatdagi muayyan siyosiy, xuquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g‘oyalar majmui degan ma’nolarni ifodalash uchun ishlatiladi. Mafkuraning kundalik hayotda ishlatiladigan oddiy - sodda tushunchasi, uning tub falsafiy mohiyatini ochib berolmasligi, tabiiydir. SHuning uchun ham mafkurashunos faylasuf olimlar unga kuyidagicha ta’rif beradilar.

**Mafkura** - muayyan ijtimoiy gurux, qatlam, elat, millat, xalq, jamiyat, davlat ehtiyoj va manfaatlari, orzu-istak maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma’naviy tamoyillarini ifoda etadigan g‘oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir.

SHuning uchun ham mafkuraning jamiyat hayotida tutgan o‘rni haqida I.A.Karimov: "Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo‘lmasa odam, jamiyat, davlat o‘z yo‘lini yuqotishi muqarrar...

---

[4] КаримовИ.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008. -Б.71.

Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko‘zlagan va uning dunyodagi o‘rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik bo‘lishga qodir g‘oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman”[5], - degan edi. Insoniyat tarixida turli-tuman mafkuralar bo‘lgan. Turli xalqlar va ijtimoiy kuchlarning g‘oyaviy raxnamolari, mutafakkir va arboblari, o‘zlarining manfaat va maqsadlaridan kelib chiqib, mafkuraviy ta’limot va dasturlar ishlab chiqqanlar. Mafkuralar muayyan diniy, falsafiy ta’limot asosida yaratiladi, ma’lum ilmiy qarash va axloqiy tamoyillarga tayanadi. Mafkuralar o‘z mohiyati va ta’sir kuchiga ko‘ra jamiyatni birlashtirishi yoki uni bir-biriga qarama-qarshi taraflarga bo‘lib yuborishi, davlatning jaxondagi obro‘ va mavqeini oshirishi yoki tushirishi, yuksaklikka ko‘tarishi yoki tanazzulga duchor etishi mumkin. YUksak maqsadlar, bunyodkor g‘oyalarga asoslangan mafkuralar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga turtki bo‘ladi, ma’naviyatni yuksaltiradi, insonlarni ulug‘vor ishlarga safarbar etadi. Ozodlik erkinlik mustaqillik tinchlik hamkorlik g‘oyalari asosida shakllangan, ezgu maqsadlarga xizmat qiladigan mafkuralar bunyodkorlik xususiyatiga ega bo‘ladi.

Vayronkor g‘oyalar asosida shakllangan mafkuralar esa jamiyat taraqqiyotiga g‘ov bo‘ladi, millat va xalqlarni asoratga soladi. Bunday mafkuralar, o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra, xukmron, mustabid, tajovuzkor, bosqinchilik ekstremistik aqidaparastlik shakllarida namoyon bo‘ladi.

Mafkuralarning turlari, asosiy shakllari va ularning tasnifi. Mafkuraning tasnifi deb turli davrlarda va hozirda mavjud bo‘lgan mafkuralarning o‘ziga xos belgilari, xususiyatlari, xususan, maqsad-muddaolari, usul va vositalari, harakatlantiruvchi kuchlari va ta’sir-oqibatlariga qarab turlarga, turkumlarga ajratishga aytiladi.

Insoniyat tarixida qancha ijtimoiy-siyosiy kuch, qancha millatu elat bo‘lgan esa, shuncha xil mafkura bo‘lgan. Xozirgi davrda ham mafkuralarning turli ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, ular diniy, dunyoviy, milliy, siyosiy va shu kabilardir.

Xozirgi paytda aksariyat rivojlangan mamlakatlar xalqlari umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko‘tarilgan erkinlik adolat, qonun, inson xuquqlari, millatlararo hamjihatliq diniy bag‘rikenglik kabi g‘oyalarni taranum etuvchi mafkuralarga tayanmokda.

Ayni paytda o‘z talab-ehtiyojlarini boshqa xalklar hisobiga qondirishni, bosqinchilik va talonchilikni yoqlovchi tajovuzkor (ekstremistok) mafkuralar ham uchrab turadi. G‘arazli maqsadlarni jozibali g‘oyalar niqobiga yashirib odamlar ongi va qalbida xukmron bo‘lishga intiladigan shovinizm va irqchiliq fashizm va kommunizm, diniy aqidaparastlik kabi mafkura shakllari ham bor.

Ijtimoiy kuchlar manfaatini ifoda etishiga ko‘ra mafkuralar sinfiy, milliy, umumxalq va umuminsoniy mafkuralarga bo‘linadi.

Jamiyatdagi turli sinf va guruxlar (masalan, ishchilar, dexqonlar, tadbirkorlar, ziyolilar va h.k.)ning ham o‘z ehtiyojlari, maqsad-muddaolari bo‘lishi tabiiy. Binobarin, ularni ifoda etadigan mafkuralar ham bo‘ladi. Agar biron-bir guruhning manfaatlari boshqa qatlamlar ehtiyojlariga qarama-qarshi qo‘yilsa, jamiyatda nizo va ziddiyatlar kuchayadi, ijtimoiy hamkorlik tamoyillariga putur etadi.

Milliy mafkura xalqning tub manfaatlarini ifoda etib, oliy janob maqsadlarni ko‘zlasa, boshqa xalqlarni o‘zaro xurmat va hamkorlikka chorlasa, millatni taraqqiyot sari etaklaydi, uning o‘zligini anglashiga va jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashiga olib boradi. Agar milliy mafkura faqat shu millatni ko‘klarga kutarib, boshqa xalqlarga qarama-qarshi tursa, turli falokat, urushlarni chiqarishi bilan birga, shu millatning ham tanazzuliga sabab bo‘ladi.

SHunday qilib, mafkuralarni inson va jamiyatga ta’sir qilish xususiyatlariga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin.

1. Inson va jamiyatga ta’sir qilish xususiyatiga kura ijobiy natija beradigan mafkuralar.

Bo‘larga kiradi:

1.1. Real (amaliy) mafkuralar.

1.2. Tadrijiy (evolyusion) mafkuralar.

1.3. Liberal mafkuralar.

---

5 Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни - халқ, миллатни - миллат килишга хизмат этсин // Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т.7. -Т.: Ўзбекистон, 1999. -Б.84,89.

1.4. Progressiv mafkuralar.
1.5. Bunyodkor mafkuralar.
2. Inson va jamiyatga ta’sir qilish xususiyatiga kura salbiy natija beradigan mafkuralar.
Bularga kiradi:
2.1. Utopik (xayoliy) mafkuralar.
2.2. Inqilobiy (revolyusion) mafkuralar.
2.3. Mustabid (totalitar) mafkuralar.
2.4. Regressiv mafkuralar.
2.5. Vayronkor mafkuralar.

Mafkuraning mazmuni va shakllari. Har bir narsa va xodisa mazmun va shaklga ega bo‘lganidek xar qanday mafkuraning xam mazmun va shakli mavjuddir. Mafkuraning mazmuni deb uning o‘ziga xos sifati, xususiyatlari, muhim belgilari, elementlarining yigindisiga aytiladi. Masalan, milliy istiqlol mafkurasining mazmunini inson qalbi va ongiga ijobiy ta’sir etadigan tushuncha va tuyg‘ular, go‘zal va xayotiy g‘oyalar; millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch-e’tiqodning manbai bo‘lish; yurt tinchligi, Vatan ravnakd va xalq farovonligini ta’minlashga xizmat qilish; milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanish kabilardan iborat bo‘lsa, uning shaklini liberal-demokratik kurinishda o‘zini namoyon qilishi tashqil etadi. Demak mafkuraning shakli bu uning ichki va tashqi tuzilishini o‘zida ifodalovchi strukturasi, ya’ni mavjudlik usulidir. SHunga ko‘ra, mafkuraning quyidagi: anarxiya, monarxiya, totalitarizm, liberalizm, demokratiya kabi shakllari mavjuddir.

Anarxiya. Anarxizm (yun. apagЫa-beboshliq xrkimiyatsizlik) - har qanday hokimiyat va davlatni inkor etuvchi, xap kim o‘ziga-o‘zi xo‘jayin, degan qarashni asos qilib oluvchi g‘oyalar asosida shakllangan ijtimoiy-siyosiy oqim. U jamiyatning umumiy manfaatlarini fuqarolaming individual, ya’ni xos manfaatlariga qarama-qarshi ko‘yish, umumiy manfaatlami xdsobga olib, jamiyatni boshqaruvchi, birlashtiruvchi, tartibga soluvchi davlat hokimiyatini tan olmaslik g‘oyasiga tayanadi. Bu g‘oya beboshlik va tartibsizlikka olib boradi, taraqkiyot yo‘lidan adashtiradi. SHuning uchun u reaksion, ya’ni vayronkor mohiyatga ega. Anarxizm g‘oyalari K.SHmidt (1806-1856), J.Prudon (1809- 1865), M.Bakunin (1814-1876), P.Kropotkin (1842-1921) kabilar qarashlarida ilgari surilgan bo‘lib, individualizm, sub’ektivizm, volyuntarizmni mutlakdashtirishgaasoslanadi. Bu oqim davlatni bekor qilishni da’vo qilib, uning jamiyat hayotini boshqarish, tartibga solish va yunaltirishdagi axdmiyatini inkor etadi, induvidualizmni mutlakdashtirib, bir tomonlama talkdn etish shaxs erki va mustaqilligini noto‘g‘ri tushuntirishga olib keladi.

Anarxistik induvidualizm g‘oyasining xavfli tomoni shundaki, u kishilarni boshqalarning manfaatlari bilan xisoblashmaslikka, ijtimoiy qadriyatlarni mensimaslikka, faqat o‘z shaxsiy manfaatini uylab yashashga chaqiradi. Bunday g‘oya doirasida boshqalarga muayyan maqsadga erishish uchun vosita sifatida qaraladi. Bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun jamiyat hayotini tashkil etish va boshqarish jarayonida gumanistik demokratik tamoyillarga rioya etgan xolda sog‘lom induvidualizmga keng yul ochish, shaxs manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg‘un tarzda himoya qilish, insonning o‘ziga xosligi va betakror fazilatlari erkin kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish zarur.

Monarxiya. “Monarxiya” so‘zi yunonchada "yakka hokimlik” ma’nosini bildiradi. Monarxiya oliy xokimiyat yakka hokim davlat boshlig‘ining qo‘lida bo‘lgan va bu xrkimiyat meros qilib beriladigan davlat boshqaruvini ilgari suruvchi g‘oyalar tizimidan iborat bo‘lgan, vayronkor mafkura shaklidir.

Monarxiyami tarannum qiluvchi g‘oyalarning asosiy belgilari kuyidagilardan iborat: 1) monarx davlatni shaxsiylashtiradi, tashqi va ichki siyosatda davlat boshlig‘i sifatida maydonga chiqadi; 2) monarx davlatni yakka o‘zi boshqaradi; 3) monarx hokimti muqaddas deb e’lon qilinadi; 4) monarx o‘z faoliyatida rasman mustaqildir; 5) xokimiyatni o‘rnatish, qabul qilish (legitimlashtirish)ning aloxida tartibi mavjud; 6) muddatsiz, umrbod boshqaruv; 7) monarx o‘z boshqaruvining natijasi uchun yuridik jihatdan javobgar emas.

Monarxiya mutlaq va cheklangan (yoki parlamentar) shakllarda bo‘ladi. Davlat hokimiyatini boshqa bironta idora bilan cheklanmagan monarx (kdrol, podiyu, imperator) amalga oshirsa (masalan, Saudiya Arabistonida), bunday monarxiya mutlaq monarxiya deyiladi. Agar monarxning xrkimiyati konstitutsiya asosida amal qiladigan biron-bir vakolatli idora bilan cheklangan bo‘lsa,

bunday monarxiya cheklangan, konstitutsiyaviy, parlament shaklidagi monarxiya bo‘ladi (masalan, Buyuk Britaniya, Daniya, Norvegiya, SHvetsiya).

Bunda ypyr-aymoqchilikning matssadi -o‘z a’zolarini davlat hokimiyati pillapoyalaridan mumkin sadar yusori kutarishdan iborat. Urug-aymok;chilikni ajratib turuvchi belgi - uning a’zolarining bir joyda tugilganligidir. SHuni nazarda tutish keraki, mashgulot turlarining umumiyligi, ma’naviy manfaatlar, dunyosarashlarning mushtarakligi emas, balki aynan tugilgan joyning umumiyligi asosiy belgidir. SHu belgiga k;arab ish yuritish max^lliychilikni keltirib chik;aradi.

4.1. Maxalliychilik. Bu - kishilarda o‘zlari tugilib usgan joy bilan bogliq xrlda shakllanadigan xududiy yasinlik tuygusining salbiy shaklda namoyon bo‘lishi.

Mahalliychilikning eng nomatsbo‘l tomoni mahalla, xudud, mintatsa manfaatlarini jamiyat manfaatlaridan ustun kuyishdadir. Jamiyatda bunday k;arash va munosabatlar tizimining mavjud bo‘lishi davlatning xududiy yaxlitligi, bark;arorligi, va taratskdy etishiga salbiy ta’sir kursatadi. Maxdlliychilikning kuchayishi, o‘z navbatida joylarning o‘zini-o‘zi chegaralab kuyishiga, mavjud xujalik va ijtimoiy alok;alar tizimining kuchsizlanishiga, iqtisodiy, ijtimoiy- siyosiy va ma’naviy tanazzuliga olib kelishi ham mumkin. SHuningdeq davlat ichida muayyan xudud o‘zining ustunligini ta’minlash makradida, o‘zlariga bo‘zgunchilik g‘oyalarini shior kdlib xrkimiyat uchun kurashadigan ekstremistik va kuporuvchilik guruxdarini vujudga keltirishi ham mumkin.

Maxdlliychilikning har qanday kurinishi jamiyat uchun xavfliligini tushungan xrlda uning kelib chikdshini oldini olish va binobarin, bu illatga yul kuymaslik muhim vazifa xdsoblanadi. Bu vazifani amalga oshirishda milliy istiklol mafkurasining urni bekdyosdir. Bu mafkura o‘z ahamiyatiga k}fa jamiyatimizda yashovchi barcha xalkdar, millatlar va elatlarning asosiy matssadlari va orzu-umidlarini amalga oshirishga xizmat kdladi, mahalliychiliq urug-aymok;chilik g‘oyalariga k;arshi kurasha oladi. U xalqning ma’naviy kamolotiga, ma’rifatiga asoslanib, kishilar ongida umummilliy g‘urur tuyg‘usi bilan birga, mamlakatimizning barcha xududlarida yashaydigan vatandoshlarimizning madaniyati va k;adr-kdmmati xurmat kdlinishini ta’minlashga da’vat etadi.

Millatchilik. Bu - boshqa millat kishilari manfaatlari, estiyojlariga bepisandlik bilan qarash, xudbinlarcha munosabatlarni ifodalovchi g‘oyaviy-nazariy qarashlar tizimi va amaliyoti. Millatchilik - o‘z millati

---

[17] Каримов КА. Ўзбекистон XXI аср бусагасида: хавфсизликка таздид, баркарорлик шартлари ва таракдиёт кафолатлари // Унинг узи. Хавфсизлик ва барк;арор таракдиёт йулида. Т.6. -Т.: Ўзбекистон, 1998. -Б.90-93.

manfaatlarini, ehtiyojlarini boshqa millat manfaatlarini, extiyojlarini kamsitish yordamida qondirishdir.

Millatchilik chinakam milliy gururni shakllantirmaydi. Milliy gururni millatchilik bilan tenglashtirish millatlararo munosabatlar madaniyatiga FOB bo‘ladi. Milliy gurur bir millatga xos bo‘lgan xususiyatlarni rivojlanishiga, ularning kelajak hayotini yuksaltirishga k;aratilgan intilish bo‘lsa, millatchilik boища millatlar, elatlar manfaatlari, ehtiyojlarini nazar-pisand kdlmasliq ularning xukuk; va erkinliklarini chegaralashga k;aratilgan faoliyat, xdrakatdir.

Millatchilik siyosiy tusga kirsa, kuchli salbiy yunalish kasb etishi mumkinligani ta’kidlash zarur. Bu davlat va millat xavfsizligiga, mintak;aviy va keng kulamdagi xavfsizlikka ancha kuchli tahdidga aylanib ketishi mumkin.

Millatchilik turli shakllarda namoyon bo‘ladi. U bir xududda yashayotgan millatlarning yoki bir davlatda istik;omat kdlayotgan millatlar urtasida, muayyan imperiya sharoitida bir millatning ikkinchisi yoki boshqalaridan ustunligi tarzida ruy berishi ham mumkin.

## 5-MAVZU: MAFKURAVIY TAJOVUZ VA AXBOROT XAVFSIZLIGI

### REJA

1. Mafkuraviy kurash va uning asosiy yo‘nalishlari. Mafkuraviy gegemonizm - mafkuraviy tajovuzni amalga oshirish tayanchi
2. Axborot kommunikatsiyalarida mafkuraviy hurujlarning namoyon bo‘lishi. Internet mafkuraviy xuruj ob’ekti sifatida
3. Milliy-ma’naviy, g‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlash – har xil mafkuraviy tahdid, xavf-xatar va tajovuzlarning oldini olish vositasi
4. Axborot xurujiga qarshi axborot xavfsizligini ta’minlashning zarurati va ahamiyati.

### 1. Mafkuraviy kurash va uning asosiy yo‘nalishlari. Mafkuraviy gegemonizm - mafkuraviy tajovuzni amalga oshirish tayanchi

Mafkuraviy kurash tushunchasi va uning mohiyat-mazmuni. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi davrida ruy berayotgan mafkuraviy jarayonlar inson ongi, qalbi, xilma-xil usullarda olib boriladigan g‘oyaviy targ‘ibot va tashviqotning asosiy ob’ekti hamda maqsadiga aylanganini ko‘rsatmokda. Prezident Islom Karimov ta’kidlaganidek "Bugungi kunda insoniyat yo‘lida mavjud bo‘lgan qurol-yarog‘lar Er kurrasini bir necha bor yakson qilishga etadi. Buni hammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin hozirgi zamondagi eng katta xavf - insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo‘layotgan kurashlar ko‘p narsani hal qiladi. Bu achchiq haqiqatni hech qachon unutmaslik lozim"[18]. Masalaning mohiyatini tushunish uchun g‘oya va ong munosabatiga daxldor bo‘lgan quyidagi holatlarga e’tibor berish zarur.

Muayyan g‘oya inson tomonidan qabul qilinmasligi yoki u shaxs ongida faqat muayyan axborot sifatida saqlanib qolishi mumkin. Birinchi holatda g‘oya inson ongida hech qanday iz qoldirmasa, ikkinchisida g‘oya shaxs uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lmaydi. Inson ongi va qalbi uchun kurash, degan fikrda g‘oya va ong munosabati sharqona falsafiy tafakkur asosida ifodalab berilgan. G‘oya faqatgina inson ongi orqali uning qalbini egallagan, inson ma’naviy-ruhiy holatining uzviy qismiga aylangandagina harakatga da’vat etuvchi, rag‘batlantiruvchi *kuchga, faoliyat uchun qo‘llanmaga aylanadi. SHuning uchun ham bugungi kunda ushbu tamoyil mafkuraviy kurashning o‘zagini tashkil etmoqda.*

Mafkuraviy kurash - bu turli g‘oyaviy qarashlar, yondashuvlar, xilma-xil maslak va maqsadlarga ega ijtimoiy sub’ektlar o‘rtasida yuzaga keladigan, qarama-qarshilikka asoslangan munosabatlar demakdir. U yangi, shakllanayotgan g‘oyalar bilan o‘z "vazifasini" bajarib bo‘lgan mafkura yoki uning qoldiklari o‘rtasidagi munosabat shaklida ham sodir bo‘lishi mumkin. SHu bilan birga, mafkuraviy kurash muayyan g‘oyalarni singdirish yoki himoya qilish jarayonini ham anglatadi. Mafkuraviy kurashni muxolif mafkuraviy

[18] Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси - халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир // Унинг узи. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон хаёт - пировард максадимиз. Т.8. -Т.: Ўзбекистон, 2000. -Б.491.

qarashlarning har qanday ko'rinishini yo'q qilishga, g'oyaviy plyuralizmni bartaraf qilishga qaratilgan harakatlar - mafkuraviy konfrontatsiyadan (fran. - qarama-qarshi qo'yish) farqlash kerak.

Mafkuraviy konfrontatsiya aksariyat hollarda g'oyaviy sohada mutlaq ustuvor bo'lib kelgan qarashlar tizimi barbod bo'lgan, kishilar ko'p yillar davomida shakllanib kelgan hayotiy mo'ljallarini yo'qotib qo'ygan, sodda qilib aytganda, mafkuraviy beqarorlik vaziyatining hosilasi hisoblanadi[19]. Bunday beqarorlik holati keskin ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, xususan, bir tuzumdan boshqasiga o'tish davri, muayyan hollarda tashqi ta'sir, masalan, xalqaro maydonda yakkalanib qolish yoki harbiy harakatlar, o'zaro urushlarda engilish oqibatida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat natijasi ham bo'lishi mumkin. Bir so'z bilan aytganda, mafkuraviy beqarorlik jamiyatdagi mavjud mafkuraviy muvozanat buzilgan, ammo yangisi qaror topmagan vaziyatdagi g'oyaviy o'zgaruvchan holat hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyoti bunday hollarda g'oyaviy antagonizmga asoslanadigan mafkuraviy konfrontatsiya yuzaga kelishi uchun real shart-sharoit paydo bo'lishini ko'rsatadi. Bunday antagonizm muayyan jamiyat (davlat) doirasidagi hamda mamlakatlararo darajadagi ziddiyatlarning keskin xarakter kasb etishining in'ikosi hisoblanadi. Mafkuraviy konfrontatsiya vayronkor xarakterga ega bo'ladi, unda dushman deb hisoblangan mafkura(lar)ni yo'qotishga alohida e'tibor beriladi.

Bunday paytda o'z davriga nisbatan yashovchan, kishilar ruhiyati, orzu-umidlari bilan bog'liq mayllarni to'g'ri va aniq ifodalagan mafkura g'olib bo'ladi. Bunday mafkura mohiyatan hamma vaqt ham progressiv xarakterga ega bo'lmasligi mumkin. Fashistlar Germaniyasida natsional sotsializm, sho'rolar davrida bolshevizmning muxolif g'oyaviy qarashlar, ularning sohiblari va tarafdorlarini yo'q qilish yo'lida olib borgan g'ayriinsoniy harakatlari buning isboti bo'la oladi.

O'zgacha g'oyaviy qarashlar va yondashuvlarga ashaddiy dushmanlik ko'zi bilan qaraladigan, jamiyat taraqqiyotining yagona va eng oqil yo'lini ko'rsatishga da'vo qiladigan hamda kishilarda g'oyaviy indifferentlik ruhiyatining qaror topishiga xizmat qiladigan mafkura yakkaxokimligi sharoitida mafkuraviy kurash haqida gapirish mumkin emas.

Mafkuraviy kurash manbaini o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, bir-biridan farqlanuvchi turli g'oyaviy qarashlar sohiblari, ularning manfaatlari o'rtasidagi ziddiyatlar tashkil etadi. Ammo, mafkuraviy kurash sodir bo'lishi uchun turli ijtimoiy sub'ektlar mavjudligining o'zi etarli emas. Bunday kurash ularning manfaatlari bir-biridan farklanuvchi g'oyaviy shakl kasb etgan, mafkuraviy plyuralizm real voqelikka aylangandagina, sodda qilib aytganda, mafkuraviy ziddiyat mavjud bo'lgandagina real xarakter kasb etadi. SHundagina mafkuraviy jarayonlar jamiyat rivojlanishini ta'minlashning zaruriy sharti sifatida o'zligini namoyon qiladi. Kishilar, ijtimoiy guruhlarning bir-biridan farqlanuvchi ehtiyoj va manfaatlarini ruyobga chiqarish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu, o'z navbatida sotsial strukturadagi o'rnidan qat'i nazar, jamiyat a'zolari uchun ijtimoiy taraqqiyotning optimal yo'llarini oydinlashtirishga xizmat qiladi. Ayni paytda, bu jarayon yangidan-yangi g'oyalarning paydo bo'lishiga, mafkuraviy qarashlardagi ijobiy va salbiy jihatlarning oshkor bo'lishiga zamin yaratadi, muayyan mafkuraviy qoida, tamoyillarning qayta ko'rib chiqilishi, kun tartibidan olib tashlanishi hamda mavjud ijtimoiy qatlamlar ehtiyoj va manfaatlari, orzu-umidlari va intilishlariga hamohang bo'lgan qarashlarning yanada rivojlanishiga yo'l ochadi. Mazkur holatlar biron-bir jamiyat yoki davlat yangilanayotganida, bir bosqichdan boshqasiga o'tayotganida yaqqol namoyon bo'ladi.

Mafkuraviy kurashning asosiy yo'nalishlari. Hozirgi kunda mafkuraviy kurash quyidagicha yo'nalishlarga ega bo'lishi mumkin:

− o'z umrini o'tab bo'lgan, yangi zamon talablariga javob bera olmay qolgan mafkura, g'oyalar tizimi yoki g'oyaviy- mafkuraviy tamoyillarga qarshi faoliyat;

− muayyan millat, jamiyat va davlat uchun begona hamda yot bo'lgan, chetdan turib, turli maqsadlarda, xilma-xil vositalar orqali joriy etishga harakat qilinayotgan g'oya va mafkuralarga nisbatan amalga oshiriladigan harakat, chora- tadbirlar majmui;

-asl maqsadlari xalq va jamiyatning umumiy manfaatlariga zid bo'lib qolgan ichki kuchlar, konservativ sub'ektlarga xos g'oya va mafkuraviy qarashlarga qarshi kurash;

− yangi jamiyat va yangi davlat barpo etish, hayotda tub o'zga- rish va isloxrtlarni amalga oshirishga xizmat qiladigan g'oyalar hamda mafkuraviy tizim shakllanishi uchun olib boriladigan faoliyat va boshqalar.

Zamon va davr nuqtai nazaridan uzoq muddatni qamrab olishi, istiqbolni anglash bilan bog'liqligi

---

[19] Очилдиев А. Глобаллашув ва мафкуравий жараёнлар. -Т.: "Мухаррир" нашриёти, 2009. -Б.15-16.

hamda dialektik xarakteri bilan ajralib turadigan mafkuraviy kurash muayyan mamlakat yoki jamiyatning manfaatlari va imkoniyatlari bilan belgilanadigan ehtiyojlar va intilishlar in'ikosi sifatida namoyon bo'ladi.

Kanday holda bo'lmasin, g'oyaviy kurash hamisha amalga oshiriladigan harakat natijalari, unga erishish yo'llarining belgilab olinishini bildiradigan faoliyat sifatida muayyan maqsadlarda amalga oshiriladi. Ularni ruyobga chiqarishda xilma-xil usul va vositalardan foydalaniladi. Jumladan, bunda tashkiliy omil - targ'ibot va tashviqot infrastrukturasining rivojlanganlik darajasi u yoki bu tarzda g'oyaviy ta'sirni ro'yobga chiqarishda o'ziga xos o'rinni egallaydi. SHu bilan birga, texnika va texnologiyalar ham bugungi kunda g'oyaviy maqsadlarni amalga oshirishda tobora muhim ahamiyat kasb etib bormokda. Integratsiya jarayonlari chuqurlashib borayotgan, mamlakatlar va mintaqalar bir-biri bilan tobora mustahkam bog'lanib borayotgan bugungi kunda milliy, diniy va demografik omillar mafkuraviy maqsadlarni amalga oshirishning manbai sifatida namoyon bo'lmokda.

Bulardan tashqari mintaqada gegemonlikka da'vogar bo'lgan mamlakat borligini asoslash, ta'bir joiz bo'lsa, shunday davlat obrazini yaratish yo'lida ham jiddiy harakatlar qilinmokda. Bunday obrazlarning yaratilishi Er yuzining turli nuqtalarida nizoli vaziyatlarni, millatlararo va davlatlararo munosabatlarda tangliklarni yuzaga keltirgan. Hozirda ham bunday "obrazlarning" yaratilishi mamlakatlarning iqtisodiy, ma'naviy-intellektual salohiyati jamiyat taraqqiyotini ta'minlash o'rniga ana shu "obraz" ta'sirining oldini olishga yo'naltirilmokda. Natijada asosiy maqsadga - muayyan davlatni zaiflashtirish orqali o'z "ittifoqchisiga" aylantirishga erishilmokda. Demak mafkuraviy kurash maydonida mafkuraviy gegemonizm mexanizmi ham ishga tushirilmoqda.

Mafkuraviy gegemonizm. Gegemonizm (yunon. gegemoniya - etakchilik boshqarish) - ijtimoiy guruh sinf, davlat yoki etnosning boshqa guruhlar, sinflar, davlat va etnoslar ustidan etakchilikka da'vo qilishi. Ijtimoiy-siyosiy ta'limotlar tarixida gegemoniyaga turlicha yondashuvlar bo'lgan. qadimgi yunonlar va rimliklar o'zlarini madaniyatli odam hisoblashgan va boshqa barcha xalqlarni, shu jumladan, Evropa xalqlarini ham varvarlar, ya'ni yovvoyilar deb hisoblashgan. Bunday yondashuv, tabiiyki, yunonlar va rimliklarning dunyoda gegemonlikka da'vo qilishiga olib kelgan.

Marks va Leninning siyosiy nazariyasida asosiy o'rin proletariat gegemonligiga ajratilgan edi. Ularning fikriga ko'ra, barcha quyi sinflar, qatlam va guruhlarning sotsialistik inqilob yo'lidagi ittifoqiga proletariat etakchilik qilishi lozim. Mamlakatlarning XX asr davomida va XXI asr boshlaridagi rivojlanishi proletariat gegemoniyasi to'g'risidagi ta'limot o'rinsiz ekanini ko'rsatdi. Har bir muayyan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasiga, uning ijtimoiy tuzilmasi xususiyatlariga bog'liq ravishda turli ijtimoiy qatlam va guruhlar boshqa guruh va qatlamlarga ma'lum davr davomida etakchilik qilishi mumkin.

XX asr o'rtalarida jahon siyosiy xaritasida ikki qutblilik vujudga kelgach, AQSH va sobiq Sovet Ittifoq gegemonlikka da'vo qila boshladi. Sobiq Ittifoq parchalanib ketgach, siyosiy maydonda ko'p qutblilik vujudga keldi. Biroq AQSH dunyoga gegemonlik qilish da'vosidan qaytmadi.

Umumjahon miqyosida gegemonlikka da'vo qiladigan davlatlardan tashqari mintaqaviy gegemonlikka da'vo qiluvchi davlatlar ham bor. Ular o'z mintaqalaridagi davlatlarga siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan ta'sir o'tkazmoqchi bo'ladi.

Biron-bir g'oya yoki mafkura muayyan xalq, xudud va jamiyat hayotida yakka xukmron bo'lib tursa, gegemoniya tushunchasini g'oya va mafkura atamalariga nisbatan ham qo'llash mumkin. SHunga kura mafkuraviy gegemonizm deb muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, davlat hayotida yakka xukmron bo'lgan g'oya va mafkuraning boshqalar ustidan xukmronlik qilishini ifodalovchi nazariya va amaliyot xatti-harakatlar tizimiga aytiladi.

Muayyan g'oya yoki mafkuraga ishonish yo ishonmaslik har bir insonning shaxsiy ishi. Gegemonlikka intiluvchi g'oya va mafkura jamiyatdagi vaziyatdan foydalanib, kuch ishlatish, zo'ravonlik yoki boshqa bir noqonuniy xatti-harakat bilan gegemon bo'lib olishga urinishi mumkin. Bunday urinishlarni o'z vaqtida payqab olish hamma vaqt ham oson bo'lmagan. XX asrning 30-yillarida Germaniyada fashizm xukmron mavqeni egallab, nafaqat nemis xalqi, balki dunyodagi millionlab kishilarning boshiga cheksiz kulfatlar keltirgani bunga misol bo'la oladi. Kommunizm g'oyasi ham dunyodagi ko'plab xalqlar ongini zaharlab, ijtimoiy taraqqiyotning sekinlashuviga sabab bo'ldi. Hozirgi kunda ham mafkuraviy gegemonlikka intilayotgan mafkuralar ko'pdir. Masalan, buyuk davlatchilik shovinizmi, neofashizm, panamerkanizm va boshqalar. Ularning barchasi ochiq yoki yopiq tarzda mafkuraviy tajovuz bilan shug'ullanmokdalar.

Mafkuraviy tajovuz - muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, siyosiy va konstitutsion tuzumni zaiflashtirish va buzishga yo'naltirilgan, fuqaro va jamiyat

xavfsizligiga tahdid soluvchi g‘oyaviy-nazariy qarashlar va unga asoslangan amaliyot majmui hisoblanadi.

Mafkuraviy tajovuz yovuz kuchlar va har xil markazlar tomonidan biron-bir mamlakatga nisbatan ichkaridan yoki tashqaridan turib bevosita amalga oshiriladigan g‘oyaviy buzg‘unchilikning bir shaklidir. Ular o‘z jirkanch maqsadlariga erishish uchun har qanday usullardan, odamlarning diniy, milliy hissiyotlari, xayotda mavjud bo‘lgan ijtimoiy- iqtisodiy qiyinchiliklardan, shuningdek zamonaviy texnika, telekommunikatsiya vositalaridan ustalik bilan foydalanishga xarakat qiladilar.

Bugungi kunda mafkuraviy tajovuz deganda, aholining ma’lum bir qatlamlari, ayniksa, yoshlarning karashlarini o‘zlariga ma’kul bo‘lgan yo‘nalishda o‘zgartirish, buzg‘unchi g‘oyalar, diniy ekstremizm, axloqsizlik g‘oyalarini singdirish kabi g‘arazli maqsadlar tushuniladi. Bunday tajovuz fuqarolarni qonuniy xokimiyat organlari faoliyatiga xalaqit qilish, zo‘ravonlik xatti-harakatlarini amalga oshirishga undash yoki ularni konstitutsiyada ko‘zda tutilmagan boshqa tuzilmalar bilan almashtirishga chaqirishda namoyon bo‘lmokda.

2. Axborot kommunikatsiyalarida mafkuraviy xurujlarning namoyon bo‘lishi. Internet mafkuraviy xuruj ob’ekti snfatnda

Internet va undan mafkuraviy xuruj ob’ekti sifatida foydalanish oqibatlari. Mafkuraviy gegemonlikka intilayotgan kuchlar axborot kommunikatsiyalar va internet orqali mamlakatimizga mafkuraviy xurujlarlarni amalga oshirmokda. Bunga sabab qilib quyidagi internetdan foydalanish borasidagi fikrlarni keltirish mumkin.

Xo‘sh, internet nima? Internet inglizcha Internet - to‘r, o‘rgimchak to‘ri: umumjahon tarmog‘i degan so‘zlardan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida umumjahon kompyuter tarmog‘i, ya’ni butun jahon buyicha tarqalgan va telefon hamda optik-tolali liniyalar, modemlar va boshqalar bilan o‘zaro bog‘langan, har qanday axborotni o‘zaro almasha oladigan katta miqdordagi kompyuterlar majmui degan ma’noni bildiradi. Bu tarmoq 1972 yilda AQSH mudofaa vazirligining loyixasi asosida vujudga kelgan bo‘lib, u XX asrning buyuk kashfiyotlaridan biri hisoblanadi. Umuman olganda internet vaqtni va mablag‘ni tejashga yordam berishidan tashqari axborotlarni juda tez uzatish va qabul qilish, kerakli ma’lumotlarni tez izlab topish, uzog‘imizni yaqin qilish, onlayn suhbatlar ko‘rish, dunyo voqealari bilan qisqa fursatlarda xabardor bo‘lish kabi ko‘plab imkoniyatlarni yaratib beradi.

Xozirgi kunda internet tizimining ijtimoiy tarmoqlari xizmatlari keng ommalashib bormokda. Ijtimoiy tarmoqning maqsadi internetda o‘zaro qiziqishlar yoki faoliyatga ega shaxslar bilan muloqot qurishdan iborat.

Foydalanuvchilarining soni buyicha hozirda Facebook ijtimoiy tarmog‘i 500000000 foydalanuvchisi bilan etakchilik qilmokda. Undan keyingi o‘rinlarda MySpace (255000000 foydalanuvchi), Odnoklassniki (205000000 ortiq), Twitter (200000000 foydalanuvchi), Windows Live Spaces (120 000 000 foydalanuvchi) ijtimoiy tarmoklarni keltirish mumkin.

Ammo xamma narsaning yaxshi va yomoni bo‘lganidek, bu qulayliklar bilan birga internetdan samarali va maqsadli foydalanuvchilardan tashqari undan vaqtni bekorga o‘tkazish, turli ko‘ngilochar xamda behayo saytlardan foydalanuvchilar ham ko‘payib bormokda. Buning asosiy sababi internetdan foydalanuvchilarning, ayniqsa, yoshlarning tizimdan maqsadli foydalanish ko‘nikmalari va madaniyatini to‘liq shakllanmaganligi deb aytish mumkin.

E’tibor berib, keltirilgan veb sahifalar tahlili quyidagi salbiy holatlar va kamchiliklar: foydalanuvchilarning ayrimlari o‘z nomlari bilan ro‘yxatdan o‘tkazmasligi; nomaqbul fotosuratlar qo‘yishi; o‘zaro muloqotlarda xurmatsizlik qilishi; bema’ni gaplar yozishi, ba’zan noto‘g‘ri ma’lumotlardan foydalanishi; sahifalar ijtimoiy bo‘lishiga qaramasdan siyosiy muloqotlar o‘rnatishi kabi holatlarning uchrab turishini ko‘rsatmokda.

SHu bilan bir qatorda katta moliyaviy imkoniyatlarga ega bo‘lgan korchalonlar o‘zlarining g‘arazli maqsadlarini amalga oshirish maqsadida o‘zlarining g‘oyaviy dushmanlarini badnom qilish yoki boshqalar ustidan mafkuraviy gegemonlikka erishish uchun o‘zga xalqlarga nisbatan mafkuraviy xuruj qilish ishlarini bajarishda internetdan keng ravishda foydalanmokda.

Axborot kommunikatsiyalari va internet orqali qilinayotgan mafkuraviy xurujlar. Ular orqali qilinayotgan mafkuraviy xurujlarni quyidagicha tasniflash mumkin.

Birinchidan, jamiyatimiz a’zolarining ongi va tafakkuriga ta’sir qilishga qaratilgan xurujlar. Ma’lumki, xalqimizning asrlar davomida shakllanib kelayotgan milliy ongi va dunyoqarashida hamda xulq-atvor normalarida ota-onaga, o‘zi yashayotgan mahalla jamoasiga, katta yoshdagi kishilarga chuqur xurmat bilan

qarash, muayyan voqea va hodisalarga bosiqlik, mulohaza va andisha bilan munosabatda bo‘lish, jamoa fikriga nisbatan aloxida ehtirom ko‘rsatish kabi xislatlar ustuvorlik qiladi. Qolaversa, aynan mana shu qadriyatlar jamiyatimiz ma’naviyatining tamal toshini tashkil qiladi.

Bunday vaziyatni yaxshi o‘rgangan g‘animlarimiz bizga qarshi ma’naviy xurujlarni amalga oshirishda xalqimizning mana shunday ulug‘vor qadriyatlariga mutlaqo teskari va begona bo‘lgan, asosan "individualizm" "egoizm", "kosmopolitizm", "zo‘ravonlik", "diniy mutaassiblik" g‘oyalarini iloji boricha chiroyli niqoblarga o‘rab, jamiyatimizga olib kirishga urinmokda. g‘animlarimizning xalqimiz milliy ongiga ta’sir ko‘rsatishdan ko‘zlangan asosiy maqsadi Prezidentimiz I.A. Karimov xulosa qilganidek: “O‘zbekistonda xukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikni, jamiyatimizdagi bunyodkorlik muhitini, bugun biz barpo etayotgan farovon va osuda hayotni buzish, tobora kuchga kirayotgan davlatimizni ag‘darish, tanlagan yo‘limizdan qaytarishdir. Odamlarimizning yuragiga vahima va qurquv solish hisobidan ularning ertangi kunga bo‘lgan ishonchini yo‘qotish, bir-biriga qarshi qo‘yish, yurtimizda, mintaqamizda o‘z manfaati, o‘z siyosatini o‘tkazishdan iborat”[20].

Ikkinchidan, milliy urf-odatlarimizga bo‘layotgan xurujlar. Ma’lumki, xalqimizda o‘ziga xos milliy odatlar, an’analar shakllangan. Jamoa bo‘lib yashash, qarindosh-urug‘larga mexribonlik, to‘y va ma’rakalar, bayramlar, tarbiya masalalarida, hasharlarda ijtimoiy hamkorlikning boshqalarda uchramaydigan o‘ziga xos yuqori darajasining namoyon bo‘lishi shular jumlasidan. Xalqimizning bu urf-odatlari asrlar davomida jamiyat mustahkamligining asosi bo‘lib xizmat qilib kelmokda.

Milliy an’analarimiz va urf-odatlarimizning mamlakatimiz taraqqiyoti uchun naqadar ulkan ahamiyatini sezgan taxdidchilar bu borada ham muayyan xurujlarni amalga oshirmokda. SHu maqsadga erishish uchun ular global aloqa tizimlari va boshqa vositalar orqali ma’naviy qashshoqlikka, tarkidunyochilikka, odamlarga nisbatan oqibatsizlik va shafkatsizlikka olib keluvchi g‘oyalarni hamda urf-odat normalarini zo‘r berib targ‘ib qilmokda. Bular orasida, ayniqsa, odamovilik, ota-onaga nisbatan bepisand qarash, shaxsiy hayotni ulug‘lash kabi g‘oya va qarashlar ustuvorlik qilmokda.

Uchinchidan, milliy madaniyatimizga bo‘layotgan xurujlar. Sir emaski, xalqimizning milliy madaniyati o‘zining qadimiyligi, boyligi bilan alohida ajralib turadi. Markaziy Osiyo tarixida aql-idrok bilan ma’naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o‘zida mujassam etgan allomalar ko‘p bo‘lgan. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Baxouddin Naqshband, Xoja Ahmad YAssaviy, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulugbek, Zahiriddin Bobur va boshqa ko‘plab buyuk ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissaq qo‘shdilar, xalqimizning milliy iftixori bo‘lib qoldilar. Ularniyg nomi, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo‘shgan buyuk hissasi hozirgi kunda butun dunyoga ma’lum.

Ma’naviy xuruj uyushtirayotgan kuchlar jamiyatimiz a’zolarini milliy madaniy boyliklar va imkoniyatlardan begonalashtirishga harakat qilmoqda. SHu maqsadda ular Internet tarmog‘idan, kinofilmlar va san’at turlaridan foydalangan holda nihoyatda ohanrabo, lekin engil-elpi, inson tafakkurini rivojlantirishga emas, aksincha uning sayozlashuviga xizmat qiluvchi namunalarni jamiyatimizga olib kirishga intilmokda. Bunday san’at va madaniyat namunalarida behayolik, mantiqsizlik g‘oyalarining targ‘iboti etakchilik qilmokda. Vaholanki, bu mamlakatlarning o‘zlari millatlarni parokandalikka olib boradigan, insoniyat uchun sharmandali vaziyatlarni demokratiya, inson xukuqlari kabi oliy qadriyatlar shiori ostida targ‘ib qilmokda.

Mana shunday holatlardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki: bugungi kunda mamlakatimizning har bir fuqarosida samarali va mustahkam ma’naviy immunitetni shakllantirish kechiktirib bo‘lmaydigan vazifaga aylandi. Ma’lumki, Prezidentimiz I.A.Karimovning 2000 yilda “Fidokor” gazetasi muxbiriga bergan intervyusida mafkuraviy immunitetning mohiyati va zarurligi asoslab berilgan edi. I.A.Karimov ta’kidlaganidek: "Bir xalqni o‘ziga tobe qilishni istagan kuchlar, avvalo, uni o‘zligidan, tarixidan, madaniyatidan judo qilishga intiladi. ...SHunga o‘xshash zararli ta’sirlar davom etaversa, millat o‘zligini yo‘qotishi, ming yillik an’analarini boy berib, olomonga aylanib qolishi ham hech ran emas. Tabiiy savol tug‘iladi: bunday mafkuraviy ta’sirlar salbiy oqibatlarga olib kelmasligi uchun nima qilish kerak? Buning yo‘li - odamlarimiz, avvalambor, yoshlarimizning iymon-e’tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash. Ularning tafakkurida o‘zligini unutmaslik, ota-bobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va xurmat qilish fazilatini qaror toptirish. Ularning,

[20] Каримов И.А. Ватанимизнинг тинчлиги ва хавфсизлиги ўз куч- кудратимизга, халқимизнинг ҳамжихатлигига ва букилмас иродасига боглиқ // Унинг узи. Тинчлик ва хавфсизлигимиз уз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боглиқ. Т.12. - Т.: Ўзбекистон, 2004. -Б.250.

men o‘zbek farzandiman deb, g‘urur va iftixor bilan yashashiga erishishdir”[21]. Bugun kuchli davlatlarning targ‘ibot va tashviqotlari natijasida uchinchi dunyo mamlakatlari o‘zlarining yuqori malakali mutaxassislaridan ajralmokdalar. Oddiygina raqamlarga murojaat qilganimizda buning tasdig‘ini ko‘ramiz. G‘arb ommaviy axborot vositalarining doimiy tarzda olib boradigan targ‘ibot va tashviqotlari natijasida kambag‘al Afrika mamlakatlari uchun yuqori malakali mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoj yuqori bo‘lib turgan bir paytda, oliy va yuqori malakali xodimlarning har uchtasidan bittasi rivojlangan davlatlarga ketib qolmokda. Har yili Afrikadan o‘rtacha 23 000 ilmiy xodim va o‘qituvchi chiqib ketmokda. Keyingi besh yil mobaynida qit’a davlatlari 60 mingdan ortiq o‘rta va yuqori bo‘g‘indagi boshqaruv xodimlaridan mahrum bo‘ldi. Ma’lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi.

Internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish - mafkuraviy xurujlarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish vositasi. Axborot kommunikatsiyalari orqali qilinayotgan mafkuraviy xurujlarga qarshi mafkuraviy immunitetlarni kuchaytirishda internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish va yuksaltirishni taqozo etadi.

Buning uchun yoshlarimizga: 1) internetdan maksadli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish; 2) kerakli ma’lumotlarni tez izlab topish malakasini ortishi; 3\vaqtdan unumli foydalanish, vaqtni qadriga etish; 4) yozish savodxonligi ortishi; 5) bilim va amaliy kunikmalarini shakllantirish; 6) ijodiy va intellektual salohiyatini ruyobga chiqarish; 7) zamonaviy axborot texnologiyalarni amaliyotga qo‘llay bilish; 8) zamon talabi bilan hamnafas bo‘lib yashashni o‘rgatish asosida, ularning internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish uchun birinchidan, g‘oyaviy-mafkuraviy salohiyatini o‘stirish va barkamol avlod tarbiyasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanishni; ikkinchidan, axborot-kommunikatsiya va internet texnologiyalari yutuqlaridan oqilona va maqsadli foydalanish; uchinchidan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan va axborotlardan foydalanish muhitini yaratish; to‘rtinchidan, internet tarmog‘ida yoshlarga, ularning qiziqishlariga va intilishlariga, axborot ehtiyojlariga yo‘naltirilgan elektron manbalarni tashkillashtirish kerak.

Afsuski, dunyoda kiber firibgarlik, axloqsizlik va jinoyatning turlari va usullari tobora ko‘payib bormoqda. Ularga nisbatan qonunchilikni yanada takomillashtirish, aholining xolis axborot va xavfsiz internetga bo‘lgan xuquqlarini etarli himoya qilish bugungi kun talabi hisoblanadi.

YOshlarning internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirishda milliy mafkuramizni targ‘ib qiluvchi, o‘zligimizni anglatuvchi, kuchli g‘oyaviy, ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy, badiiy, sport, harbiy-vatanparvarlik, milliy o‘yinlar yo‘nalishlarida milliy axborot resurslarini yaratish va rivojlantirish zamon talabi hisoblanadi. Demak, bu ish bilan faqatgina pedagoglar yoki ota-onalar emas, balki mahallakuy,tarbiyachilar,“internetklub"larningxodimlari, bolalar va yoshlarning "Kamalak" va "Kamolot YOIH" kabi tashkilotlari, provayderlar, ommaviy axborot vositalari, xullas, keng jamoatchilik birgalikda shug‘ullanishi lozim. CHunki, zndilikda yoshlar internetdan faol foydalanuvchi sub’ektlarning aksariyat qismini tashkil etadi, ularning mafkuraviy ongi unda berilayotgan ma’lumot-axborotlar orqali shakllanib boradi. Bu mafkuraviy jarayonni ta’qiq yo‘li bilan to‘xtatib bo‘lmaydi.

3. Milliy-ma’naviy, g‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlash - har xil mafkuraviy taxdid, xavf-xatar va tajovuzlariing oldini olish vositasi

Xavfsizlik tushunchasi, uning toifa, tur va shakllari. Xavfsizlik muammosi mustaqil davlatchilikning shakllanishi va jamiyatda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy manfaatlarning qaror topishi bilan bir vaqtda vujudga keladi. CHunki shu vaqtdan boshlab, barqarorlik, rivojlanish bilan bir qatorda xavf-xatar, turli-tuman taxdidlar ham paydo bo‘lib, ularni hisobga olish, ularga asoslanib, davlat strategiyasi va siyosatini ishlab chiqish xamda amalga oshirish mamlakat xavfsizligini ta’minlashning muxim sharti xisoblanadi.

Xo‘sh, xavfsizlik nima? Xavfsizlik arabcha "xavf-xatar” so‘zidan olingan bo‘lib, "qurqinch”, "vaxima" "hadiksirash”, "xavotirlanish"larning yo‘qligi, ularning oldini olish degan ma’nolarni anglatadi[22]. Bu tushuncha Rober ma’lumotnomasiga ko‘ra 1190 yilda paydo bo‘lgan va u, dastlab, o‘zini har qanday xavf-xatardan ximoyalangan deb xisoblovchi inson ruxining xotirjam xolatini ifodalagan[2]. Ushbu ma’noda mazkur termin

[21] Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси - халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир // Унинг узи. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон х,аёт - пировард мақсадимиз. Т.8. -Т.: Ўзбекистон, 2000. -Б.494.

[22] Ўзбек тилининг изохли луғати. 4.Ж. -Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2008. -Б.372.

G‘arbiy Evropa xalqlari leksikonida XVII asrgacha qo‘llanilgan. Tarixning keyingi davrlarida davlat tuzilmalarining shakllanishi bilan bog‘liq ravishda xavfsizlik tushunchasi moddiy, siyosiy va iqtisodiy sohalarda davlat qurilishi, boshqarish organlari tendensiyalariga mos keladigan real xavf- xatar (jismoniy va ma’naviy)ning yo‘qligi natijasida vujudga keladigan tinchlik xolati sharoiti ma’nosini anglatgan[3].

XX asrning oxirlariga kelib, "xavfsizlik" va "milliy xavfsizlik” tushunchalari bizning leksikonimizda tez-tez qo‘llanila boshlandi. Bu insoniyat rivojlanishining murakkablashuvi, yadro, atom va boshqa ommaviy qirg‘in qurollarining keng tarqalishi, ekologik vaziyatning og‘irlashganligi, yangi xavfli kasalliklarning vujudga kelishi, terrorizm xavfining kuchayishi, totalitar tuzum emirilganidan keyin dunyoning qarama-qarshi qutblarga bo‘linishi barham topgandan keyingi davlatlar o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi, yangi mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishi, ularda bozor islohotlarining amalga oshirilishi bilan izohlanadi. Dunyodagi bunday o‘zgarishlar xavfsizlik, umumiy va milliy xavfsizlik muammolariga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirdi.

Xavfsizlik tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, turlicha ma’noda talqin etiladi. Masalan, professor S.Otamuratov: "Xavfsizlik deganda, voqea, hodisa, jarayon va turli munosabatlarda kechadigan ustuvorlikka intilish amaliyoti davomida "kuchli”ning "zaif" yoki "kuchsiz" tomonga o‘tkazadigan salbiy ta’siridan himoyalanganlik salohiyatini tushunish mumkin”[23], professor R.Samarov esa: “Xavfsizlik - aniq ob’ektning (ichki va tashki jihatdan) himoyalanganlik holati bo‘lib, bunda barcha tahlikalar me’yoriy darajalardan oshib ketmasligi tushunilishi lozim"[24], - deb ta’kidlaydilar. Umuman olganda xavfsizlik bu - butun insoniyatning normal yashashi uchun xavf soladigan tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy- xuquqiy, ma’naviy-madaniy ahamiyatga molik bo‘lgan xavf- xatarlarning oldini olish tufayli ularning barqaror hayot kechirishini ta’minlash uchun yaratilgan xavfsiz shart-sharoitlarning muayyan tizimidir.

Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. SHunday bo‘lishiga qaramasdan ularda umumiy g‘oya ham mavjud bo‘lib, bunga ko‘ra xavfsizlik insoniyat hayotining turli sohalarida vujudga keladigan xavf-xatardan himoyalanish, kafolatlanish ma’nosini anglatadi. Xavf-xatar esa davlat va jamiyat rivojlanishiga, normal amal qilishiga taxdid soluvchi potensial yoki real kuch, omil hisoblanadi. Xavf- xatar namoyon bo‘lishining keskin shakllariga tabiiy, ijtimoiy kataklizmalar, portlashlar va larzalar, krizislar, tangliklar, revolyusiya, ko‘zg‘olon, isyon, urush, qurolli tuqnashuvlar kiradi.

Xavfsizlik ko‘p qirrali bo‘lib, u butun insoniyat, davlat yoki iqtisodiy tizimning normal faoliyat yuritishi, rivojlanishiuchun noxush salbiy, zararli ta’sirlardan, xavf-xatarlardan saqlanish, himoyalanish holatini ifodalaydi. Xavfsizlik umumiy tarzda ziyon etkazish uchun potensial sharoitlarning yo‘qligini, saqlanishlik, himoyalanish va ishonchlilikni anglatadi. Bu tushuncha kishilar va jamiyat hayot faoliyatining aniq spetsifik sohalarida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi.

Xavfsizlik qanday sohada, qanday shakl va qiyofada namoyon bo‘lmasin, ularning barchasi umumiylik xususiyatiga egadir. Umuman, xavfsizlik xavf-xatardan himoyalanish sharti va strategiyasi sifatida ijtimoiy tizim, shaxs, jamiyat va davlat hayot-faoliyatining normal amal qilishini ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘ladi[1].

Xavfsizlikning sub’ektlari shaxs, aholi ijtimoiy guruhlari, kishilar uyushmalari hamda birlashmalari, davlat va jamiyat hisoblanadi.

Xavfsizlik ob’ekti inson hayotining barcha sohalari, shu jumladan shaxsiy-oilaviy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma’naviy tabiiy soha va jabhalarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Xavfsizlikni quyidagi milliy, mintaqaviy va xalqaro toifadagi turlarga ajratish mumkin. Ular esa, o‘z navbatida, ijtimoiy xavfsizlik, iqtisodiy xavfsizlik, siyosiy xavfsizlik, ma’naviy xavfsizlik, mafkuraviy xavfsizlik, ekologik xavfsizlik, shaxs xavfsizligi, harbiy xavfsizlik, resurs xavfsizligi shakllarida o‘zligini namoyon qiladilar. Demak, xavfsizlik tushunchasi keng qirrali bo‘lib, o‘zining ob’ektlari va sub’ektlari nuqtai nazaridan turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Ammo, hozirgi davrda bu tushunchaning umumlashgan shakli milliy xavfsizlik deb ataladi.

Xo‘sh, milliy xavfsizlik nima? Milliy xavfsizlik bu mamlakat va uning xududida yashaydigan barcha insonlarning millati, irqi, jinsi, diniy e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, turli salbiy ta’sirlardan, yovuz kuchlar va g‘oyalar xavf-xataridan himoyalanganligi darajasidir.

Milliy xavfsizlik namoyon bo‘lish shakllariga: siyosiy xavfsizlik, iqtisodiy xavfsizlik, harbiy-mudofaa xavfsizligi; ijtimoiy xavfsizlik, axborot-informatsion xavfsizlik, shaxs va jamiyat xavfsizligi; intellektual

---

ЩОтамурадов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. -Т.: Ўзбекистон, 2013. -Б.181.

[24] Самаров Р. Хавфсизликнинг методологик асослари. -Т.: Академия, 2010. -Б.74.

xavfsizlik, ekologik xavfsizlik, g‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizlik, milliy-ma’naviy xavfsizlik va boshqalar kiradi.

YUqorida keltirilgan fikrlardan ham ko‘rinib turibdiki, milliy xavfsizlik tushunchasi ko‘p qirrali va xilma-xil shakllarda namoyon bo‘ladi. Ammo shunga qaramay, milliy xavfsizlik tushunchasi quyidagi xususiyatlarga ega:

Birinchidan, milliy xavfsizlik aniq tarixiy mazmunga ega, ya’ni jamiyatga qaysi sohalarda va qanday darajada tahdidlarning vujudga ketayotganligini aniqlashga qaratilgan aniq holatlardagi aniq taxdillarni talab qiladi.

Ikkinchidan, milliy xavfsizlik bir-biriga zid o‘lchamlar, jamiyatga xavf soladigan taxdidlar va ularni bartaraf etishni tavsiflaydigan ijtimoiy-iqtisodiy parametrlar va ko‘rsatkichlar bilan ifodalanadi.

Uchinchidan, milliy xavfsizlik muammosining ahamiyati va keskinligi jahon hamjamiyati hamda ayrim mamlakat, xudud taraqqiyotining burilish davrlarida g‘oyat o‘sib ketadi.

Turtinchidan, milliy xavfsizlik tomoyillari va parametrlari, ko‘rsatkichlari o‘zgaruvchan hamda turli mamlakatlarda o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi. Ammo shunga qaramasdan har bir mamlakatning milliy xavfsizligi insoniyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining umumiy tendensiyalari bilan bog‘likdir. SHuningdek, umumbashariy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o‘zgarishlar milliy xavfsizikka ta’sir o‘tkazib turadi.

Beshinchidan, milliy xavfsizlik tushunchasiga milliy davlat manfaatlari va milliy g‘oya, milliy mafkura ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Mafkuraviy xavf-xatarlarning yuzaga kelish holatlari. Milliy ma’naviyatga, g‘oya va mafkuraga qarshi bo‘lgan xavf-xatarlarning yuzaga kelishi nimalar bilan bog‘likligini, uning sabablarini aniqlay bilish lozim bo‘ladi. Qanday sabablar, omillar va vositalar milliy ma’naviyat, g‘oya va mafkuraga qarshi xavf-xatarlarning yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin? Bu savolga javob berishdan oldin "xavf-xatar" va "taxdid" tushunchalari ustida qisqa to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofikdir.

"Taxdid" turg‘unlik holatidagi xavf-xatardir. Xavf-xatar esa "taxdid"ning amaliyotga aylanishi, "ishlashi", nimagadir ta’sir o‘tkazishining boshlanishidir. "Taxdid"ning xavf- xatarga aylanishi milliy ma’naviyat, g‘oya va mafkuraga nisbatan qo‘llanilganda unda ichki va tashqi emirilish jarayoni kechayotganini tushunish mumkin. Zero, "taxdid" xatarli kuch bo‘lishiga qaramasdan, agar amaliyot darajasiga aylanmasa, uning ta’sir o‘tkazish maqomini anglab etish murakkabligicha qoladi. Xavf-xatar doim harakatda bo‘ladigan jarayon hisoblanadi. U "taxdid"ning yuzaga kelishi oqibatida sodir bo‘ladi. Xavf-xatarning boshida "taxdid" turadi. "Taxdidda turg‘unlik mavjud bo‘lsa, xavf-xatar har doim harakatdagi jarayondir. Bugun milliy ma’naviyat, g‘oya va mafkuraga qaysi biri kuchli ta’sir o‘tkazmokda, degan savolga javob izlaydigan bo‘lsak, aytish mumkinki, ularning har ikkalasi ham kuchaygandan kuchayib bormokda. Buning ma’nosi shuki, taxdid kuchayib borgani sari unga mos ravishda milliy ma’naviyat, g‘oya va mafkuraga nisbatan xavf-xatar ortmokda hamda ularni ichkaridan va tashqaridan emirishga harakat qilish avj olmokda. Ayni paytda, ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, yagona kuch sifatida amal qilmokda.

Milliy ma’naviyat, g‘oya va mafkuraga nisbatan xavf-xatar quyidagi holatlarda: millatning o‘zgalarga qaramlik holatiga tushib qolishida; milliy birlikning susayishida; millat vakillarining o‘z milliy ma’naviyatidan begonalashuvida; ta’limning tarbiyadan uzilib qolishida; mamlakatda qonun ustuvorligining etarli darajada amal qilmasligi va korrupsiyaning kuchayishida; demokratik qadriyatlar rivojlanishining milliy taraqqiyot ehtiyojlaridai orqada qolishi sharoitida yuzaga keladi.

Milliy ma’naviyat, g‘oya va mafkuramizga qaratilgan har qanday taxdid va xavf-xatarlarning oldini olishda milliy-ma’naviy, g‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlash alohida o‘rin egallaydi. Bunda, milliy-ma’naviy xavfsizlik - milliy ma’naviyatning barqaror taraqqiy qilishi uchun shart-sharoit, vaziyat, imkoniyatlarning mavjudligi, uning o‘ziga xosligiga zid bo‘lgan turli ma’naviy, ruhiy, axloqiy va estetik taxdidlardan ximoyalanganligi va milliy ma’naviyatning umummilliy taraqqiyotning tabiiy extiyoji va amaliyotiga aylanganlik saloxiyatini, g‘oyaviy- mafkuraviy xavfsizlik esa shaxs, millat, jamiyat, davlatning xilma-xil shakllarda namoyon bo‘ladigan g‘oyaviy-mafkuraviy tajovuzlar, turli mafkuraviy markazlarning buzg‘unchilik ta’siridan himoyalanganlik darajasini tavsiflovchi tushuncha hisoblanadi.

G‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizlik deganimizda, milliy g‘oya va milliy mafkuraning millatni zaiflashtirishga qaratilgan tashqaridan kirib keluvchi har qanday yovuz g‘oyalar va mafkuralarga nisbatan kuchliligi, milliy ong, dunyoqarashni ular ta’siridan himoya qilishi va milliy manfaatlarni tarannum etishda hamda uning amaliyotda namoyon bo‘lishini ta’minlay bilishdagi katta salohiyati nazarda tutiladi. Bunga

erishish ham yuksak darajada rivojlangan ma’naviyatga bog‘lik xolda kechadi.

Kaysikim, milliy-ma’naviy xavfsizlik milliy xavfsizlik mexanizmi zanjirdagi xalqalarning harakatga kelishini ta’minlovchi asosiy omillardan biri bo‘lsa, g‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizlik esa ushbu omilni amalga oshirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Milliy-ma’naviy, g‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlash har xil mafkuraviy taxdid, xavf-xatar va tajovuzlarning oldini olish vositasi ekanligi quyidagilar bilan ifodalanadi.

1. Milliy ong, dunyoqarash, ruhiyat va qalbda milliy xavfsizlikni ta’minlash millat vakillarida millatni asrash va rivojlantirishning asosiy sharti ekanligi anglab etilmas ekan, unga erishib bo‘lmaydi.

2. Milliy-ma’naviy qashshoqlik bo‘lgan jamiyatda siyosiy beqarorlik yuzaga keladi.

3. Ma’naviyati qashshoq millatda o‘z vatanini himoya qilishga kuch-kudrat etmaydi. Bunday millat vaqillari o‘z vataniga xoinlik qilishdan ham qaytmaydi. Unga hamma joy vatanday ko‘rinaveradi, o‘z manfaatini hamma qadriyatlardan ustun qo‘yib yashaydigan bevatan insonlardir.

4. Vatanni harr qanday yovuz kuchlardan ximoya qilish, uning chegaralari mustahkam bo‘lishiga o‘z hissasini qo‘shishga intiluvchi insonlarda milliy ma’naviyat kuchli bo‘ladi. O‘z vatanining chegaralari mustahkamligi, uning xavfsizligi ta’minlaganligini xuddi o‘z oilasining mustahkamligi va xavfsizligini ta’minlash sifatida qaraydigan insonlarning ma’naviyati yuksak bo‘ladi. Iqtisodiy xavfsizlikda mamlakatning mavjud resurslaridan tejab foydalanish, ularning talon-toroj qilinishiga va chet ellarga olib chiqilishiga yo‘l qo‘ymaslik xam insonlar ma’naviyati bilan bog‘liq. Ma’naviyatli insonlar mamlakat boyligini ko‘z qorachig‘iday asrash, ularni g‘ayriqonuniy yo‘l bilan o‘zlashtirishga harakat qiladigan kimsalarga nisbatan nafrat tuyg‘ularining yuzaga kelishi ham ma’naviyat bilan bog‘liqdir.

5. Jamiyatda millatlararo totuvlik, diniy bagrikenglik, turli ijtimoiy tabaqalar o‘rtasidagi munosabatlardagi do‘stlik, o‘zaro hamkorlik va barqarorlikning amal qilishi ham ma’naviyat bilan bog‘liqdir. Agar ma’naviyat taraqqiy qilgan bo‘lsa, ular o‘rtasida o‘zaro munosabatlarda manfaatlar muvozanati amal qiladi va jamiyat barqaror rivojlanib boraveradi.

6. Atrof-muhitni toza, orasta tutish, mamlakat tabiatini, hayvonot dunyosini, o‘rmon va suv zaxiralarini asrash, ob-havoning ifloslanishiga yo‘l qo‘ymaslik ham ma’naviyat bilan bog‘liqdir. Ma’naviyatli insonlar ana shu boyliklar nafaqat bugun, shu bilan birga istiqbolda o‘z avlodlari uchun ham zarurligini yaxshi biladi va o‘z imkoniyati doirasida ularni asrashga xarakat qiladi. Ma’naviy qashshoq insonlar esa bunday tuyg‘ularga ega bo‘la olmaydi.

7. Bugun insonlar va millatlar kuchli axborot bosimi ostida yashamoqda. Taraqqiy qilgan mamlakatlar o‘zlarida mavjud bo‘lgan yuksak darajadagi axborot vositalari orqali dunyoda o‘z xukmronligini o‘tkazish maqsadida turli buzg‘unchi g‘oyalar, axloqiy qashshoqlik va bo‘htonlardan iborat xabarlar, axborotlar va ma’lumotlarni jahon afkor ommasi o‘rtasida targ‘ib qilmokdalar. Mana shunday sharoitda ularni tanlash, inson va millat manfaatlariga zid bo‘lgan jixatlaridan ogoh bo‘lish ma’naviyat bilan bog‘liqdir. Ma’naviyati yuksak insonlar va millatlargina ogoh bo‘lishga hamda ular ta’siridan o‘zlarini himoya qilishga qodir bo‘ladi.

8. Bugun dunyodagi taraqqiy qilgan mamlakatlarning jahondagi turli mamlakatlardagi yuksak intellektual salohiyatli olimlar va mutaxassislarni "ug‘irlash"i an’anaga aylangan. Ular bunday olimlar va mutaxassislarga barcha moddiy imkoniyatlarni vujudga keltirish, texnik va texnologik shart-sharoitlarni yaratishga va’da berib, ularni o‘z mamlakatlariga olib ketishga muvaffaq bo‘lmokdalar. Ular bu faoliyatlari bilan, bir tomondan, ana shunday kadrlarni tayyorlashga ketadigan mablag‘ va vaqtni tejashga erishib, tayyor olim va mutaxassislarni qo‘lga kiritmokdalar; ikkinchi tomondan, mamlakatlarni intellektual jihatdan zaiflashtirishga va oxir-oqibatda o‘zlariga qaram qilishga intilmokdalar. Bunday sharoitda yuksak ma’naviyatga, o‘z millati va Vatanini sevish ruhiyatiga ega bo‘lgan insonlar moddiy boylik evaziga o‘zga mamlakatlarga ketishdan o‘zlarini tiyadilar. Bunga ham yuksak ma’naviyatlilargina amal qilishi mumkin. Ma’naviyati qashshoqlashgan, o‘zga g‘oya va mafkuralarning aldoviga uchgan insonlar esa o‘zgalarning takliflariga moyillik bildiradilar. SHuni ham xisobga olish kerakki, boshqa mamlakatlarga ketib, o‘zi va o‘z mamlakatiga manfaatlar keltiradigan intellektuallari ham borki, bu umummilliy taraqqiyot uchun ahamiyatlidir. SHu ma’noda qanday bo‘lishidan qat’i nazar, o‘z intellektuallar ma’naviy yuksakligini ta’minlash milliy

taraqqiyotning zaruriy sharti bo‘lib qolmokda[25].

SHunday qilib, mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlash jamiyat ma’naviy hayotida bo‘shliq paydo bo‘lishining oldini olish, o‘zining pirovard maqsadlariga mos va unga xizmat qiladigan g‘oyalar tizimini shakllantirish, uni muttasil mustahkamlab borish, fuqarolarda mafkuraviy immunitetni oshirish orqali zohir bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida milliy-ma’naviy, g‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlovchi ichki omil - jamiyatning siyosiy-ijtimoiy, axloqiy va ma’naviy salohiyatidir. Bundan tashqari, mafkuraviy xavfsizlik xalqimizning asriy an’analari, tili, dini, ma’naviyati va milliy rivojlanishiga xizmat qiluvchi umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi. SHuningdek, davlat idoralari, jamoat tashkilotlari va uyushmalari, madaniy-ma’rifiy muassasalar tomonidan amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tizimi mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashning zaruriy shartidir. Mamlakatimiz mafkuraviy xavfsizligi ilmiy asoslangan ijtimoiy siyosatga, xukuqiy madaniyatga, jamiyatning ma’naviy etukligi va demokratiyalashuviga uzviy ravishda amalga oshiriladigan g‘oyaviy tarbiyaga tayanadi. Jamiyat, davlat va shaxs mafkuraviy xavfsizligini ta’minlash - davlat siyosatining tarkibiy qismi hisoblanadi.

## 4. Axborot xurujiga karshi kurashda axborot xavfsizligini ta’minlashning zarurati va ahamiyati

Axborot xuruji tushunchasi. O‘zbek xalqining mustaqilligiga, uning mustaqil taraqqiyot yillarida erishayotgan yutuqlariga qarshi g‘animlarimiz tomonidan muntazam ravishda axborot xurujlari olib borilmoqda. Xo‘sh, axborot xuruji nima? Axborot xuruji bu o‘zbek xalqining ichki va tashqi ganimlari tomonidan atayin uning ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy-xuquqiy, ma’naviy madaniy hayotida yuz berayotgan ijobiy o‘zgarishlar, islohotlar natijasida erishilgan marralar, ba’zida yo‘l kuyilgan xato va kamchiliklar haqida axborot kommunikatsiyalari, internet va boshqa *ommaviy axborot vositalari orqali ishonchsiz, yolgon, uydirma, odamlarning ongini zaharlaydigan har xil ma’lumotlarni tarqatishidan boshqa narsa emas*. SHunday o‘ta bema’ni axborotlarning oldini olish uchun ham axborot xavfsizligini ta’minlash zarur. Demak, o‘zbek xalqining qo‘lga kiritgan mustaqilligini mustahkamlash va rivojlantirishda axborot xavfsizligini ta’minlashning o‘rni bekdyosdir.

Axborot tushunchasi, uning tur va shakllari. Xo‘sh, axborot o‘zi nima? Axborot arabcha "xabar" so‘zidan olingan bo‘lib, "darak", "ma’lumot", "ovoza" degan ma’nolarni anglatadi[116]. SHu tariqa bugungi kunda axborot deganda biror kimsa, narsa yoki hodisa haqida darak, ma’lumot berish, bildirish, uni muayyan vositalar orqali etkazish yoki ovoza qilish tushuniladi. Falsafiy jihatdan axborotlarni o‘zining aks ettirish ob’ektiga ko‘ra: birinchidan, tabiat (koinot, er-suv, tuproq, o‘simlik, hayvonot va boshqalar); ikkinchidan, jamiyat (odamlar, jamoat birlashmalari, davlatlar, ularning tuzilishlari, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy faoliyatlari); uchinchidan, inson faoliyati (jismoniy va aqliy salohiyati, salomatligi, ongi va tafakkuri, mentaliteti, moyilligi va boshqalar) haqida batafsil ma’lumotlarni etkazib beruvchi guruhlarga ajratish mumkin. Bu bilan ularni tasniflash muammosi tugamaydi. Darvoqe, mavjud olamda yuz berayotgan hodisa, voqea, jarayonlar qanchalik tez va izchil kechsa, ular haqidagi informatsiyalar oqimi ham shunchalik ko‘p va xilma-xil bo‘ladi.

Bugungi kundagi axborotlarni o‘zining sub’ektiga ko‘ra uchta katta guruhga ajratish mumkin. Bunda: birinchi guruhga axborotlarni o‘zida miqdoriy va sifatiy jihatdan aks ettirgan holda saqlovchi, qayta ishlovchi va uzatuvchi texnologiyalarga asoslangan vositalar - oddiy aloqa tarmoqlaridan tortib bugungi kundagi murakkab texnologiya asosiga qurilgan ixcham va qulay har xil turdagi katta va kichik qurilmalargacha bo‘lgan vositalarni o‘z ichiga oluvchi; ikkinchi guruhga ularning ijodkori bo‘lgan intelektual aql sohiblarini; uchinchi guruhga ulardan foydalanuvchi shaxs, jamoa va boshqa turli xildagi birlashmalarni kiritish mumkin.

O‘zbekistonning mustaqilligini mustahkamlovchi va rivojlanishini ta’minlovchi axborotlarni mustaqillikning shakllari bo‘yicha quyidagilarga ajratish mumkin:

1) iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi, ya’ni mehnat jamoalarining sanoat, qishloq xo‘jaligi, ilm-fan sohasida erishgan yutuqlari borasidagi;

2) siyosiy mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi, ya’ni davlat hokimiyatining tuzilishi, ularda xizmat qiluvchilar soni, kasb-kori, funksional vazifalari, rejalashtirilayotgan ishlari, ayniqsa, xuquqni muhofaza qiluvchi organlar, qurolli kuchlarning tarkibi, qurol- yaroqlari va boshqalar haqidagi;

---

[25] Otamuradov S. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. -Т.: Ўзбекистон, 2013. -Б.193-196.

3) ma’naviy mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi, ya’ni fuqarolarga ta’lim-tarbiya berish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, g‘oyaviy-mafkuraviy kurash yo‘llari va vositalari, o‘tkazilishi ko‘zda tutilayotgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, ularning ishtirokchilari to‘g‘risidagi ma’lumotlar kabilarni o‘z ichiga oluvchi tizimlarga ajratgan holda tasniflash maqsadga muvofikdir.

Falsafa ilmining umumiylik, xususiylik, aloxidalik kategoriyalarining metodologik ahamiyatidan kelib chiqqan holda mazkur axborotlarni ishlatilish o‘rniga qarab umumiy, xususiy va alohida axborotlar tizimiga ajratish kerak bo‘ladi. Bundagi:

a) umumiy axborotlarga O‘zbekistonning geografik joylashuvi, tabiati, davlat tuzilishi, pul birligi, tarixiy rivojlanish bosqichlari, qadriyatlari, ta’lim-tarbiya tizimi, aholining salomatlik darajalari haqida butun jahon ahli;

b) xususiy axborotlarga sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqa ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, ularni iste’mol qilish, taqsimlash, ayirboshlash, xorijiy davlatlar bilan tuzilgan ikki va ko‘p tomonlama shartnomalar haqida alohida mehnat jamoalari, tuman, viloyat aholisi, ba’zi bir davlatlar;

v) alohida axborotlarga davlat va mehnat jamoalarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularning ishlab chiqarish faoliyati, mehnat qilish tartibi, xizmat vazifalarini bajarish borasidagi sir-asrorlarini tashkil etuvchi, oshkor qilinganligi uchun qonunda belgilangan tartibda jazolanishi muqarrar bo‘lgan, shu tufayli aloxida kishilar bilishiga mo‘ljallangan axborotlar kiradi.

XXI asrga kelib bu tushunchaning mazmuni o‘zgacha ma’no kasb eta boshladi. Uning bugungi kundagi o‘rni haqida I.A.Karimov ta’kidlaganidek: "Xavfsizlik - uzluksiz holatdir, hadsiz-xududsizdir... Har bir mintaqada xavfsizlikni ta’minlash muammolari muayyan mohiyatga ega. Har bir mintaqaning o‘z xususiyatlari, o‘z taxdid manbalari va xavfsizlikni saqlash omillari bor"[26].

Axborot xavfsizligi tushunchasi va uni ta’minlash muammolari. YUqorida keltirilgan "axborot" va "xavfsizlik" tushunchalarining qisqacha falsafiy tahlillaridan kelib chiqqan holda "axborot xavfsizligi" tushunchasiga quyidagicha falsafiy ta’rif berish mumkin.

Axborot xavfsizligi bu - muayyan shaxs, oila, ijtimoiy guruh, mehnat va xizmat jamoasi, davlat va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-xukuqiy, ma’naviy-madaniy omillar asosida xavf-xatarsiz tarzda normal faoliyat olib borishlari uchun zarur bo‘lgan informatsiyalarni o‘rnatilgan tartibda saqlash va etkazib berish tizimidir.

O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlash va rivojlantirishga xizmat qiluvchi axborot xavfsizligini ta’minlash tizimiga:

1) O‘zbekistonning bevosita mustaqilligini saqlashga qaratilgan, ya’ni o‘zbeklarning tarixiy makon va zamondagi o‘rnini inkor qiluvchi yoki bu haqdagi tarixiy dalillarni soxtalashtirib, ularni buzib jahon afkor ommasiga etkazishga urinuvchi soxta informatsiyalar oqimidan himoyalanishni o‘z ichiga oluvchi haqqoniy ma’lumotlar tizimini muntazam ravishda ishga solish;

2) globallashuv sharoitida O‘zbekistonning iqtisodiyot sohasidagi erishayotgan yutuqlariga rahna soluvchi har xil informatsion xurujlarning oldini olish va ularga ishonchli ma’lumotlar orqali qaqshatqich zarba berish, ya’ni bugungi kundagi jahon-moliyaviy inqirozi sharoitida mamlakatimida yuz berayotgan iqtisodiy barqarorlik, qolaversa, iqtisodiy o‘sishning sabablarini tushuntirib berishni ta’minlash, ularni soxtalashtirib yoki eng rivojlangan mamlakatlar bilan qiyoslash orqali "o‘zbek modeli”ning obro‘sini tushirishga intilayotgan g‘animlarga qarshi informatsion xujumni uyushtirish;

3) O‘zbekistonning siyosiy tizimini yanada mustahkamlash va rivojlantirishga, ya’ni mamlakatimizning siyosiy - xukuqiy hayotini liberallashtirishga, O‘zbekistonda "demokratiya" yuq deb, butun dunyoga jar solayotgan "siyosatchi"larning g‘oyaviy xurujlari va amaliy xatti-harakatlarining oldini olish va ularni badnom etish;

4) O‘zbekistonda yashovchi aholining 64 foizini tashkil etuvchi yoshlarni mustaqillik g‘oyasi ruxida tarbiyalash, ularning ongiga milliy mafkuraning bosh va asosiy g‘oyalarini singdirishga qaratilgan, ya’ni yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirish, har xil mafkuraviy xurujlarga qarshi immunitetini shakllantirish, "ommaviy madaniyat" unsurlari orqali ko‘zga ko‘rinmas darajada o‘tkazilayotgan ta’sirlar doirasiga tushib qolmaslik uchun olib borilayotgan axborotlar xavfsizligini ta’minlash ishlarini kiritish mumkin.

Axborot xavfsizligining yuqorida bayon qilingan tizimi fuqarolarning axborot erkinligini cheklamaydi,

---

[26] Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бусағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари / / Унинг узи. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. -Т.: Ўзбекистон, 1998. -Б.37.

balki ularning bu sohadagi konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini amalga oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek: “Fuqarolarning axborot sohasidagi xuquq va erkinliklarini ta’minlash masalasi insonning axborot olish, axborotni va o‘z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, bu O‘zbekistonda demokratik jamiyat asoslarini barpo etishning muhim sharti, ta’bir joiz bo‘lsa, tamal toshi hisoblanadi.

Axborot va in’ikos jarayonining dialektik aloqadorligi masalasidagi yana bir jihat bu axborotlarda in’ikos ettirilgan ma’lumotlarning xavfsizligini ta’minlash muammosidir. Bu xususda I.A.Karimov: "Ayni paytda jahon miqyosida axborotlashtirish jarayonlari tobora globallashib, bu boradagi raqobat kuchayib borayotgan, axborot nainki tovar, balki kuchli mafkuraviy qurolga aylanayotgan hozirgi shiddatli zamonda hayotning o‘zi, O‘zbekiston milliy manfaatlarini hisobga olgan holda, bu yo‘nalishda yangi-yangi vazifalarni oldimizga keskin qilib qo‘ymoqda"[27], - degan edi. Demak, axborot va uning xavfsizligini ta’minlash muammosini hol etishda quyidagilarga asosiy e’tibor qaratilishi muhim.

1. Axborotlarning mivdoriy jihatdan xavfsizligini, ya’ni narsa, voqea, hodisalar haqida to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlarni statistik va nostatistik yo‘llar bilan to‘plash asosida noanikliklarni yo‘q qilish va shu asosda to‘liq ishonchli bo‘lgan axborotlarga ega bo‘lish, ularni saqlash va uzatish ishlarini amalga oshirishni ta’minlash. Bu masaladagi har qanday mikdoriy noaniqlik axborot ob’ekti va sub’ektiga xavf tug‘dirishi tabiiydir.

2. Axborotlarning sifatiy jihatdan xavfsizligini ta’minlash. Ma’lumki, hozirgi kunda axborotlarni tasniflashning bir necha, masalan, gnoseologik belgisi buyicha

− ob’ektiv va sub’ektiv; pragmatik belgisi buyicha - potensial va aktual; ob’ektivlik farqi bo‘yicha - tabiat (tirik va notirik), jamiyat va texnikaga oid turlari mavjuddir. Bular ichida biologik va ijtimoiy sohaga oid axborotlar sifatiy jihatdan o‘ta pishiq bo‘lishni talab etadi. Axborotlarning sifatiy jihatdan pishiqligi jamiyatda barqarorlikni ta’minlash garovi hisoblanadi. SHuning uchun ham bu sohada olingan har bir ma’lumot qayta-qayta tekshirib ko‘rishni talab etadi. SHunda ma’lumot pishadi va axborot pishiqlik xususiyatiga ega bo‘ladi. Pishiqlik har bir narsaning sifatiy xususiyati hisoblanadi. Uni inkor etish qiyin bo‘ladi. SHu nuqtai nazardan qaraganda g‘oyaviy tarbiya sohasida ishlatayotgan axborotlarimiz o‘ta pishiq bo‘lishni talab etadi. "Pishmagan osh, qorinni og‘ritadi" deganlaridek, pishiqlikka ega bo‘lmagan xar qanday axborot milliy xavfsizligimizga tahdid soladi.

3. Mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotining kelgusidagi istiqbollarini belgilashda axborotlar xavfsizlikni ta’minlash masalasi ham muhimdir. Bunda faqat axborotlarning mikdoriy va sifatiy ko‘rsatkichlari emas, balki, ularning xajmi va mazmuni, sabab va oqibatlari, mantiqiy xulosalar chiqarish usullari xam xisobga olinishi zarur.

4. Davlatni boshqarishda ijtimoiy, ya’ni aholi sonining o‘sish sur’atlari, ishlab chiqarish, ta’minot, iste’mol va taqsimot, tadbirkorlik, ijtimoiy himoya, jinoyatchilik, millatlar o‘rtasidagi munosabatlar, diniy e’tiqod masalalariga oid axborotlar xavfsizligini ta’minlash o‘ta muhim axamiyat kasb etadigan masaladir. Mafkuraviy ong va immunitetni shakllantirishning tamal toshi xam ana shu haqidagi axborotlarning mag‘zida joylashgandir. CHunki, inson ijtimoiy mavjudot, uni ijtimoiylikdan begonalashtirish, undagi hayvoniy sifatlarning o‘sishiga yo‘l qo‘yib berish demakdir. Hayvoniy sifat esa buzg‘unchilik vayrongarchilik qilishning manbaidir.

SHu tariqa, axborot xavfsizligini ta’minlash bu g‘animlarimiz tomonidan mamlakatimizga nisbatan qilinayotgan axborot xurujlarining oldini olish xamda ularga nisbatan milliy axborot vositalarimiz orqali qarshi qaqshatqich zarba berish demakdir.

Xulosa qilib aytganda, I.A.Karimov ta’kidlaganidek: "Xavfsiz dunyo - umuman, butun insoniyat uchun ham, huquqlari uchun kurashda ozmuncha nayzasi sinmagan har bir inson uchun ham oliy maqsaddir".

## 6-MAVZU: MAFKURAVIY FAOLIYAT - MILLIY G‘OYANI AMALGA OSHIRISH VOSITASI

REJA

1. Mafkuraviy faoliyat tushunchasi va uning mazmun-mohiyati va namoyon bo‘lish xususiyatlari.
2. Milliy istiqlol mafkurasining bosh g‘oyasini xalq qalbi va ongiga singdirish – mafkuraviy faoliyat

[27] Каримов И.А. Тошкент ахборот технологиялари университетининг профессор-ўқитувчилари ва талабаларига, бутун жамоасига // Унинг узи. Инсон, унинг хукуқ ва эркинликлари - олий қадрият. Т.14. -Т.: Ўзбекистон, 2006. -Б.53-54.

yuritishning ustuvor yo‘nalishi.

3. Milliy istiqlol mafkurasining – Vatan ravnaqi, YUrt tinchligi, Xalq farovonligi g‘oyalarini g‘ xalq qalbi va ongiga singdirish usul va vositalari.

1. “Mafkuraviy faoliyat" tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va namoyon bo‘lish xususiyatlari

Mafkuraviy faoliyat tushunchasi, uning mazmun-mohiyati. Jamiyatda yashovchi turli xil millat, elat, xalq, irq, diniy e’tiqod, ijtimoiy tabaqa, sinf, partiya kabi uyushma, birlashma, tashkilot, jamoalarga mansub bo‘lgan odamlar orasida, ularning shaxsiy hamda umumiy manfaatlarini ifodalovchi g‘oya va mafkuralar tizimini yaratish, ularni hayotga tatbiq etish mafkuraviy faoliyat orqali amalga oshiriladi. Alalxusus, mafkuraviy faoliyatsiz hech bir jamiyat yashay olmaydi, busiz yashab kelayotgan jamiyatni tarixda xam, bugungi kunda ham hech kim uchratgan emas.

Jamiyatda kimlarning aql-idroki, tashabbusi, ilmiy-amaliy izlanishlari orqali yaratilgan fikr, g‘oya, mafkura o‘z-o‘zidan tarqalib, kishilar ongiga avtomatik tarzda singib boravermaydi. Demak muayyan g‘oyaviy tamoyillar va ta’limotlar ishlab chiqilishining o‘zi ularning kishilar faoliyatini belgilab beruvchi, unga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy xodisaga aylanishi uchun etarli emas. Buning uchun ular kishilar orasida tarqalishi, odamlar ana shu g‘oyalar ruxida tarbiyalanishi lozim. Aks xolda, har qanday g‘oya va mafkura qanchalik to‘g‘ri, jozibador bo‘lmasin, muayyan xodisa sifatida tarix sahifasida qolib ketaveradi. Ayni paytda, har qanday g‘oya va qarashlar tarqalishi uchun, eng avvalo, ular ishlab chiqilishi bilan birga, targ‘ib va tashviq etilishi zarur. Mafkuraviy faoliyat esa hamisha shakllangan g‘oyaviy qarashlar, baholar va maqsadlar tizimini odamlarga etkazish, ularning ongiga singdirish borasidagi ishlarni amalga oshirish jarayonini anglatadi.

SHu ma’noda, mafkuraviy faoliyat bu biron-bir g‘oyani amalga oshirish, uni axoli ongi va qalbiga singdirish, muayyan g‘oyaviy qarashlar tizimini shakllantirish, uning amaliyotini ta’minlash, yot va begona mafkuralarga qarshi kurash bilan bog‘liq chora-tadbirlar majmuidan iborat bo‘lib, u g‘oyaviy qarashlar - bilimlar, baxolar, maqsadlarni shakllantirish hamda ularni tarqatish, g‘oyaviy tarbiyani amalga oshirish, mafkuraviy profilaktika va immunitetni shakllantirish jarayonini ham o‘z ichiga samrab oladi.

1.1. Mafkuraviy faoliyatning namoyon bo‘lish xususiyatlari. Mafkuraviy faoliyat jarayonining namoyon bo‘lish xususiyatlariga kuyidagilar kiradi:

1. Mafkuraviy faoliyat jarayoni keng ommani ezgu g‘oyalar asosida tarbiyalash, ularning umumiy siyosiy va ma’naviy saviyasini yuksaltirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo‘sh vaqtlarini samarali o‘tkazishga ko‘mak beruvchi tadbirlarni amalga oshirishga qaratilganligi uning eng muhim xususiyatlaridan biri sanaladi.

2. Mafkuraviy faoliyat keng ma’noda o‘quv muassasalari, ta’lim-tarbiya maskanlari, klublar, axborot-resurs markazlari, madaniyat va istirohat bog‘lari faoliyatini ham muayyan darajada qamrab olishi bilan o‘zgacha xususiyat kasb etadi. Bunda mo‘zey, kinoteatr, teatr va boshqa madaniy-ma’rifiy muassasalar, shuningdeq OAV (gazeta-jurnallar, Internet, radio, TV) muhim o‘rin tutadi.

3. Mafkuraviy faoliyat mafkuraviy ishlar bilan shug‘ullanadigan muassasalar keng tarmog‘ining tashkil etilishi, ularning o‘sishi va takomillashuvi bilan unga rahbarlik qilish jarayonining ham mukammallashib borishi, rahbarlik qilish san’atining yangi qirralarini topishga bo‘lgan ehtiyojning kuchayib borishi bilan ham ayricha xususiyatga ega bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 avgustdagi “Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida"gi qaroriga binoan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi faoliyati hamda tarkibiy tuzilishi qayta ko‘rib chiqildi. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining ilmiy-amaliy yunalishda faoliyat olib boradigan va davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladigan “Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi” tashkil etildi. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining amaliy targ‘ibot yunalishida faoliyat olib boradigan Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi shakllantirildi. Barcha viloyatlarda xokimlarning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha yordamchilari faoliyati yulga qo‘yildi. Respublikamizdagi mahalla oqsoqollari va fuqarolar yig‘inlari raislarining ma’naviy-ma’rifiy ishlar buyicha maslaxatchilari tizimi shakllantirildi.

4. Mafkuraviy faoliyatning navbatdagi muhim xususiyatlaridan biri, uning hamisha konkret tarixiy mazmunga, maqsad-muddaoga ega bo‘lganligi bilan ifodalanadi. Bu, eng avvalo, inson bilimlari, shu jumladan, mafkuraning mazmun-mohiyati haqidagi bilimlarning rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Mafkura tizimidagi bilimlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri, progressiv yoki reaksion mazmunga ega bo‘lishi mumkin. Mazkur bilimlar, o‘z navbatida, ular asosida shakllanadigan baxolarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligiga zamin

yaratadi. SHakllanadigan baxolarda esa real yoki kutilayotgan hodisa, jarayonlarga mavjud ehtiyojlar, manfaatlardan kelib chiqib, o‘ziga xos munosabat ifodalanadi. Bilimlar qanchalik chukur bo‘lsa, hosil qilingan baholarga ishonch shunchalik yuqori bo‘ladi. SHu ma’noda, baxolar - kadriyatlar kishilarda ishonch, e’tiqodning shakllanishiga xizmat qiladi. Ba’zida erishilgan bilimlar, ularga asoslangan baholarning mutlaq to‘g‘riligiga ishonch dogmatizmga aylanib ketishini, bu mafkuraviy turg‘unlikni yuzaga keltirishini ham unutmaslik zarur.

5. Mafkuraviy faoliyatning yana bir ajoyib xususiyati g‘oyaviy qarashlar doirasida belgilab olingan maqsadlarni bayon etishda istiqbolga, ertangi kunga ishonch tuyg‘usini shakllantirishni ko‘zlashi bilan belgilanadi.

6. Mafkuraviy faoliyat g‘oyaviy qarashlarni tarqatish va unga mos tarbiyani amalga oshirishni ifodalash xususiyatiga ham ega bo‘lib, mafkuraviy qarashlarni tarqatish tizimi, mexanizmlari, usul va vositalari doimo takomillashib borishni taqozo etadi. "Odamzot baxti uchun hamma narsadan voz kechishga o‘rgatadigan ezgu g‘oyalarni kishilarga singdirish buyuk san’atdir", deb yozgan edi franso‘z yozuvchisi Stendal. SHu nuqtai nazardan qaraganda, mafkuraviy faoliyat g‘oyaviy tarbiyani o‘zgaruvchan voqelik va ijtimoiy guruxlarga xos xususiyatlarni hisobga olgan xolda doimiy takomillashtirib borishni anglatadi.

7. M afkuraviy faoliyatni tashkil etishda texnika va texnologiyalar, targ‘ibot va tashviqot olib borish usullarining rivojlanganlik darajasi ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Xozirgi davrda OAV mafkuraviy faoliyatni amalga oshirishning muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. YAqin istiqbolda texnika va texnologiya rivoji odamlar ongiga ta’sir o‘tkazish, ya’ni mafkuraviy faoliyatni tashkil etishning yangidan-yangi mexanizmlarini topishiga olib keladi, shu asosda mafkuraviy faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish ishlarini muntazam ravishda takomillashtirib borishga keng yul ochib beradi.

8. Mafkuraviy faoliyat o‘zining mohiyat-mazmuniga ko‘ra o‘zgaruvchan xususiyatga ham egadir. Mafkuraviy faoliyat stixiyali tarzda kechmaydi, balki ongli, tizimli va tadrijiy tarzda, biron bir aniq-maqsadni ko‘zlab, mavjud mafkuraviy vaziyatdan kelib chiqqan xolda olib boriladi.

Xozirgi kunda mafkuraviy faoliyat olib borishdan maqsad milliy istiqlol mafkurasining g‘oyalarini xalq qalbi va ongiga singdirish ishlarini tashkil etishdan iborat.

2. Milliy istiqlol mafkurasining bosh g‘oyasini xalq qalbi va ongiga singdirish-mafkuraviy faoliyat yuritishning ustuvor yunalishi

Milliy istiqlol mafkurasining bosh g‘oyasi - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Bunda asosiy o‘rin ozodlik g‘oyasiga beriladi.

Ozod Vatan g‘oyasi. Bugungi kunda o‘zbek xalqining tarixiy makon va zamonda bir million yillik o‘rni borligi tarixiy haqiqat sifatida ko‘pchilik ilm axliga ma’lum. Bu xalqning davlatchiligi tarixi esa 3 ming yildan ortikroq vaqtni o‘z ichiga qamrab oladi. Ular ana shu tarixiy davr ichida juda ko‘plab baxtli va baxtsiz onlarni, ya’ni taraqqiyot va inqiroz, barqarorlik va beqarorliq g‘alaba va mag‘lubiyat, xukmronlik va tobelik saxovatpeshalik va muteliq sadoqat va xiyonat kabi hayotning totli va achchiq damlarini boshdan kechirganlar. Ayniqsa, ular o‘z hayotlarining 200 yilini axamoniylar, 180 yilini grek-makedoniyaliklar, 200 yilini arab xalifaligi, 150 yilini mo‘g‘ul bosqinchilari, 130 yilini rus va sovet istilochilari, ya’ni jami bo‘lib 800 yilini o‘zgalar qo‘lida kulliq qaramlik tobelik mustamlakachilik sharoitida o‘tkazishga majbur bo‘lganliklari sababli ozod Vatanda erkin yashashning nima ekanligini o‘zgalardan ko‘ra yaxshiroq anglaydilar. SHu tufayli "ozod Vatan” tushunchasi o‘zbek xalqi milliy mafkurasining bosh g‘oyasiga aylangan.

"Ozod" so‘zi fors tilidan o‘zbek tiliga kirib kelgan bo‘lib, lug‘aviy jihatdan "erkin, xur asoratdan qutulgan, g‘am-tashvishdan xoli; olijanob; saxovatli" degan ma’nolarni bildirgan holda kishilarning kundalik hayotida: 1) o‘z erki, haq-xukuqi o‘z kulida bo‘lgan, ozodlikka erishgan; erkin, xur; 2) kullikdan ozod etilgan, erkinlikka chiqqan, asoratdan kutilgan; 3) o‘z holiga, mayliga qo‘yilgan, bo‘shatib yuborilgan, hech qanday majburiyat bilan bog‘lanmagan; bo‘sh; 4) tik, tikka, ko‘krakni kerib yuradigan odam, elat, millat, xalq ma’nosini anglatish uchun ishlatiladi. SHundan xam ko‘rinib turibdiki, ozodlik shunchalik oddiy so‘z emas, balki o‘zida chukur falsafiy ma’noni aks ettirgan g‘oyaviy ahamiyatga molik bo‘lgan tushunchadir.

Ozodlik tushunchasining falsafiy mazmundagi g‘oyaviy tabiati:

birinchidan, har bir inson, elat, millat, xalq va davlatning o‘z xaq-xuquqlarini himoya qilishida;

ikkinchidan, ularning o‘z erkini qo‘lga kiritib, erkin va farovon yashashga intilishida;

uchinchidan, hayotiy adolatni qaror toptirib, tenglar ichida teng bo‘lib, tikka, kukrak kerib yurishga intilishi sari qilayotgan xatti-xarakatlarida;

to‘rtinchidan, kelgusi avlodlarga ozod va obod Vatan qoldirish maksadida olib borayotgan mashaqqatli, ayni vaqtda sharafli ishlarni amalga oshirish uchun qanchalik darajada safarbarlik vazifasini uddalayotganligida yaqqol namoyon bo‘ladi. SHunga ko‘ra ozodlik tushunchasiga g‘oya sifatida kuyidagicha falsafiy ta’rif berish mumkin.

Ozodlik - bu mutelik va tobelikning xar qanday ko‘rinishlarini inkor etgan xolda, har bir inson, elat, millat, xalq va davlatlarni qullik va qaramlik balosidan kutilib o‘z erkini qo‘lga kiritish, haq-xuquqlarini himoya qilish, xayotiy adolatni qaror toptirib, tenglar ichida teng bo‘lib, erkin va farovon yashash uchun kurashga chorlaydigan, ularni shu yo‘lda birlashtiradigan va safarbar qiladigan bunyodkor ijtimoiy- siyosiy g‘oyadir.

Insoniyat tarixidan shu narsa ma’lumki, har bir inson, elat, millat, xalq o‘ziga tegishli bo‘lgan ona-Vatanida, davlatida ozod va erkin yashaydi. Ona-Vatandan tashqaridagi ozodlik haqiqiy ozodlik emas, balki unga o‘zgalar tomonidan in’om etilgan erkinlikdir.

SHuning uchun har bir aqli raso inson xamisha o‘z ona-Vatanining ozodligi uchun kurashib kelgan. SHu sababli ozodlik g‘oyasi insoniyat tarixining azaliy yuldoshi, o‘tmishdan xozirga qadar o‘z ahamiyatini saqlab kelayotgan ezgu qadriyat hisoblanadi.

Ozodlik g‘oyasining mazmun-moxiyatini bir necha yunalishda talqin va taxlil qilish mumkin. U ijtimoiy ma’noda – jamiyat hayotining qandayligi va qay tarzda tashkil etilganini, siyosiy ma’noda - mustaqil va emin-erkin yashashni, iqtisodiy ma’noda - mulk va moddiy boyliklarga barchaning teng ega bo‘lish imkoniyatini, ma’naviy ma’noda - inson va jamiyatning turli tazyikdardan xolisligi, fikr, e’tiqod va so‘z erkinligini anglatadi.

Ozodlik g‘oyasini umuminsoniy, milliy va shaxsiy nuqtai nazarlardan ham talqin qilish mumkin. Umuminsoniy jihatdan, bu g‘oya butun Er yuzida taraqqiyot va erkinlik uchun kurashayotgan kishilarning muzaffar bayrog‘i, demokratik jamiyat va davlatlar xayotining ustuvor tamoyillaridan birini ifodalaydi. Milliy jixatdan, u har bir millat va xalqning o‘z mustaqil taraqkiyot yuli, o‘z takdirini o‘zi belgalay olishi, milliy davlatchiligiga ega bo‘lishini anglatadi. SHaxsiy darajada ozodlik - inson xaq-xuquqlarining ro‘yobga chiqishi, uning ijtimoiy-ma’naviy jihatdan erkinligini bildiradi.

Faylasuf olim K|.N. Nazarov yozganidek: "Ozodlik g‘oyasining qudrati shundaki, u odamlarning o‘zaro munosabatlari, mamlakatlar va davlatlararo munosabatlarni me’yor-mezonga soladi, turli kamsitishlar yoki ortiqcha ta’zim-tavozega chek kuyadi". YUqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda "ozod Vatan" g‘oyasini kuyidagicha ta’riflash mumkin.

Ozod Vatan -o‘z taqdirinio‘zi mustaqil xal etish xuquqini to‘la ruyobga chiqara olgan millatning yashash makoni bo‘lib, jaxon hamjamiyatida o‘z o‘rniga, nufuziga va mavqeiga ega bo‘lgan mamlakatdir. SHuning uchun xam: "Milliy istiqlol mafkurasining bosh g‘oyasida ozodlik tushunchasining ustuvor va etakchi o‘rinda turishi Vatan mustaqilligi barcha orzu-intilishlarimiz, amaliy faoliyatimiz va yorug‘ kelajagimizning asosi ekanidan dalolat beradi".

Obod Vatan g‘oyasi. Inson barcha tirik mavjudotlardan farqli o‘laroq, o‘zining yashayotgan maskanini obod qilishga harakat qilib kelgan. SHu tufayli jahon sivilizatsiyasining obodlikni tarannum etuvchi o‘choqlari yaratilgan. Obod yashash uchun kurash insoniyatning azaliy orzu-umidi bo‘lib, u hayot sinovlaridan o‘tgandan so‘ng eng ilg‘or ijtimoiy-siyosiy bunyodkor g‘oyalar safidan joy olgan. Xuddi, shu ma’noda I.A.Karimov "O‘zbekning fe’l-atvori barchaga ayon. U erni, tabiatni sevadi. Do‘ppisida suv tashib bo‘lsa ham, daraxt ko‘kartiradi. O‘zbek tom ma’noda bunyodkordir”[28], - degan edi. O‘zining yashayotgan joyini obod qilgan holda kun kechirish xar bir o‘zbekning qon-qoniga singib ketgan fazilatdir. SHu tufayli obod Vatan tushunchasi-xar bir o‘zbek bolasi va uning oilasi uchun mukaddas g‘oya hisoblanadi. "Obod" so‘zi forscha bo‘lib, o‘zbek tilidagi lugaviy ma’nosi "odam yashaydigan, ishlov berilgan, gullab yashnayotgan” degan ma’nolarni anglatgan xolda kishilarning kundalik turmushida: 1) ko‘rkam binolar, chiroyli ko‘chalar, bog‘u rog‘lar bilan go‘zallik kasb etgan, gullab-yashnagan o‘lka, mamlakat; 2) yaxshi qarov, parvarish bilan etiltirilgan bog‘lar, paxta, g‘alla kabi ekin maydonlari; 3) xalq kup yig‘iladigan, gavjum va serfayz joylar 4) odamlari xursand, shod degan ma’nolarni ifodalash uchun ishlatiladi.

O‘zbek xalki mustakillikka erishgandan so‘ng YUrtboshimiz IA.Karimov obod Vatan g‘oyasini nazariy va amaliy jihatdan yoritib berar ekan, uning tushunchasi ma’no-mazmuni, tarixiy ildizi x^kdda kuyidagi

---

[28] КаримовИ.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Биз келажагимизни уз цулимиз билан курамиз. -Т.: Узбекистон, 1999. -Б.142-143.

fikrlarni bildiradi.

"Barchamizga yaxshi ayonki, har qaysi inson, millati, tili va dinidan qat'i nazar, bu dunyoga baxtli yashash uchun keladi. Bunday yuksak orzuga etishning sharti va garovi bo'lgan omillar kup. Lekin ular orasida hayotimizga ma'no-mazmun beradigan, uni yanada yorug va fayzli kdladigan bir omil borki, u ham bo'lsa, odamning o'z uyi, o'z yurtini har tomonlama go'zal va obod kdlib, shundan o'zi mamnun bo'lib, rozi bo'lib yashashiida yakdol namoyon bo'ladi.

SHuni ta'kidlash kerakki, obod degan so'zning ma'nosini biz juda keng va chukur tushunamiz. Obod deganda, xalkdmiz, millatimiz nafaqat kurkam va chiroyli, shu bilan birga, tinch va osoyishtaliq o'zaro mexr-okdbat, axdlliq fayz-baraka xukmron bo'lgan joylarni, doimo pok niyat va soglom intilish bilan yashashni tasavvur kdladi.

Mustaqillik yillarida "Obodlik kungildan boshlanadi" degan chukur mazmunli ibora el-yurtimiz o'rtasida keng tarqalib, odamlarimizni bunyodkorlik tuyg'usi bilan yashashga da'vat etib kelayotgani ham bu fikrni tasdikdaydi.

Bunday muloxaza va fikrlarni umumlashtirib, o'zbekona aytadigan bo'lsaq barchamizning xarakat va intilishlarimiz negizida, avvalambor, yurtimiz, Vatanimizni har tomonlama obod kdlish, inson erkin nafas oladigan, tinch va farovon yashaydigan xayot barpo etish g'oyasi mujassam ekanini, uylaymanki, hammamiz yaxshi tushunamiz. Ana shunday orzu-niyatlar bilan kundalik hayotimizni tuldirish, ularni hayotimizning maqsadiga aylantirish, shunday g'oya va intilishni amalga oshishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning barcha kuch va imkoniyatlarini safarbar etish, hech shubhasiz, bugungi kunda muhim va dolzarb axdmiyat kasb etadi"[29].

YUqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqqan xolda obod Vatan tushunchasiga quyidagicha falsafiy ta'rif berish mumkin.

Obod Vatan bu inson har tomonlama erkin nafas olib tinch va farovon yashaydigan, xavfsizligi xar tomonlama ta'minlangan, osoyishtalik va barqarorliq samarali ijod va yaratuvchanlik o'zaro mexr oqibat, aqilli fayz-baraka, jismoniy va ma'naviy poklik xukmron bo'lgan xududdir.

Erkin va farovon hayot barpo etish g'oyasi. Insoniyatning rivojlanish tarixida mehnatkash xalq hal qiluvchi vazifalardan birini o'tab kelgan. CHunki, ular har qanday mamlakat fuqarolarining eng zaruriy oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechaklarga bo'lgan ehtiyojini qondirishning moddiy manbasini yaratish bilan shug'ullanganlar. SHuning uchun ham aqli zukko davlat arboblari mehnatkash xalqning turmushini yaxshilash borasida qayg'urganlar. Sohibqiron Amir Temur obod kilish masalasida: "Xarob bo'lib yotgan erlar egasiz bo'lsa, xolisa tarafdan obod qilinsin. Agar egasi bo'lsa-yu, lekin obod qilishga qurbi etmasa, unga turli asboblar va kerakli narsalar bersinlar, toki o'z erini obod qilib olsin. Katta-kichik xar bir shahar, har bir qishlovda masjid, Madrasalar bino kilsinlar, faqiru miskinlarga langarxona (yulovchilar kunib utadigan er; miskin va etim-esirga taom beriladigan joy; g'aribxona) solsinlar, kasallar uchun shifoxona kurdirsinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar", - degan topshiriqlarni bergan va uning ijro etilishini qattiq nazorat ostiga olgan. Ajdodlarimizning bunday olijanob ishlari milliy g'oyamizning bosh maqsadini mamlakatimizda amalga oshirishning mustahkam tarixiy ildizga ega ekanligidan dalolat beradi.

Masalan, Sobiq SSSR davrida O'zbekiston qishloqlarida yashovchi axoli kuloqlashtirish, kollektivlashtirish, sovxozlashtirish, agrarsanoat asosida yiriklashtirish kabi bir qator tajriba-sinov maydoniga aylantirildi. Natijada, paxta tolasi va qorakulning 90 foizi, tabiiy junning 71 foizi respublikadan arzimas baho bilan chetga olib ketilaverdi. SHu tariqa bu erda paxta yakkahokimligi o'rnatildi. Qishlovda yashayotgan 240 ming nafar oila ersiz bo'lib, daromad topishdan maxrum edi. Vaziyatning bunday shaklda yomonlashib borishi qishloq axolisining vitaminlarga boy ovqatlar emasdan turli xil kasalliklarga chalinishiga olib keldi. Kommunistlar va'da qilgan erdagi jannatiy hayot - kommunistik obod turmush o'zining sarob ekanligini ko'rsatdi.

O'zbek xalqi mustaqilikka erishgach o'z oldiga moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishning barcha soxalarida yirik isloxotlarni amalga oshirib mamlakatimiz fuqarolari uchun erkin va farovon hayot barpo etishni bosh maqsad qilib qo'ydi. Bu maqsadni amalga oshirishda YUrtboshimiz I.A.Karimov tomonidan: "Barchamizning ildizimiz, tomirimiz avvalambor qishloq zaminiga borib taqaladi. Ona Vatan degan ulug' va

---

[29] Каримов И.А. Инсон манфаати, хукук; ва эркинликларини таъминлаш, хаётимизнинг янада эркин ва обод булишига эришиш – бизнинг бош мақсадимиз // Мамлакатимизни янада обод этиш ва модернизация қилишни катъият билан давом эттириш йулида. Т.21. -Т.: Узбекистан, 2013. -Б.111.

muqaddas tushuncha odamzot uchun go‘yoki kdshloqtimsolidan boshlanadi. YUrtimizning yanada obod, xalkdmiz hayotining yanada farovon bo‘lishi va oldimizda turgan yuksak vazifalarning bajarilishi, hech shubhasiz, qishloqlarimizning taediri va kelajagi bilan boglikdir. Kdshloqtaraqkdy topsa, yurtimiz obod, hayotimiz yanada farovon bo‘ladi", - deb aytgan so‘zlari metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda erkin va farovon hayot barpo etish nimalarni anglatadi? Erkin deganda, odatda kishilarning xar qanday to‘siq, monelik va shu kabilardan xoli bo‘lgan holda qiynalmay, qisilmay, ochiq-oydin, bemalol yurish- turishi, yashashi tushuniladi. YUkorida keltirilgan "erkin", “farovon", "hayot" so‘zlarining ma’nosidan kelib chikdan holda erkin va farovon hayot tushunchasiga kuyidagicha falsafiy ta’rif berish mumkin.

Erkin va farovon hayot deb mamlakat axolisnnnng hayotiy zaruriyatlarini anglab etgan holda hech qanday qarshiliklarsiz, to‘siklarsiz, ochiq-oydin, qiynalmasdan o‘z qobnlyatlarini har tomonlama namoyon kilishlarn orkali hamma narsaning to‘kin-sochin, mo‘l-kulchiligini ta’mnnlashga erishishi natnjasida go‘zal turmush, osuda, serfayz hayot kechirishiga aytiladi.

Bunday hayotga erishish uchun uning moddiy va ma’naviy omillarini bilish, ularning rivojlanish konuniyatlarini falsafiy jixatdan o‘rganish zarur.

Masalan, kishlokda erkin va farovon xayot - obod turmushni bunyod etishning moddiy omillariga kuyidagilar kiradi: birinchidan, tabiat omili: tuproq, suv, usimlik va xayvonot olami, dashtu-dalalar; ikkinchidan, ishlab chiqarish omili: paxtachilik g‘allachiliq sholikorlik mevachilik polizchilik sabzavotchilik chorvachilik va boshqalar; uchinchidan, ishlab chiqaruvchi kuch va vositalar omili: kishloq xo‘jaligi texnikalari, mahsulotlarga kayta ishlov beruvchi qurilmalar, malakali ishchi kuchlari - dexqonlar, chorvadorlar va boshqa kerakli mutaxassislar; to‘rtinchidan, ijtimoiy turmush omili: zamonaviy turar joylar: odamlarning uy, shaxsiy ehtiyojlar uchun ajratilgan tomorqa er va chorva mollari.

Qishlokda erkin va farovon hayot - obod turmushni bunyod etishning ma’naviy omillariga kuyidagilarni kiritish mumkin: tabiatni muxofaza qilishga karatilgan bilim va xarakatlar, ya’ni ekologik ong, xukuq va madaniyat; ishlab chiqarish omilini rivojlantirish, ya’ni paxtachilik, g‘allachilik chorvachilik va boshqalardan mul xosil olishga qaratilgan bilimlar (agranomiya, zooveternariya, tuproqshunoslik va sh.k.) va to‘plangan amaliy tajribalar; ishlab chiqaruvchi kuch va vositalarni takomillashtirishga yunaltirilgan iqtisodiy va texnikaviy bilim xamda tajribalar; zamonaviy turar joylarni go‘zallashtirishga qaratilgan me’moriy ilmlar; bolalar bog‘chasi, maktab, o‘quv markazlari, madaniyat saroylari, sport inshootlari; axoli o‘rtasida azaldan davom etib kelayotgan urf-odatlar, an’ana va marosimlar, qadriyat darajasiga ko‘tarilgan boshka ma’naviy ish-xarakatlar.

Umuman olganda erkin va farovon dayot - obod turmushni bunyod etishning ana shu ikki omili urtasida dialektik qonuniyat mavjuddir. Bu haqida I.A.Karimov: "...insonga xos orzu - intilishlarni ruyobga chiqarish, uning ongli xayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak uylaymanki, o‘rinli bo‘ladi. Kachonki ana shu ikki muhim omil o‘zaro uyg‘unlashsa, tom ma’nodagi qo‘sh qanotga aylansa, shundagina inson, davlat va jamiyat hayotida o‘sish-o‘zgarish, yuksalish sodir bo‘ladi"[13].[1], - degan edi. Demak erkin va farovon hayot - obod turmushni bunyod etish masalasida undagi moddiy va ma’naviy omillarni qanchalik darajada uyg‘unlashtirgan holda rivojlantirib borishimizga bog‘likdir.

Xulosa tarzida shuni aytish mumkinki, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot g‘oyasi: birinchidan, ota-bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan, kindik qonimiz to‘kilgan muqaddas zaminning daxlsizligini, xavfsizligini ta’minlash; ikkinchidan, ma’naviy-ruxiy jixatdan milliy o‘zligimizni anglash va uning ifodasi bo‘lgan qadriyatlarni saqlash, boyitish va avlodlarga meros qoldirish; uchinchidan, erksevar xalqimizning asriy orzu-umidlari bo‘lgan mustakillikni mustaxkamlashga barchani safarbar qilish; to‘rtinchidan, xar bir kishining farovonligi davlat, millat farovonligi asosi ekanligini anglagan holda tashabbuskorliq tadbirkorlik bilan fidokorona mexnat qilishga asoslanadi. Beshinchidan, bu g‘oya kelajakka qaratilgan bo‘lib, xalqni uyushtirish, safarbar kilish vazifasini bajaradi. Oltinchidan, bu g‘oyada mamlakatimizda yashayotgan barcha millat vakillarining pirovard maqsadlari ifodalangan bo‘lib, u kishilarni kelajakka chorlovchi ulug‘vor va jozibali shior tarzida namoyon bo‘ladi.

Bu g‘oyani xalqimiz ongiga, qalbiga chukur singdirish mustaqillikni mustaxkamlash, buyuk kelajak qurish va O‘zbekistonni ilg‘or davlatlar qatoriga qo‘shilish jarayonining muhim omili hisoblanadi.

Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish g‘oyasini amalga oshirishning ustuvor yunalishlari. I.A.Karimov mamlakatimizda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish g‘oyasini

amalga oshirishning ustuvor yunalishlarini kuyidagicha belgilab bergan:

*Birinchidan,* O‘zbekistonimizda tinchlik-osoyishtalik va xavfsizlikni, fuqarolar va millatlararo axillik va hamjihatlikni ko‘z qorachig‘idek saqlash va mustahkamlash bundan buyon ham eng muxim, hal qiluvchi vazifamiz bo‘lib qolishi darkor.

Albatta, bu masala buyicha mas’ul bo‘lgan tegishli idoralar bor, kuch-kudratimiz ham etarli. Lekin qachon yurt tinch va obod bo‘ladi? Kachonki, har qaysi uyda, har qaysi mahallada yashayotgan odam tinchlik va osudalikning qadriga etib, uni mustaxkamlashni, uni himoyalashni o‘zining burchi, deb bilsa, tinchlik uchun kurashsagina bu maqsadga erishish mumkin.

*Ikkinchidan,* obod hayot degan tushuncha azal-azaldan xalqimizning ongu tafakkurida, avvalambor, farovonliq to‘kinchilik mul-kulchiliq qut-baraka, bozorlarda arzonchilik ma’nosini o‘zida mujassam etib keladi, SHuning uchun ham bugungi kunda xalq farovonligi tushunchasi Vatan ravnaqi va yurt tinchligi degan, biz uchun eng aziz va muqaddas bo‘lgan qadriyatlar bilan birgalikda milliy g‘oyamizning asosiy mazmun-mohiyatini tashkil etmokda.

Bu g‘oyani amalga oshirishda aholi farovonligi, uning real daromadlarini oshirish bandlik masalasini echish, kichik biznes va xususiy tadbirkorliq fermerlik harakatini yanada rivojlantirish, davlat tomonidan beriladigan aniq manzilli ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish kabi vazifalar e’tiborimiz markazida bo‘lishi lozim.

Bir so‘z bilan aytganda, xalqimizning "Mehnatdan kelsa boylik - turmush bo‘lar chiroylik" degan maqoli zamirida mujassam bo‘lgan haqiqatni hayotimiz tarziga aylantirish yulida katta-katta ishlarni amalga oshirishimiz zarur.

*Uchinchidan,* obod turmushning yana bir muhim sharti - bu inson salomatligini mustahkamlash bilan bog‘liq ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz. Haqiqatan xam, odamlarimiz qachon, qaerda bo‘lmasin, duoga qo‘l ochar ekan, avvalo, "Tani sog‘liq tinchlik-xotirjamlik bo‘lsin, yurtimiz obod bo‘lsin", deb niyat qilishi bejiz emas, albatta. SHu bois xalqimizning salomatligini himoyalash, buning uchun sog‘liqni saqlash tizimini eng zamonaviy davolash vositalari, texnika va texnologiyalar bilan ta’minlash, profilaktika, ya’ni kasalliklarning oldini olish ishlarini yanada kuchaytirish, bu soxada fidokorona mehnat qilayotgan tibbiyot xodimlarining mashaqqatli va mas’uliyatli mehnatini moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish masalalari biz uchun doimiy vazifa bo‘lib qoladi.

*To‘rtinchidan,* xalqimizning hayot sifati va darajasini yuksaltirish, jumladan, yangi uy-joylar, zamonaviy yul va kommunikatsiya tarmoqlarini barpo etish, aholi punktlarini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash, kommunal xizmat soxasidagi muammolarni echish kabi dolzarb masalalar bo‘yicha xa m aniq chora-tadbirlar belgilanishi kerak.

*Beshinchidan,* biz turmushimizni yanada obod qilish vazifasini oldimizga qo‘yar ekanmiz, bir haqiqatni chuqur anglab olishimiz zarur. YA’ni, xayotimizni obod qilishning muhim sharti - bu avvalo, maxallani obod qilish demakdir.

Bu borada maxalla idorasining, mahallada yashaydigan aholimizning o‘zini o‘zi boshqarish tizimini, kerak bo‘lsa ijtimoiy himoyalash tizimini yanada takomillashtirish, maxallaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdagi o‘rni va ta’sirini yanada kuchaytirish, unga yangi xukuq va vakolatlar berish bo‘yicha xam keng jamoatchilik ishtirokida amaliy takliflar ishlab chikish maqsadga muvofiqdir.

*Oltinchidan,* hayotimizni yanada sog‘lom va obod qilish, avvalo ayol zotining jamiyatimizdagi o‘rni va nufuzini, ijtimoiy faolligini yanada oshirish, xotin-qizlarning turli jabha yunalishlarda qolayotgan ishlarini munosib baxolash, har qaysi xonadon, uy bekasi bo‘lmish opa-singillarimizning og‘irini engil qilish asnosida turmushimizni farovon etish bilan uzviy va chambarchas bog‘likdir. Ana shu haqiqatni amalda qaror toptirish uchun bizning xali qiladigan ko‘p ishlarimiz borligini unutmasligimizni istardim"[30].

3. Milliy istiqlol mafkurasining – Vatan ravnaqi, YUrt tinchligi, Xalq farovonligi g‘oyalarini – xalq qalbi va ongiga singdirishda mafkuraviy faoliyatni tashkil qilishning usul va vositalari

3.1. Vatan ravnaqi g‘oyasini xalq qalbi va ongiga
singdirish borasida mafkuraviy faoliyatni tashkil qilishning usul va vositalari

---

[30] Каримов И.А. Инсон манфаати, хукук; ва эркинликларини таъминлаш,ҳаётимизнинг янада эркин ва обод булишига эришиш - бизнинг бош мак;садимиз. Мамлакатимизни янада обод этиш ва модернизация қилишни қатъият билан давом эттириш йулида. Т.21.-Т.: Узбекистон, 2013. -Б.112-115.

Vatan tushunchasi, uning mohiyati va ahamiyati. "Vatan” arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida "tug‘ilib o‘sgan joy, ona yurt" degan lug‘aviy ma’noni bildirib, kishilarning kundalik xayotida: 1) kishining tug‘ilib o‘sgan o‘lkasi, shaxri yoki qishlog‘i, yurti, maskani, uyi, diyori; 2) kishi tug‘ilib o‘sgan va o‘zini uning fuqarosi hisoblagan mamlakati, ona yurti; 3) turar joyi, boshpanasi, maskani, uyi; 4) biron bir narsaning asli kelib chikqan eri, joyini ifodalash uchun ishlatiladi. "Vatan, - degan edi faylasuf olim H.Po‘latov, - muqaddas qadriyat. Taraqqiyot Vatandan boshlanadi. U insonning kindik qoni to‘kilgan joy, insonni ijtimoiy etimlikdan asrovchi manzil, har kimning birligini qadrlovchi, o‘z-o‘ziga siyosiy bekligini ifodalovchi zamin, ma’naviy kamolot va fuqarolik maydoni, hayot maktabi, farovonlik va baxt-saodat o‘chog‘idir".

SHunday qilib, "Vatan - insonning kindik qoni to‘kilgan tuproq, uni kamol toptiradigan, hayotiga ma’no-mazmun baxsh etadigan tabarruk maskandir. U ajdodlardan avlodlarga qoladigan buyuk meros, eng aziz xotira. Vatan - ota- bobolarimizning xoki poklari jo bo‘lgan, vaqti-soati etib xar birimiz bosh qo‘yadigan muqaddas zamindir. Vatani bor odamning g‘ururi-iftixori yuksak maqsad-muddaolari aniq bo‘ladi. Tog‘dek tayanchi - Vatani borligini xis etgan inson hayotning har qanday sinovlariga doimo tayyor turadi". "Vatanni sevmoq iymondandir", - degan edilar paygambarimiz Muxammad alayhissalom.

Vatan bu - kishilarning o‘zi yashab turgan, avlod va ajdodlari tug‘ilib o‘sgan, millati shakllangan joy, ijtimoiy muxit, mamlakatdir. Vatan bir-birini taqazo etuvchi (uy, maxalla, shahar, qishloq, mamlakat kabi) bir qator xududlarni o‘zida ifodalaydigan, ijtimoiy muxit va inson, uning hayoti kabi ko‘plab ma’naviy tushunchalarni o‘z ichiga oladi, avlodlar tug‘ilib o‘sgan va kamol topgan joy, zamin, o‘lkani anglatadi.

Vatan ostonadan boshlanadi, deb bejiz aytilmaydi. Biroq kishi ulg‘aygani sayin uning Vatan xaqidagi tasavvuri xam kengayadi. Avval uy, so‘ngra maxalla, qishloq yoki shaxar xamda butun mamlakat Vatan ekani asta-sekin anglab olinadi. Vatanga bog‘liqlik uni qadrlash tarixiy rivojlanish jarayonida paydo bo‘lib, muhit va davr ta’sirida shakllanadigan ijtimoiy- ruhiy tuygudir.

Millatlar va elatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarning o‘sishi, avvallari faqat bir elat yoki millat uchun Vatan bo‘lgan o‘lkani shu o‘lkada yashab turgan barcha xalqlar uchun Vatanga aylantiradi. Xozirda yurtimizda yashayotgan yuzdan ziyod millat va elatlar vakillarining O‘zbekistonni o‘z Vatani deb bilishi xam ana shunday jarayonlar natijasidir. SHu boisdan, Vatan bu bir joy, zamin, ulkada yashayotgan kishilarni, millati yoki dinidan sat’i nazar, birlashtiruvchi ijtimoiy tushunchadir.

Xalq madaniyati, an’analari, urf-odatlari, milliy ong ham ona yurt tushunchasi bilan mustaxkam bog‘liq bo‘lib, ular Vatandan tashqarida rivojlanmaydi. Vatan tushunchasi mustaqillik sharoitida alohida ahamiyat kasb etdi. Ma’lumki, istibdod yillarida xukmron mafkura kishilarimizning ongidagi Vatan tushunchasini buzib, uning o‘rniga mavxum va umumiy tushunchani zo‘rlik bilan singdirmoqchi bo‘ldi. “O‘zbekistan - Vatanim manim" deyish u davrda millatchiliq milliy cheklanganlik deb baxolandi. Holbuki, Vatan – aniq tushuncha. U kup xollarda muayyan xudud, mamlakat yoki davlatga o‘z nomini bergan va shu erda yashaydigan millat yoki xalq nomi bilan ataladi. Masalan, O‘zbekiston, Arabiston, Turkmaniston va xakazo.

Vatan ravnaqi tushunchasi. Ona-Vatani bor har bir aqliraso inson uning taraqqiy etishini, gullab yashnashini istaydi va shu yo‘lda tinimsiz ter to‘kib, mexnat qiladi, zahmat chekadi. "Ravnaq" so‘zi forscha bo‘lib, o‘zbek tilida lug‘aviy jihatdan "yorug‘, nurli, yorqin, aniq, ko‘rinarli" degan, kundalik hayotda esa: 1) porlash, xusn, ko‘rk; 2) taraqqiyot, rivoj, barq urish, gullab yashnash degan ma’nolarni anglatish uchun ishlatiladi. SHunga kura, Vatan ravnaqi deganda xar bir insonning o‘zi tug‘ilib o‘sgan, yashayotgan joyi - ona-Vatanini gullab yashnashi, barq urib rivojlanishi, uning xusniga - xusn, ko‘rkiga - ko‘rk qo‘shishi, osmondagi quyosh kabi porlab nur sochib turishi uchun fidokorona mexnat qilishi, zaxmat chekishi natijasida uni dunyodagi eng go‘zal maskanlardan biriga aylantirish ishtiyoqida qilinayotgan g‘oyaviy fikrlar va amaliy xatti-xarakatlar tushuniladi.

Vatan ravnaqi g‘oyasini amalga oshirish yullari. Vatan ravnaqi g‘oyasini amalga oshirish bevosita jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-madaniy rivojlanishiga bog‘liq. Bunda birinchidan, xozirgi ijtimoiy barkarorliq millatlararo totuvlik diniy bag‘rikenglik jamiyatni boshqarishda ommaviy tashkilotlarning (xususan, mahallaning) mavqeini oshirish, axolini ijtimoiy himoya qilish tamoyillari nihoyatda muhim. Ikkinchidan, hayotda demokratik tamoyillarning ustuvorligi, muqobil partiyalar, jamiyatning barcha jabdalarini erkinlashtirish, davlatning islohotchilik funksiyasi, aholi siyosiy ongi va madaniyatini oshirish katta ahamiyatga ega. Uchinchidan, bozor munosabatlariga xos muqobil mulkchilikning shakllanishi, iqtisodiyotning tarkibiy tizimidagi o‘zgarishlar, kichik va urta biznes, ishbilarmonlik va tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, tashщi itstisodiy aloqalarni kuchaytirish bunda muhim omil bo‘lib xizmat kdladi. To‘rtinchidan,

tarixiy merosimizning tiklanishi, aholi intellektual salohiyatini oshirish, fan va ilmiy muassasalar, san’at va adabiyotni rivojlantirish, komil insonni tarbiyalash bo‘yicha milliy ta’lim dasturining qabul qilinishi va izchil amalga oshirilishi, xalqaro madaniy aloqalarni kuchaytirish ham Vatan ravnaqiga xizmat qiladi. Beshinchidan, mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida qonun ustuvorligiga erishish, xukuqiy-demokratik jamiyat qurish soxasidagi tajribalar, davlatimizning xalqaro xukuq normalariga amal qilishi Vatan ravnaqini ta’minlaydigan shart-sharoitlardir.

Vatan ravnaqi g‘oyasi xar bir insonning takdirida o‘z ifodasini topadi, kelajak avlodlarga ozod va obod Vatan qoldirish uchun hammaga birdek mas’uliyat va majburiyat yuklaydi. Uni anglash esa, inson kamolotining muhim mezonidir. Bu g‘oya xar bir yurtdoshimizni o‘zining ma’naviy kamoloti uchun yuksak mas’uliyatni his etishga, o‘z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg‘unlashtirib yashashga da’vat etadi.

Milliy istiqlol g‘oyasi barcha yurtdoshlarimiz qalbida O‘zbekistonni sevish, uning farovonligi yo‘lida faol mehnat qilish fazilatlarini kamol toptirishga xizmat qiladi, "O‘zbekiston - yagona Vatan” tuyg‘usini shakllantiradi.

Vatan ravnaqi g‘oyasini amalga oshirishda vatanparvarlikning tutgan o‘rni va roli. Vatan ravnaqi - milliy istiklol mafkurasining Islom Karimov tomonidan asoslab berilgan g‘oyalaridan biri bo‘lib, uning mazmunini har bir kishining manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg‘unlashtiruvchi, uni xalq baxt-saodati yo‘lida xizmat qilishga undovchi bunyodkor g‘oya ekanligi, O‘zbekistonda yashayotgan barcha fuqarolarning el-yurt kamoli bilan bog‘liq orzu-umidlarini amalga oshirishni ifodalashi tashkil etadi.

Vatan ravnaqi, avvalo, uning farzandlari kamoliga bog‘liq. Bu esa, har bir yurtdoshimizni o‘zining ma’naviy kamoloti uchun yuksak mas’uliyatni xis etishga, o‘z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg‘unlashtirib yashashga da’vat etadi. Bu esa, vatanparvarlik tuyg‘usida namoyon bo‘ladi.

Vatanparvarlik - Vatanga nisbatan sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun faol bo‘lishga undaydigan ijtimoiy, ma’naviy-axlokdy fazilat. Uning mazmuni - Vatanga mehr-muhabbatli va sodiq bo‘lishdan, yurtning o‘tmishi va hoziri uchun faxrlanishdan, mamlakat manfaatlarini ximoya qilishga intilishdan iborat. Vatanparvarlik ota-bobolardan meros qolgan zaminni sevish, xalq urf-odatlarini, qadriyatlarini asrash va rivojlantirish, o‘z ona Vatanini dushmanlardan, yot va begona g‘oyalardan ximoya qilish, uning ozodligi va mustaqilligi uchun jonini ham ayamaslikni nazarda tutadi.

Vatanparvarlik aniq bir hayotiy muxitda, ijtimoiy zaminda va mavjud ma’naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi. Uning to‘la va to‘g‘ri shakllanishi, yuksak namunalarini ko‘rsatish uchun xam xalq va Vatan mustaqil bo‘lishi lozim. Ana shu sababdan, mustaqillikni e’zozlashimiz, qadriga etishimiz, uni qadam-badaqam mustaxkamlab borishimiz zarur. SHu yuldagi olijanob fazilat va ezgu intilishlar bugungi kunda haqiqiy vatanparvarlik namunasidir.

Vatanparvarlik milliy istiklol g‘oyalarini targ‘ib qilish, mamlakatimizda yashayotgan turli millat va elat vakillari o‘rtasidagi do‘stlik tinchlik va axillikni mustahkamlash uchun kurashishda ham namoyon bo‘ladi. Vatan ravnaqini vatanparvarlik g‘oyasisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bunday g‘oya va uning asosida shakllanadigan soglom mafkura hech qachon Vatandan tashqarida ildiz otmaydi va rivojlanmaydi. U xalqning milliy vatanparvarlik tuyg‘usini o‘zida aks ettirmasa, jamiyatning xarakatlantiruvchi kuchi bo‘la olmaydi.

Vatanparvarlikni kamol toptirish kupgina ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, mafkuraviy, tarbiyaviy omillar bilan bog‘liq. Bu – nixoyatda katta mehnat talab qiluvchi murakkab vazifadir. Barcha kasbdagi ziyolilar, tarbiyachilarning xozirgi muhim vazifalaridan biri kishilarda, xususan, yoshlarda Vatanga sadoqat, fidoiylik kabi fazilatlarni kamol toptirishdir.

Vatanparvarlik g‘oyalarini yoshlarimiz ongiga singdirish, avvalambor, oiladan boshlanadi. Ona Vatan, Vatanga muhabbat, Vatan tuyg‘usi kabi ilk tushunchalar ham, avvalo, oila muhitida shakllanadi. Bu jarayon bobolar o‘giti, ota ibrati, ona mexri orqali amalga oshadi. Inson o‘zligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuygusi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qancha chukur bo‘lsa, tugilib usgan yurtga muhabbat ham shu qadar ortadi. Vatanparvarlik g‘oyalarini yoshlar qalbi va ongiga singdirishda ta’lim va tarbiyaning turli shakllari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Vatanparvar insongina hozirgi kunda o‘zlarining g‘arazli va jirkanch niyatlarini amalga oshirish maqsadida yurtimizga har xil yo‘llar bilan kirib kelayotgan, mustaqil dunyoqarashi shakllanib ulgurmagan yoshlarimizning qalbi va ongini qandaydir zararli va buzg‘unchi g‘oyalar bilan egallashga harakat qilayotgan yovuzlarga qarshi kurasha oladi va o‘z yurtini himoya qiladi. Xulosa qiladigan bo‘lsak I.A.Karimov aytganidek “O‘zbekiston fuqarosining vatanparvarligi – bu qayta

o‘zgarishlar yo‘lini ko‘rsatuvchi, ko‘zlangan maqsaddan chetga chiqmaydigan yulchi yuldo‘z, ishonchli kompasdir”.

3.2. YUrt tinchligi g‘oyasini xalq qalbi va ongiga singdirishda mafkuraviy faoliyatni tashkil qilishning usul va vositalari

YUrt tushunchasi. O‘zbek xalqi azaldan tinchliksevar xalq. "..Unga birovning eri kerak emas. Mabodo qo‘liga qurol olguday bo‘lsa, faqat o‘zini ximoya qilish uchungina oladi". YUrtda tinch va osoyishta yashash o‘zbekning mentalitetiga xos bo‘lgan xususiyatdir. Odatda, yurt deganda birinchidan, ma’lum xalq, aholi yashab turgan joy, o‘lka, mamlakat, vatan; ikkinchidan esa biror mamlakat yoki o‘lkada yashovchi xalq, el, aholi tushuniladi. Xuddi shu ma’noda o‘zbeklar yurti deganda o‘zbek xalqi yashayotgan mustaqil O‘zbekiston mamlakatini tushunmoq kerak. YUrt so‘zidan yurtboshi, yurtgarchilik yurtdosh, yurtfurush degan iboralar kelib chiqqan. Bunda yurtboshi deganda el-yurt boshlig‘i, sardori, xukmdori tushuniladi. Bu so‘z bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining Prezidentiga nisbatan xurmat ma’nosida qo‘llanilmoqda. SHuningdek yurtgarchilik deganda yurtda bo‘ladigan turli taomil, munosabat, urf-odatlar; yurtdosh deganda esa bir yurtda yashovchi yoki yashagan kishilarning har biri, bir-biriga nisbatan bo‘lgan munosabati tushunilsa; yurtfurush deb o‘z yurti yoki vataniga xiyonat qiluvchi, vatanfurush, xoinlarga aytiladi. Demaq yurt tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, kishilarda o‘zining kindik qoni to‘kilgan joyni teran anglatish uchun ishlatiladi.

YUrt tinchligi tushunchasi, uning moxiyati va tabiati. Insoniyat paydo bo‘libdiki, uning aqli zukko vakillari doimo yurt tinchligi uchun kurashib kelmoqdalar. Tinchlikda xosiyat katta. CHunki u har qanday shaxe, elat, millat va jamiyatning mavjudlik sharti, kelgusidagi taraqqiyotining asosiy omili hisoblanadi. YUrt tinchligi deb, xar bir insonning o‘zi tug‘ulib o‘sgan joyida, istiqomat qilayotgan yurtida o‘zi va o‘zgalarning xaq-xuquqlarini xurmat qilgan xolda, ichki va tashqi kelishmovchiliklarni o‘zaro hamjixatlik muzokara yo‘llari bilan echib, xar xil yomonliklar bilan bezovta qilmaydigan betashvish, urush-janjallarsiz osoyishta yashashlari uchun to‘s-to‘polonlardan, o‘zaro ziddiyatli to‘qnashuvlardan, katta-kichik urushlardan xoli bo‘lgan sharoitning mavjudligiga aytiladi.

YUrt tinch bo‘lsagina, odamlarning turmushida, mehnatida xuzur-xalovat bo‘ladi. Mamlakatda taraqqiyot yuz beradi, xalqning o‘z oldiga qo‘ygan buyuk maqsadlari ijobat bo‘ladi. Demaq xar bir inson uchun yurt tinchligi bebaho ne’mat, ulug‘ saodatdir. Uni qadrlash, saklash uchun kurash xar bir fuqaroning muqaddas burchidir.

YUrt tinchligi g‘oyasini amalga oshirishning asosiy yunalishlari. YUrt tinchligi g‘oyasini amalga oshirish uchun quyidagi bir qator: 1) mamlakatimizning xududiy bo‘linmasligi va sarhadlarining daxlsizligini qonuniy yul bilan uzluksiz ravishda ta’minlab borish ishlarini kuchaytirish; 2) mamlakatimizning mustaqilligi va davlat hokimiyatining suverenitetini himoya etuvchi xuquqni muhofaza qiluvchi organlar va qurolli kuchlarimizning jangovar shayligini oshirish va takomillashtirish; 3) yoshlarni vatanparvarlik va fidokorlik ruxida tarbiyalash ishlarini zamon talablari darajasida olib borish; 4) mamlakatimiz aholisining fuqarolik burchi va Vatanga sadoqat tuyg‘usini yanada oshirish; 5) jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashishni izchil yulga kuyish; 6) mustaqillikni mustahkamlash va rivojlantirish yulida birlashish ishlarini takomiliga etkazish kabi ishlarni amalga oshirish zurur bo‘ladi.

YUrt tinchligi - Vatan ozodligi va istikloli bilan chambarchas bogliq. Birovga qaram xalq hech kanon erkin va farovon yashay olmaydi. SHuning uchun ham mamlakatimiz Konstitutsiyasida Vatan himoyasi, yurt tinchligi uchun kurashish har bir fuqaroning mukaddas burchi ekani qayd etib qo‘yilgan. Xalqimizning tinch va osoyishta yashashi, oydin kelajagi Vatan, yurt taqdiri bilan bog‘liq. SHuning uchun bugungi kunda har bir fuqaro yurtim tinch - men tinch, elim to‘q bo‘lsa, men ham to‘qman. Elimning boshiga kulfat kelsa, mening boshimga ham tegirmon toshi tushadi, demak yurtim men uchun, men esa yurtim uchun javobgarman, o‘zimni, o‘z uyimni o‘zim asramog‘im darkor, degan haqiqatni shior qilib olishi lozim.

YUksak ma’naviyat, siyosiy madaniyat, millatning g‘oyaviy va mafkuraviy etukligi - yurt tinchligini saqlashning muhim omilidir. Xalqimiz uchun muqaddas bu g‘oya jamiyatdagi turlicha fikr va qarashga ega bo‘lgan barcha kuch va harakatlarni birlashtirishga va shu orqali milliy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

3.3. Xalq farovonligi g‘oyasini xalq qalbi va ongiga singdirishda mafkuraviy faoliyatni tashkil qilishning

usul va vositalari

Xalq tushunchasi. Har bir mustakdl mamlakatda yashayotgan xalq farovon turmush kechirishni istaydi va bu istakni amalga oshirishga harakat qiladi. "Xalq" so‘zi arabchadan o‘zbek tiliga kirib kelgan bo‘lib lug‘aviy jihatdan "yaratish, ijod qilish, yaratilgan jonzot va odamlar" degan ma’nolarni bildiradi. Kishilarning kundalik hayotida esa bu so‘z: 1) odamlar; 2) qabila, elat, millat; 3) muayyan joy axolisi; 4) biror joyga to‘plangan odamlar xaloyiq, olomon; 5) kasb, mashg‘ulot, toifa, yoki jinsga mansub kishilar guruxini bildiruvchi so‘z; 6) umum tomonidan e’tirof etilgan muassasalar, lavozim va unvonlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Demak xalq deganda muayyan joyda yashayotgan odamlar, elat, millatlar tushuniladi. SHunga ko‘ra "O‘zbekistan xalqni, millatidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi".

Farovonlik tushunchasi. Har bir inson yashashi uchun moddiy va ma’naviy ne’matlarning mo‘l-ko‘l bo‘lishini orzu qiladi. SHu asnoda farovon turmush kechirish uchun tinmay mexnat qiladi, zahmat chekadi.

“Farovon” so‘zi forschadan o‘zbek tiliga kirib kelgan bo‘lib, lug‘aviy jihatdan "mo‘l, juda ko‘p, ortiq, ziyoda" degan ma’nolarni anglatgan holda odamlarning kundalik hayotida:

1) har jihatdan to‘la-to‘kis ta’minlangan, hamma narsasi mo‘l-ko‘l; 2) ko‘p miqdorda mavjud bo‘ladigan - serob; 3) obod, yashnagan, baxtiyor degan ma’nolarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Demak farovonlik deb biron bir kishi turmushining, elat, millat vaxalqningerkinlikka asoslangan fidokorona ijodiy mexdati tufayli erishgan tukin-sochinliq mo‘l-ko‘lchilik serfayz xolatiga aytiladi.

Xalq farovonligi g‘oyasi tushunchasi, uning mazmun-moxiyati. Xalq farovonligi g‘oyasi deb muayyan mamlakatda istiqomat qilayotgan har bir inson, oila, elat, millat, xalqning erkinlik tadbirkorlik tashabbuskorlik bilan mehnat qilishlari asosida to‘kin-sochinlik mo‘l-ko‘lchilik serfayz turmush kechirish xolatiga erishishini ta’minlashga qaratilgan fikrlar majmuiga aytiladi.

Mustaqillik sharofati tufayli mamlakatimizda amalga oshirilayotgan isloxotlarning oliy maqsadi - xalqimizga munosib turmush sharoiti yaratishdan iborat. O‘zbekistonda barpo etilayotgan jamiyatning iqtisodiy asosi - ijtimoiy yunaltirilgan bozor iqtisodiyotidir. Bugungi dunyodagi ko‘p mamlakatlar aynan shu yo‘l bilan taraqqiy etib, o‘z xalqining farovonligini ta’minlashda o‘rnak bo‘lmokda. O‘zbekiston ham xuddi shunday oqilona yo‘lni tanladi. Bugun yurtimizda amalga oshirilayotgan isloxotlar shunchaki isloxot uchun emas, aynan inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qiladi. Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan har qanday yangilanish, o‘zgarishning mohiyatida ana shunday ezgu maqsad yotgani barchamizga g‘ayrat-shijoat baxsh etadi.

Bunda shuni unutmaslik kerakki, sobiq sho‘ro tuzumi odamlar ongiga barcha falokatlarning sababi - xususiy mulkdadir, degan g‘oyani singdirib, soxta tenglikni qaror toptirmoqchi edi. Oqibatda, ishlamagan odam ishlagan odamdan yaxshiroq yashay boshlagan edi. Hatto sovet kishisining o‘zi ham davlat mashinasining murvatiga aylantirilgan edi. Mehnatga haq to‘lashdagi adolatsizlik boqimandalik kayfiyatini, ishlab chiqarishdagi isrofgarchilikni, tashmachilikni kuchaytirdi. Afsuski, o‘sha davrdan meros bo‘lib kelayotgan 'Davlat bor, hammani boqadi" degan kayfiyat ayrim kishilar ongida hanuzgacha yashab kelmokda. Bugun ham ma’lum kishilar ish axtarish, o‘z aravasini o‘zi tortish, yangi kasb egallash o‘rniga turli idoralardan moddiy yordam so‘rash bilan ovora, xolbuki, davlat hammaga tekin mol ulashadigan korxona emas. Buni anglab etmaganlar "Bersang - eyman, ursang o‘laman" qabilida loqaydlik bilan hanuz harakat qilish o‘rniga bir chetda tomoshabin bo‘lib turibdi. Odatda mustabid tuzumlar xalq farovonligidan, uning boyib ketishidan manfaatdor bo‘lmaydi. Sovet tuzumi ham ommani sun’iy ravishda turmush tashvishlariga botirgan edi. Haqiqatdan ham, kun ko‘rish mashaqqatidan boshi chiqmagan xalq ob’ektiv narsalar xususida uylashga, fikrlashga imkon topolmay qoladi. SHo‘rolar ham shu tariqa o‘zlari yuritgan siyosatni tanqid qilishga qodir ijtimoiy-siyosiy oqimlar paydo bo‘lishining oldini olishga uringan. Lekin eski tuzumning barcha urinishlari bekor ketdi, u oxir-oqibatda o‘z-o‘zini eb tugatdi.

O‘zbekiston istiqlolga erishgan dastlabki kunlardanoq yakka davlat mulki xukmronligini rad etib, mulk shakllari xilma-xilligiga, jumladan, xususiy mulkka keng yo‘l ochdi. Bugungi kunda mamlakatimizda mulkdorlar sinfi shakllanmokda. Mulksiz odam o‘ziga ham, o‘zgaga ham, jamiyatga ham ko‘p foyda keltira olmaydi. Endi qashshoqlik bilan maqtanish, uni pesh qilib, imtiyoz so‘rash zamoni o‘tib ketdi. Aksincha, tadbirkorlar, mulkdorlar zamoni boshlanmoqda.

Biz endi raqobatsiz o‘sish, yuksalish, taraqqiyot bo‘lmasligini anglab etdik. Lekin, to‘rt muchasi but,

rangli, aqlli va faol odamning kambag‘al yashashi uyat sanaladigan davr kelganini xali hamma ham anglab olgani yo‘q.

Bugungi kunda farovon turmush asosi - erkinlik tadbirkorlik tashabbuskorlikdir. Bu haqiqatni odamlar ongiga singdirish, keng aholi qatlamlarining islohotlar mohiyatini anglab etishiga va uning faol ishtirokchisiga aylanishiga erishmog‘imiz darkor. Buning uchun esa ularning dunyoqarashini, hayotga, mehnatga, erga munosabatini tubdan o‘zgartirish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyot o‘tgan tuzumda ayrim mutaxassislarning ishi bo‘lsa, bugun umumxalq, umumjamiyatning manfaatiga daxldor masala bo‘lib qoldi. Butun xalq yangi iqtisodiy tafakkur bilan kurollanmokda. Bizning mulkka, mehnatga munosabatimiz tubdan o‘zgara boshladi. Miyamizga singib qolgan "davlat mulki" degan tushuncha yoniga bugun xususiy mulk paychilik jamiyatlari, shirkat, fermer, oila pudrati degan yangi tushunchalar qo‘shildi. Mamlakatimizda istiqlol yillarida o‘ta markazlashgan va yakkahokimlik asosiga qurilgan, o‘zini oqlamagan tizimga barham berildi. Tadbirkorlik faoliyatining erkinligi uchun konstitutsiyaviy, xuquqiy va iqtisodiy shart-sharoit va kafolatlar yaratildi. Mulkdorlar sinfini shakllantirish, ularning xuquqini mustahkamlash, nufuzini oshirish va kafolatlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Tashabbuskorlik va tadbirkorlikni rag‘batlantirish, odamlarda mulkka egalik hissini tarbiyalash, kichik va o‘rta korxonalarni izchil rivojlantirish, aholi farovonligi va daromadlarining ortishida, ishsizlik muammosini echishda muxim ahamiyat kasb etmokda. Bugungi kunda xalqimizda mulkka egalik hissini shakllantirish, uning xo‘jalik yuritishning zamonaviy usullarini o‘zlashtirishiga erishish, unda o‘z kuchiga ishonch tuyg‘ularini kamol toptirish milliy islohotlarning eng ustuvor vazifalaridan biridir.

Xalq farovonligi g‘oyasini amalga oshirishdagi asosiy vazifalar. Mazkur bunyodkor g‘oyani amalga oshirishdagi asosiy vazifalar kuyidagilardan: 1) mamlakatimizda utkazilayotgan barcha turdagi islohotlarni boskichma- bosqich amalga oshirish. Bunda "islohot - islohot uchun emas, islohot xalq farovonligini ta’minlash uchun" degan tamoyilga og‘ishmay amal qilish; 2) bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirish, uni adolatli tarzda xalq farovonligini ta’minlashning amaliy mexanizmiga aylantirish; 3) har bir fuqaroda mulkka egalik hissini tarbiyalash. Egalik xissining xalq farovonligini ta’minlashdagi asosiy tejamkor omil ekanligini yoshlarning ongiga singdirish; 4) zamonaviy usullar bilan xo‘jalik yuritish. Bunda asosiy e’tiborni kam chiqimli, ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishda yangi zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanishga qaratish ishlarini yo‘lga qo‘yish; 5) tashabbuskorlik va tadbirkorlikni qo‘llab- quvvatlash; 6) kuchli ijtimoiy himoya siyosatini farovon hayotning asosiy shartiga aylantirish; 7) turmushga yangicha munosabatni shakllantirish. Oilada tejamkorlikni yulga qo‘yish, farzandlarni tejamkorlikka o‘rgatishdan iborat.

Bunda mamlakatimizning tabiiy boyliklar, er resurslari, iqtisodiy salohiyati har bir fukaroning ehtiyojlarini kondirish, o‘zligini namoyon etish va bunyodkorlik qobiliyatini ro‘yobga chiqarishning asosiy omillaridir. Faqat odamlar mazkur omillarga nisbatan ongli munosabatda bo‘lgandagina xalk farovonligini ta’minlash orzudan real voqelikka aylanadi. Bunga qozok oqini Abay e’tirof etib aytgan kuyidagi so‘zlar misol bo‘ladi. "O‘zbeklar etishtirmaydigan va mo‘l xosil olmaydigan ekinning o‘zi yo‘q er yuzida o‘zbek savdogarining oyog‘i etmagan joy yo‘q. O‘zbeklar uddalay olmaydigan ishning o‘zi yo‘q. Utkir zehn, mahorat, abjirlik va tadbirkorlik - bularning hammasi o‘zbeklarga xos xususiyatdir. Vazminlik va xushyorlik ham shularda..."[31]. Demak mehnatkash, mirishkor, ishning ko‘zini biladigan O‘zbekiston xalqi o‘z turmushini o‘z qo‘li bilan farovon qilishga qodir. Har kaysi inson va oila badavlat bo‘lsa, jamiyat va davlat ham kuchli va kudratli bo‘ladi, degan haqiqatga asoslangan bugungi iqtisodiy isloxotlarimiz yaqin kelajakda, albatta, o‘z mevasini beradi[32]. O‘zbek xalqi farovon turmush kechiradi. Uning barcha orzu-umidlari ijobat bo‘ladi.

## 7-MAVZU: GLOBALLASHUV JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH VAZIFALARI

### REJA

1. Globallashuv tushunchasi. Mafkuraviy jarayonlarni globallashtiruvchi va universallashtiruvchi omillar.

---

[31] Каримов И.Л. Дустлигимиз куёши минг йилликлар цаъридан нур сочади // Унинг узи. Ватан саждагох; каби мук;аддасдир. Т.3. -Т.: Узбекистон, 1996. -Б.101.

[32] Миллий истицлол гояси: аеосий тушунча ва тамойиллар. -Т.: Янги аср авлоди, 2001. -Б.160.

2. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi.
3. Geosiyosat tushunchasi. Geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosat.
4. Mafkuraviy poligon tushunchasi, uning namoyon bo‘lish xususiyatlari.
5. Mafkuraviy immunitet va uni shakllantirish omillari.
6. Mafkuraviy profilaktika va uni olib borish chora-tadbirlari.

1. Globallashuv tushunchasi. Mafkuraviy jarayonlarni globallashtiruvchi va universallashtiruvchi omillar Globallashuv tushunchasi, uning manbai, belgilari va xususiyatlari. Globallashuv masalasini bugungi kunda barcha mamlakatlardagi olimlar, siyosatchilar, jurnalistlar va tadbirkorlar muxrkama qilmoqdalar. Ularning barchasi mazkur fenomenni dunyo xalqlari ijtimoiy-iktisodiy, siyosiy-xukuqiy, ma’naviy-madaniy hayotining o‘ziga xos bo‘lgan zamonaviyholati,ulardakechayotgan ichki va tashqi jarayon xamda ularning umumplanetar tarzda rivojlanish tendensiyasi sifatida talqin etmokdalar. Umuman olganda "globallashuv" tushunchasi fransuzcha global -umumiy va lotincha globus - shar so‘zlaridan olingan bo‘lib, birinchidan, Er yuziga oid, butun Er sharini qamrab oluvchi; ikkinchidan esa umumbashariy, keng miqyosdagi; jaxrnshumul, jahon axdmiyatiga moliq degan ma’nolarni anglatadi. Globallashuv insoniyat taraqqiyoti va jamiyat hayotining jaxon miqyosida integratsiyalashishi natijasida sodir bo‘layotgan jarayonlarning olamshumul ahamiyat kasb etishidir. I.A.Karimov ta’kidlaganidek: "...globallashuv - bu avvalo hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir"[33].Globallashuvni turli mutaxassislar, olimlar turlicha ta’riflaydi. Masalan, ilmiy-ommabop adabiyotlarda: "globallashuv - jahon iqtisodiyotining sarmoya, ishchi kz^chi va kashfiyotlar oqimining kengayishi, shuningdeq mamlakatlarning jahon miqyosidagi iqtisodiy muammolarni xal qilishga karatilgan birgalikdagi harakatlari tufayli davom etayotgan integratsiyasi;

globallashuv - tashkilotlarning xalqaro miqyosda kengayishga va xalqaro maydonda tobora kattaroq o‘rin egallashga qaratilgan strategiyasi;

globallashuv - tovarlar, xizmatlar, mehnat, texnologiya va kapitalning xalqaro maydonda harakatlanishi;

globallashuv - savdo, investitsiya, moliya-iqtisod, madaniyat va boшqa iqtisodiy-ijtimoiy sohalarda xukumatlar, tashkilotlar va xalqiarning o‘z mamlakatlari chegaralaridan chitsib, hamkorlikka intilishi;

globallashuv - inson kapitali, moliyaviy va intellektual kapitalning dunyoning eng katta iqtisodiy nuqtalariga intilishi;

globallashuv - iqtisodiy faoliyat uchun mamlakatning jugrofiy joylashishi omili ahamiyatining o‘zgarib borish jarayoni", - degan ta’riflar berilganligini ko‘ramiz. Ularning barchasini umumlashtiradigan bo‘lsak globallashuv falsafiy ma’noda bu - jaxondagi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy soxada o‘zaro yaqinlashuvi, yangicha sifatiy birlashuvi; voqea-hodisalarning bir mamlakat doirasidan chiqib, umuminsoniy miqyosga ega bo‘lishi, butun Er sharini qamrab olishini anglatuvchi tushunchadir. Globalashuvning xozirgi davrda uch manbai mavjud:

1) kommunikatsiya vositalaridagi tub o‘zgarishlar; 2) investitsiyalardagi yangi jarayon; 3) dunyoga yangicha qarashning vujudga kelishi.

Globallashuvning kuyidagi asosiy belgilari mavjud: a) xalqaro savdoning kengayishi va erkinlashishi; b) xalqaro kapital aylanmasi va uning yulidagi to‘siklarning bartaraf etilishi; v) elektron kommunikatsiya inkdlobi natijasida moliyaviy munosabatlarda sodir bo‘lgan chukur o‘zgarishlar; g) tra nsmilliy korporatsiyalar faoliyatining kengayishi, xalqaro moliyaviy va iqtisodiy institutlarning tashkil topishi va boshqalar.

Globallashuv jarayonlariga xos bo‘lgan ba’zi bir xususiyatlar kuyidagilardan iborat: 1) inson xayotining barcha jabxalari bo‘yicha xalqlar va mamlakatlarning bir-birlariga bogliqligi va o‘zaro aloqadorligining o‘sib borishi; 2) bozorlarning planetar miqyosda kengayishi natijasida umumjaxon moliya-iqtisodiy makonining paydo bo‘lishi, aloxida iqtisodiy tizimlarning global idtisodiyotga qo‘shilib ketishi va yangi iqtisodiy tartibning vujudga kelishi; 3) axborot soxasida yangi kompyuter va mediatexnologiyalar, global televideniya, internetning keng ko‘lamda ishlatilishi asosida butun jaxon aloqa-muloqot tarmog‘ining paydo bo‘lishi; 4) ob’ektiv mazmundagi demokratiya va turli xil g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlardan sub’ektiv maqsadlarda foydalanishning kuchayishi va boshqalar.

Globalashuv jarayonlarining siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ilmiy jabhalarga o‘tkazayotgan ta’sirini

---
[33] КаримовИ.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. -Т.:Маънавият, 2008. -Б111.

o‘rganish orqali, uning milliy g‘oyamizga o‘tkazayotgan ta’sirlarini quyidagilarda ko‘rish mumkin.

Iqtisodiyotning globallashuvi mamlakatlarning moliyaviy-iqtisodiy imkoniyatlarini yuksaltirishda qator afzalliklarga ega hisoblanadi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek: “iqtisodiy o‘sish, taraqqiyot - jamiyatning tanasi bo‘lsa, ma’naviyat-ma’rifat va siyosiy ong etukligi uning ruhi, aqli va jonidir"[34]. SHunday ekan, iqtisodiyotning globallashuvi bevosita milliy g‘oya-mafkuramizga ta’sir o‘tkazadi.

Axborot-kommunikatsiya soxasining globallashuvi natijasida dunyo xamjamiyati Er sharining ixtiyoriy nuqtasidan axborot qabul qilish va uzatish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu borada keyingi yillarda telefon, internet tarmoklari, shuningdeq radio va televidenie vositalari keng ko‘lamda qo‘llanilmokda. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra yurtimizda internet foydalanuvchilari 2015 yil mart xolatida 10,5 milliondan ortiq kishini tashkil etdi. SHundan 5,5 miliondin ortiq kishi uyali telefon orqali internet xizmatlaridan foydalanadi. Aytish mumkinki, O‘zbekistonda bugungi kunda deyarli barcha oilalarda tele va radiouskunalardan foydalanish yulga kuyilgan.

Siyosiy-mafkuraviy soxalarning globallashuvi, ayniqsa, milliy ma’naviyatga katta ta’sir o‘tkazadi. Prezidentimiz I.A.Karimov siyosiy-mafkuraviy sohalarning bugungi kunda dunyo saxnidagi xolatiga to‘xtalib: "xozirgi zamondagi eng katta xavf - insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo‘layotgan kurashlar ko‘p narsani hal qiladi. Bu achchiq hakdqatni hech unutmaslik lozim"[35] - degan edi. Bu jarayonning eng muxdm xususiyatlaridan biri turli mamlakatlar xalqlarini ma’naviy va mafkuraviy zabt etish maqsadining g‘oyat katta iqtisodiy manfaatlar bilan uygunlashib ketganidir.

Madaniyatning globallashuv jarayonini bu soxalarda ham bozor munosabatlarining, xususan, san’at industriyasi, shou-biznesning shakllanishi iste’molchi talabiga ko‘ra mahsulotni taklif qilinishi bilan xarakterlanadi. Bu soxalarda savdo-sotiq munosabatlarining shakllanishi, butun dunyo bo‘yicha "tomosha industriyasi"ni yuzaga keltirdi. Uning ta’sirida “ermak va tomoshalar” shiori ostida iste’molchilik ruxiyati avj oldirilayapti. Madaniyat sohasida iste’molchilik kayfiyatining shakllanishi milliy ma’naviyatning takomillashib, yanada boyib borishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. CHunki iste’molchilik kayfiyati kuchaygan jamiyat a’zolari o‘z milliy ma’naviyatini yangi asoslarda boyitishdan kura tayyoriga tak^shd qilish, uni o‘z ma’naviyatining tarkibiga kiritishga moyil bo‘lishadi. Bu esa jamiyat a’zolarini ma’naviy qaramlikka olib keladi.

2. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi. G‘oyaviy- mafkuraviy jarayonlarning yunalishlari va xususiyatlari

Dunyoning mafkuraviy manzarasi. "Dunyo" arabchadan o‘zbek tiliga kirib kelgan so‘z bo‘lib “jahon, olam" degan ma’nolarni anglatadi. Umuman olganda, dunyo so‘zi eng ko‘p ma’nolarni anglatuvchi so‘zlar jumlasiga kiradi. SHunga ko‘ra bu so‘z: 1) butun borliq koinot, olam; 2) ijtimoiy hayot yoki turmushda yuz bergan (mavjud bo‘lgan) xolatga nisbatan, unga qarama-qarshi bo‘lgan boshqa bir xolat; 3) er yuzi va undagi barcha odamlar, insoniyat; 4) kishining ma’naviy, ruhiy olami, hayoti; 5) ma’lum bir ijtimoiy tuzumga, o‘ziga xos madaniy va ijtimoiy-tarixiy xususiyatlarga ega bo‘lgan omillar bilan birlashgan kishilik jamiyati va u mavjud bo‘lgan davr, degan ma’nolarni ifodalaydi.

"Manzara" so‘zi ham arabchadan o‘zbek tiliga kirib kelgan bo‘lib, "kurinish, panorama; ko‘zatish maskani” degan ma’noni bildirsada, dunyodagi narsa, voqea, jarayonlarning "ko‘zga tashlanib turadigan yoki tasavvur etiladigan kurinish, tasvir"ini[36] ifodalash uchun ishlatiladi.

Dunyoning mafkuraviy manzarasi deb, jamiyat taraqqiyoti qonunlari, uning rivojlanish tendensiyalarini muayyan ijtimoiy guruh etnik birliklar, siyosiy kuchlarning o‘ziga xos manfaatlaridan kelib chiqib talqin qilish va unga asoslangan holda insoniyat istiqbolini belgilashga qaratilgan mafkuraviy tizimlar majmuining makon va zamonda yaqqol ko‘zga ko‘rinib turadigan joylashuv tartibiga aytiladi[37]. Dunyoning mafkuraviy manzarasini anikroq tasavvur etish uchun uning mohiyatini bilish zarur.

Dunyoning mafkuraviy manzarasida sodir bo‘layotgan goyaviy-mafkuraviy jarayonlarning yunalishlari va xususiyatlari. Bugungi kunda dunyoning mafkuraviy manzarasi doirasida sodir bo‘layotgan goyaviy - mafkuraviy jarayonlarni ikkita bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan yunalishga ajratish mumkin.

---

[34] КаримовИ.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008. -Б.27.

[35] КаримовИ.А Юксак маънавият - енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008. -Б.119.

[36] Қаранг: Ўзбек тилининг изохли луғати. Ж.2. Е-М. -Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. -Б.537.

[37] Қаранг: А.Очилдиевнинг "Глобаллашув ва мафкуравий жараёнлар" (-Т.: "Мух,аррир нашриёти", 2009. -Б.53.) номли китобида келтирилган таъриф асос қилиб олинди ва тўлдирилди.

Progressiv yunalishdagi mafkuraviy jarayonlar. Bularga: tinchlik barqarorlik va taraqqiyot; millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikengliq inson erkinligi va shaxs kamoloti; umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi kabilarni yaratishga qaratilgan mafkuraviy jarayonlarni kiritish mumkin.

Reaksion yunalishdagi mafkuraviy jarayonlar. Bularga: urush, qurollanish, terrorizm va ekstremizm; irqchilik millatchilik diniy aqidaparastliq totalitarizm, mustabidliq egoizm, mahalliychilik kabi razilona xatti-xaraktlardan iborat bo‘lgan mafkuraviy jarayonlarni kiritish mumkin.

Bugungi kunda ana shu progressiv va reaksion g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning o‘zaro kurashi nisbatidan kelib chiqqan xolda IAKarimov: "Ta’bir joiz bo‘lsa, aytish mumkinki, bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan xam ko‘proq kuch ga ega”[38], - degan edi.

Bugungi kunda dunyoning mafkuraviy manzarasidan joy olgan ana shu ikki yunalishdagi mafkuraviy jarayonlarning mazmunidan shu narsa ayon bo‘lmokdaki, jaxon maydonlarini mafkuraviy jixatdan bo‘lib olishga urinishlar avj olmoqda.

3. Geosiyosat tushunchasi. Geopolitik matssadlar va mafkuraviy siyosat

Geosiyosat tushunchasi, uning mohiyat-mazmuni. Globallashuv sharoitida davlatlarning siyosatida tub o‘zgarishlar sodir bo‘lmokda. Bular, birinchidan, jaxonda kechayotgan integrallashuv jarayonida ishtirok etish; ikkinchidan, o‘zining tabiiy boyliklari, geografik joylashuvi, mintaqaviy jixatdan qulay joyda ekanligiga qarab ish yuritishga harakat qilayotganliklarida ko‘rinib turibdi. Bu esa yangicha geosiyosat yuritilayotganidan darak bermokda. Xo‘sh, geosiyosat nima? geopolitika (yun. geo - er, politika - davlatni boshqarish san’ati) deb biron bir mamlakatning tayney siyosatda geografik urni, xududiy joylashishi, kommunikatsion imkoniyatlarini hisobga olib yuritiladigan faoliyatidir.

Tarixda geopolitika jamiyat taraqqiyotida geografik sharoitlarning o‘rnini yuqori darajada mutlaqlashtiruvchi qarash tarzida namoyon bo‘ldi. "Hayotiy makonning torlik qilayotgani" “tabiiy sarhadlarni kengaytirish zarurati" singari da’volar geopolitikani bosqinchilikni asoslovchi siyosiy konsepsiya, deb baholanishiga olib keldi.

Geopolitika atamasini fanga shvetsiyalik siyosatshunos olim Rudolf CHellen (1864-1922) kiritgan. Bu atama I jahon urushi arafasida keng qo‘llanila boshladi. O‘sha davrda yashagan nemis olimi Fridrix Ratsel (1844-1904) davlatlar muayyan joy va xududda mavjud bo‘ladi, bu esa, o‘z navbatida ularni zarur xududlarni egallashga majbur qiladi, deb hisoblagan. Bunday qarash reaksion bo‘lib, dunyoni qayta bo‘lib olish uchun kurashga otlangan Kayzer Germaniyasining urushga shaylanayotgan siyosatchilari uchun nihoyatda maqbo‘l bo‘lgan.

XX asr boshlaridan geopolitika mustaqil fan va siyosat sohasi, deya talqin etila boshlandi, 1923-1927 yillarda chop etilgan "Geopolitika" jurnali geografik omilning davlatlar, xalqlarning mavjud bo‘lishiga ta’sirini mutlaqlashtirish yulidan bordi. Bunday qarash Germaniya, so‘ngra Italiya hamda YAponiya davlatlari siyosatining asosiy doktrinasiga aylandi. O‘zga xududlarga nisbatan bosqinchilik siyosatining ustuvor qo‘yilishi o‘sha paytdagi mustamlakachilik siyosatini oqlashga, milliy ozodlik harakatlarini bostirishga qaratilgan edi.

Geostrategik maqsadlar. Geostrategik maqsadlar deb biron bir davlatning xududiy-jug‘rofiy omillarni hisobga olgan xolda amalga oshiriladigan istiqbolli intilishlar; munosabatlar tizimiga aytiladi.

Masalan, O‘zbekiston o‘zining qulay jug‘rofiy joylashuvidan mamlakat iqtisodiyoti, ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy salohiyatini yanada rivojlantirish yulida foydalanishga xarakat qilmokda.

Bu sohada, birinchidan, O‘zbekistonda yirik gaz, ko‘mir, neft konlari topilgani va ishga tushirilayotgani mamlakat ehtiyojlarini qondiribgina qolmasdan, balki uning eksport imkoniyatlarini ham oshiradi.

Ikkinchidan, O‘zbekiston dunyodagi juda katta oltin, kumush va boshqa qimmatbaho ma’dan zaxiralariga ega bo‘lgan davlatlar jumlasiga kiradi. Xozirgi vaqtda mamlakatimizda qator qimmatbaho ma’dan konlari qidirib topilgan. Bu esa, chet el investitsiyasi va texnologiyasini ishlab chiqarishga faol jalb qilishni talab etadi.

Uchinchidan, mamlakatimiz rangli metallar - mis, qo‘rg‘oshin, rux, volfram rudalariga boy bo‘lgan geostrategik makondir. Ayni paytda reniy, molibden, kadmiy, selen, indiy va oltingugurtning katta zaxiralari bo‘lgan konlar ham mavjud.

To‘rtinchidan, mamlakatimizda marmar, granit konlari mavjud. Ularning zaxiralari, taxminan, sakson

---

[38] Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008. -Б.113.

besh million kubometr deb hisoblanadi. Xozirda G‘ozg‘on, Nurota, Zarband konlarida marmar bloklarni ishlab chiqarish borasida chet el zamonaviy texnologiyasi asosida sheriklar bilan birgalikda ish olib borilmoqda.

Beshinchidan, mamlakatimiz fosforitlarga, kadmiy va osh tuzi konlariga boy xudud xisoblanadi.

Bularning barchasi yurtimiz taraqqiyot istiqbolini belgilab beruvchi geostrategik maqsadlarni belgilash va hayotga tatbiq etishda ulkan axamiyat kasb etadi.

Geostrategik manfaatlar. Geostrategik manfaatlar - muayyan mamlakat yoki mintaqaning jug‘rofik joylashuvi bilan belgilanadigan ehtiyoj va intilishlar in’ikosi. U istiqbolni anglash bilan bog‘liq xolda ro‘yobga chiqadi.

O‘zbekiston Amudaryo bilan Sirdaryo oralig‘ida joylashgan bo‘lib, u jug‘rofiy jihatdan juda qulay geostrategik mavqega egadir. Kadimdan SHarq bilan G‘arbni bog‘lagan Buyuk ipak yuli aynan O‘zbekiston xududidan o‘tgani savdo-sotiq madaniy- ma’rifiy aloqalarni keng rivojlantirishga sabab bo‘lgan. 1991 yilda Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillikka erishganidan keyin bu boradagi qadimiy aloqalar qaytadan jonlandi.

O‘zbekiston Markaziy Osiyoda kuchlar muvozanatini ta’minlash, mintaqada xamkorlikni mustahkamlash sohasida muhim o‘rin tutishi uchun hamma katta imkoniyatlarga ega. CHunki u ijtimoiy-iktisodiy jihatdan katta kuch-kudratga ega bo‘lgan mamlakatdir. Bularning barchasi O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi, chet el investitsiyalarini jalb qilinishi, yurtimizni davlatlar o‘rtasida o‘zaro foydali hamkorlikning, tovar va kapital tranzitining o‘ziga xos mintaqaviy markaziga aylantirdi. Buning natijasida transport, sayyoxlik va moliyaviy xizmatlarning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar ochilmoqda.

4. Mafkuraviy poligon tushunchasi, uning namoyon bo‘lish xususiyatlari

"Poligon" so‘zi yunoncha "ro1u-ko‘p" "gonia-burchak", ya’ni "ko‘p burchak" so‘zidan olingan bo‘lib, 1) mamematika ilmida ko‘p burchak, tekislikdagi siniq chiziq; 2) harbiy soxada kuruqlik yoki dengizning maxsus inshootlar, qurilmalar bilan jixozlangan va har xil qurollar va jangovoar texnikani sinab ko‘rish, shuningdeq harbiy mashqlar o‘tkazish uchun mo‘ljallangan qismi; 3) ko‘chma ijtimoiy ma’noda esa muayyan ish-harakat, faoliyat bilan shug‘ullanish maydoni, soxasini anglatish uchun ishlatiladi[159]. SHularga asoslangan xolda mafkuraviy poligon tushunchasini quyidagicha ta’riflash mumkin.

Mafkuraviy poligon bu - katta ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-xuquqiy, ma’naviy-madaniy imkoniyatlarga ega bo‘lgan ayrim shaxs, elat, millatlarning o‘zga odamlar va xalqlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgan turli g‘oyalarni janggoxga tashlash oldidan sinab ko‘radigan maxsus mafkuraviy maydondir.

Mafkuraviy poligonlarning yadro poligonlaridan ustunligi nimada? Bu ustunlik birinchidan, katta moddiy va moliyaviy resurslarni tejab qolish imkoniyatini beradi. Masalan, bitta yadro qurolini ishlab chiqish, uni ko‘zlangan joyga eltib tashlash uchun necha-necha millionlab, milliardlab pul mablag‘lari sarflanadi.

Ikkinchidan, yadro qurollari ishlatilguday bo‘lsa, egallamoqchi bo‘layotgan barcha moddiy boyliklar vayron bo‘lib, yaroqsiz xolga kelib qoladi, vaxolanki, yadro kurolini ishlatish orqali zabt etilgan joyda “g‘olib-yadrochi"ning o‘zi ham yashash imkoniyatlaridan mahrum bo‘ladi.

Uchinchidan, millionlab odamlarning halok bo‘lishi yoki mayib-majruh bo‘lishi oqibatida "g‘olib-yadrochi" tayyor ishchi kuchidan ajraladi.

TUrtinchidan, butun ekosistemaning izdan chiqishi oqibatida "g‘olib-yadrochi"ning o‘zi ham katta falokat yoqasiga kelib qoladi. Buni aqli raso har bir odam yaxshi biladi. SHuning uchun ham tabiiy zaxiralarga boy bo‘lgan xududlarni egallashga urinayotgan har xil kuchlar, qandaydir g‘oya va mafkuralar bayrog‘i ostida birlashib, o‘zlarining mafkuraviy kurollarini ishga solgan holda o‘sha joylarni egallash uchun mafkuraviy kurashni avj oldirishga kirishmoqdalar.

5. Mafkuraviy immunitet va uni shakllantirish omillari

Mafkuraviy immunitet tushunchasi. "Immunitet" so‘zi lotincha "immunitas, immunitatus - qutulish, xalos, xoli bo‘lish" degan so‘zlardan olingan bo‘lib, tibbiyot ilmida "organizmning o‘zidan irsiy jihatdan yot xususiyatlari bilan farq qiladigan, uning butunligiga va biologik o‘ziga xosligiga zarar etkazadigan mikroorganizmlar (kasallik ko‘zg‘otuvchilar), zaxarli moddalar va boshqalardan himoyalanish reaksiyasi"[39], - degan ma’noni anglatish uchun qo‘llaniladi. Immunitet tabiati bo‘yicha uchga bo‘linadi:

---

[39] Қаранг: Узбек тилининг изохли луғати. Ж.2.Е-М. -Т: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. -Б.202.

Birinchisi. Filogenetik immunitet - anatomik va fiziologik belgilar bilan ta'minlanib, nasldan-naslga o'tadigan alohida himoya omillari yoki organizmning alohida rezistentligi. Bu omillar patogen agentlar bilan birinchi bo'lib aloqa qiladi, shuning uchun ularning faoliyati hisobiga odam organizmining ko'pgina yuqumli kasallik ko'zgatuvchilarga chidamliligi ta'minlanadi.

Ikkinchisi. Tug'ma immunitet (turga xos, tabiiy) - bir biologik turning ma'lum bir patogen agentga nisbatan chidamliligi bo'lib, nasldan-naslga o'tadi.

Uchinchisi. Orttirilgan immunitet - hayot davomida organizm immun sistemasining yot antigenlar bilan ta'sirlashuvi hisobiga yuzaga keladigan himoya bo'lib, nasldan-naslga o'tmaydi. Mafkuraviy immunitet ma'naviy, ma'rifiy, siyosiy, iqtisodiy bilimlarni oddiygina qabul qilib olishni emas, balki ularni ongli ravishda tushunib etishni, bu bilimlardan zamonaviy ijtimoiy voqealarga mafkuraviy kurashlar voqeligidan kelib chiqib, munosabat bildirish ko'nikmalarini shakllantirish, ayrim nosog'lom g'oyalarga javob berish, uni qabul qilmaslik holatidir[40].

Mafkuraviy immunitetning xususiyatlari va elementlari. Mafkuraviy immunitet kuyidagi xususiyatlarga ega:

1. Odamdagi tabiiy immunitet tug'ma bo'lsa, uning mafkuraviy immuniteti tug'ma emas, balki hayoti davomida uning ongiga ta'sir etuvchi vositalar orqali shakllantirib boriladigan immunitetdir.

2. Mafkuraviy immunitet doimiy va abadiy emas, balki o'zgaruvchan, ya'ni har bir avlod uchun o'ziga xos bo'lgan immunitetlar tizimi mavjud bo'lib, u davrlar o'zgarishi bilan o'zgarib turgan va shunday bo'laveradi.

3. Mafkuraviy immunitet tizimi shakllangandagina shaxs, elat, millat, xalqning mafkuraviy daxlsizligi ta'minlanib boriladi. Boshqacha qilib aytganda, shakllangan mafkuraviy immunitet xalqning mafkuraviy daxlsizligini ta'minlovchi vosita xisoblanadi.

Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy elementlari fyidagilardan iborat:

1. Jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ob'ektiv ilmiy bilimlar.

2. Xalkning real xayotini va uning kelajagini o'zida aks ettiruvchi kadriyatlar - moddiy va ma'naviy kadriyatlar tizimi.

3. Mafkuraviy immunitetning yana bir elementi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-xukukiy, ma'naviy-madaniy maqsadlar tizimi bilan ajralmasligidadir.

6. Mafkuraviy profilaktika va uni olib borish chora-tadbirlari

Mafkuraviy profilaktika tushunchasi. Mafkuraviy taxdidlarning oldini olish va mafkuraviy immunitetni shakllantirish va kuchaytirish uchun mafkuraviy profilaktika chora-tadbirlarini o'zluksiz ravishda olib borish kerak.

Xo'sh, profilaktika nima? "Profilaktika" yunoncha "prophilaktikos - saqlovchi, oldini oluvchi" degan so'zlardan olingan bo'lib, tibbiy ma'noda - odamlar sog'lig'ini saqlash, kasalliklarning paydo bo'lishi va tarqalib ketmasligining oldini olish, axolining jismoniy rivojlanishini yaxshilash va o'zoq umr kurishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui; texnikaviy ma'noda esa umuman biron xodisaning oldini olish, mexanizm, mashinalarning muddatidan oldin ishdan chiqishi, buzilishidan saqlash uchun ko'riladigan choralar[163], degan ma'nolarni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu usulning mafkura soxasida qo'llanilishi "mafkuraviy profilakti"ka degan tushunchaning kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Mafkuraviy profilaktika bu g'ayriinsoniy g'oya va mafkuralarning oldini olish, ularning tarqalib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun davlat, jamoat tashkilotlari tomonidan ko'riladigan chora-tadbirlar tizimidir. Bu chora-tadbir g'oyaviy bo'shliqni tugatish, mafkuraviy parokandalikni oldini olish yoki biror-bir xudud, qatlam, guruhni yot va zararli g'oyalar ta'siridan xalos qilish maqsadida amalga oshiriladi. Bunda g'oyaviy ta'sirning xilma-xil usul va yullaridan foydalaniladi, turli vositalar qo'llaniladi.

Mafkuraviy profilaktika olib borish chora-tadbirlari. Mafkuraviy profilaktika mohiyatan, yot g'oyalarning kirib kelishining oldini olish va ularni yuqotishga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlarga tayanadi.

Bularga quyidagilar: 1) har qanday g'ayriinsoniy g'oyalarni targ'ibot-tashviqot qilishga mo'ljallangan vositalar - kitob, gazeta, jurnal, film va boshqalarni davlat chegarasidan kiritmaslik choralarini ko'rish; 2)

---

[40] Қаранг: Миллий истиқлол ғояси. Дарслик. -Т.: Академия, 2005. -Б.95.

buzg‘unchilik bilan shug‘ullanadigan g‘oya va mafkuralarning muassasalarida xizmat qiluvchi vakillarni ushlab olgan holda zararsizlantirish, ayniqsa, o‘zini shu yo‘lda qurbon qiluvchi fanatiklarni;3) vayronkor g‘oyalarni ishlab chiquvchi, tarqatuvchi, ulardan qirg‘in qilish asosida ommani qo‘rqituvchi, dahshatga soluvchi kuch safatida foydalanayotgan mafkuraviy markazlarning moliyaviy o‘q-tomirlarini qirqish; 4) g‘ayriinsoniy buzgunchi g‘oyalarning tarkalayotganligi, ularning maqsad-muddaolari haqida xalqni xabardor qilish, ularni ogoxdikka da’vat etish; 5) vayronkor g‘oyalarning ichki va tashqi ildizlariga bolta urib, ularning asl basharasini ochib tashlash; 6) g‘ayriinsoniy g‘oyalar tarqalishi mumkin bo‘lgan joylarda targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish; 7) vayronkor g‘oyalar xurujiga qarshi ma’naviy-madaniy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish va boshqalar kiradi.

## 8-MAVZU: JAMIYAT BARQARORLIGINI TA’MINLASHNING IJTIMOIY-G‘OYAVIY ASOSLARI

### REJA

1. Tinchlik va barqarorliq urush va beqarorlik tushunchalari, ularning moxiyat-mazmuni
2. Millatlararo totuvlik g‘oyasi – odilona milliy siyosat yuritish va milliy madaniyatlarni rivojlantirish vositasi
3. Ijtimoiy hamkorlik g‘oyasi – ijtimoiy qatlamlar o‘rtasida tinchlik va barqarorlikni ta’minlashning muhim omili
4. Dinlararo bag‘rikenglik g‘oyasi – o‘zaro hamkor va hamjihat yashashni ta’minlash yo‘li

### 1.Tinchlik va barqarorliq urush va beqarorlik tushunchalari, ularning moxiyat-mazmuni

Tinchlik va barqarorlik tushunchasi, uning moxiyati va tabiati. Insoniyat paydo bo‘libdiki, uning aqli zukko vakillari doimo tinchlik uchun kurashib kelmoqdalar. Tinchlikda xosiyat katta. CHunki u har qanday shaxs, elat, millat va jamiyatning mavjudlik sharti, kelgusidagi taraqqiyotining asosiy omili hisoblanadi. "Tinchlik" so‘zi odamlarning kundalik hayotida 1) g‘ala-g‘ovur, shovqin-suron kabilardan xolilik; 2) kishini bezovta qilmaydigan osoyishtalik 3) urush-janjalsiz hamma narsa me’yorida, joyida bo‘lishlilik 4) urush, o‘zaro ziddiyatli to‘qnashuvlardan xoli bo‘lgan sharoit degan ma’nolarni anglatish uchun ishlatiladi[164]. SHunday qilib, tinchlik bu har bir inson, elat, millat, xalq va davlatlarning hayoti faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydigan, ularni har xil yomonliklar bilan bezovta qilmaydigan betashvish, urush-janjallarsiz osoyishta yashashlari uchun to‘s-tupolonlardan, o‘zaro ziddiyatli to‘qnashuvlardan, katta-kichik urushlardan xoli bo‘lgan sharoitdir.

Barqarorlik deganda odatda: 1) jamiyat hayotining osoyishtaligi; 2) ijtimoiy tuzum elementlarining uyg‘unligi; 3) jamiyatdagi ijtimoiy birliklar vakillarining hamkorligi va hamjihatligi tushuniladi. Falsafiy ma’noda, barqarorlik - bu tinchlik tufayli jamiyat hayotining qat’iy, doimiy, muqim, mustahkam, bir tekis tarzda faoliyat ko‘rsatish asosida rivojlanish imkoniyatlariga aytiladi. Tinchlik barqarorlikning o‘q ildizi bo‘lsa, barqarorlik tinchlikning xosilidir. I.A.Karimov ta’kidlaganidek: "Tinchlik va barqarorlik bo‘lgan joydagina odamlar o‘qib-o‘rganishni, xar tomonlama rivojlanishni istaydi. Odamlar kechasi uyquga yotib, ertalab turishga qo‘rqmaydigan, ertaga ularning boshiga qandaydir muammo yoki ofatlar kelmasligini bilgan taqdirdagina shunday bo‘ladi”[41]. SHuning uchun har bir inson tinchlik uchun, barqaror taraqqiyot uchun kurashmog‘i kerak.

Urush va beqarorlik tushunchasi va uning mazmun-moxiyati. Tinchlikning dushmani urushdir. Oddiy-sodda ma’noda urush bu inson, elat, millat, xalq va davlatlarni o‘z girdobiga tortish oqibatida ularni halokatga olib keluvchi vahshiyona xatti-harakatdir. Ijtimoiy falsafiy ma’noda urush deb qabilalar, davlatlar yoki ijtimoiy guruxlar o‘rtasida iqtisodiy va siyosiy maqsadlarni amalga oshirish uchun uyushgan tarzda olib boradigan qurolli kurash, jang, to‘qnashuvlarga,

[41] Каримов КА. "Урта асрлар шарк; алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожидаги роли ва ах,амияти" мавзусидаги халцаро конференциянинг очилиш маросимидаги нутк; // Унинг узи- Узбекистон эришган ютук; ва марралар - биз танлаган ислохртлар йулининг тасдигидир. Т.22. -Т.: Узбекистон, 2014. -Б.278.

yurgizayotgan siyosatlarini zo‘rlik vositalari bilan davom ettirishlariga aytiladi.

Jamiyatda beqarorlikning paydo bo‘lishiga: 1) qonunlarning ishlamasligi; 2) turli jinoiy guruxlarning paydo bo‘lishi; 3) ijtimoiy adolat mezonlarining buzilishi; 4) nosog‘lom raqobatning keskin tus olishi kabilar sabab bo‘ladi. Zero, shunday ekan, beqarorlik bu turli xil ziddiyat va urushlar tufayli jamiyat hayotining izdan chiqishidir, odamlarning oromi buzilishi, boshboshdoqlikning kuchayishi, har xil buzg‘unchi g‘oyalarning odamlar ongini zaxarlashga qaratilgan harakatlari tufayli sodir bo‘ladigan g‘oyasizlikdir, g‘oyaviy zaiflikning avj olishidir. Urush beqarorlikka olib kelsa, beqarorlik odamlarni iqtisodiy muhtojlikka, siyosiy parokandalikka, ma’naviy qashshoqlanishga, mafkuraviy bo‘zg‘unchilikning kuchayishiga olib keladi.

1. Millatlararo totuvlik g‘oyasi - odilona milliy siyosat yuritish va milliy madaniyatlarni rivojlantirish vositasi

Millat tushunchasi va uning asosiy belgilari. "Millat" arabchadan o‘zbek tiliga kirib kelgan so‘z bo‘lib "xalq din, mazhab" degan ma’nolarni anglatadi. Olimlar tomonidan "millat" tushunchasiga ko‘plab tariflar berilgan. SHular ichida xozircha umum tomonidan quyidagi ta’rif e’tirof etilgan. Millat deb kishilarning yagona tilda so‘zlashishi, yaxlit xududda istщomat qilishi, mushtarak щtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va rutsiyatga ega bo‘lishi asosida tarixan tashqil topgan barsaror birligiga aytiladi.

Millatning kuyidagi umum’tirof etilgan belgilari:

1) xududiy; 2) iqtisodiy; 3) til; 4) madaniyat; 5) milliy o‘z-o‘zini anglash birliklari kiradi[42].

Ma’lumotlarga kura, Er yuzida 1600 dan ortiq millat bo‘lib, ularning soni bir necha o‘n mingdan bir necha yuz milliongachani tashkil etadi.

Son jihatidan millatlar to‘rt guruhga bo‘linadi:

1) eng ko‘p sonli millatlar (xitoylar 1 milliarddan ortiq; hindlar, amerikaliklar, ruslar, yaponlar yuz milliondan ortiq);

2) ko‘p sonli millatlar (50 milliondan yuz milliongacha- inglizlar,' franso‘z l ar, ispanlar, turklar va boshqalar);

3) yirik millatlar (10 milliondan 50 milliongacha - o‘zbeklar, portugallar, polyaklar va boshqalar);

4) kam sonli millatlar (har biri bir necha o‘n mingdan bir milliongacha). Binobarin, o‘zbeklar yirik millatlar turkumiga kiradi.

Millatlarning soni ularning buyukligi yoki gegemonligi uchun asos bo‘la olmaydi. Zero, barcha millatlar teng, ozod va erkindir. Ana shu tamoyil jaxon siyosatining zarur qoidasi bo‘lib hisoblanadi.

2. Millatlararo totuvlik g‘oyasi - davlat etnik siyosatining asosi. Totuvlik deb kishilarning o‘zaro do‘stona munosabatda ittifoq, ahil, inoq bo‘lib yashashlariga aytiladi.

Totuvlik bor joyda mamlakatda tinchlik va barqarorlik xukm suradi, odamlarning halol mehnati bilan topgan ne’matlari fayzli va barakali bo‘ladi. Er yuzidagi millatlarning bor-yo‘g‘i 200 ga yaqini o‘z davlatchiligiga ega, xolos. Bunday sharoitda butun dunyoda millatlararo totuvlikni ta’minlash uchun, ularning manfaatlari, ruhiyati, intilishlarini muntazam o‘rganib borish, siyosiy-ijtimoiy hayotda buni doimo e’tiborga olish zarur.

Millatlararo totuvlik g‘oyasi deb muayyan mamlakatda yashayotgan ko‘pchilikni tashkil qiluvchi asosiy millat bilan ozchilikni tashkil etuvchi boshqa elat va millat vakillarining yagona maqsad yo‘lida birlashib, o‘zaro tenglik, hamkorlik, ahillik, inoqlik bilan bir-birlarining tili, diniy e’tiqodi, urf-odatlari, an’ana va milliy qadriyatlarini hurmat qilib, e’zozlab yashashlarini tarannum etuvchi fikrlar va amaliy xatti-harakatlar tizimiga aytiladi.

Millatlararo totuvlik g‘oyasi quyidagi konstitutsiyaviy tamoyillarga:

birinchidan, fuqarolarning qanday millat, elatga mansubligidan qat’i nazar qonun oldida tengligi;

ikkinchidan, fuqarolarning diniy e’tiqodidan qat’i nazar bir xil xuquq va erkinliklarga egaligi;

---

[42] Қаранг: Очилова Б.М. Ижтимоий фалсафа. Укув-услубий кулланма. -Т.: Университет, 2010. -Б.122.

uchinchidan, mamlakat xududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratib berilishi kabilarga asoslanadi.

Millatlararo totuvlik g‘oyasini amalga oshirishdagi vazifalar. Bu olijanob bunyodkor g‘oyani omilga oshirishdagi ustuvor vazifalarni quyidagilar:

1) barcha millat va elatlarning teng xuquqini qonunda va amalda ta’minlab borish; 2) millatlararo hamkorlik va hamjihatlikni uzluksiz tarzda yulga qo‘yish; 3) turli milliy madaniyatlar rivoji uchun keng yo‘l ochib berish; 4) boshqa millat va elatlarga xurmat bilan qarash, ularni kamsitmaslik va mensimaslikka yul qo‘ymaslik; 5) milliy va umumbashariy qadriyatlarning o‘zaro uyg‘unligi va birligini ta’minlash kabilarni tashkil etadi.

3. Ijtimoiy hamkorlik g‘oyasi - ijtimoiy qatlamlar o‘rtasida tinchlik va barqarorlikni ta’minlashning muxim omili

Ijtimoiylik tushunchasi, uning mohiyat-mazmuni. "Ijtimoiy" degan so‘z arabchadan o‘zbek tiliga kirib kelgan bo‘lib, lug‘aviy jixatdan "jamoa, jamiyatga oid" degan ma’noni bildirib, kundalik xayotda: 1) inson va jamiyat xayotiga oid; 2) jamiyatdagi tabaqa, sinf va shu kabilarga mansublikni belgilash; 3) jamiyat bilan boglangan, jamiyatga, jamoatchilikka oid; 4) jamiyatning, jamoatchilikning ehtiyojlari uchun ixtiyo- riy xizmat etuvchi; 5) jamoatchilikka tegishli, jamoatchilik urtasidagi degan ma’nolarni anglatish uchun ishlatiladi[43]. SHunday qilib, ijtimoiy deganda kishilarning umumiy maqsad yulida murosaga kelib, muayyan gurutslarga birlashishi asosida o‘zlarining щyot faoliyatini ezgu maqsadlar yulida davom ettirishini tushunmoq kerak.

Hamkorlik tushunchasi, uning moxiyat-mazmuni. Hamkorlik forscha "xamkor - birga ishlovchi, xamkasaba" so‘zidan olingan bo‘lib: 1) biror ish-yumushni birga bajarish, birga amalga oshirish; 2) ish-faoliyatda o‘zaro ko‘makdosh bo‘lib, bamaslaxatlik bilan ishlash; 3) ish-faoliyatda bir ishni birgalashib teng bajarish; 4) bir soxada o‘zaro bog‘lanib, birgalikda ish olib borish degan ma’nolarni anglatadi[44]. SHunday qilib, hamkorlik deganda odamlarning biror soxada o‘zaro bog‘lanib, aqillik va jamjixatlik bilan ish-faoliyat olib borishlari tushuniladi. Hamkorliksiz odamlar jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlay olmaydilar.

Ijtimoiy hamkorlik - ijtimoiy strukturalar hamda institutlarurtasidagi jamiyat щyotining barcha sotsalariga doyr munosabatlarda kelishuv, o‘zaro ishonch va xurmat, tenglikni ta’minlashga saratilgan, futsarolik jamiyati asoslarining mustax$_1$kamlanishiga xizmat qiladigan nazariya va amaliyotdir.

Umuman olganda ijtimoiy xdmkorlik jamiyatning barcha sohalari va strukturalari urtasida kechadigan demokratik xodisa bo‘lib, shartli ravishda uning quyidagi shakllarini ko‘rsatish mumkin:

- millatlararo totuvlik va hamjihatlik
- din va konfessiyalararo bag‘rikenglik
- shaxs, ijtimoiy guruh jamiyat va davlat (sotsial strukturalar) o‘rtasidagi ijtimoiy aloqadorlik.

SHunday qilib, ijtimoiy hamkorlik o‘zining moxiyat-mazmuniga ko‘ra zamonaviy ijtimoiy munosabatlarning rivojlangan tizimi bo‘lib, shartnoma va kelishuvlar asosida ishchilar, ish beruvchilar, tadbirkorlar, turli sotsial guruh, qatlam va ular uyushmalarining manfaatlari himoyasi va o‘zaro muvofiqligini ta’minlovchi, ijtimoiy-iktisodiy va siyosiy-xuquqiy, ma’naviy-madaniy rivojlanishning muxim yo‘nalishlari buiicha konsensusni anglatadi.

Ijtimoiy hamkorlik g‘oyasini amalga oshirish yullari. Bu g‘oyani amalga oshirish yullari kuyidagilardan iborat:

1. Jamiyatdagi siyosiy kuchlar va ijtimoiy qatlamlarning xamjixatligini ta’minlovchi normativ-xuquqiy xujjatlar tizimini yaratish va ishga tushirish, kelgusida ularni takomillashtirib

[43] Узбек тилининг изохли луғати. Ж.2. -Т., 2006. -Б.177-178.
[44] Узбек тилининг изох^ли лугати. Ж.5. -Т,2008. -Б.499-500.

borishni yo‘lga qo‘yish.

2. Turli millat, irq va din vakillarining o‘zaro hamkorligini umuminsoniy va milliy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish asosida yo‘lga qo‘yishni tashkil etish.

3. Jamiyat taraqqiyotining etakchi tamoyillarini o‘zida in’ikos etuvchi ilg‘or bunyodkor g‘oyalarning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash ishlarini og‘ishmay bajara borishni ta’minlash.

4. Har bir shaxs va ijtimoiy guruhning mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash uchun o‘zini mas’ul deb bilish ruxida tarbiyalashni amalga oshirish.

5. Elat, millat, xalqlarning tub manfaatlaridan kelib chiqqan holda tuzilgan ijtimoiy birliklar o‘rtasida tenglik va do‘stlikka asoslangan xamkorlikni yo‘lga qo‘yish jamiyatdagi tinchlik-totuvlik va barqarorlikni ta’minlash garovi ekanligini barchaning qalbi va ongiga singdirish ishlarini tashkillashtirish. Bularning barchasi davlatning bosh islohotchilik roli, eng avvalo, jamiyatdagi ijtimoiy hamkorlikni ta’minlaydigan iqtisodiy asoslarni, siyosiy vaziyatni, madaniy muhitni, xukuqiy-qonuniy munosabatlarni tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilish faoliyatida namoyon bo‘ladi.

4. Dinlararo bag‘rikenglik g‘oyasi - diniy e’tikodlari turlicha bo‘lgan kishilarni o‘zaro hamkor va hamjixat bo‘lib yashashlarini ta’minlash yo‘li

Din tushunchasi va uning jamiyatda bajaradigan vazifalari. Insoniyat paydo bo‘lganidan boshlab din xam yashab kelmokda. "Din" arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida "ishonch", "e’tiqod", degan ma’nolarni anglatadi. Din - dindorlikni kasb qilib olgan xudojo‘ylarning fikricha - Alloh tomonidan o‘z payg‘ambarlari orqali bashariyat olamiga joriy etilajagi zarur bo‘lgan ilohiy qonunlardir. U azaldan insonning Alloh bilan aloqa qilish ehtiyojidir. Diniy falsafiy nuqtai nazardan esa, din - tabiat, jamiyat, inson va uning ongini, yashashdan maqsadi hamda taqdirini bevosita qurshab olgan, atrof-muhitdan tashqarida bo‘lgan, insonni yaratgan, ayni zamonda unga birdan-bir "to‘g‘ri", "haqiqat" va "odil" xayot yo‘lini ko‘rsatadigan va o‘rgatadigan iloxiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash, ta’limotdir.

Dunyoviy nuqtai nazar bo‘yicha esa din - ijtimoiy-tarixiy xodisa bo‘lib, kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining ma’lum bosqichida paydo bo‘lgan ijtimoiy ong shakllaridan biridir. Aniqrog‘i, “din - I.A.Karimov ta’kidlaganidek - azaldan inson ma’naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to‘g‘risidagi orzu-armonlarini o‘zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustaxkamlab kelayotgan g‘oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir’’.

Bag‘rikenglik tushunchasi va uning ko‘rinishlari. "Bag‘r" so‘zi asl ma’noda - inson tanasining bo‘ynidan qoringacha bo‘lgan qismi; ko‘krak, ko‘ks, to‘sh; ko‘chma ma’noda esa quchoq, himoya, panoh yurak, qalb, dil kabi ma’nolarni anglatish uchun ishlatiladi. SHunga ko‘ra, bag‘rikenglik deb esa shaxs, elat, millat, xalqlarning biron bir narsaga nisbatan keng ko‘lamda, chin dildan ochiq ko‘ngillik bilan yondashishlariga aytiladi.

Bag‘rikenglik birinchidan, insoniy, oilaviy, milliy va umuminsoniy bag‘rikenglik tarzida ko‘zga tashlanib tursa; ikkinchidan, o‘z-o‘zini xurmatlash va qadrlash, murosa, o‘zaro xurmat, qadrlash, sabr-toqat, chidamlilik, qanoat, shukr qilish kabi shakllarida namoyon bo‘ladi va nixoyat, uchinchidan, diniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, xalqaro va davlatlararo yunalishlarda faoliyat ko‘rsatadi.

Diniy bag‘rikenglik g‘oyasining ta’rifi va uni amalga oshirish chora-tadbirlari. Diniy bag‘rikenglik g‘oyasi deb xilma-xil diniy e’tiqodga ega bo‘lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, olijanob g‘oya va niyatlar yo‘lida chin dildan ochiq ko‘ngillik bilan hamkor va hamjixat bo‘lib yashashini tarannum etuvchi fikrlar va amaliy xatti-harakatlar tizimiga aytiladi.

Bu g‘oyani amalga oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni: 1) e’tiqod va vijdon erkinligini har tomonlama ta’minlash; 2) barcha dinlar tomonidan ilgari surilayotgan g‘oyalarning mantiqiy jihatdan mazmun-moxiyatini teran anglab olish asosida ish yuritish; 3) turli din va konfessiyalarning teng xuquqligini e’tirof etish; 4) har xil din va konfessiyalarning bir-birlariga

o‘zaro xurmat bilan boqishlarini yulga kuyish; 5) diniy-ma’naviy qadriyatlarni e’zozlash amaliyotini joriy etish; 6) barcha din vakillarining o‘zaro hamkorlik va hamjihatlikda yashashlari uchun shart-sharoitlarni yaratish; 7) diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘ymaslik; 8) barcha dindorlarning siyosiy jarayonlarda teng, fuqaro sifatida ishtirok etishini ta’minlash; 9) diniy partiyalar tuzib, dindan buzg‘unchilik maqsadlarida foydalanishga yul bermaslik; 10) dindorlarning diniy tuyg‘ularini xurmat qilish; 11) diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning xam, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham xukuqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta’qib qilishga yo‘l qo‘ymaslik kabi bir qator ishlarni amalga oshirish talab etiladi.

YUqorida zikr qilingan diniy bag‘rikenglik g‘oyasini amalga oshirish borasida 14 madrasa, 2033 masjid, 16 konfessiyaga taalluqli 181 ta noislomiy tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Bunday yaratilgan shart-sharoitlar turli xil dinlarga e’tiqod qiluvchi dindorlar, ya’ni xudojo‘ylar o‘rtasida murosa falsafasi paydo qilib, natijada ular ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot bunyod etish g‘oyasini qo‘llab-kuvvatlaydilar va uning ijobat bo‘lishiga o‘zlarining bor kuch-g‘ayratlarini sarflaydilar.

## 9-MAVZU. TAFAKKUR O‘ZGARISHI VA MA’NAVIY YANGILANISHDA MILLIY G‘OYANING ROLI

### REJA

1. Bozor munosabatlariga o‘tishning inson tafakkuriga ta’siri. Taraqqiyotning milliy modellari va ularning mazmuni
2. "O‘zbek modeli"ning mohiyat-mazmuni. Uning kishilar tafakkurini yangilashda tutgan o‘rni va roli
3. Komil insonlarni tarbiyalab voyaga etkazish - ma’naviy yangilanishning pirovard natijasi

1. Bozor munosabatlariga o‘tishning inson tafakkuriga ta’siri. Taraqqiyotning milliy modellari va ularning mazmuni

**Bozor iqtisodiyotining inson tafakkuriga ta’siri.** O‘zbekistonning bosh strategik maqsadi - bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyatni barpo etishdir. **Bozor iqtisodiyoti** - bu mukammal ishlab chiqarish omillariga ega bo‘lgan, tovar-pul munosabatlariga asoslangan, aniq ijtimoiy mo‘ljali bor, bozor signallariga binoan va pul vositasida boshqarilib turiluvchi iqtisoddir[45]. Bozor munosabatlariga o‘tishning inson tafakkuriga ta’siri quyidagilar: 1) odamlarning o‘z mulkiga bo‘lgan egalik tafakkurini har tomonlama rivojlantirib xo‘jayinlik tuyg‘usini oshirishi; 2) o‘zi va oilasiu chun mehnat qilib, boqimandalikka xotima berishi; 3) tejamkorona xo‘jalik yuritish asosida xarajatlarni kamaytirib talon- taroj va lapashanglikka chek qo‘yishi; 4) ilm-fan, texnika va texnologiyalarning eng so‘nggi yutuqlarini dadil va g‘ayrat bilan xo‘jalik yuritish jarayoniga joriy etib, katta daromad topishga undashi; 5) har bir kishing o‘z kasb-korining mohir ustasi bo‘lishini zaruriyatga aylantirishi kabilar bilan belgilanadi. SHuning uchun ham I.A.Karimov: “Bozorga o‘tish muqarrar. Bu - davr amri, ob’ektiv reallikdir. Ayni vaqtda bozor faqat maksad emas, balki yangi qadriyatlarni shakllantirish, odamlar farovonligining sifat jihatidan tubdan yuqori darajasiga erishish uslubi va vositasidir[177], degan edi.

**Taraqqiyotning milliy modellari va ularning mazmuni.** Bunday ulkan vazifani bajarishdan oldin jahonda mavjud bo‘lgan iqtisodiy rivojlanish modellarini o‘rganish zarur edi. Ma’lumki, jahonda milliy taraqqiyot modellari ko‘p bo‘lib, ularni asosan Evropa va Osiyo taraqqiyot modellariga ajratish mumkin. Bu modellar shu qit’ada yashayotgan tub aholisining nomi bilan ataladi. Bunda Evropa mamlakatlari iqtisodiy taraqqiyot modellari turkumiga: nemis, britan, fransuz, shved; Osiyo mamlakatlari iqtisodiy taraqqiyot modellari guruhiga: yapon, koreys, hind, xitoy modellari kiradi.

---

[45] Қаранг: Ўлмасов А.,Ваҳобов А.В. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. -Т.:Шарқ, 2006. -В.79.

Bunda, nemis modeli ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga, britan modeli iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishga, fransuz modeli davlat tadbirkorligiga, shved modeli ijtimoiy tenglik va adolatni ta’minlash ustuvorligiga asoslangan xrlda iqtisodiy faoliyat olib borishga saratilganligi bilan ajralib turadi.

Osiyo mamlakatlaridagi yapon modeli iqtisodiyotni yaponcha hayot tarzi an’analariga muvofiq "oila+jamoa"ni uyg‘unlashtirish asosida jamiyatni ijtimoiy tashkil etish, koreys modeli investitsiyalarni jalb etish; hind modeli korxonalarning innovatsion faolligi; xitoy modeli industrlashtirish, shaharlashtirish, marketinglash va baynalmillashuv, shuningdeq iqtisodiyot, siyosat, madaniyat, jamiyat va ekologiya sinteziga asoslanadi[178]. Ushbu modellarning ishlash mexanizmlari, ular keltirib chiqaradigan natijalar tuliq o‘rganib chiqilgandan so‘ng, ulardan nusxa ko‘chirilmasdan, o‘zbek xalqining manfaatlariga mos keladigan va ularni porloq kelajak uchun boshlab boradigan taraqqiyotning yangi "o‘zbek modeli" O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov tomonidan 1992 yilda yozilgan "O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yuli" nomli kitobi va keyingi asarlarida ilmiy jihatdan asoslangan holda ishlab chiqildi va hayotga tadbiq etildi.

2. "O‘zbek modeli"ning mohiyat-mazmuni. Uning kishilar tafakkurini yangilashda tutgan o‘rni va roli

"O‘zbek modeli”ning asosiy maqsadi va vazifalari. "O‘zbek modeli"ning asosiy maqsadi bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyatni barpo etishdan iborat bo‘lsa, asosiy vazifalari esa iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy va boshqa sohalarda tub o‘zgarishlar va islohotlarni amalga oshirish, xalqning turmush farovonligini yuksaltirish, komil insonlarni tarbiyalab voyaga etkazishdan iborat.

"O‘zbek modeli"ning mohiyati va mazmuni. "O‘zbek modeli"ning mohiyati-mazmunini millati, tili va dinidan qat’i nazar, davlatimizda yashovchi barcha kishilar uchun munosib hayot sharoitini yaratib berish, har bir inson uchun ijtimoiy kafolatlangan turmush darajasini va erkinliklarini ta’minlash, xalqimizning qadriyatlari va mentalitetiga, milliy davlatchilik an’analariga tayanish, dunyo tajribasining ilgor yutuqlariga asoslanish, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini ta’minlash masalalari tashkil etadi.

"O‘zbek modeli"ning asosiy tamoyillari. "O‘zbek modeli"ning asosiy tamoyillari: 1) iqtisodiyotning mafkuradan xoliligi, siyosatdan ustunligi; 2) davlat - bosh islohotchi; 3) bozor munosabatlariga tadrijiy yo‘l bilan bosqichma-bosqich o‘tish; 4) qonun ustuvorligi; 5) kuchli ijtimoiy siyosat yuritishdan iborat.

"O‘zbek modeli”ning kishilar tafakkurini yangilashda tutgan o‘rni va roli. "O‘zbek modeli"ning kishilar tafakkurini yangilashda tutgan o‘rni va roli quyidagilar: birinchidan, odamlarning dunyoqarashini tubdan o‘zgartirib, mustaqillikning ulug‘ saodat ekanligiga ishonchini mustahkamlaganligi; ikkinchidan, iqtisodiy erkinlik - shaxs, oila, mehnat jamoasi, ijodiy guruhlarning tashabbuskorligi va tadbirkorligini kuchaytirib xalq farovonligini oshirayotganligi; uchinchidan, xususiy mulkning daxlsizligini ta’minlab, uning mavqeini kuchaytirayotganligi; to‘rtinchidan, aholining nochor qatlamlari, bolalar, talabalarning ijtimoiy jihatdan qo‘llab quvvatlanayotganligi; beshinchidan, ta’lim-tarbiya tizimini tubdan o‘zgartirib, komil insonlarni voyaga etkazishga xizmat qilayotganligi; oltinchidan, jahonda o‘zbek degan xalqning borligini har tomonlama namoyon qilayotganligi va boshqalar bilan ifodalanadi. SHuning uchun ham bu modelning o‘zbek xalqi hayotida tutgan o‘rni va roli haqida I.A.Karimov: "...biz tanlagan taraqqiyot strategiyasining naqadar to‘g‘ri bo‘lganini hayotning o‘zi yana va yana bir bor tasdiqlab bermoqda"[46], - degan edi.

3. Komil insonlarni tarbiyalab voyaga etkazish - ma’naviy yangilanishning pirovard natijasi

Inson tushunchasi. Inson - har qanday falsafiy ta’limotning asosini tashkil etuvchi

[46] Каримов И.А. Мамлакатимизни демократик янгилаш ва модернизация қилишга қаратилган тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириш - бош мақсадимиздир // Халқ; сўзи, 2014 йил, 6 декабрь.

fundamental falsafiy kategoriya hisoblanadi. Inson tushunchasiga aniq ta’rif berish uchun uni olamda mavjud bo‘lgan boshqa biologik mavjudotlardan ajratib turuvchi eng muhim xususiyatlarni aniqlash zarur. Ta’kidlash zarurki, eng avvalo, inson boshqa tirik mavjudotlardan o‘zining xotirasi, tafakkuri, tili borligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, til uning ajdodlari va avlodlari orasidagi vorisiyliq aloqadorlik vazifasini bajaradi. Inson nasliga xos barcha genetik xususiyatlar, axloqiy normalar, uning faoliyatini boshqaruvchi dasturlar xuddi shu til orqali ajdodlardan avlodlarga o‘zatiladi. Boshqa tirik mavjudotlardan insonning tub sifatiy farqni ifodalovchi xususiyatlardan yana biri uning o‘z amaliy faoliyatini tartibga sola bilishidir. Bu holat insonning insoniyligini belgilovchi eng muhim xususiyat, madaniyat ekanligini ifodalaydi. SHuningdek insonning o‘z turmushi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy boyliklarni ishlab chiqarish malakasiga egaligi ham ana shunday xususiyatlardan biri hisoblanadi. Inson xayotida mehnat asosiy rol o‘ynaydi. Mehnat tufayli inson o‘zi yashayotgan tabiiy muhitni o‘zgartiradi, moddiy va ma’naviy boyliklar yaratadi, o‘z-o‘zini o‘zgartiradi.

Bugungi kunda faylasuflar inson uchta buyuk qudrat:tana, ruhiyat va ma’naviyatning yig‘indisi ekanligini uqdirmoqdalar. Bunda insonning biologik holatideganda uning tanasida sodir bo‘ladigan morfofiziologik genetik miyasida ro‘y beradigan elektroximik o‘zgarishlar, uning yoshi, irqi va jinsini ifodalovchi alomatlar; tushuniladi. Insonning ruhiy holati haqida fikr yuritganda uning his-tuyg‘ulari, kayfiyati, kechinmalari, irodasi, temperamenti anglanadi. Insonning ma’naviyati jamiyatda mavjud bo‘lgan ob’ektiv shart-sharoitlar va sub’ektiv omillar natijasida shakllangan fazilatlar, xislatlar, qobiliyatlar, malakalar yigindisidir. YUqoridagi fikr-mulohazalar insonning murakkab, bir butun biosotsial jonzot ekanligidan dalolat beradi.

YUqorida bayon qilingan fikrlarni umumlashtirgan holda inson tushunchasiga quyidagicha falsafiy ta’rif berish mumkin.

Inson **deb ongli tarzda mehnat qilish, ijodiy ilmiy faoliyat yuritib tabiat, jamiyat hodisalarining sir-asrorlarini bilish va ularni o‘z ehtiyojlariga qarab o‘zgartirish, o‘zidan tug‘ilgan farzandlarini tarbiyalab voyaga etkazish, boshqalarning dardlariga malham bo‘lish, o‘zidagi jismoniy. va ma’naviy barkamollikni uyg‘unlashtirish qobiliyatiga ega bo‘lgan fahm-farosatli, tirik aqlli mavjudotga aytiladi.**

Komil inson tushunchasi. "Komil” so‘zi arabchadan o‘zbek tiliga kirib kelgan bo‘lib "etuk, to‘liq, mukammal"[180] degan ma’noni anglatadi. SHunga ko‘ra komillik deb mexr-muruvvat, adolat, to‘g‘rilik vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik matonat kabi ko‘plab asl insoniy xislat va fazilatlarning majmuiga aytiladi. Ana shunday komillikka erishgan insonlar jamiyatni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etgan. SHu tufayli komil inson g‘oyasi dunyoga kelgan.

Xo‘sh, komil inson kim? Bu savolga yurtboshimiz I.A.Karimov shunday javob beradi: "Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor soxasi deb e’lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan bilimli, ma’rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo‘lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko‘radi. O‘z fikr-o‘yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi etuk odam bo‘ladi"[47]. Demak, milliy g‘oyamizning asosiy maqsadlaridan biri - har tomonlama komil insonni tarbiyalashdai iborat. Komil Inson esa, bu - ozod shaxs, erkin fikr etuvchi, o‘z xalqining ideallari uchun kurashuvchi inson, o‘z Vataniga xalol xizmat kiluvchi kishidir.

Komil inson g‘oyasini amalga oshirishdagi ustuvor vazifalar. O‘zbek xalqi Mustaqillikka erishgach komil inson g‘oyasi yangicha mazmun-ma’no kasb eta boshladi. Hozirgi kunda komil insonga xos bo‘lgan quyidagi xususiyatlarni shakllantirish vazifasi kuyilgan:

1.Har bir odamni jismonan sog‘lom kilib tarbiyalash. Jismoniy tanasida nosog‘lom bo‘lgan odam qanchalik urinmasin komillik darajasiga ko‘tarila olmaydi.

2. Har bir katta-kichik odamning dunyoviy (tabiiy va gumanitar, ijtimoiy-iktisodiy) bilim asoslarini chuqur o‘zlashtirishini yo‘lga qo‘yish. Dunyoviy bilimlarni puxta o‘zlashtirmagan odam taraqqiyotning nima ekanligini tushunmaydi, texnika va texnologiyalardan, xo‘jalik va davlatni

[м] Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ; // Унинг ўзи. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т.7. -Т.:Ўзбекистон, 1999. - Б.134.

boshqarish san’atidan to‘g‘ri foydalana olmaydi.

3. Har bir fuqaro diniy bilim asoslaridan xabardor bo‘lishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish. Diniy bilim asoslaridan xabardor bo‘lmagan odamlar ko‘r-ko‘rona boshqa yullarga kirib ketishi, ya’ni diniy ekstremizm kabi vayronkor g‘oyalarning kurboniga aylanishi mumkin.

4. Odamlarni ma’naviy-ruxiy jihatdan xam sog‘lom bo‘lishi xaqida qayg‘urish. Ma’naviy qashshoqlik ruhiy xastalik balosiga giriftor bo‘lgan odamni hech kim komil insonlar safiga ko‘shmaydi.

5. Ki shilarni' qanday bo‘lmasin biron bir foydali kasb-xunarning egasi, ya’ni o‘z kasbining ustasi, aniqrog‘i etuk mutaxassis qilib etishtirish. Kasb-xunarsiz odamlar bilan farovon hayot kurib bo‘lmaydi.

6. YOshlarni ongli, mustaqil fikr yuritadigan, har tomonlama bilimli, voqealar rivojidan mantiqan to‘g‘ri xulosa chiqara oladigan qilib tarbiyalash. Aqlsizlik jaholatga olib keladi. Jaholat esa halokatga olib keladi.

7. Kishilarning ma’naviy vujudida yuksak axloqiy - ma’naviy fazilatlarni shakllantirish. Inson milliy va umuminsoniy qadriyatlarga qanchalik amal qilsa, uning axloqiy-ma’naviy fazilati ham shunchalik yuksak bo‘ladi.

8. YOshlarni ozod va erkin, o‘z Vatanini jondan ortiq sevguvchi shaxs qilib voyaga etkazish. Uning vujudiga Vatanning mustaqillik ruhini singdirish.

YUqorida bildirilgan fikrlarga asoslangan holda komil inson tushunchasiga quyidagicha falsafiy ta’rif berish mumkin.

Komil inson **deb, dunyoviy bilim asoslarini puxta egallagan, diniy bilim asoslaridan xabardor bo‘lgan, jismonan soglom, ruhiy jihatdan nuqsonsiz, biron bir foydali kasb-xunarning ustasi bo‘lgan, mustaqil fikr yuritadigan, ongli, mantiqan to‘g‘ri xulosa chiqaradigan, yuksak axloqiy-ma’naviy fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan, ona-Vatan ozodligi va obodligi yo‘lida jon fido qiladigan, haqiqiy vatanparvar, xalqparvar kishilarga aytiladi.**

SHu sababli komil inson g‘oyasi nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari etaklagan, ularni ma’naviyat va ma’rifat sohasida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga etkazish haqida qayg‘urmagan xalqning, millatning kelajagi yo‘q. Bunday xalq va millat tanazzulga mahkumdir.

Mustaqil Vatanimiz oliy maqsad qilib olgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni barkamol, ezgu g‘oyalarni hayotiy e’tiqodiga aylantirgan etuk insonlargina bunyod eta oladi. SHuning uchun yangilanayotgan jamiyatimizda sog‘lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma’naviyatini shakllantirish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yuksak darajaga ko‘tarish orqali komil insonlarni voyaga etkazishga yuksak e’tibor berilmokda.

## 10-MAVZU. MILLIY G‘OYANI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL TIZIMI

### REJA

1. Yoshlarni milliy g‘oya va mafkura ruhida tarbiyalashning asosiy yo‘nalishlari
2. Yoshlarning ongi va qalbiga milliy g‘oya va mavfurani singdirish usullari
3. Yoshlar bilan g‘oyaviy mafkuraviy ta’lim-tarbiya ishlarini olib borishning tashkiliy-tadbiriy asoslari
4. Yakka tartibda g‘oyaviy-mafkuraviy ta’lim-tarbiya ishlarini olib borish – yuksak ma’naviyatli yoshlarni voyaga etkazish garovi

### 1. YOshlarni milliy g‘oya va mafkura ruhiyada tarbiyalashning asosiy yo‘nalishlari

Milliy g‘oya va mafkurani yoshlarning qalbi va ongiga singdirish asosan ikki - ta’lim va tarbiya yo‘nalishida olib boriladi.Ta’lim yo‘nalishi. "Ta’lim" arabcha "o‘rgatish, o‘qitish, ilm berish, ma’lumot" degan so‘zlardan olingan bo‘lib 1) bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi; 2) ilm-fan yoki kasb-xunar sohalari bo‘yicha egallanadigan, olinadigan ma’lumot va ko‘nikmalar majmui; 3) tarbiya, odob-axloq; *4)* ko‘rsatma,yo‘l-yo‘riq, o‘rgatuv degan ma’nolarni ifodalash uchun ishlatiladi. SHunga ko‘ra g‘oyaviy ta’lim deb milliy g‘oyaning maqsadi, vazifalari, qonun va kategoriyalari, bosh va asosiy g‘oyalari, jahonda kechayotgan mafkuraviy kurash, dunyoning mafkuraviy manzarasi va shunga o‘xshash boshqa mafkuraviy jarayonlarning borishi qaqida odamlarga bilim berish asosida ularning qalbi va ongiga milliy mafkuraning bosh va asosiy g‘oyalarini singdirishga qaratilgan jarayonga aytiladi.

Foyaviy ta’lim turli ta’lim vositalarini qo‘llash orqali: maktabgacha ta’lim; umumiy o‘rta ta’lim; o‘rta maxsus, kasb-xunar ta’limi; oliy ta’lim muassasalarida olib boriladi.

Tarbiya yo‘nalishi. "Tarbiya" arabcha rivojlantirish, parvarish qilish, o‘stirish, o‘rgatish, ilm berish degan so‘zlardan olingan bo‘lib; 1) insonlarga ta’lim, odob-axloq, va shu kabilarni o‘rgatib, singdirib, ularni voyaga etkazish, ulg‘aytirish, o‘stirish; 2) insonlarning kasb-xunar, mehnatga bo‘lgan munosabatini shakllantirishga, rivojlantirishga, uning jamiyatda yashashi uchun kerak bo‘lgan xislatlarga ega bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan ish-amallar majmui va shu yo‘l bilan singdirilgan odob-axloq, xislat, fazilatlar kabilarning o‘zini anglatish uchun ishlatiladi[48]. SHunga ko‘ra, g‘oyaviy tarbiya - inson ongi va tafakkuri tizimida shu yo‘nalishdagi dunyoqarashni, falsafiy, siyosiy, xuquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy va boshqa tamoyillarni muayyan mafkura asosida maqsadli shakllantirish jarayonidir. Mafkuraviy tarbiya esa inson, ijtimoiy guruh ,millat, jamiyat dunyoqarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan g‘oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo‘naltirilgan jarayondir. Ular bir-biridan ajralmas qismlardir. G‘oyaviy tarbiya mafkuraviy tarbiya orqali zohir bo‘ladi.

G‘oyaviy tarbiya:

- oila;
- mahalla;
- ijtimoiy-ommaviy institutlar;
- ma’muriy-siyosiy tashkilotlar;
- mehnat jamoalarida olib boriladi.

SHuni unutmaslik kerakki, ta’lim tarbiyadan, tarbiya esa ta’limdan ajralmasdir. Bu xususda I.A.Karimov: "Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi", - degan edi.

2. YOshlarning ongi va qalbiga milliy g‘oya va mafkurani singdirish usullari

YOshlarning ongi va qalbiga milliy g‘oya va mafkurani singdirish ikki - ta’lim-tarbiya va targ‘ibot-tashviqot qilish usullari orqali amalga oshiriladi.

Ta’lim-tarbiya usuli. Ta’lim-tarbiya usulida o‘qitishning:

- ko‘rgazmaliliq,
- uzluksizliq,
- yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash;
- tarixiy-mantiqiy izchillikni ta’minlash usullaridan keng foydalaniladi.

Targ‘ibot-tashviqot usuli. "Targ‘ibot" arabcha "targ‘ib - xohishni, qiziqtirishni kuchaytirish; rag‘batlantirish" degan so‘zdan olingan bo‘lib 1) chuqur tushuntirish yuli bilan biror g‘oya, ta’limotni va shu kabilarni yoymoq, kishilarning ongiga singdirmoq,; 2) tushuntirish yo‘li bilan biror ishga chaqirmoq, da’vat etmoq, degan ma’nolarni ifodalash uchun ishlatiladi. SHunga ko‘ra milliy g‘oya targ‘iboti, ya’ni g‘oyaviy targ‘ibot deb milliy g‘oyani aholining barcha qatlamlari orasida yoyishga, kishilar ongiga singdirishga qaratilgan ishlar, targ‘ib ishlariga aytiladi. Milliy g‘oya targ‘iboti bilan shug‘ullanuvchi kishilarni milliy g‘oya targ‘ibotchilari deb atashadi.

"Tashviqot" arabcha "tashviq, - qiziqish, xohishni kuchaytirish" so‘zidan olingan bo‘lib,

[48] Қаранг: Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.3. -Т."Ўзбекистон миллий энциклопедияси"

"biror narsaga yo‘llash, yo‘naltirish, chaqirish maqsadidagi gap-so‘z, xatti-harakat, undamoq, da’vat qilmoq" degan ma’nolarni ifodalash uchun ishlatiladi[49]. SHunga kura, milliy g‘oya tashviqoti, ya’ni g‘oyaviy tashviqot deb ommaga mafkuraviy yoki boshqa jihatdan ta’sir ko‘rsatish maqsadida yozma va og‘zaki ravishda qilinadigan ishlar, tadbirlarga aytiladi.

Targ‘ibot-tashviqot ishlari:

- keng qamrovliliq,
- maqsadga yo‘naltirilganliq,
- ishonchlilik, asoslanganlik,
- ilmiylik asosida olib boriladi.

3. YOshlar bilan g‘oyaviy-mafkuraviy ta’lim-tarbiya ishlarini olib borishning tashkiliy-tadbiriy asoslari

YOshlarga g‘oyaviy-ma’naviy ta’lim-tarbiya berish ishlari bir-biri bilan o‘zviy aloqada bo‘lgan ikki yo‘nalishda olib boriladi. Birinchi yo‘nalish xalq va oliy ta’lim vazirligi tarkibidagi oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari, malaka oshirish, mutaxassislarni qayta tayyorlash, rahbar xodimlarni tayyorlash fakultetlari va kurslarida zamonaviy nazariy bilimlarni berish orqali olib boriladigan g‘oyaviy- mafkuraviy ishlardan iborat bo‘lsa; ikkinchi yo‘nalish davlat va nodavlat muassasalari tarkibidagi madaniy-ma’rifiy muassasalar, ya’ni klublar, madaniyat saroylari, kutubxonalar, ma’rifatxonalar, dam olish maskanlari kabilarda olib boriladigan g‘oyaviy-mafkuraviy ishlardan tashkil topadi. Bu yo‘nalishdagi tadbirlar yoshlar bilan olib boriladigan ma’rifat darslari; turli davlat va jamoat arboblari, olimlar, shoirlar, san’atkorlar, sarkardalar, mehnat faxriylari, xorijlik hamkasblar bilan bo‘ladigan uchrashuvlar; madaniyat va istirohat bog‘lariga, tarixiy ahamiyatga molik joylarga sayohatlar; kino-konsert zallariga, muzeylarga, teatrlarga, madaniyat saroylari va uylariga, fan-texnika va madaniyat yutuqlari ko‘rgazmalariga qilinadigan tashriflar; radio, televidenie, gazeta va jurnallarda qilinadigan chiqishlar hamda turli madaniy-ma’rifiy muassasalar ishlarini tashkil etish kabilarni qamrab oladi.

Ma’rifat darslari va ularni utkazish shakllari. Ma’rifat darslarini olib borishning metodologik asoslarini I.A.Karimov tomonidan aytilgan: "Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch - ma’rifatdir"[50], - degan fikr tashkil etadi. SHunga ko‘ra, yoshlarga mo‘ljallangan ma’rifat darslari maxsus dastur, ish rejasi asosida olib boriladi.

Ma’rifat darslarini tashkil qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad yoshlarni eng zamonaviy bilimlar, fan va texnika yutuqlari, ijtimoiy-siyosiy hayotda yuz berayotgan o‘zgarishlar va dunyoda sodir bo‘layotgan yangiliklar bilan tanishtirish asosida ularning ma’naviy-g‘oyaviy saviyasini oshirishdan iborat. Ularda, asosan, quyidagi masalalar haqida atroflicha fikr yuritiladi:

- davlatning ichki va tashqi siyosati;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqlari,

maqolalari, kitoblari hamda farmon, farmoyish va kursatmalarida bayon etilgan fikrlarning mazmuni, mohiyati va ahamiyati;

- respublika xukumatining qarorlari, buyruqlari, xizmat nizomlari va ularning bajarilishiga oid masalalar;
- mamlakatda jinoyatchiliq xukuqbuzarlik, tartibbuzarliklarning ahvoli va ularning oldini olish muammolari;
- mamlakat aholisining mehnatda erishayotgan yutuqlari, ishlab chiqarish sohasidagi ahvol, kishilarning turmush tarzida bo‘layotgan o‘zgarishlar, hayotga kirib kelayotgan yangicha urf-odatlar, yoshlarning hayotga munosabatlari;
- dunyoda yuz berayotgan voqealar, tarixiy haqiqatni qaror toptirish muammolari;
- adabiyot, san’at va fan-texnika sohalarida erishilgan yutuqlar yoki yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar va h.k.

Ma’rifat darslarini asosan ma’ruza, munozara (seminar), davra suhbati, savol-javob kechasi,

---

[49] Қаранг: Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Ж.4. -Т.:"Ўзбекистон миллий энциклопедияси"

[50] Каримов И.И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ; // Т.7.-Т.: Ўзбекистон, 1999. -Б.135.

siyosiy axborot shakllarida maxsus ajratilgan vaqt - ma’rifat kunlarida malakali targ‘ibotchi-tashviqotchilar, axborotchilar, rahbarlar va mutaxassislar o‘tkazadilar.

Ma’ruza va uni o‘qitish metodikasi. Ma’ruza o‘qish - ma’rifat darslarini o‘tkazishning ko‘p qo‘llaniladigan, an’anaviy shakllaridan biri bo‘lib, unda tanlangan mavzu yoki biron muammoli masala og‘zaki ravishda, ommaviy yoki ilmiy tilda bayon etiladi. SHunga ko‘ra, ma’ruzalar ommaviy va ilmiy turlarga ajratiladi. Ma’rifat darslarida odatda - ommaviy, ta’lim muassasalaridagi darslarda esa ilmiy ma’ruzalar o‘qiladi.

Ma’ruza o‘qish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, uni g‘oyaviy- mafkuraviy faoliyat vositasi, materialni ommaviy tarzda bayon qilish turi, ilmiy-nazariy ahamiyatga molik yangilik va kashfiyotlarni bayon etuvchi qomusiy asar, notiqlik san’atining namunasi, hissiy va ilmiy-aqliy salohiyatning ko‘rinishi sifatida talqin etish mumkin.

Ma’rifat darslarida o‘qitiladigan ma’ruzalarga qo‘yiladigan umumiy talablar quyidagilardan iborat:

- masalaning mohiyatini, ahamiyatini ilmiy-ommabop tarzda bayon etish;
- hukumat qarorlari va buyruqlarini uning mazmuniga zid holda talqin etishga yo‘l qo‘ymaslik,
- masalaga o‘zbek milliy mafkurasi nuqtai nazaridan yondashish;
- hayotiy haqiqatdan kelib chiqqan holda ma’naviy izchillikni ta’minlash va h.k.

Har qanday ma’ruza uni tayyorlashdan boshlanadi.

Ma’ruzaga tayyorgarlik kurish, asosan, uch bosqichdan iborat bo‘lib, birinchi bosqichda ma’ruza mavzui tanlanadi. Bunda mamlakat hayotida yuz berayotgan siyosiy voqealar, xodimlarning ma’naviy, axloqiy, ruhiy ahvoli, extiyoji, operativ vaziyat hamda rahbarlarning ko‘rsatmalari inobatga olinadi.

Ikkinchi bosqichda bevosita ma’ruza tayyorlanadi. Bunda mavzuga doir materiallar - kitoblar, risolalar, maqolalar, gazeta va jurnallar, buyruqlar, yo‘riqnomalar, qonunlarga sharhlar, ma’lumotnomalar, hisobotlar, sotsiologik tadqiqotlar natijalari, aforizmlar, maqollar, matallar, topishmoqlar va boshqalar to‘planadi hamda mazmuniga ko‘ra tartibga solinadi. So‘ngra ma’ruza matnini tayyorlashga kirishiladi, U odatdagidek - kirish, asosiy qism va xulosalardan iborat rejani tuzishdan boshlanadi.

Tayyorlangan ma’ruza matni mukammal reja, asosiy qoidalar, tezislar, konspekt va to‘liq, matn shakllarida bo‘lishi mumkin.

Uchinchi bosqichda tayyorlangan ma’ruza. qayta-qayta o‘qib chiqiladi, kamchiliklari tuzatiladi, ovoz chiqarib o‘qish orqali mashq qilinadi. Bu esa ma’ruzachining o‘ziga ishonchini oshiradi, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash imkonini beradi.

Notiq, ma’ruza o‘qish jarayonida ham muallif, ham rejissyor, ham ijro etuvchi aktyor sifatida namoyon bo‘ladi. Ma’ruza odamlarning ko‘z o‘ngida o‘qiladi. SHu bois ma’ruzachi, albatta, o‘z tovushining oxanglariga, nutqining izchilligiga, obrazliligiga, auditoriya bilan bog‘lanish darajalariga alohida etibor berishi lozim.

YAxshi o‘qilgan ma’ruza odamlar ga zavq-shavq bag‘ishlaydi.

Ma’ruza o‘qishda quyidagi metodik tavsiyalarga amal qilmoq, kerak: ma’ruza sodda, hamma uchun tushunarli tilda o‘qilishi kerak, har bir nazariy fikr va qoida asoslanmog‘i, ishonchli dalillar bilan isbotlanmog‘i kerak;

- tinglovchilar uchun notanish terminlar, xorijiy so‘zlarni ishlatishga berilib ketib, shu asosda o‘zini bilimdon qilib ko‘rsatishga urinmaslik keraq,
- nutq faktlarga asoslangan bo‘lishi, ayni vaqtda har xil badiiy o‘xshatishlar, maqollar, aforizmlarga boy bo‘lishi lozim;
- ma’ruza vaqtida tinglovchilarni turg‘izib koyish, ularga tanbeh berish, xar xil kesatiqlar qilish mumkin emas;
- ko‘rgazmali qurollar, texnika imkoniyatlaridan unumli foydalangan ma’kul;
- ma’ruzada tinglovchilarning kasb-kori, qiziqishlari, bilimdonlik darajasi, ruhiyatini hisobga olish zarur.

Siyosiy o‘qish va uni o‘tkazish metodikasi. Siyosiy o‘qish - ma’rifat darslarining muxim

turlaridan biri bo‘lib, unda yoshlarga mamlakatdagi ichki ahvol va tashqi vaziyat xaqida quyidagi masalalarga doir ma’lumotlar beriladi:

a) mamlakatning siyosiy va iqtisodiy xayoti;

b) davlatning tashqi siyosati va xalqaro ahvol;

v) axloqiy, xukuqiy masalalar, mexnat, xizmat faoliyatidagi yangiliklar;

g) fan, texnika, madaniyat, ma’naviyat, ma’rifat yangiliklari va h-k.

Siyosiy o‘qishning samarali bo‘lishi uchun quyidagi metodik qoidalarga amal qilish talab etiladi:

1) siyosiy o‘qish uchun mavzu tanlaganda jamoaning diqqat-e’tiborini tortayotgan narsalar, voqea-hodisalarni inobatga olish, mavzuning nomi qisqa, ixcham va ma’noli bo‘lishiga harakat kilish kerak;

2) siyosiy o‘qishning bosh g‘oyasi, asosiy maqsadini aniqlab olish zarur;

3) siyosiy o‘qish uchun qancha vaqt ajratilganligini bilib olish va shunga qarab ishni aniq rejalashtirish lozim;

4) siyosiy axborot uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni to‘plash, tartibga solish, shu asosda reja tuzish, konspekt yoki tezislar yozish keraq,

5) siyosiy o‘qishni o‘tkazishda uning so‘zlab berish, suhbat o‘tkazish, voqealar obzori kabi shakllardan birini tanlash joiz.

So‘zlab berish mavzuni jonli va ifodali qilib bayon qilish shakllaridan biri bo‘lib, unda axborotchi aytilayotgan voqealarga nisbatan erkin tarzda, tinglovchini o‘z fikriga qo‘shilishga majburlamasdan o‘z mulohalarini bayon etadi, asoslaydi, tavsiyalar beradi.

Suhbat tinglovchilarni muayyan mavzudagi bahs-munozaralarga jalb qilish bo‘lib, ko‘pincha savol-javob tariqasida o‘tkaziladi. Bunday tarzda berilgan axborot tinglovchilarning faol ishtiroki tufayli qiziqish bilan qabul qilinadi va xotiradan mustaxkam o‘rin oladi.

Voqealar obzori bo‘lib o‘tayotgan voqea-hodisalarni umumlashtirib sharhlashdan iborat. U umumiy xususiyatga ega bo‘lishi yoki muayyan mavzuga bag‘ishlangan bo‘lishi mumkin.

Siyosiy o‘qish yoshlar orasida targ‘ibot-tashvikrt ishlarini olib borishning og‘zaki shakli bo‘lib, u orqali har bir xodim dunyo voqealaridan, mamlakatning ichki va tashqi siyosatidan, fan-texnika va madaniyat yutuqlaridan bahramand bo‘ladi. Uning yordamida yoshlar siyosiy ongining, mamlakat xukumati qo‘ygan vazifalarny bajarishdagi ijodiy qobiliyatining tobora oshib borishiga erishiladi.

Davra suhbati, savol-javob kechalari, ularni tashkil qilish va o‘tkazish metodikasi. Davra suhbati, savol-javob kechalari ma’rifat darslarining muhim shakllaridandir. Ularda rahbar, xodimlar, mutaxassislar ishtirokida yoshlarni qiziqtiruvchi masalalar yuzasidan suhbat, bahs-munozara uyushtiriladi. Ularni asosan quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

- oldindan belgilab olingan bitta kichik siyosiy mavzu bo‘yicha olib boriluvchi, qisqa;

-bir necha mavzularni, masalalarni o‘z ichiga oluvchi keng qamrovli;

- faqat yosh mutaxassislar yoki xizmat sohasi u yoki bu bo‘linmasining a’zolari bilan o‘tsaziluvchi va h.k.

Davra suhbatini, savol-javob kechalarini o‘tkazish uzoq, tayyorgarlikni talab etadigan ish bo‘lib, quyidagilarni amalga oshirishni taqozo etadi:

Birinchidan, yoshlarini qiziqtiruvchi muammolarni aniqlash hamda shu asosda davra suhbati va savol-javob kechasining mavzuini belgilab olish zarur.

Ikkinchidan, yoshlarni davra suhbati va savol-javob kechasi bo‘lishidan kamida ikki hafta oldin unda qanday masalalar, muammolar ko‘rib chiqilishi va kimlar ishtirok etishidan xabardor qilish kerak. Ayni vaqtda, o‘tkaziladigan kechada yoki suhbatda yoshlarning to‘liq ishtirok etishini ta’minlash, ishtirokchilarning dillaridagi orzu-istaklarini bilish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish, ya’ni savollarni to‘plash uchun maxsus qutilar, daftarlar tashkil qilib, telefon raqamlarini ham aytish kerak.

Uchinchidan, tushgan savollarni yaxshilab o‘rganish, ularni tasniflash hamda shu savollarga javob berishi lozim bo‘lgan rahbarlar va mutaxassislarga etkazish lozim.

To‘rtinchidan, kechani o‘tkazuvchi raisni tanlash, uni o‘tkazish vaqtini, joyini belgilab olish

va kerakli rahbarlar, mutaxassislarni taklif qilish zarur.

Beshinchidan, davra suhbati, savol-javob kechasi, albatta, uni, olib boruvchining qisqacha kirish so‘zi bilan ochilishi, shundan so‘ng savollarga javob berish tartibi to‘g‘risida kelishib olgan holda ish yuritilishi lozim.

Oltinchidan, javoblar aniq, bo‘lishi, uning isboti uchun zarur xujjatlar, kinolavhalar, mutaxassislarning fikrlaridan to‘liq foydalanish kerak. Hech bir savol-javobsiz qolmasligi zarur.

Davra suhbati, savol-javob kechalari davlat va nodavlat muassasalarida yoshlar bilan jonli muloqot olib borishning asosiy shakllaridan biri bo‘lib, u ma’naviy-mafkuraviy ishlarni tashkil qilishning asosiy vositalaridan biri ekanligini har bir boshliq, rahbar xodim chuqur anglab olishi kerak.

Ma’rifatxona ishlarini tashkil qilish. Ma’rifatxona - yoshlar bilan siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy ishlar olib boriladigan joy. Unda quyidagilar bo‘lishi shart: O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi; O‘zbekiston Respublikasining bayrog‘i, gerbi; O‘zbekiston Respublikasi madhiyasining matni; davlat va nodavlat muassasalari xodimlari qasamyodining matni; O‘zbekiston Respublikasi davlat va nodavlat muassasalari xodimlarining kasb madaniyati qo‘llanmasi; Ulug‘ Vatan urushi ishtirokchilari va davlat va nodavlat muassasalari faxriylari, faol xodimlarning suratlari; Vazirlik, boshqarma, bo‘lim (qism) tarixiga oid materiallar; televizor va radiopriyomniklar; kundalik matbuot nashrlari.

Ma’rifatxona ishlari kuyidagicha tashkil etiladi:

1. Xodimlarning umumiy yigilishida 5-7 kishidan iborat Ma’rifatxona kengashi saylanadi. Saylangan Kengash a’zolari o‘zlari uchun Kengash raisini, uning o‘rinbosarini saylab va bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalarni bo‘lib oladilar. Masalan, Kengash a’zolaridan biri Ma’rifatxonani jihozlash uchun mas’ul bo‘lsa, ikkinchisi - u erda o‘qiladigan ma’ruza, o‘tkaziladigan ma’rifat darslari; uchinchisi - har xil to‘garaklar ishlari; to‘rtinchisi - madaniy-ma’rifiy ishlar; beshinchisi - kundalik matbuot nashrlari olinishi; oltinchisi - kutubxona, ya’ni ko‘chma kutubxona ishlarini tashkil qilish uchun mas’ul bo‘ladi.

2. Ma’rifatxona kengashining a’zolari o‘zlari bajaradigan ishlarni oyma-oy rejalashtirib boradilar va ana shu reja asosida ish yuritadilar. Ularning rejalarida barcha xodimlarning istak-xohishlari, qiziqishlari inobatga olinishi zarur. Tuzilgan reja, albatta, bo‘lim boshlig‘i yoki uning o‘rinbosari tomonidan tasdiqlangan va ko‘zga ko‘rinarli joyda osib qo‘yilgan bo‘lishi shart.

3. Ma’rifatxona kengashining a’zolari ma’naviy-mafkuraviy ishlarni, albatta, bo‘limdagi boshqa jamoat tashkilotlari bilan bamaslahat olib borishlari kerak. Masalan, faxriylar, a’lochilar, murabbiylar, xotin-qizlar kengashlari bilan "YAngi yil", "Navro‘z", "Xalqaro xotin-qizlar kuni”, "Mustaqillik kuni”, "Xotira va Qadrlash kuni” kabi bayramlarni nishonlash, shu kunlarga bagishlangan devoriy gazetalar, tezkor varaqalar chiqarish kabi tadbirlarni amalga oshirishda bamaslahat ish olib borishlari lozim. Ma’rifatxona kengashining asosiy vazifalari kuyidagilardan iborat:

- davlat va nodavlat muassasalarining rahbarlari, boshliqlariga yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan etuq tartib-intizomli, milliy istiqlol mafkurasi talablaridan kelib chikdan holda siyosiy jihatdan ongli qilib tarbiyalashda ko‘maklashish;
- yo shlarni xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishga safarbar qilish;
- yoshlarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, nutq, maqola, kitoblarni, respublika xukumatining ichki va tashqi siyosatini tushuntirish;
- o‘zbek xalqining tarixiy xizmatlarini, demokratik xukuqiy davlat qurish borasida qo‘lga kiritayotgan yutuqlarini, davlat va nodavlat muassasalari xodimlarining xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida ko‘rsatgan jasoratlarini targ‘ib va tashviq, qilish;
- yoshlarda o‘z kasbiga nisbatan mexr-muhabbat hissini uyg‘otish, jamoatchilik va do‘stlik tuyg‘ularini shakllantirish;
- yuqori darajadagi estetik didni shakllantirish;
- boshqa ijodiy mehnat jamoalari bilan yaxshi aloqalar o‘rnatish;
- yoshlarning oilalari o‘rtasida o‘rtoqlik munosabatlarini rivojlantirishga harakat qilish;

- yoshlar va ularning oila a’zolariga madaniy hordiq, chiqarishlarida ko‘maklashish.

Ma’rifatxona kengashining ishlarini ham nazariy, ham amaliy jihatdan davlat va nodavlat muassasalarining boshlig‘i yoki uning o‘rinbosari boshqarib turadi.

Devoriy gazeta va tezkor varaqalar chiqarishini tashkil qilish metodikasi. Devoriy gazeta davlat va nodavlat muassasalarining kundalik hayotini aks ettiruvchi hamda yoshlarni g‘oyaviy-mafkuraviy jihatdan chiniqqan, yuksak ma’naviyatli va ma’rifatli qilib tarbiyalashga xizmat qiluvchi vosita bo‘lib, har bir bo‘linmada oyiga bir marta chiqariladi.

Devoriy gazetalarni chiqarish uchun, eng avvalo, uning muharriri, so‘ngra taxrir hay’atining a’zolari tayinlanadi. Ularning ishini bo‘linma boshlig‘ining o‘rinbosari boshqarib turadi.

Devoriy gazetani chiqarishda quyidagilarga e’tibor berish kerak:

1) devoriy gazetaning nomini to‘g‘ri tanlash;

2) mavzularni to‘g‘ri tanlash, bunda uning mazmuniga alohida e’tibor berish, mazmun va shakl o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash;

3) gazetani bezash, suratlarni tanlash va joylashtirishda estetik uyg‘unlikni ta’minlash;

4) maqolalarning ob’ektivligini tekshirib ko‘rish, ularni yozishda til qoidalariga amal qilinishini ta’minlash, ortiqcha so‘zlar, haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan ma’lumotlarni olib tashlash;

5) familiya va ism-shariflarning, raqamlarning to‘g‘riligini tekshirib ko‘rish va h.k.

Devoriy gazeta uchun mo‘ljallangan har qanday maqola yaxshilab tahrir qilinishi kerak. Devoriy gazetada, eng avvalo, bosh maqola ko‘zga ko‘rinadigan joyga joylashtirilishi, undan keyin boshqa maqolalar, suratlar qo‘yilishi lozim. YUmor, satira janridagi va boshqa kichik axborotlarni gazetaning so‘nggi qismlariga, pastki o‘ng burchagiga joylashtirish maqsadga muvofikdir.

Har bir gazeta raqamlanishi, uning qaysi organga tegishli ekanligi, chiqarilgan vaqti ko‘rsatilishi kerak.

Tezkor varaqa bo‘linma devoriy matbuotining eng tezkor va ta’sirchan turlaridan biri hisoblanadi. Tezkor varaqada yoshlarning xayrli ishlari, qaxramonliklari, xizmatda erishgan yutuqlari, sport sohasida qo‘lga kiritgan g‘alabalari hamda tanqidiy materiallar va satirik rasmlar berib boriladi.

Tezkor varaqani chiqarishda quyidagilarga e’tiborni qaratish zarur:

- har bir maqola qisqa, aniq, dolzarb va tezkor bo‘lishi;
-chiroyli qilib, rangli bo‘yoqlar bilan bezatilishi;
- yoshlarning familiyasi, ismi-sharifi to‘g‘ri, qisqartirilmasdan yozilishi;
- har bir son raqamlanishi, chiqqan vaqti va kimning organi ekanligi kursatilishi kerak.

CHiqarilgan tezkor varaqalarni alohida joyda saqlab qo‘yish lozim, chunki u vaqti kelib, davlat va nodavlat muassasalarining yilnomasiga aylanib qoladi.

1. YAkka tartibda g‘oyaviy-mafkuraviy ta’lim-tarbiya ishlarini olib borish - yuksak ma’naviyatli yoshlarni voyaga etkazish garovi

4. YAkka tartibda g‘oyaviy-mafkuraviy ta’lim-tarbiya ishlarini olib borishning mohiyati va xususiyatlari.

"Barchamizga ayonki, - deb yozgan edi I.A.Karimov, - inson qalbiga yo‘l, avvalo, ta’lim-tarbiyadan boshlanadi"[188]. Zero, shunday ekan yoshlarni g‘oyaviy-mafkuraviy jihatdan chiniqqan, yuksak ma’naviyatli shaxs qilib tarbiyalash jarayonining asoslaridan birini ular bilan yakka tartibda g‘oyaviy-mafkuraviy ta’lim- tarbiya ishlarini olib borish ishlari tashkil etadi.

YOshlar bilan yakka tartibda olib boriladigan g‘oyaviy-mafkuraviy ta’lim-tarbiya ishlari bilan bevosita jamoat tashkilotlari, davlat va nodavlat muassasalarining rahbar xodimlari, bo‘lim va bo‘linmalarning boshliqlari, murabbiylar va faxriylar shug‘ullanadilar.

YAkka tartibda g‘oyaviy-mafkuraviy ta’lim-tarbiya ishlarini olib borish deb jamoat tashkilotlari, davlat va nodavlat muassasalaridagi rahbar, boshliq va mansabdor shaxslarning o‘ziga bo‘ysunuvchi har bir yosh xodimni har tomonlama o‘rganish, shaxsiy imkoniyatlarini inobatga olish asosida uning ongida ozod va obod Vatanga mexr-muhabbat, qonunga xurmat tuyg‘usini shakllantirish, inson haq-xuquqlarini himoya qilish, yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarini tezda

tuzatib, tartib-intizomni mustahkamlash, har qanday qiyinchiliklarga bardosh berib, to‘siqlardan qo‘rqmasdan o‘z xizmat vazifasini halol, bekamu ko‘st bajarishlarini ta’minlash uchun muntazam ravishda olib boradigan faoliyatiga aytiladi.

SHunga ko‘ra, yakka tartibda g‘oyaviy-mafkuraviy ta’lim- tarbiya ishlarini olib borishning mohiyati, birinchidan, shaxsni har tomonlama chuqur o‘rganish, tarbiyada xodimning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish; ikkinchidan, yoshlarga ruhiy ta’sir o‘tkazish; uchinchidan, kamchiliklarini tuzatishiga, qusurlaridan qutulib, ijobiy xislatlarini rivojlantirishiga va o‘zini o‘zi tarbiyalashiga va shu asosda o‘zligini anglashiga yordam berishda ifodalanadi.

YAkka tartibda g‘oyaviy-mafkuraviy ta’lim-tarbiya ishlarini olib borishning xususiyatlari. YAkka tartibda g‘oyaviy-mafkuraviy ta’lim-tarbiya ishlarini olib borish boshqa tarbiya shakllaridan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1) aniq, maqsadga yo‘naltirilganligi;
2) tezkorligi, ya’ni har qanday vaqtda, har qanday joyda, har qanday sharoitda olib borish mumkinligi;
3) samaradorligi, ya’ni odamga ta’sir etish imkoniyatining kuchliligi va h.k.

YAkka tartibda olib boriladigan g‘oyaviy-mafkuraviy ta’lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

- tarbiyalanayotgan yoshlarni shaxs sifatida har tomonlama chuqur o‘rganish;
- yoshlar bilan ta’lim-tarbiya ishlarini olib borishning kelgusidagi istiqbollarini belgilash (yakka tartibda g‘oyaviy-mafkuraviy ta’lim-tarbiya ishlarini olib borish dasturini tuzish);
- yoshlarga har tomonlama ta’sir o‘tkazish uchun yakka tartibda g‘oyaviy-mafkuraviy ta’lim-tarbiya ishlarini olib borishning eng yaxshi, samarali vosita, usul va shakllarini tanlash va ularni amalda qo‘llash;
- hamma toifadagi tarbiyachilar va xizmat jamoasini yoshlarni yuksak ma’naviyatli shaxs qilib shakllantirishga yo‘naltirish;
- yakka tartibda g‘oyaviy-mafkuraviy tarbiyaviy ishlarning borishi va natijalarini muntazam ravishda kuzatish, nazorat qilish va h.k.

YAkka tartibda g‘oyaviy-mafkuraviy ta’lim-tarbiya ishlarini olib borishning yuksak ma’naviyatli yosh xodimlarni tayyorlashdagi ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Muntazam ravishda va biron aniq, maqsadni ko‘zlab olib boriladigan yakka tartibdagi g‘oyaviy-mafkuraviy tarbiyaviy ish har bir yosh xodimning o‘z vazifasini qanday bajarayotgailigini, ishdagi yutuq va kamchiliklarini, uiing xarakteridagi kuchli va zaif tomonlarni, oilaviy ahvolini, kayfiyatini, turmush tarzini chuqurroq bilish hamda qanday masalalar va muammolarni hal etishga e’tiborni ko‘proq qaratish zarurligini aniqlash imkoniyatini beradi.

2. YAkka tartibda olib boriladigan g‘oyaviy-mafkuraviy tarbiyaviy ish har bir yosh xodimning ichki e’tiqodini shakllantirish vositasi hisoblanadi. CHunki berilgan to‘g‘ri maslahat, ko‘rsatilgan to‘g‘ri yo‘l-yuriq, odamdagi qusurni yo‘q, qilishga qaratilgan pand-nasihatlarning amaliy natijalari, oxir-oqibatda, odamning ichki ishonchiga, e’tiqodiga aylanib boradi. Ushbu ichki ishonch va e’tiqod yosh xodimning qanday sharoitda va vaziyatda, kimning oldida bo‘lmasin, o‘z prinsiplariga sodiq, qolishi, o‘z so‘zining ustidan chiqishi, berilgan topshiriqni uddalashiga imkon beradi.

3. YAkka tartibdagi g‘oyaviy-mafkuraviy ta’lim-tarbiya ishlari “boshliq-bo‘ysunuvchi" tizimi doirasida olib borilar ekan, u shubhasiz boshliq, va bo‘ysunuvchi o‘rtasidagi o‘zaro mas’uliyatning uzviyligini ta’minlaydi. Bunda boshliq yoki rahbar o‘zining bergan maslahatlari yoki ko‘rsatmalari, topshiriqlarining to‘g‘ri, aniq va hayotiy ekanligi uchun bo‘ysunuvchi xodim oldida mas’ul bo‘lsa; bo‘ysunuvchi esa boshliqning ko‘rsatmalari, topshiriqlari, maslahatlari bekamu ko‘st bajarilishi uchun mas’uldir. Har ikki tomonning ushbu g‘oyaviy-mafkuraviy tarbiya jarayoniga jiddiy yondashuvi ish muvaffakiyatining garovi hisoblanadi.

4. YAkka tartibdagi g‘oyaviy-mafkuraviy ta’lim- tarbiya ishlarini olib borishning usul va shakllari

YUksak ma'naviyatli yosh xodimlarni tayyorlash, asosan, ularning ongiga ta'sir o'tkazuvchi, tajribada sinalgan g'oyaviy-mafkuraviy tarbiya usullari va shakllarini qo'llashga ko'p jihatdan bog'liqdir.

YAkka tartibda g'oyaviy-mafkuraviy ta'lim-tarbiya ishlarini olib borish usullariga quyidagilar kiradi:

1. Suhbatlashish orqali bilish usuli. Bu usul yosh xodimning ichki dunyosini, xislatlarini, dunyoqarashini, oldiga qo'yilgan vazifani nechog'lik tushunishini, turmush tarzini bilib olishga xizmat qiladi. Bu usulni qo'llash quyidagi talablarni bajarishni taqozo etadi:

- suhbat mavzusini, maqsadini va vazifalarini oldindan belgilab olish;
- suhbatdoshga doir xujjatlarni, unga berilgan tavsifnomalarni o'rganish va jamoaning u haqidagi fikridan xabardor bo'lish;
- samimiy suhbatlashishga imkon beradigan vaqt va joyni tanlash;
- suhbatlashishda majburiylikka, so'roq qilish shaklidagi savol-javoblarga yo'l qo'ymaslik, suhbatni o'ta xayrixohlik va olijanoblik bilan o'tkazishga harakat qilish;
- suhbatga ijodiy yondashish, uni rahbarning hikoya qilib berishi asosida o'tkazish;
- suhbat chog'ida suhbatdoshning kayfiyatini, fikrini inobatga olish;
- suhbatdoshning ko'z oldida uning gaplarini qayd qilish, yozib olishga yo'l qo'ymaslik,
- suhbat chog'ida olingan ma'lumotlarni oldingi ma'lumotlar bilan solishtirib ko'rish asosida tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqarish;
- suhbatlashish asosida olingan ma'lumotlar faqat suhbatdosh to'g'risidagi qaydlardan iborat bo'lib qolmasligi, balki ayni vaqtda g'oyaviy-mafkuraviy ahamiyatga molik tarbiyaviy ish olib borish mavzusiga aylanib borishi kerak.

2. Kuzatish usuli. Bu usul yosh xodimni har xil holat va sharoitlarda - xizmat vazifasini bajarish, jamoat joylarida o'zini tutish, bo'sh vaqtini qanday o'tkazish, fuqarolar va xizmatdoshlari bilan qanday muomalada bo'lishlarini bilish uchun qo'llaniladi.

Kuzatish uzoq vaqtli yoki qisqa muddatli bo'lishi mumkin. Uzoq muddatli kuzatish davomida xodimning barcha shaxsiy xislatlari o'rganilsa, qisqa muddatli kuzatishda esa uning ayrim shaxsiy xislatlari o'rganiladi.

Kuzatish usuli kuyidagi shartlarning bajarilishini talab qiladi:

- kuzatishning aniq, maqsad va vazifalarini belgilab olish;
- xodimning barcha xislatlari namoyon bo'ladigan holatlarni tanlash;
- kuzatuvni muntazam ravishda olib borish, ya'ni uning uzluksizligini ta'minlash;
- ko'zatuv natijalarini qayd qilib borish va taxlil qilish;
- kuzatuv natijasida olingan ma'lumotlarni mazkur yosh xodim to'g'risidagi boshqa ma'lumotlar bilan solishtirib ko'rish va h.k.

Sinov usuli. Bu usul yosh xodimning kundalik oddiy sharoitda namoyon bo'lmaydigan ayrim shaxsiy xislatlarini maxsus sinov, tajriba orqali o'rganishda ifodalanadi.

YOsh xodimni sinash sun'iy va tabiiy sharoitlarda amalga oshiriladi. Sun'iy sharoitda sinash maxsus o'quv sinfida, operatsiya xonasida, laboratoriyada xodimning u yoki bu xislatlarini ko'zdan kechirishdan iborat bo'lsa, tabiiy sharoitda sinash esa kundalik ishda, o'qishda yosh xodimga har xil topshiriqlar berish orqali uning shaxsiy xislatlarini ko'zdan kechirish, amalda tekshirish hisoblanadi.

YAkka tartibda g'oyaviy-mafkuraviy ta'lim-tarbiya ishlari olib borishning shakllari.

YAkka tartibda g'oyaviy-mafkuraviy ta'lim-tarbiya ishlari olib borishning quyidagi shakllari amalda kuproq qo'llaniladi:

Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari-majmuaviy integral (butun, bog‘lik) tizim bo‘lib, unda ta’lim maqsadlari asosida belgilangan ko‘nikma va malakalar o‘quvchilar tomonidan nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, ularda muayyan ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat elementlarining ma’lum tartibga solingan to‘plamdir.O‘qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyadan kutilgan maksad, uning afzalliklari, darsning samaradorligini oshirish tamoyillarini quyidagicha ko‘rsatib berish mumkin:

- YAngi pedagogik texnologiya eng qulay va sodda usul.
- Ko‘p tarmoqli.
- Sodda, oson.
- Esda qolishi kuchli.
- Bilim boyligini oshiradi.
- Vaqtdan yutamiz.
- Qiziqarli o‘tadi.
- Darsning samaradorligini oshiradi.
- Dunyoqarashni oshiradi.
- Tafakkurni rivojlantiradi.
- O‘quvchilarning diqqat-e’tiborini tortadi.
- Har bir o‘quvchi bilan individual munosabat paydo bo‘ladi.
- Xotirani kuchaytiradi.
- O‘quvchilarni o‘z ustida ishlashga da’vat etadi.

- O‘z shaxsiy fikrini bayon qilish va uni himoya qilishga o‘rgatadi.

SHu bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiya avvalgidek fakatgina o‘qitishni takomillashtirish emas, balki, ta’lim oluvchini anglash, o‘rganish qobiliyatini rivojlantirish yuqori malakali tadbirkor mutaxassis qilib tarbiyalash, intelektual saloxiyatini oshirish kabilarni qamrab olgan global masaladir.CHunki bo‘lajak mutaxassis o‘z sohasini chuqur egallashlariga qadar, yangi ma’lumotlarni ko‘payishi ishlab chikarish jarayonlariga istiqbolli texnologiyalarni jalb etilishi, bo‘lajak mutaxasisdan ko‘proq mustaqil ta’lim olib doimiy malakasini oshirib borish lozim bo‘lganda yangi bilim va kasbni o‘rgana olishni taqazo etadi. Ta’lim jarayonida mafkuraviy immunitetni shakllantirishda bir necha muammolarga duch kelish mumkin.CHunki, immunitet manbaalari istihola, uyat, andisha, ibo, hayo, vijdon, or-nomus, hurmat, sadoqat, izzat-ikrom kabi milliy qadriyatlarimiz zamirida bo‘lib, buni ko‘pchilik yoshlar aniq tasavvur qilisholmaydi. Ba’zilari hatto bularni o‘tmish sarqitlari deb ham o‘ylaydi. SHuning uchun ham zamonaviy o‘qituvchi o‘z darslarida, darslardan tashqari davrida, maktabdan tashqari vaqtlarida o‘quvchilar ongida milliy g‘oya tushunchalarini singdirishga harakat qilishi zarur.Masalan: Milliy g‘oya nima? ota-bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan eng kerakli fikrlar majmuasidir.Ezgu mafkura esa – tafakkur qiroli. Ezgu mafkuraning asosi esa otamiz bergan o‘git, pandu nasihat. CHunki hech bir ota-ona farzandini balo-qazoga etaklaydigan maslahatni bermaydi. SHuning uchun o‘qituvchining oilalardagi xususiyatlarni bilishi o‘zi uchun ham foydalidir kabi saboqlarni o‘quvchilar ongiga singdirishi lozim.

Avvalo, ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish va mustahkamlash vazifalarini bajarish kerak. Bunda ertaklar va afsonalarini bilishga ko‘maklashish usulidan foydalanish mumkin. Bu ajoyib jarayonda To‘maris, SHiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Amir Temur, Abu Rayhon Beruniy va boshqalarning hayoti va faoliyati bilan tanishtirish orqali o‘quvchilarda milliy iftixorni shakllantirish bo‘yicha ishlaydi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturidan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, hozirgi davrda o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri – umummilliy maqsad sari intilish, yangi ijtimoiy ongni shakllantirishni shart-sharoitlari, tadbirlari, mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Milliy istiqlol g‘oyasini yoshlar ongi va qalbiga singdrish aynan shunga xizmat qiladi.

Jamiyat hayotida va ta’lim sohasida qadriyatlarni avtoritar tarzda o‘rganib bo‘lmaydi, ular ta’lim mazmuni va texnologiyasining rivojlanishi bilan birga tadrijiy ravishda o‘zgarib boradi. Inson o‘zining sub’ektiv tajribasi va fikr doirasiga ko‘ra qadriyatlar tizimini barpo qiladi, o‘zining maqsadli faoliyatidan kelib chiqib, ularning mezonini belgilaydi.Ijtimoiy qadriyatlar ham, ta’lim mazmuni ham o‘zgarib turadi, ammo mohiyatan ular hamisha inson huquqi va erkinliklarini ifodalashga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Aynan shu jarayonni ham o‘qituvchi o‘rganib, o‘z o‘quvchilari bilan huquqiy savod ustidan doimiy ish olib boradi. O‘quvchilar ongida “yaxshi” va “yomon”, “mumkin” va “mumkin emas”ligi keyinchalik esa “Huquqga ega”, “huquqga ega emas”, majburiy “mas’ul” kabi huquqiy tushunchalarni shakllantiradi.

O‘qituvchi yoshlarga mafkuraviy immunitetni singdirishda albatta o‘z o‘quvchilarining bo‘sh vaqtlarini o‘rganadi o‘quvchilar bilan bu masala bo‘yicha maslahatlashadi. (Motivatsiyani tug‘diradi, qiziqtiradi, ogohlantiradi, maslahat beradi).O‘quvchilar va ularning ota-onalari bilan shug‘ullanadi. Ularni doimiy nazoratda tutib turish yaxshi samara beradi. Bugungi kunda mafkuraviy tahdidlar oqimi asosan internet tizimi orqali kirib kelmoqda. SHu o‘rinda, Internetning ijobiy va salbiy oqibatlari haqida tushuntirish ishini olib borish maqsadga muvofiq. Internetga kirish noxush, pornografiya va boshqa ko‘rsatuv va ma’lumotlarni ta’qiqlash faqat zamonaviy ustqurma emas, balki ota-ona, maktab, mahalla bergan madaniyat darajasi kerak bo‘ladi deb isbotlaydi.

Xususan, qo‘l telefoni haqida ma’lumot uning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini sodda qilib tushuntirish lozim. Uning to‘g‘rima to‘g‘ri mazmun-mohiyati haqida ham masalani ko‘taradi, unga muammoli qarashga chaqiradi va ota-onani ogohlantiradi. Bolalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda, albatta, fizkultura, sport, milliy harakatli o‘yinlar ham katta rol

o‘ynaydi.Unda ham ota-bobolarimiz bayram-u sayllarda doimo faol tabiat bilan chambarchas ish ko‘rish, ezgu ishlarga doimo shay bo‘lishlarini isbotlaydi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida tarixiy yodgorliklarga sayohatlar tashkil etish. Unda g‘oyaviy, tarbiyaviy hikoyalarni taqdim etish – juda foydali ish usuli bo‘ladi.Zamonaviy o‘quvchi “Mustaqillik” tushunchasini bilish shart, o‘qituvchi unga shunday ma’lumot berishi kerakki, o‘quvchi ongida Vatani uchun iftixor, g‘urur va xursandchilik kabi his-tuyg‘ular jonlanishi va ma’naviy dunyosi kengayishi, ahloqiy sifatlari bilan to‘ldirilishi zarur.

SHuningdek, ta’lim muasasalarida «Millatlararo do‘stlik klubi», «YOsh mafkurachilar klubi», «Oila tarixi»ni yaratish, «Kamolot» yoshlar tashkiloti faoliyatida ishtirok etish, «Ma’naviyat va ma’rifat kunlari», «Voizlar to‘garagi», «Milliy g‘oya bilimdonlari klubi»da suhbatlar, munozaralar, ma’ruzalar, bahs-anjumanlar o‘tkazish, «Mafkuraviy sayohatlar» uyushtirish, «Mustaqillik yilnomasi»ni tuzish kabilar mafkuraviy kurashlar keskinlashayotgan sharoitda yoshlarda zamonaviy, ilmiy metodik usul va shakllar yordamida ham mafkuraviy immunitetni shakllantirish mumkin.

O‘qituvchilar yoshlar bilan dars jarayoniga innovatsion yondashsa, innovatsion tarzda sistematik izlanish, yangi texnologiyalar, loyiha, konstruksiyalar asosida yaratib kelsa, kelajagimiz poydevori bo‘lgan barkamol avlod har qanday yot begona g‘oyaga qarshi tura oladi va Vataniga o‘z muhabbat va sadoqatini isbotlaydi.

Afsus bilan aytish kerakki, ayrim yoshlarimizning aqidaparastlar ta’siriga berilayotgani, giyohvandlik va jinoyatchilik yo‘liga kirib ketayotgani ta’lim-tarbiya jarayonida jiddiy nuqsonlar mavjudligi o‘quv yurti, ota-ona, keng jamoatchilik, siyosiy partiyalar, yoshlar tarbiyasi uchun mas’ul bo‘lgan tashkilotlar faoliyatidagi nomufoviqlikdan, ular o‘rtasida izchil va samarali hamkorlik yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligidan darak beradi. Bu boradagi muammolar ziyoli qatlam zimmasiga yanada ko‘proq tinmay izlanish, masalani chuqur o‘rganish va tahlil qilish, masalaga xolisona yondashish, muammoni bartaraf etish yo‘llarini topish, uni amaliy hayotga tadbiq etish, bunda ta’lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish vazifasini yuklaydi.

YUqoridagilarga qo‘shimcha ravishda, ta’lim ta’rbiya sohasida yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda quyidagilar ko‘zlangan natijaga erishishda yordam beradi:

birinchidan, ta’lim mazmuniga milliy g‘oyani singdirish, yoshlarni avlod-ajdodlarimizning insonparvarlik g‘oyalaridan, milliy turmush tarzi, ahloq odobi bilan tanishtirish;

ikkinchidan, yoshlarni ajdodlarimizning merosiga ixlosmandlik ruhida tarbiyalash, ularni necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanimizni his etib yashashga o‘rgatish;

uchinchidan, yoshlarga yurtboshimiz ko‘rsatganidek, “milliy urf-odatimiz, oqibat, insonni ulug‘lash, tinch va osoyishta hayot, do‘stlik va totuvlikni qardlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar” ni o‘rgatish zarur;

to‘rtinchidan, talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ilmiylik tamoyiliga rioya qilish;

beshinchidan,bayon qilinayotgan dalillarni diniy aqidaparastlikning har qanday ko‘rinishlariga murosasizlik bilan bog‘lash;

oltinchidan, yoshlarni bahslashishga uo‘rgatish;

ettinchidan, siyosiy bilimlarga qiziqish uyg‘otish;

sakkizinchidan, talabalarning ijtimoiy faolligini har tamonlama rag‘batlantirish;

to‘qqizinchidan, talabalar ongi va his-tuyg‘ulari, ehtiyojini oqilona hisobga olish;

o‘ninchidan, farzandlar ta’lim-tarbiyasi borasida faqat o‘quv yurtigina emas, ota-ona, mahalla-kuy va keng jamoatchilik mas’uliyati ham oshirilishi shart.

# GLOBALLASHUV SHAROITIDA G‘OYAVIY-MAFKURAVIY JARAYONLARNING MILLIY G‘OYAGA TA’SIRI

G‘oyaviy – mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi - g‘oyaviy ta’sir o‘tkazish imkoniyatlarining kengayishi sababli Er yuzining barcha mintaqalarida mafkuraviy kurash umumbashariy miqyos kasb etayotganini ifodalaydi. Insoniyat tarixining hozirgi bosqichi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy, madaniy hayotning barcha sohalarida xalqaro munosabatlarning integratsiyalashuvi va intensivlashuvi bilan xarakterlanadi. Xususan, aloqa vositalarining rivojlanishi, kompyuter, elektron pochta, internet, kosmik teleradio aloqa tizimlarining texnik-texnologik vositalari kuchayib ketishi tufayli g‘oyaviy – mafkuraviy jarayonlar globallashib, g‘oyaviy ta’sir o‘tkazish imkoniyatlari ham tobora kengaymoqda. Ma’lum bir hudud yoki mamlakatda paydo bo‘layotgan g‘oyalar axborot kommunikatsiyalari, aloqa infrastrukturasi takomillashishi tufayli tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. Mutaxassislar fikricha, insoniyat bugungi kunda yangi axborot inqilobini boshdan kechirmoqda va u kishilik jamiyati tarixidagi birinchi inqilob emas. Nutqning shakllanishi axborot uzatish imkoniyatlarini kengaytirgan bo‘lsa, yozuvning paydo bo‘lishi uni uzoq vaqt davomida saqlash va axborotni uning yaratuvchisidan ajratgan holda ulkan masofalarga etkazish, hatto zamonlararo olib o‘tishga yo‘l ochdi. Gazeta va jurnallar nashr etishning yo‘lga qo‘yilishi yozma axborotni uzatishdagi tezkorlik va qamrovlilikni yanada kengaytirdi. Radio va televidenie esa, axborotni ovoz va tasvir orqali uzatishni ta’minlab, uni yanada yangi sifat bosqichiga ko‘tardi. Ommaviy axborot vositalarining qamrov darajasi, boshqacha aytganda, mahalliy, umummilliy, mintaqaviy yoki xalqaro (global) miqyosda faoliyat ko‘rsatishi ham uning ta’sir doirasini yanada kengaytirdi. Ular orasida Internet bugungi axborot makonining muhim bo‘g‘iniga aylandi.

Kishilik jamiyati o‘z rivojlanishida mutlaqo yangi sifatiy bosqichga kirgan bugungi kunda inson va jamiyat milliy-ma’naviy hayotida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Insoniyat madaniy taraqqiyoti tempi ham tezlashmoqda. Bu, chunonchi, ilmiy kashfiyotlar, axborotlar miqdorining va ilm-fan sohasida band bo‘lgan kishilar sonining tez o‘sayotgani, ilmiy faoliyat hajmining har 10-15 yilda ikki barobarga oshayotganida ham ko‘rinadi. SHunday bo‘lishiga qaramay, insoniyat ma’naviyati va madaniyati rivojlanishini tekis jarayon sifatida tasavvur qilish mumkin emas. Zero, insoniyat bugungi kunda erishgan yutuqlardan chetda qolayotgan mintaqa va xalqlar ham yo‘q emas.

Hech qaysi millat, mintaqa ma’naviyati, madaniyati bir-biridan mutlaq ajralgan holda mavjud bo‘lmagan. Madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayonida har bir milliy madaniyatga o‘zga madaniyat elementlari kirib keladi. Bunday o‘zaro ta’sir va boyish jarayoni jamiyat rivojlanishi tezlashishi bilan bir paytda unga mos ravishda o‘sib boradi. Ayniqsa, XX asrda sanoat, transport, aloqa vositalarida ro‘y bergan buyuk o‘zgarishlar bu jarayonni yanada tezlashtirdi va madaniyatning deyarli barcha sohalarini qamrab oldi. Ammo vaqt bu jarayonlarning ziddiyatli ekanini ham ko‘rsatdi. G‘oyat murakkab va ziddiyatli, zafarlar va fojialarga boy bo‘lgan tarixiy yo‘lni bosib o‘tgan jamiyat yangi ming yillikka qadam qo‘ydi. Insoniyat istiqboli, uning yangi ming yillikdagi qiyofasi ko‘p darajada rivojlanishning hozirgi kundagi xususiyatlari bilan ham belgilanadi. SHu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi kunda milliy g‘oya taraqqiyotiga xos xususiyatlar haqida gap ketar ekan, aksilmadaniyat unsurlarining keng tarqalishidek salbiy hodisalar ham kelib chiqayotganini, madaniy agressiya yangi shakllarda namoyon bo‘layotganini ta’kidlash zarur. Jumladan, ulkan tashkiliy asoslar, moddiy-moliyaviy resurslar va mafkuraviy bosimga tayangan holda an’anaviy jamiyatlarning asrlar davomida shakllangan qadriyatlarining emirilishiga olib keladigan hodisalar namuna va etalon, universializm va globalizm bayrog‘i ostida singdirishga harakat qilinmoqda. SHu bilan birga, dunyoning turli burchaklarida shiddat bilan kechayotgan milliy uyg‘onish ta’sirida milliy-madaniy o‘ziga xoslikni saqlab qolishga, milliy qadriyatlarni tiklashga bo‘lgan intilish hissining o‘sishi kuzatilayotganini ham ta’kidlash zarur. G‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning

globallashuvida bir-biridan tubdan farq qiladigan ikki yo‘nalish, tendensiya namoyon bo‘lmoqda:

1) muayyan hududda yuzaga kelgan, umuminsoniy mazmunga ega qadriyatlar, ma’naviy-ma’rifiy ne’matlar o‘zi shakllangan tarixiy makon doirasidan chiqib baynalmilallashib, universallashib bormoqda;

2) ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-madaniy rivojlanish darajasidagi turfa xillik, etnik, madaniy, konfessional, sinfiy, irqiy, hududiy, mintaqaviy yoki boshqa shakllardagi o‘ziga xosliklarni mutlaqlashtirish insoniyat istiqboliga jiddiy xavf tug‘diradigan salbiy hodisalarning mafkuralashgan holda globallashuviga olib kelmoqda.

Kishilik jamiyati taraqqiyotining hozirgi davrida “turli eski va yangi mafkuralarning o‘zaro kurashi har qachongidan ham ko‘ra shiddatli tus olmoqda. Rang-barang, ba’zan bir-biriga zid dunyoqarashlar, siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazhab va sektalar o‘rtasidagi fikr talashuvlari goho bahs-munozara doirasidan chiqib, qonli to‘qnashuvlar, ommaviy qirg‘inlarga sabab bo‘lmoqda. Odamlar boshiga behisob qayg‘u-kulfatlar solmoqda”[1]. SHuningdek, g‘oyaviy – mafkuraviy globallashuv saviyasi past, axloqsizlik, tubanlik va yovuzlikni targ‘ib qiladigan “san’at asarlari”ning keng tarqalishiga zamin yaratmoqda. YOshlar o‘zining harakatchanligi va yangilikka intiluvchanligi hamda bo‘sh vaqt resursiga egaligi tufayli yuksak kommunikativ faollik ko‘rsatishadi. Ularga xos bunday xususiyatlar salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Bu ularning “yumshoq erotika”dan tortib, “ochiq pornografiya”gacha, tajovuzkorlikdan tortib, ochiq vahshiylikkacha bo‘lgan hodisalarni o‘zida mujassam etayotgan, turli shakllar va “go‘zal” ko‘rinishlarda inson ongiga kuchli tazyiq o‘tkazilishi agressiv g‘oyaviy ta’sirga berilib ketish xavfining mavjudligi bilan belgilanadi. Albatta bu kabi holatlar milliy g‘oyaning taraqqiyot asosi bo‘lgan barkamol yuksak ma’naviyatli shaxslarni tarbiyalashda jiddiy salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. “Agarki bashariyat tarixini, uning tafakkur rivojini tadrijiy ravishda ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak, hayotda insonni kamolotga, yuksak marralarga chorlaydigan ezgu g‘oya va ta’limotlar bilan yovuz va zararli g‘oyalar o‘rtasida azaldan kurash mavjud bo‘lib kelganini va bu kurash bugun ham davom etayotganini ko‘ramiz”[2].

G‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi milliy g‘oyaning o‘ziga xos xususiyatlarini zaiflashuviga va yuksak taraqqiy etgan mamlakatlar hamjihatlikda shakllantirayotgan “ommaviy ma’naviyat”ga singib ketishini xavfini tug‘dirmoqda. Globallashuv garchand insoniyat intellektual salohiyati va fidoyi mehnatining mahsuli bo‘lsa-da, bugun uning ma’nan qashshoqlashuviga, milliy ma’naviyat rivojlanishining oldini olishga ojizlik qilyapti. Insoniyat o‘zi xohlamagan holda salbiy oqibatlar yuzaga kelishining yaratuvchisiga aylanmoqda[3]. Globallashuv jarayonida “mening millatim”, “mening xalqim”, “mening mamlakatim”, “mening vatanim” kabi tushunchalarga o‘rin qolmaydi, uning o‘rnini A.Toynbnning ta’biri bilan aytganda “umumiy uy”, “umumiy taqdir” va “umumiy tashvish” degan tushunchalar egallaydi va oqibatda har qanday millatni o‘zlikdan judo qilib, uni ommaviy podaga aylantirishi mumkin.

Hozirgi vaqtda mafkuraviy vositalar orqali o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar ham mavjud. Muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, siyosiy va konstitutsion tizimni zaiflashtirish va buzishga yo‘naltirilgan, fuqaro va jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi mafkuraviy tajovuzlar keskinlashmoqda. Bunday tajovuzga qo‘l urayotgan yovuz kuchlar o‘z jirkanch maqsadlariga erishish uchun har qanday usullardan, odamlarning diniy, milliy hissiyotlari, hayotda mavjud bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklardan, shuningdek, zamonaviy texnika, telekommunikatsiya vositalaridan ustalik bilan foydalanishga harakat qiladilar. “SHuni unutmaslik kerakki, bu masalaga alohida e’tibor qaratib, - bugungi kunda inson ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas bo‘lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon etkazishi mumkin”[5].

Axloqsizlik g‘oyalarini targ‘ib etishda mashhur bo‘lgan Farang yozuvchisi Markiz de Sad

mafkura orqali mamlakatlarni qaram qilish haqida shunday deydi: «Biz butun dunyoni egallamog‘imiz uchun bundan buyon katta muhorabalarda qatnashishimiz, jangi jadallar yuritib, dunyoning qariyib uzoq o‘lkalarida farang askari halok bo‘lishiyu, uning jasadi va etiklari chirib bitishi mutlaqo shart emas. Agar biz boshqa mamlakatlarga, xususan, SHarqqa axloqimizni (to‘g‘rirog‘i, axloqsizliklarni. CHunki Sad asarlari asosan axloqsizlikka yo‘naltirilgan) menikiday kitoblar va boshqa yo‘llar bilan tarqata olsak, uni o‘sha xalqlarning turmush tarziga aylantira bilsak, jumlai jahon oyog‘imiz ostiga yukinib keladi, butun odamzodning qalbiga egalik qilishga muvaffaq bo‘lamiz...» Axloqsiz g‘oyalarni targ‘ib etuvchi asarlar yozishda shuhrat qozongan Farang yozuvchisining yuqoridagi fikri tarixda o‘z isbotini topgan. O‘zbek yozuvchisi Pirimqul Qodirovning «Xumoyun va Akbar» asarini o‘qiganimizda, g‘oyalar va mafkuralar kurashining yorqin guvohi bo‘lamiz.

Akbarshoh zamonida insonparvar, erkin din e’tiqodi, umuminsoniy g‘oyalar bilan milliy buzg‘unchilik, diniy nizolar, parokandalik keltirib chiqaruvchi g‘oyalar o‘rtasidagi keskin kurashda farang josusi Albert Pereyroning Akbarning o‘g‘li Salimga farang tilini o‘rgatish, dengiz sayohati, dengizchilik haqida ilm o‘rgatish bahonasida o‘zining axloqsiz g‘oyalarini, ya’ni Salimga otasidan yashirincha ayollarning behayo suratlarini ko‘rsatib tarbiyasini buzish, otasiga dushman qilib tarbiyalash va nihoyat ota-bola o‘rtasida nifoq keltirib chiqarib, bu sulolaning ildiziga bolta urush g‘oyasini obdon singdirib bordi. Natijada Akbar olib borgan siyosatda, mamlakat taraqqiyotida, turli dinu-millatlarning totuvligiga erishishda ancha qiyinchiliklar tug‘ildi. Bu qiyinchiliklarni yuzaga keltirishda vayronkor g‘oya bilan ongi zaharlangan Akbarning o‘g‘li Salimning ta’siri katta bo‘ldi. Bundan ko‘rinib turibdiki, qurol-yarog‘ bilan emas, balki mafkuraviy ta’sir yo‘li bilan inson qalbini egallash va uning tafakkurini mute qilish mumkin ekan.

Bugungi dunyodagi g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlar milliy g‘oyaga o‘zining ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda, jumladan ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

I guruh ilg‘or g‘oyalarni tashkil etib, ularga tinchlik, barqarorlik va taraqqiyot, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik, inson erkinligi va shaxs kamoloti, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi kiradi.

II guruh reaksion g‘oyalarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ularga: urush, qurollanish, terrorizm va ekstremizm, irqchilik, millatchilik, diniy aqidaparastlik, totalitarizm, mustabidlik g‘oyasi asosidagi faoliyatlar, egoizm, mahalliychilik va tor manfaatlar ustuvorligidir.

XX asr sivilizatsiyasi dunyoni aql-idrok bilan zabt etish tamoyilini hozirgi zamon taraqqiyotining o‘ziga xos tendensiyasiga, geopolitik mavqelarga ega bo‘lishning ustuvor xususiyatiga aylantirdi. SHuning uchun ham bugun davlatlar qudrati, mamlakatlar salohiyati yadroviy poligonlar bilan emas, g‘oyaviy, mafkuraviy poligonlardagi salohiyat bilan o‘lchanadi. Hozirgi vaqtda qudratli davlatlar va muayyan siyosiy markazlar o‘z maqsadlariga erishish uchun, avvalo, zabt etmoqchi, o‘z ta’sir doirasiga olmoqchi bo‘lgan mamlakatlarning aholisi ongini o‘ziga qaram qilishga intiladi». Umuman, mafkuraviy globallashuv jarayonida turli usullar orqali olib boriladigan mafkuraviy targ‘ibot va tashviqotning asosiy maqsadi ham inson qalbi va ongini egallash uchun kurashdir. CHunki, har qanday g‘oya inson tomonidan qabul qilingandan keyin amaliy hayot dasturi maqomiga ega bo‘ladi, shaxsni muayyan maqsad sari harakatga keltiradi. SHuning uchun ham bugungi kunda mafkuraviy kurashning bosh maqsadi – shaxs ongini, qalbini egallashdir. Hozirgi zamondagi eng katta xavf ham insonlarning qalbini va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo‘layotgan kurashlar ko‘p narsani hal qilmoqda.

Jahon miqyosida kechayotgan murakkab jarayonlar, u yoki bu davlatda irqchilik, millatchilik, mutaassiblik ko‘rinishidagi jinoyatlarning ortib borayotgani, giyohvand moddalarini iste’mol qilayotgan yoshlar soni ko‘payayotgani, ma’naviyat va tarbiya masalalariga e’tiborsizlik har qanday davlat xavfsizligini, uning milliy ma’naviyati xavf ostiga qo‘yishi va oxir-oqibatda jamiyatni tanazzulga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. SHu o‘rinda ta’kidlash lozimki, globallashuv ijtimoiy-siyosiy hayotni yangicha tarzda mafkuraviylashtirish bilan xarakterlanib, hamma sohalarga “yangi ta’limot”ni, hayot tarzini

singdirishga urinish tarzida yuz bermoqda. “YAngi ta’limot” rolini esa G‘arb liberalizmi o‘ynamoqda. Kommunizm g‘oyasi an’analarini davom ettirgan mafkura ham xuddi shunday izchillik va qat’iyat bilan yangi modellar va echimlarni hayotga joriy etishga harakat qilmoqda. Zero, liberal “baynalminal kuchlar” ortida xuddi bir zamonlar kommunizm ortida turgandek muayyan davlat manfaatlari yotibdi.

Mafkuraviy jarayonlarning zamonaviy xususiyatlari millat taraqqiyotiga turlicha ta’sir ko‘rsatmoqda. Umuman, dunyodagi barcha davlatlarda ham g‘oyaviy-mafkuraviy muammolar mavjud. Har bir davlatning xalqaro siyosiy mavqei, millatning rivojlanish darajalari ana shu muammolarni hal etishga tayyorligi bilan belgilanadi.

G‘oyaviy – mafkuraviy jarayonlar globallashuvi insonlarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlari oshib borishini tezlashtirib, ularning an’anaviy mentalitetini o‘zgartirmoqda. Hozirgi zamonda globallashuv jarayonida insonlarning milliy mentalitetida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar shakllanib kelayotgan “ommaviy madaniyat”ning ta’sirida kechayotgani bois, ularda ijobiy jihatlar emas, balki individualizm, shuhratparastlik, qanday yo‘l bilan bo‘lsa ham boylik to‘plab, o‘zgalarni nizar pisand qilmaslik, ochko‘zlik, yovuzlik, o‘zaro begonalashuv kabi salbiy xususiyatlar rivojlanib bormoqda. Globallashuv jarayonini insonlardagi salbiy xususiyatlar yuzaga kelishining oldini olishga xizmat qiluvchi umuminsoniy ma’naviyatni shakllantirishga yo‘naltirish, bugungi sivilizatsiya oldida eng muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

O‘zbekistonda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurilishi, hozirgi davrda jahonda kechayotgan umumbashariy jarayonlardagi ishtirokiga va ularning g‘oyaviy-mafkuraviy asoslanishiga bog‘liqdir. SHunga ko‘ra, dunyodagi g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlar globallaashuvining mazmun-mohiyatini, ularning xalqimiz hayoti va taraqqiyotiga ta’sir xususiyatlarini tahlil qilish g‘oyat muhim ahamiyatga ega. Hozirgi davrda g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlar globallashib, er yuzidagi barcha mintaqa va mamlakatlarni qamrab olib, quyidagi xususiyatlarini namoyon qilmoqda:

Birinchidan, xalqaro miqyosda **integratsiyalashish** ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma’naviy hayotning barcha sohalarini qamrab olib, milliy chegaralarni shartli qilib qo‘ymoqda.

Ikkinchidan, xozirgi davrda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning **globallashish** xususiyati ob’ektiv jarayon bo‘lib, jamiyat hayotining hamma sohalariga istisnosiz ta’sir ko‘rsatishi bilan xarakterlanadi.

Uchinchidan, jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari milliy rivojlanishning modellarida **differetsiyalashish** jarayonlarini namoyon qilib, insoniyat taraqqiyotida umumiy qonuniyatlarni milliy darajada konkretlashtirmoqda.

To‘rtinchidan, xalqaro ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-madaniy munosabatlarning texnik-texnologik, intellektual asoslari, aloqa kommunikatsiya vositalari rivojlanishi natijasida g‘oyaviy-mafkuraviy munosabatlarning **intensivlashuvi** bilan xarakterlanadi.

Milliy taraqqiyotning ustuvor g‘oyalarini amalga oshirishda mamlakat tashqarisidagi va ichidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat ham muhim ahamiyatga ega. Zero har qanday mafkura jamiyatdagi ijtimoiy guruhning muayyan siyosiy manfaatlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi siyosiy ongi sifatida jamoatchilik fikri, xohish-istaklarini ifodalab, xalqning ruhiyatiga mos keladi hamda mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqaror taraqqiyotining ma’naviy asosi, kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Har bir davlat va jamiyat o‘ziga xos rivojlanish modellariga ega bo‘lib, ular bir-biridan shakli, mazmuni jihatdan farq qilsa ham, umumiy rivojlanish qonuniyatlarini istisno qilmaydi. YA’ni, bir tomondan, bunday umumiylik, insoniyatning ezgu maqsadlari doirasida uyushish, jipslashish manfaatlarini ifodalaydi. Ikkinchi tomondan, milliy taraqqiyotdagi o‘ziga xoslik muayyan davlatning siyosiy tuzimi, iqtisodiy hayoti, madaniy turmushi, g‘oyaviy-mafkuraviy muhiti ta’sirida shakllanadi.”Sodda qilib aytganda muayyan davlat va jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichi hayotning o‘zi o‘rtaga qo‘yayotgan shart va talablarning hisobga olinishini taqazo etadi. Aytish mumkinki, taraqqiyotning har bir bosqichi - bu yangi muammolar va ularni

bartaraf etish yo‘lidagi yangi vazifalar demakdir. Bu - hayot qonuniyati, biz uni inkor etolmaymiz va inkor etishga haqqimiz ham yo‘q”[6].

Xullas, davrlar o‘taveradi, zamonlar o‘zgaraveradi. Biroq xalq dunyoqarashi, millatning ma’naviy-ruhiy qiyofasi, mohiyat va mazmuni avloddan-avlodga ko‘chib, yangi bo‘yoqlar, yangi mo‘ljallar kasb etgan holda davom etaveradi. Bu boqiy va uzluksiz jarayon millat fenomeni sifatida fuqaro his-tuyg‘ulari, aqidalari va munosabatlarini, ruhiy olamini o‘zida ifoda etadi. G‘oyaviy –mafkuraviy jarayonlar globallashuvi davrida milliy istiqlol g‘oyasi xalq ma’naviyatini millat madaniy rivojidagi shu davomiylik, vorisiylik va uzviylikni inobatga olsagina, unga tayansagina, milliy ruhiyat va milliy kayfiyatni o‘zida mujassam etsagina yashovchan va ta’sirchan bo‘ladi. Milliy davlat masalalari jamiyat maqsadlariga, jamiyat belgilagan mo‘ljallar oddiy insonlar orzu-o‘ylariga aylangan holdagina ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ortga qaytmas xususiyat kasb etadi. Bu tendensiya esa jamiyat a’zolarining barchasini o‘z oyog‘ida o‘zi mustahkam turishiga, fikrlab yashashga, ongli idrok, tafakkur asosida hayot qurishga da’vat etadi.

## NATSIONALNAYA IDEYA V UZBEKISTANE

Pri splochenii predstaviteley razlichnых natsiy i narodnostey, projivayuщix v nashey rodnoy strane, vokrug velikix seley, veliko znachenie idei natsionalnoy nezavisimosti, kotoraya yavlyaetsya oporoy duxovno – sotsialnoy jizni obщestva.

Xotya v nauchnых literaturax idee natsionalnoy nezavisimosti dayotsya opredelenie kak «produkt natsionalnogo mыshleniya», eto ponyatie neposredstvenno kasaetsya ne tolko odnoy natsionalnosti, no i kasaetsya jizni kajdogo cheloveka, projivayuщego nashu svyaщennuyu stranu kak svoyu Rodinu, nezavisimo ot ego natsii, sotsialnogo avtoriteta i verы.

V knige nashego prezidenta Islam Karimova «Vыsokaya duxovnost – nepobedimaya sila» - ob etom govoritsya sleduyuщee: «Kogda mы govorim natsionalnaya ideya, mojno predstavit samыe zavetnыe mechtы i stremleniya, verы i nadejdы kajdoy natsionalnosti, ispokon vekov perexodyaщie iz pokoleniya v pokolenie, senyaщiesya v techenie mnogix vekov, prevrativshiesya v jiznennыe trebovaniya i duxovnыe potrebnosti».

V segodnyashnie dni provodyatsya bolshie intensivnыe po propagande natsionalnoy idei sredi shirokogo mnogosloynogo naseleniya. V etom dele otmechaetsya bolshaya zasluga intelligensii i predstaviteley otrasli. Osuщestvlenie natsionalnoy idei nezavisimosti vpryamuyu svyazano s razvitiem obrazovaniya na urovne sovremennых trebovaniy. Isxodya iz etogo v nashey strane stroyatsya i sdayutsya v rasporyajenie molodyoji novыe, so vsemi udobstvami shkolы, akademicheskie litsei, i professionalnыe kolledji. V etix uchebnых zavedeniyax vospitыvayutsya duxovno sovershennыe, predannыe traditsiyam predkov, vsegda gotovыe k prizыvam Rodinы xozyaystva buduщego.

Glavnaya sel idei natsionalnoy nezavisimosti – ukreplenie nezavisimosti, postroenie svobodnoy i protsvetayuщey Rodinы i svobodnoy, blagoustroennoy jizni. V osuщestvlenie takix blagix namereniy schitaetsya svyaщennыm dolgom kajdogo grajdanina.

## ISSUES OF FORMATION SPIRITUALITY OF YOUTH IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION

The modern world is developing very quickly. In modern times, all mankind is included in a single system of socio - economic, political and other relations globalization. It is necessary to underline, that globalization for today means wide scientific, scientifically – philosophical and vital concept. Following the standard opinion these processes define formation on the one hand, economic, socially – political, naturally – biological condition of absolutely new sense, on the other hand, processes of transformation of local and regional problems in world scale problems.

The process of globalization humanity has undergone a new threats, that is in a number of these threats, a special place is the ideological, psychological and information threats. President of Uzbekistan Islam Karimov, speaking of the "spiritual threat, indicates that above all, it is necessary in mind the ideological, ideal and informational threats that aim to impact on the spiritual world, regardless of their language, religion and faith, aimed against his freedom "[1]. Currently, these threats are made against many countries and Uzbekistan is no exception. Spiritual development and formation of the personality on the basis of active life position and creativity is one of the important problems of society. Formation of the spiritual education of the individual is one of the priorities in human life and society. Spirituality - a love of life, recognition of life, exaltation of life and young people come to it, filling the life of the true spirit of celebration, joy and genuine love. Modern youth has sufficient maturity to understand the need for the spiritual life. She lives on top of the material prosperity and comfort. All yearn for a sense of serenity, tranquility, inner peace and true love. In every human heart there is a desire for truth and love, and spirituality can open the door, which was closed, many, many years. You find comfort, you get strength and gain the ability to live effectively.

The problem of youth spirituality - is not only the definition of high-level human exploration of their world, relationship to nature, to society, to other people, to yourself. This is the answer to many vital questions: Who am I, what I came into this world, what is my place in it, what is the meaning of my life based on what values should I choose their way of life, to define the purpose and meaning of their activities to choose means to achieve them and evaluate their results.

The crisis experienced by our country, caused to some extent the loss of humanistic moral values, moral subordination of political and ideological interests. It is becoming increasingly evident that alone socio-economic, political and legal reforms to overcome it is not enough. It is necessary to form a new outlook. And religion has considerably weakened their influence, bringing its moral requirements absolutely, that no one should be. The spiritual condition of our youth today is very fallen. There are no important moral principles, there was a lot of perverted youth cultural trends that attract pupils, students and lead them to the degradation of the mental, intellectual and spiritual! Along with such qualities as resourcefulness, creativity, efficiency, speed, life optimism is closely coexist rudeness, indifference, laziness, self-confidence.

Nevertheless, modern technology is still considered as a threat to health. Here we must remember about the expression "dosage". A lot of people aged 10 to 20 years suffer from a real addiction various phones, computers and gadgets. Today, one in five adolescents have such a thing as a game console and one way or another, he dreams about her. And if even some 15 years ago, enthusiasm 5-6-7-graders were of outdoor games and sports races, now it is "throwing out the games", "exchange melodies", a collection of "cool spots" and so on. If you do not take the problem of poor vision, you can see that being overweight is now affect more people than ever before, but try as much as possible to introduce the sport in the lives of everyone. Which, incidentally, it is also cultivated not without bad habits. Yes, that is now to bury the game and spend the entire holiday so much more fun than run outside, play football or just to stroll. Of course, older people more easily disown the fact that "Ah, youth, do not tell them anything ..." That is, in principle, if you are fashionably dressed, you have free money, you understand music and know how to relax, then you are the best a real man of the younger generation [1]. It should be noted that music and fashion will change the thinking of young people. Some young people began to wear ripped jeans and suits worn by the arm, who stitched lining, considering it fashionable. Clothing homeless becomes fashionable among the young? Teens (boys and girls) start smoking a cigarette, cigarette. Ministry of Health warning that "smoking is harmful to health" do not care about the young, because smoking has become fashionable, they are no longer children, but grown up. So it begs the question, who produces, promotes and implements all of the devices and technologies? Accordingly, we have a weaker generation, which at the right time and to protect the homeland is unlikely to.

Television, radio and the press, however, is gradually receding into the background, giving way to a more powerful opponent. World Wide Web, Internet, mess - it's the name of the same "assembly" of information. After all, one of Wikipedia and social networking is not limited to the Internet. By and large, the Internet can find everything and not always useful. And no matter how much the government of any country not beat the same, say, pornography, it is full. It is flooding the lion's share of seats and is accessible to everyone. And if you look at the younger generation, they probably know what a "sadistic" than the details of the Great Patriotic War. Of course, the Internet has its advantages, but disadvantages much more. Of special note is the social network. On the one hand, social networks - it's cool. Really, really nice to meet friends that you've forgotten, correspond with classmates and former classmate. People spend hours of their time communicating in another social sphere, and not be easier to go out and talk to live there? Sensations because a lot more will. It is safe to say that all social networks just taken the life of people. It looks like a drug, right? Very often you can find a variety of photos, pictures or obscene inscription in ordinary social sphere, despite the fact that there is already a registered children from 7 years. And those same administrators and moderators are silent until the scandal just will not rise and unfit group or remove would remove obscene materials. Child 7-10 years old did not think to create a platitude, because the brain works differently, it is not yet izgazhen. That figure as senior care for the younger ones.

Shame on you, madly ashamed, gentlemen, that it is the older generation, and was thus "tolerate" a factor for young people. No, nobody says that if the grandmother looked no color television, means and grandchildren have to do the same, but everything is good in moderation. Not for nothing do they say that between poison and medicine only difference in dosage. However, it is the older generation gives way to all that absorbs a new generation. Although with all of this, young people are more educated and sensitive to the feelings of elders.

Today's young people need a wider view of life and strengthening the roots in their culture, traditions, national values. Strengthening the roots gives a sense of responsibility and ownership, and greater understanding of life gives a feeling of relaxation. Big problem for the young are complex: they are worried that they will think about. Another problem - the tendency of the mind to hold on to the poor, and not for good; All this increases the tension in them and in the community. To get rid of this, they have to take responsibility and to clear the mind. All spiritual practices and ceremonies of man to lead a more fulfilled and happy life full of love and care, and that is exactly what you need young. Looking at their lives, they need to see it in a broader context and not to look at short-term gains. Along with this, they must be a shift from "What am I going to have" to "What can I give"; the ability of the competition to give. This will happen only if they pay attention to the four sources of energy:

- proper nutrition;
- proper rest;
- proper breathing;
- a few minutes of quiet, meditative state of mind.

Young people complain about the distraction. What you need to focus on? We need you to focus on the subject of love? Concentration is needed in order that you do not like. So just like everything you do! It is only when we transcend the level of thinking, calms, soothes the mind, we reach the wealth that we ourselves are! Young people must understand that she has a huge potential and the power to achieve anything they want. This is possible if they can stay in silence alone. Unfortunately, spirituality is exposed as something very serious.

Youth is always striving for success. However, the parameters of success are variable. A couple of decades ago, it was considered that a sign of success - is to wear a lot of jewelry. Today, it is not. I evaluate the success of your smile. I believe that today, a sign of success - is not descended from the face smile, confidence in life and a sense of belonging to all around. That is what our young people should seek to develop in your life a sense of confidence, not vulnerability.

These human needs - a love for man, friendship, moral and psychological support, attention to each other, compassion, empathy, sharing of ideas, co-creation, and these feelings depend only on man's inner world, it is their master, and no luck. Today, young people need development, not development to the toys, and the development of his personal and moral qualities. Read books or listen to them well, they bring a lot of inspiration.

## CASE STUDY

### I. KEYS: Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoillar fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

**O‘quv predmeti*:*** Milliy g‘oya.

**Muammoli vaziyatni echishga qaratilgan amaliy mashg‘ulotning mavzusi:** Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoillari fanining predmeti milliy g‘oyaning shakllanishi, keng jamoatchilikning ishonchi va e’tiqodiga aylanishi

**“Keys stadi”ning asosiy maqsadi:**

O‘zbekistonning dunyo hamjamiyatida o‘ziga xos nufuzga ega bo‘lishi uchun imkon yaratadigan xalqni, millatni jipslashtirib turadigan maqsadlar, manfaatlar majmuidir. Milliy istiqlol g‘oyasini o‘rganishning O‘zbekistonda erkin, demokratik va fuqarolik jamiyatini barpo etish-xalqining tub manfaatlari, asriy – umidlari, ezgu niyatlari, buyuk maqsadlarini ifoda etib, xalqning o‘z maqsad muddaolariga erishish uchun ma’naviy – ruhiy kuch – quvvat ekanligini ko‘rsatib berish hamda yoshlarni milliylik ruhida tarbiyalash.

**O‘quv faoliyatidan kutiladigan natijalar:**

- milliy g‘oyani xalqimiz qalbi va ongiga singdirish uslub va vositalarini ko‘rsatib berish;
- yoshlarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash zaruatining oshib borish sabablarini sanab berish;
- g‘oyaviy tarbiyaning mohiyati va maqsadini yoritib berish;
- muammoli vazifalarni echishda nazariy bilimlarini qo‘llash;
- muammoni aniqlab, uni hal qilishda echim topish.

**Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun oldindan talabalar quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmoqlari zarur:**

*Talaba bilishi kerak:*

Milliy istiqlol g‘oyasini o‘rganishning asosiy qonuniyatlari. Jamiyat rivojining g‘oyalar va mafkuralar bilan bog‘liqligi. Inson va jamiyatning o‘z maqsadi na taraqqiyot yo‘lining mavjudligi. Globallashuv jarayonining milliy g‘oyada aks etishi. Inson ongi na qalbi uchun kurash. Jamiyatda g‘oyaviy bo‘shliqning bo‘lmasligi. Milliy g‘oya har bir xalqning o‘zligini saqlab qolish va o‘ziga xos rivojlanish ehtiyoji hamda kafolati ekanligi.Milliy istiqlol g‘oyasini o‘rganishning O‘zbekistonda erkin, demokratik va fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi ahamiyati.

*Talaba amalga oshirishi kerak:*

- mavzuni mustaqil o‘rganadi;
- muammoning mohiyatini aniqlashtiradi;
- g‘oyalarni ilgari suradi;
- ma’lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqib, mustaqil qaror qabul qilishni o‘rganadi;
- o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lib, mantiqiy xulosa chiqaradi;
- o‘quv ma’lumotlar bilan mustaqil ishlaydi;
- ma’lumotlarni taqqoslaydi, tahlil qiladi va umumlashtiradi;

*Talaba ega bo‘lmog‘i kerak:*

- kommunikativ ko‘nikmalarga;
- taqdimot ko‘nikmalariga;
- hamkorlikdagi ishlar ko‘nikmalariga;
- muammoli holatlar tahlil qilish ko‘nikmalariga.

**Manbalardan foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz». ». –T., «O‘zbekiston», 2000.
2. Saifnazarov I. Ma’naviy barkamollik va siyosiy madaniyat. T.: «SHarq», 2001. 160-bet.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo‘yicha ta’lim dasturlarini yaratish va respublika ta’lim tizimiga joriy etish to‘g‘risida Farmoyishi. 2001 yil 18 yanvar. «Xalq so‘zi».
4. www.gov.uz.
5. www.press-service.uz.
6. www.bilim.uz.
7. www.philosophy.ru.
8. www.filosofiya.ru.
9. www.philosophy.nsc.ru.
10. http // philosophy.albertina.ru.
11. www.history.ru.
12. www.philosophy.com.

**Texnologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda keysning tavsifnomasi:**

Ushbu keysning asosiy manbai kabinetli, lavhasiz bo‘lib, vaziyat davriy ketma – ketlikda o‘tmishdan bugungi kun tartibida bayon etilgan. Keysning asosiy ob’ekti shaxsga yo‘naltirilgandir. Bu tashkiliy institutsional keys bo‘lib, ma’lumotlar vaziyatlar va savollar asosida tuzilgan. Hajmi o‘rtacha, tizimlashtirilgan bo‘lib, treningga mo‘ljallangan o‘quv mavzu bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar hosil qilishga qaratilgan. Didaktik maqsadlarga ko‘ra keys muammolarni taqdim qilishga, ularni hal etishga, tahlil qilish va baholashga qaratilgan.

Ushbu keysdan “Milliy g‘oya”, «Milliy g’oya:asosiy tushuncha va tamoyillar»va “Ma’naviyat asoslari ” fanlarida foydalanish mumkin.

## K I R I SH

Milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tushunchalari: «g‘oya», «mafkura», «milliy g‘oya», «milliy istiqlol g‘oyasi», «milliy istiklol g‘oyasining ma’naviy negizlari», «milliy rivojlanish g‘oyasi», «milliy istiqlol mafkurasi», «milliy istiqlol g‘oyasining bosh g‘oyasi», «milliy istiqlol g‘oyasining asosiy g‘oyalari», «Vatan ravnaqi», «yurt tinchligi», «xalq farovonligi», «millatlararo totuvlik», «diniy bag‘ri kenglik», «ijtimoiy hamkorlik», «komil insonning shakllanishiga ko‘maklashish» va b. Ularning o‘ziga xos xususiyatlarining O‘zbekiston xalqi ijtimoiy hayot sohalari, milliy-madaniy merosi, urf-odatlari, qadriyatlari, tili, madaniyati, tarixi, ruhiyati negizlari bilan boglikligi va o‘zaro mushtarakligi. Milliy istiqlol g‘oyasiiing «sinfiylik», «partiyaviylik» tamoyillaridan begonaligi.

Talabalarga bilim berishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarining ahamiyati to‘g‘risida so‘z borganda Prezidentimiz I.A.Karimovning “O‘quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, bolalarimizni komil insonlar etib tarbiyalashda jonbozlik ko‘rsatadigan o‘qituvchi va domlalarga e’tiborimizni yanada oshirish, qisqacha aytganda, ta’lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko‘tarish diqqatimiz markazida bo‘lishi darkor”[52] degan so‘zlarini ta’kidlash o‘rinlidir. Bu masala “Barkamol avlod yili” Davlat dasturida ham asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilgan. Hozirgi kunda jahon tajribasidan ko‘rinib turibdiki, ta’lim jarayoniga o‘qitishning yangi, zamonaviy usul va vositlari kirib kelmoqda va samarali foydalanilmoqda.

**Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoillar fanining predmeti, maqsadi va vazifalari**

[52] Ўзбекистон Конституцияси – биз учун демократик тараққиёт йўлида ва фуқаролик жамиятини барпо этишда мустаҳкам пойдеводир. – Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 17 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси // Халқ сўзи, 2009 йил 6 декабрь.

## 1.Milliy g‘oya: Inson va jamiyat taraqqiyotida g‘oya va mafkuralarning o‘zaro, munosabati

Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoillarifanining predmeti. Ob’ekti. Inson va jamiyat taraqqiyotida g‘oya va mafkuralarning o‘zaro, munosabati. Mustaqil O‘zbekistonda Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoillarishakllanishining ilmiy-nazariy va tarixiy asoslari. Uning xalq ishonchi va e’tiqodiga aylanishi. Milliy rivojlanish va Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoillaribilan boglik, qonuniyatlarninng o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish zaruriyati.

Milliy istiklol g‘oyasining maqsadi va vazifasi. YOshlarda milliy g‘oyaga ishonch va e’tiqodni singdirish. Milliy-ma’naviy meros va umumbashariy qadriyatlarga tayangan holda milliy g‘urur, vatanparvarlik, millatparvarlik fazilatlarini shakllantirish. Ularni ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishga yo‘naltirish.

## 2. Goya va mafkuralarning inson va jamiyat oldiga qo‘ygan maqsadlar bilan mushtarakligi

Milliy istiqlol g‘oyasini o‘rganishning asosiy qonuniyatlari. Jamiyat rivojining g‘oyalar va mafkuralar bilan bog‘liqligi. Inson va jamiyatning o‘z maqsadi na taraqqiyot yo‘lining mavjudligi. Globallashuv jarayonining milliy g‘oyada aks etishi. Inson ongi na qalbi uchun kurash. Jamiyatda g‘oyaviy bo‘shliqning bo‘lmasligi. Milliy g‘oya har bir xalqning o‘zligini saqlab qolish va o‘ziga xos rivojlanish ehtiyoji hamda kafolati ekanligi.

Milliy istiqlol g‘oyasini o‘rganishning O‘zbekistonda erkin, demokratik va fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi ahamiyati.

Jamiyat taraqqiyotining muayyan fikrlar, g‘oyalar, mafkuralar bilan bog‘liqligi. Jamiyatning mafkurasiz bo‘lmasligi. Foya va mafkuralarning inson va jamiyat oldiga qo‘ygan maqsadlar bilan mushtarakligi. «Foya» va «mafkura»ning «yagona hukmron mafkura» tushunchasidan farqi. «Mafkura bo‘lmasa har qaysi davlat va jamiyat, qolaversa, har qaysi inson o‘z yo‘lini yo‘qotishi muqarrar»ligi, jamiyatda mafkuraviy bo‘shliqqa yo‘l qo‘yib bo‘lmaslik to‘g‘risida yangicha konsepsiyaning ishlab chiqilishi (I.A.Karimov).

Inson va jamiyat hayotida g‘oyalar, fikrlar xilma-xilligi. Uning tabiiy, ijtimoiy-ma’naviy ehtiyoj ekailigi. Ikkita insonnipg aynan bir xilda fikrlamasligi to‘g‘risida (Aristotel). Davlatlar, mamlakatlar, xalqlarning o‘z oldilariga quygan maqsadlari. Har bir xalq va millatning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li va madaniyatlari bilan farqlanishi.

**3. Foya va mafkuralarning inson va jamiyat hayotiga ta’siri.**

Foya va mafkuralarning inson va jamiyat hayotiga ta’siri. Jamiyat mafkurasining xalqni-xalq, millatni-millat etishdagi urni. Foya va mafkura —turli jamiyatlarning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘liga tayangan holda uzluksiz rivojlanish omili.

Jamiyat va sivilizatsiyalar rivojiga ulkan ta’sir ko‘rsatgan g‘oyalar va mafkuralar. Ularning turli xilligi. Bunyodkor va vayronkor g‘oyalar. Bunyodkor g‘oyalarning tarixiy-falsafiy ildizlari. Zardusht, Siddxarti Gautama, Sokrat, Platon, Konfutsiy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alishsr Navoiy, Zahiriddii Muhammad Bobur, Mahatma Gandi va boshqalarning bunyodkor g‘oyalari.

Vayronkor g‘oya va mafkuralarning jamiyat hayotiga salbiy ta’siri. Diniy aqidaparastlik, fashizm, bolshevizm, buyuk davlatchilik shovinizmi, tajovuzkor millatchilik, irqchilik, terrorizm va boshq. YAgona hukmron mafkuraning cheklanganligi, g‘ayriinsoniyligi, uning fikr erkinligi, g‘oyalar va mafkuralar xilma-xilligiga zidligi. Unipg jamiyat taraqqiyotiga zararli ta’sirlari va oqibatlari. Dunyoviylik dahriylik emasligi to‘g‘risida (I.Karimov).

«Fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish» tamoyilining turli xalqlar va jamiyatlar taraqqiyotidagi ahamiyati.